9. Feynman, R. P., Leighton, R. B., & Sands, M. (2011). The Feynman Lectures on Physics. Addison-Wesley. Fizikaning asosiy tamoyillarini tushuntirishga bag'ishlangan mosh hur asar.
10. Shen, Y. R. (2017). The Principles of Nonlinear Optics. Wiley-Interscience. Optik jarayonlar, xususan, nurni sinish va qaytarish kabi jarayonlarni kimyoviy texnologiyadagi qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar.
11. Rogers, T. E., & Stinchcombe, R. B. (2006). The Physics of Complex Systems. Oxford University Press. Murakkab tizimlarning fizikasi va ularni kimyoviy texnologiyada qo'llash imkoniyatlarini tahlil qiluvchi asar.
12. Atkins, P., & de Paula, J. (2014). Physical Chemistry (10th ed.). Oxford University Press.
13. Zhang, Y., & Lee, C. (2018). Electrochemical reduction of CO₂ and its implications in energy conversion technologies. *Nature Materials*, 17(3), 235-242.
14. McQuarrie, D. A., & Simon, J. D. (2011). Physical Chemistry: A Molecular Approach. University Science Books.
15. Ghosh, A., & Liao, C. (2019). Thermodynamics of molecular interactions in nanomaterials: A review. *Journal of Nanoscience and Nanotechnology*, 19(6), 3038-3052.
16. Hecht, E. (2016). Optics (5th ed.). Pearson Education

Mo'minov Feruzjon Ilxomovich,
Buxoro davlat universiteti, Jismoniy tarbiya va sport fakulteti
Sport faoliyati kafedrasida o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

12-13 YOSHLI FUTBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIK DAVRINI REJALASHTIRISH MODELI

Annotatsiya. Maqolada yosh futbolchilar bilan olib boriladigan sport tayyorgarlik jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish, ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida qurilmaviy, modulli rejalashtirishning zamonaviy yondashuvlari ko'rsatib o'tilgan. Mosh g'ulot jarayonlarini tashkil etish bosqichlarga bo'lib tayyorlov jarayonlarini tashkil etish, yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik modulli orqali yillik siklni rejalashtirish va shunga asosan jismoniy sifatlarni takomillashtirib borish jarayoni davom etish ko'zda tutilgan. Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik modulli rejalashtirish jarayoni yosh futbolchilar yoshiga qarab jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnik va taktik harakatlarga o'rgatishni to'g'ri yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Tayanch so'zlar: sport tayyorgarlik, mosh g'ulot jarayoni, mosh g'ulot jarayoni bosqichlari, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik.

Annotation. The article shows modern approaches to the planning and management of sports preparatory processes carried out with young players, structural, modular planning at many years of preparatory stages. The organization of training processes is provided for the organization of preparatory processes in stages, the planning of the annual cycle through the physical training module of young players and, accordingly, the process of evolutionizing physical qualities. The modular planning process of physical fitness of young players is intended to develop physical qualities depending on the age of young players, to correctly establish training in technical and tactical actions.

Key words: Sports preparation, training process, functional training, physical training, training process stages, cycle device of training processes, round of training, competition period, transition period.

Аннотация. В статье показаны современные подходы к планированию и управлению процессами спортивной подготовки с юными игроками, устройству, модульному планированию на этапах многолетней подготовки. Организация тренировочных процессов предусматривает поэтапную организацию подготовительных процессов, планирование годового цикла по модулю физической подготовки юных футболистов и, соответственно, продолжение процесса совершенствования физических качеств. Физическая подготовка юных футболистов модульный процесс планирования предусматривает развитие физических качеств юных футболистов в соответствии с их возрастом, правильную организацию обучения технико-тактическим действиям.

Ключевые слова: Спортивная подготовка, тренировочный процесс, этапы тренировочного процесса, общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка, быстрота, сила, выносливость.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda iste'dodli yoshlarni saralash, sport turlariga yo'naltirish jarayoni zamonaviy sport oldida turgan ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Sport sohasidagi yetakchi olim va mutaxassislar iste'dodli yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va harakat qobiliyati samaradorligining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda moshg'ulot o'tkazish lozimligini ta'kidlaydi. Sportga jismoniy tayyorgarligiga layoqatli yosh sportchilarni tayyorlashga asoslangan uslublari, ularning kelajakdagi yutuqlarini hamda sportdagi istiqbolini bashorat qilish ko'p yillik tayyorgarlik tizimlari ajralmas qismiga aylanmoqda. Oqilona foydalangan holda sportga

yo'naltirish tizimi, jismoniy sifatlar va tabiatan iqtidorlarni izlab topish rivojlangan davlatlar futbolining asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylanib bormoqda.

Jahonda yetuk mutaxassislar tomonidan futbol sport turida malaka mezonlari va yo'nalishlariga qaratilgan sportchilarni jismoniy tayyorgarligi, ampuasi bo'yicha yo'naltirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Futbol sport turida aksariyat tadqiqotchilar tomonidan sportchining genetikasi va jismoniy ish qobiliyati hamda, o'yinchilar joylashuvidan kelib chiqib, o'yinchining mavjud holati o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ko'rsatkichlarini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yosh futbolchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish mazmunining yetarli darajada ishlab chiqilishiga qaramay, futbol sport turida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga jismoniy sifatlarni rivojlantirish va loyihalashtirish masalalari yuzasidan ko'plab hal etilmagan muammolar mavjudligicha qolmoqda. Yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va harakat qobiliyatlarini obyektiv baholashga qaratilgan yangi test me'yorlarini ishlab chiqish, pedagogik, tibbiy-biologik va sosiologik uslublardan foydalangan holda kompleks tadqiqotlar asosida iqtidorli yosh futbolchilarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish metodikasini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda o'sib kelayotgan yosh avlodga futbol sport turi bilan shug'ullanishga juda katta e'tibor qaratilgan bo'lib ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Futbolga iqtidorli bolalarni jismoniy tayyorgarligi bo'yicha keng qamrovli, ilmiy-uslubiy ishlar to'raligicha o'rganilmaganligi, bundan tashqari futbolga bolalarni jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini baholash, ushbu ko'rsatkichlar yuzasidan doimiy monitoring ko'rsatkichlarining qayta tahlil etilmasligi futbolga xos qobiliyatlarni aniqlovchi ishonchli, informativ testlarni aniqlash va pedagogik loyihasini ishlab chiqib amaliyotga joriy qilish talabini qo'ymoqda. Shuningdek, yosh futbolchilarning individual imkoniyatlarini boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida asosiy vosita sifatida ularni bosqichma-bosqich jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari qanday darajada ekanligini aniqlash, iqtidorli futbolchilar bilan shug'ullanish uchun samarali loyihalash asosida mosh g'ulotlarni tashkil etishning asosiy bosqichlari bo'yicha ilmiy va amaliy tajribalarga asoslangan tadqiqot ishlarini amalga oshirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 4-dekabrda PF-5887-son "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi 118-son "2019-2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy Yoshlar siyosati va sport konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ilmiy-metodik ishlanmalarni yaratish kabi muhim vazifalarga ustuvor etib belgilangan.

Maqolaning maqsadi. pedagogik loyihalash asosida yosh futbolchilarning tayyorgarlik davrida jismoniy tayyorgarlik mosh g'ulot modelini yaratish.

Materiallar va uslublar. Sport nazariyasi va amaliyotida ko'p yillik mosh g'ulot jarayoni bir nechta bosqichlarda tashkil topgan bo'lib, ular ma'lum darajali bog'liqlik va ketma-ketlikka ega:

- dastlabki sport tayyorgarligi;
- dastlabki ixtisoslashuv;
- chuqurlashtirilgan tayyorgarlik;
- sport takomillashuvi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: V.S.Fomin (1985), G.L.Drandrov, V.A.Salnikov (1986), M.M.Shestakov (1995) olimlarning nazariy tahlillariga ko'ra, zamonaviy o'quv-mosh g'ulot jarayonlarini modellashtirish hodisasi, ko'p yillik sport tayyorgarlik tizimini takomillashtirishning metodologik asosi hisoblanadi. Bu ma'noda, organizmni sport tayyorgarlik faoliyatiga adaptatsiyasi jarayonini individual modellashtirish eng istiqbolli hisoblanadi.

Tajribalarda olingan ma'lumotlar, mosh g'ulot yuklamalarini hajmi va shiddatini rejalashtirishdagi standart yondashuv futbolchilarning mosh g'ulot jarayonini optimallashtirishga ko'maklashmasligi to'g'risida dalolat beradi. Buning uchun, murabbiyning har bir sportchi to'g'risida zamonaviy axborot bilan ta'minlash zarur. Ushbu jihatdan, o'quv-mosh g'ulot ta'sirlarini tizimli-pedagogik loyihalash - futbolchilar jismoniy tayyorgarligini oshirish jarayonini boshqarishni ta'minlay oladigan va real shart-sharoitlarga moslashuvchan instrument hisoblanadi.

Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik modeli. Biz, ushbu tamoyilni yosh futbolchilarni dastlabki ixtisoslashuv bosqichida jismoniy tayyorgarlik jarayonini tizimli-pedagogik loyiha modeli amalida qo'llanildi. Sport tayyorgarlikning mikro va mezasikllarda tashkil etiladigan o'quv-mosh g'ulot jarayonlarining pedagogik loyiha modeli, ikki bosqichli bir qator ketma-ket amallarni nazarda tutuvchi texnologik qurilmadan iborat:

Birinchi bosqich:

1. Tayyorgarlik bosqichi doirasida mezosikl, bir kunlik o'quv-mosh g'ulotlaridan tashkil topgan mikrosikllarda yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik strukturasining yetakchi komponentlarni belgilash.

2. Jismoniy tayyorgarlikning ustuvor tomonlari bo'yicha aniqlangan maqsadli ko'rsatmalarni futbolchilar yoshiga va jismoniy sifatlar rivojlanishining sensitiv bosqichlariga mos ravishda korreksiya qilish.

3. Maqsadli ko'rsatmani futbolchilarning o'yin amplusiga mos ravishda korreksiya qilish.

Ikkinchi bosqich:

1. Dastlabki ixtisoslashuv bosqichida tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlari vazifalarni belgilash.

2. Tortuvchi, tayanch, nazoratli va tayyorgarlik, yo'naltiruvchi mikrosikllarni aniqlash va shakllantirish.

3. Mikrosikllarni jismoniy tayyorgarlik strukturasining ustuvor maqsadlariga yo'naltirilgan o'quv-mosh g'ulotlaridan shakllantirish.

Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik metodikasini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik loyiha modelining qurilmaviy birligi sifatida, tayyorgarlik davrining o'quv-mosh g'ulotlari tarkibi quyidagicha belgilandi:

1. Bir kunlik o'quv-mosh g'ulotlari, yoki ish kuni, kuniga bitta yoki ikkita mosh g'ulot.

2. Mikrosikl, haftalik o'quv-mosh g'ulot kunlari - oraliq vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan davomiyligi 3-7 kun.

3. Mezosikl - davomiyligi 2-4 hafta (2-4 ta mikrosikl) bo'lgan, dastlabki ixtisoslashuv bosqichining ma'lum bir tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlari oldida turgan vazifalarni xal qiluvchi mosh g'ulot jarayonini bir qismi [13].

Sport tayyorgarlik jarayonlarining qurilmaviy tayanch birligi sifatida, biz, xilma xil jismoniy tayyorgarlik mosh qlardan ma'lum bir vazifaga mos tarzda shakllantiriladigan bir kunlik o'quv-mosh g'ulotlari (mosh g'ulot kuni) belgilandi. Bu, asosiy mosh qlar bankini mavjudligini nazarda tutadi.

Mosh qlar bankini va ma'lum yo'nalganlikka ega bo'lgan, uni tarkibiy qismi bo'lgan vositalari majmuasini shakllantirish paytida adabiyotlarda keltirilgan materiallardan keng foydalanildi [14; 15;].

Tayyorgarlik davrida o'quv-mosh g'ulotlar vazifasi sifatida, jismoniy va funksional tayyorgarlik jarayonlari, hamda qayta tiklanish mikrosikllari ta'sirlarini tadqiq qilish rejalashtirildi.

Shuni aytish joizki, mazkur texnologiya ko'p yillik mosh g'ulotning deyarli barcha bosqichlarida va mosh g'ulotning yillik siklini har xil davrlarida qo'llanilishi mumkin. Ushbu vaziyatda o'zgaruvchi holatlar quyidagilar bo'ladi:

- tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlari maqsadli vazifalari;
- mosh g'ulot ta'sirlarining yetakchi komponentlari bo'yicha mosh q vositalari;
- individual va yoshga bog'liq xususiyatlar va o'yin ixtisosligi.

Yosh futbolchilarni jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish modeli

Yosh futbolchilar jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasini takomillashtirishning loyihaviy modeli

Ustivorligi har xil bo'lgan mosh g'ulot yo'nalishlari <i>1.Umumiy (aerobli) chidamlilikni rivojlantirish (UCh)</i> <i>2.Kuchni rivojlantirish (K)</i> <i>3.Tezkor-kuchlanish sifatlarni rivojlantirish (TK)</i> <i>4.Maxsus (tezkor) chidamlilikni rivojlantirish (MTCh)</i> <i>5.Tezlik va tezkorlik imkoniyatlarini rivojlantirish (TTI)</i> <i>6.Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish (JSM)</i> <i>7.Nazorat o'yinlari (NO')</i> <i>8.Jismoniy tayyorgarlikni testlash (JTT)</i>	Bir kunlik o'quv-trenirovka mosh g'ulotlarining metodik qurilmasi (Umumiy (aerob) chidamlilikni rivojlantirish misolida) <i>1.Bir kunlik o'quv-trenirovka mosh g'ulot qisqartmalari va raqamlari</i> <i>2.Mosh g'ulot vositalari</i> <i>3.Mosh g'ulot yuklamasining hajmi</i> <i>4.Mosh g'ulot yuklamasi ta'sirida organizmning funksional ko'rsatkichlari diapazoni YuQCh (zarba/min)</i>	Turli ustuvorlikka ega haftalik mosh g'ulotlarning ta'sir yo'nalishlari <i>1.Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida umumiy (aerob) chidamlilikni rivojlantirish haftaligi (UTE-UCh)</i> <i>2.Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida kuch tayyorgarligini rivojlantirish haftaligi (UTE-K)</i> <i>3.Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish haftaligi (UTE-JSM)</i> <i>4.Tayyorgarlik davrining maxsus-tayyorgarlik etapida tezkor chidamlilikni rivojlantirish haftaligi (MTE-MTCh)</i> <i>5.Tayyorgarlik davrining maxsus-tayyorgarlik etapida tezkor-kuch imkoniyatlarini rivojlantirish haftaligi (MTE-TK)</i> <i>6.Tayyorgarlik davrining maxsus-tayyorgarlik etapida jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish haftaligi (MTE-JSM)</i>
--	---	---

Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida ustuvor yo'nalishli haftalik mosh g'ulotlarning ta'sir imkoniyatlari (UTE-UCh) <i>1.Yurak-tomir va nafas tizimlarining funksional</i>	Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida ustuvor yo'nalishli haftalik mosh g'ulotlarning ta'sir imkoniyatlari (UTE-K)	Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida ustuvor yo'nalishli haftalik mosh g'ulotlarning ta'sir imkoniyatlari (UTE-JSM)
--	--	--

<i>imkoniyatlarini oshirish, aerob imkoniyatlarni oshirish, umumiy chidamlilikni rivojlantirish (UCh-1)</i> <i>2.Aerob mahsuldorlikni oshirish, umumiy chidamlilikni rivojlantirish, kuch imkoniyatlarni oshirish (UCh-2)</i> <i>3.Umumiy chidamlilikni rivojlantirish, kuch imkoniyatlarni oshirish (K-1)</i> <i>4.Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish. Nazorat o'yini (NO')</i>	<i>1.Aerob mahsuldorlikni oshirish, umumiy chidamlilikni rivojlantirish, kuch imkoniyatlarni oshirish (OV-3)</i> <i>2.Kuch imkoniyatlarni oshirish, tezkor-kuch sifatlarni rivojlantirish (SL-2)</i> <i>3.Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish (KS-1)</i> <i>4.Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish. Nazorat o'yini (KI)</i>	<i>1.Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish (JSM-2)</i> <i>2.Umumiy chidamlilikni rivojlantirish, kuch imkoniyatlarni oshirish (JSM-3)</i> <i>3.Kuch imkoniyatlarni oshirish, tezkor-chidamlilikni rivojlantirish. Jismoniy tayyorgarlikni testlash (JSM-1, JTT-1)</i> <i>4.Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish. Nazorat o'yini (NO')</i>
--	--	--

Tayyorgarlik davrining maxsus tayyorgarlik etapida o'yin amplitudasi muvofiq ustuvor yo'nalishli mosh g'ulotlarning ta'sir imkoniyatlari (MTE-MTCh), (UTE-TK), (UTE-JSM)

Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida mezatsikl mosh g'ulotlarining ta'sir imkoniyatlari bo'yicha metodik qurilma <i>1.Organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, umumiy chidamlilikni rivojlantirish (UTE-UCh, 2 hafta)</i> <i>2.Organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, umumiy chidamlilikni rivojlantirish, kuch imkoniyatlarini oshirish (UTE-K, 2 hafta)</i> <i>3.Asosiy jismoniy sifatlarni va xususiyatlarni majmuaviy rivojlantirish (UTE-JSM, 2 hafta))</i>	Tayyorgarlik davrining maxsus tayyorgarlik etapida mezatsikl mosh g'ulotlarining ta'sir imkoniyatlari bo'yicha metodik qurilma <i>1.Asosiy jismoniy sifatlarni va xususiyatlarni majmuaviy rivojlantirish (MTE-JSM, 1 hafta)</i> <i>2,Tezkor-kuch tayyorgarlikni oshirish va tezkorlikni rivojlantirish (MTE-TK, 2 hafta)</i> <i>3.Maxsus (tezkor) chidamlilikni va tezkorlikni rivojlantirish (MTE-JSM, 2 hafta)</i> <i>4.Asosiy jismoniy sifatlarni va xususiyatlarni majmuaviy rivojlantirish (MTE-JSM, 1 hafta)</i>
---	---

Natija:Pedagogik loyihalash asosida takomillashgan jismoniy tayyorgarlik mosh g'ulotlari metodikasi

Biz, taklif qilingan loyiha texnologiyasini dastlabki ixtisoslashuv guruhining yosh futbolchilari bilan tayyorgarlik davrining bir kunlik o'quv-mosh g'ulotlar turkumini tuzish misolida amalga oshirildi.

Bunda, biz, 12-13 yoshli yosh futbolchilarni ixtisoslashuvi bosqichidagi maqsadli ko'rsatma futbolchilar uchun eng muhim bo'lgan harakat sifatlarni ustivor takomillashtirish bilan har tomonlama umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikdan tashkil topgan va yakuniy maqsadi – jismoniy tayyorgarlikning mustahkam poydevorini yaratish hisoblanadi.

Yosh futbolchilarning dastlabki ixtisoslashuv bosqichidagi maqsadga erishish, yillik (makro)sikl qurilmasining turli davrlari (tayyorgarlik, musobaqa va o'tish)da, ketma-ket va parallel holda hal qilinadigan bir qator sport tayyorgarlik vazifalarini yechish orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, tayyorgarlik davrining ikkita: umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik bosqichlariga ajratish qabul qilingan bo'lib, ularning oldida ma'lum darajadagi vazifalar turadi. Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik bosqichida quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

1. Organizmning funksional imkoniyatlarini, avvalam bor, aerob va anaerob mahsuldorlikni, yurak-tomir va nafas tizimlarining mahsuldorligini, mushaklar kuchini va chidamliligini oshirish.

2. Asosiy jismoniy sifatlar va xususiyatlarni – chidamlilikni, kuchni, epchillikni, egiluvchanlikni majmuaviy rivojlantirish.

Maxsus tayyorgarlik bosqichida asosiy vazifalar sifatida quyidagi masalalar hal qilinadi:

1. Tezkor-kuch tayyorgarlikni oshirish.

2. Maxsus (tezkor) chidamlilikni rivojlantirish.

3. Tezkorlikni, uning barcha namoyon bo'lishlarida rivojlantirish.

Tayyorgarlik davrining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bosqichlari oldidagi maqsadli ko'rsatmadan va sport tayyorgarlik bosqichida hal qilinadigan konkret vazifalardan kelib chiqqan holda, mosh g'ulot ta'sirlari (mosh qlar) banki shakllantiriladi.

O'quv-mosh g'ulotlarni tuzish paytida, ma'lum bir harakat sifatini yoki energiya bilan ta'minlash mexanizmini rivojlantirish paytida mosh qlarning ketma-ketligi va uyg'unligini belgilaydigan mosh g'ulot yuklamalarini ijobiy uyg'unlashtirish vazifalari majburiy tartibda hisobga olingan [15].

Xulosa. Dastlabki ixtisoslashuv guruhining tayyorgarlik bosqichida o'quv-mosh g'ulot ta'sirlarini tizimli-pedagogik loyihalash – yosh futbolchilar jismoniy tayyorgarligini ta'minlay oladigan va real shart-sharoitlarga moslashuvchan instrument sifatida, mikro va mezosikllar tarkibida tashkil etiladigan o'quv-mosh g'ulot jarayonlarining pedagogik loyiha modelini bir qator ketma-ket amallarni nazarda tutuvchi texnologik qurilma asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947 – son Farmoni // “Xalq

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Qarori 2017-yil, PQ-3031-son).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. 2020-yil, 30-oktyabr, PF-6099-son, <https://lex.uz/docs/5077667>.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori, 03.11.2022 yildagi PQ-414-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida farmoni, 04.12.2019 yildagi pf-5887-son. <https://lex.uz/docs/4631208>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PQ-5148 son “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. Lex.uz

7. Биткин В.М. Методические приёмы применения восстановительных средств в подготовке высококвалифицированных футболистов. автореф. дис... канд. пед. наук. Смоленск, 1999. - 24 с.

8. Вишнякова С.В., Солопов И.Н., Замов Б.М. Совершенствование функциональных возможностей спортсменов на начальных этапах подготовки в художественной гимнастике. - Волгоград, 1998.-56с.

9. Голомазов С., Шинкаренко И. Футбол: Тренировка специальной работоспособности футболистов. - М., 1994. - 88 с.
10. Дубровский С.В. Методика совершенствования физической подготовленности юных футболистов посредством направленных воздействий на дыхательную систему: Автореф. дис. ... канд. пед. наук.- Волгоград, 2000.- 22 с.
11. Курбанов З.А. Организация учебно-тренировочного процесса футболистов в условиях Узбекистана. Ташкент., 2000., 103с.
12. Кучкин С.Н. Резервы дыхательной системы и аэробная производительность организма: Автореф. дис. ... докт. мед. наук. - Казань, 1986. -48 с.
13. Радчич И.Ю., Преображенский И.Н., Овчаренко Л.Н. О технологии мониторинга процесса подготовки футболистов в годичном тренировочном цикле // Научные труды ВНИИФК 1999-года.- М., 2000.- С. 204-210.
14. Сучилин А.А., Козловский В.И., Парамонов В.Н., Шамардин А.И. Возрастная динамика психомоторики и ее учет при подготовке юных футболистов // Вопросы оптимизации учебно-тренировочного процесса юных футболистов. - Волгоград, 1988.- С. 3-11.
15. Шамардин А.А., Чёмов В.В., Шамардин А.И., Солопов И.Н. Применение эргогенических средств в подготовке спортсменов. Саратов: Научная книга, 2008.- 209 с.

Adizova Nilufar Quvondiq qizi,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi, Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi
Maktabgacha ta'lim metodisti
Adizovanilufar@331gmail.com

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KASBGA QIZIQTIRISH ELEMENTLARINI JORIY ETISHNING SAMARALI METODLARI

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kasb-hunarlariga qiziqtirishning ahamiyati va ushbu jarayonda samarali pedagogik metodlar muhokama qilinadi. Kasbga qiziqtirish elementlarini o'quv jarayoniga kiritish bolalarning ijodkorligi, mustaqil fikrlashi va kelajakdagi kasbiy yo'nalishlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolada amaliy tajribalar va samarali metodlar tavsifi berilgan. Kasbga qiziqtirish jarayonida ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning o'rnini ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kasbga qiziqtirish, pedagogik metodlar, bolalar rivoji, roli o'yinlar, ijodkorlik.

Аннотация. В статье рассматривается значение формирования интереса к профессиям у детей в дошкольных образовательных организациях, а также обсуждаются эффективные педагогические методы в данном процессе. Включение элементов профориентации в образовательный процесс играет важную роль в развитии творческих способностей, самостоятельного мышления и определении будущей профессиональной направленности детей. Кроме того, в статье представлены практический опыт и описание эффективных методик. Подчеркивается значение сотрудничества родителей и педагогов в процессе профориентации, а также роль использования современных технологий.

Ключевые слова: дошкольное образование, профориентация, педагогические методы, развитие детей, ролевые игры, творческие способности.

Abstract. This article discusses the importance of introducing career interest elements in preschool education institutions and effective pedagogical methods applied in this process. Incorporating career-related activities into the educational process plays a significant role in developing children's creativity, independent thinking, and identifying their future professional directions. The article also presents practical experiences and effective methods. The role of collaboration between parents and educators, as well as the use of modern technologies in fostering career interest, is highlighted.

Key words: preschool education, career interest, pedagogical methods, child development, role play, creativity.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar asosida yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda turli kasblarga bo'lgan dastlabki qiziqishni shakllantirish, ularni kasb olamiga qiziqtirish orqali kelajakda to'g'ri yo'l tanlashlariga zamin yaratish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu jarayonni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshirish esa pedagoglardan innovatsion, samarali va bolaning yosh xususiyatlariga mos metodlarni tanlashni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasini har tomonlama rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashini ta'minlash, kelajak avlodning komil inson bo'lib voyaga yetishiga bevosita bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasb-hunarlariga qiziqtirish ularning kelajakdagi kasbiy tanlovlarini osonlashtiruvchi muhim omillardan biridir. Bugungi kunda ta'lim jarayonida faqat nazariy bilim berish emas, balki bolalarni amaliy ko'nikmalar va hayotga tayyorlashga e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbga qiziqtirish elementlarini joriy etish pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogika fanida kasbga yo'naltirish va qiziqtirish borasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, N.A. Musurmonova o'zining tadqiqotlarida kasbga yo'naltirish jarayonida bolalarning shaxsiy qiziqishlarini inobatga olish muhimligini ta'kidlaydi. V.V. Davydov va L.S. Vigotskiylarning ijtimoiy faoliyat va o'yin orqali ta'lim berish nazariyalari bolalarni kasblar bilan tanishtirishda muhim manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori (2019-yil) hamda "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, jumladan, kasbga tayyorlov elementlarini joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Kasb tanlash muammosiga oid ko'plab tadqiqotlar bag'ishlangan, xususan B.Mirzaaxmedov, P.Mazgumov, E.Choriev, Q.Boymirov, O.Ma'diev, U.Nishonaliev, K.Davlatov, A.I.Vorobyovlarning ishlarida kasb tanlash tizimini faqat mohiyati va asosiy boshlang'ich qirralari aniqlanib qolmasdan, balki bu ishlarining mazmuni asoslanilgan. Professor N.N.Djamilova o'z ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga qiziqtirish bo'yicha samarali usullarni tatbiq etgan. Mazkur adabiyotlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga kasb tanlovi haqida dastlabki tushunchalarni berish, ularni kasblarga bo'lgan ijobiy munosabatga yo'naltirish pedagogik jarayonning muhim qismiga aylanganini ko'rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbga qiziqtirish elementlarini joriy etishning samarali metodlarini aniqlash va baholash maqsad qilindi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar birgalikda qo'llanildi.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglar, tarbiyachilar hamda ota-onalar tanlandi. Ma'lumotlar yig'ish uchun quyidagi metodlar ishlatildi:

- So'rovnomalar - pedagoglar va ota-onalarning kasbga qiziqtirishga oid fikr-mulohazalarini o'rganish uchun;
- Intervyu - tanlangan bir guruh pedagoglar bilan chuqur suhbatlar o'tkazildi;
- Kuzatuv - pedagoglarning bolalar bilan ishlash jarayonida qo'llayotgan metodlari va usullarini baholash uchun;
- Adabiyotlarni tahlil qilish - mavzuga oid nazariy manbalar va ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Yig'ilgan ma'lumotlar statistik va mazmuniy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, samarali metodlarning asosiy xususiyatlari aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar. Bolalarning qiziqishi yoshligidan shakllanadi va ularning qiziqishlari kelajakdagi kasbiy faoliyatining asosi bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni kasbga qiziqtirishga yo'naltirilgan turli metod va vositalarni qo'llash zarur. Kasbga qiziqtirish bolalarda o'z-o'zini anglash, mustaqil fikrlash va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bolalar turli kasblar haqida ma'lumot olib, o'z qiziqishlariga mos yo'nalishlarni kashf etadilar. Bu esa ularning kelajakdagi ta'lim va kasb tanlash jarayonini soddalashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblarga qiziqtirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin. Bu metodlar o'z o'rnida yoshga mos tarzda qo'llansa katta samara beradi. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbga qiziqtirish elementlarini joriy etishda quyidagi metodlar eng samarali hisoblanadi:

O'yin orqali ta'lim berish usuli. Bola hayotida o'yin yetakchi faoliyat hisoblanadi. O'yin bolalar uchun tabiiy faoliyatdir. Kasbga oid rolli o'yinlar (masalan, "shifokor", "o'qituvchi", "uy quruvchi") bolalarda kasblar haqidagi tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. Bu o'yinlar orqali bolalar o'zlarini turli kasblarda tasavvur qilib, o'sha sohalar bilan tanishadilar. O'yin orqali kasblar dunyosidagi har bir kasbni ijro etishlari mumkin. O'yinda bola erkin bo'ladi va bimalol o'z tanlovini va iqtidorini namoyon eta oladi. Nafaqat rolli o'yinlar, balki didaktik o'yinlar ham bolalarga kasblarni tanishtirishda yordam beradi. Masalan, kasbga oid jihozlarni aralash holda qo'yib, shifokorlar (yoki boshqa) uchun kerakli jihozlarni ajratish orqali ham kasb haqidagi tasavvurlarini kengaytirish mumkin.

Ko'rgazmalar orqali o'rgatish va ekskursiyalar. Ko'rgazmalar bolalar uchun vizual va interaktiv tarzda ma'lumot berish imkonini yaratadi. Har bir kasbga bag'ishlangan maxsus burchaklar orqali bolalar o'zlarini shu kasb egasi sifatida his qilishlari mumkin. Masalan, "shifokor burchagi", "oshpaz burchagi", "quruvchi burchagi" kabi kichik zonalarda bolalarga kasbga oid o'yinchoq qurollar, kiyimlar, rasmlar taqdim etiladi. Bu orqali bolalar nafaqat tomoshabin, balki faol ishtirokchi sifatida jarayonga qo'shiladilar. Ekskursiyalar bolalarni real muhitda kasblar bilan tanishtirish imkonini beradi. Masalan, bolalar novvoyxonaga tashrif buyurib, non qanday tayyorlanishini ko'rishlari, kutubxonada kitoblarni qanday tartiblashayotganini kuzatishlari yoki kasalxonada shifokorlar ish jarayoni bilan tanishishlari mumkin. Bu kabi tashriflar bolalarda qiziqish uyg'otibgina qolmay, balki amaliy bilim va ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Bolalarni turli kasb egalarining ish joylariga olib borish yoki maktabgacha ta'lim muassasasida ko'rgazmalar tashkil etish ularning kasb-hunarlar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Masalan, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari yoki hunarmandlar bilan uchrashuvlar o'tkazish. Mosh g'ulotlar jarayonida kasb egalarining faoliyati to'g'risida videoroliklarni ko'rsatish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni STEAM texnologiyasidan foydalangan holda kasblarga qiziqishini oshirish

Loyihaviy o'yinlar. "Mini quruvchilar shaharchasi" loyihasida bolalar o'zlarining kichik inshootlarini loyihalashadi va quradilar. Bu jarayonda ular muhandislik, san'at va matematika elementlarini amalda qo'llaydilar.

Fan va texnologiya asosida tajribalar. Bolalar bilan oddiy ilmiy tajribalar o'tkazish (masalan, suv va muhit, magnitlar, yorug'lik) orqali ularning qiziqishi uyg'onadi. Dasturchilik asoslari bilan tanishtirish uchun qulay dasturlar (masalan, Scratch Junior)dan foydalanish mumkin.

San'at orqali kasbga yo'naltirish. San'at darslarida bolalar rassom, dizayner, arxitektor kabi kasblarni modellashtiradilar. Bu faoliyat orqali ular o'z qobiliyatlarini kashf etadilar.

Robototexnika va kodlashning oddiy shakllari. Oddiy robotlar bilan ishlash yoki harakatga asoslangan kodlash o'yinlari (Bee-Bot kabi qurilmalar) orqali bolalar IT va muhandislik sohalariga qiziqishni boshlaydilar.

Ota-ona va pedagoglarning hamkorligi. Ota-onalar farzandining kasblarga qiziqishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bola ko'p hollarda ota-onasining kasbini kuzatadi, uni o'ziga namuna qiladi. Shu sababli, ota-onalar quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

1. O'z kasbi haqida sodda va tushunarli tilda farzandiga hikoya qilish;
2. Ish jarayonidan kichik ko'rinishlarni ko'rsatish (masalan, kompyuterda ishlash, bog'ishlarini qilish, biror narsa tikish va h.k.);
3. Bolaning qiziqishini rag'batlantirish, unga savol berishga, tajriba qilishga imkon yaratish;
4. Oila doirasida bolani mehnatsevarlikka o'rgatish - kichik vazifalarni topshirish (stol tuzash, narsalarni joyiga qo'yish va h.k.).

Muvaffaqiyatli hamkorlik uchun pedagog va ota-ona o'rtasida ochiq, samimiy va doimiy muloqot zarur. Quyidagi shakllar bu jarayonda foydali bo'lishi mumkin:

➤ **Ochiq darslar va mosh g'ulotlar:** ota-onalar bolalarning faoliyatini kuzatadi va o'zlari ham qatnashadi;

➤ **"Kasb haftaligi" loyihasi:** har kuni bir kasb tanitiladi, ota-onalardan biri taklif qilinadi;

➤ **Uyga topshiriqlar:** ota-onalar bolasi bilan birga kasbga oid rasm chizadi, kichik hikoya yozadi yoki amaliy ish bajaradi;

➤ **"Oila a'zolarining kasblari" ko'rgazmasi:** bolalar ota-onasining kasbi haqida rasm, surat yoki qisqa izohlar bilan tanishtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblarga qiziqtirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda pedagogning metodik mahorati bilan bir qatorda, ota-onaning hayotiy

tajribasi va shaxsiy namunasi muhim ahamiyatga ega. O'zaro hamkorlik orqali bola uchun boy tarbiyaviy muhit yaratiladi, unda u turli kasblarni tanib boradi, mehnatni qadrlashni o'rganadi va kelajakda o'z yo'lini ongli tanlashga ilk qadamni qo'yadi. Kasbga qiziqtirish jarayonida ota-onalarning ishtiroki muhimdir. Ularning bolalarining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi, uyda ham shu mavzuda suhbatlar olib borishi bolalarining motivatsiyasini oshiradi. Pedagoglar ota-onalar bilan muntazam muloqotda bo'lishlari kerak.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. XXI asrda ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar bolalarining e'tiborini jalb qilish, o'rganilayotgan mavzuni qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazish, ularning fikrlash va tasavvurini kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Kasblar bilan tanishtirishda ham innovatsion yondashuvlar va texnologik vositalardan foydalanish bolalarda yanada kuchli qiziqish uyg'otadi, bu esa ularni faol o'rganishga undaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun abstrakt tushunchalarni tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun, kasblar haqida **video roliklar**, **interaktiv slaydlar**, **animatsiyalar** orqali ma'lumot berish ularning e'tiborini jalb qiladi va kasb mohiyatini aniqroq tushunishga yordam beradi. Masalan:

➤ "Oshpaz qanday ovqat pishiradi?" yoki "Shifokor qanday yordam beradi?" kabi qisqa, jonli videolar.

➤ Kasblarga oid multfilmlar (masalan, *"Doktor Anvar"*, *"Bahodir Quruvchi"*, *"Fiksiklar"*).

➤ QR-kodlar orqali kiriladigan interaktiv o'yinlar yoki virtual ekskursiyalar.

Interaktiv doskalar va sensorli qurilmalar imkoniyatlari

Bugungi kunda ko'plab maktabgacha ta'lim muassasalarida **interaktiv doskalar**, **planshetlar**, **sensorli monitorlar** mavjud. Ular orqali bolalarga:

➤ Kasbga oid mavzular bo'yicha **pazllar yig'ish**, **moslik topish** yoki **savol-javob** o'yinlari taklif etiladi.

➤ "To'g'ri kasbni tanla" yoki "Nimani kim bajaradi?" kabi didaktik o'yinlar orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Kasb simulyatsiyasi o'yinlari (masalan, "shifokor bo'lish", "konstruktor yig'ish" o'yinlari) orqali bolalar kasblarni virtual sinab ko'radilar. Multimedia vositalari, interaktiv dasturlar orqali bolalarga kasb-hunarlar haqida qiziqarli va ko'rgazmali ma'lumot berish mumkin. Bu usul ayniqsa shahar sharoitida samarali. Zamonaviy texnologiyalar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblarga qiziqtirish jarayoni samaraliroq, qiziqarliroq va ta'sirchanroq bo'ladi. Vizual, interaktiv va amaliy yondashuvlar orqali bolalarda kasblar haqida aniq tasavvur shakllanadi, mustaqil o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Shu sababli, pedagoglar va ota-onalar texnologiyalarni to'g'ri va maqsadli qo'llagan holda bolalar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsata oladilar. Bugun raqamli avlodni tarbiyalayotgan ekanmiz, ularning dunyoqarashiga zamonaviy vositalar orqali yondashish zaruriy ehtiyojga aylangan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbga qiziqtirish elementlarini joriy etish bolalarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar uchun jamiyatning kichik modeli hisoblanadi. Taqlid qilish orqali bolalar kattalarning har bir faoliyatini kuzatadi va o'rganadi. Aynan shu davrdan boshlab bolalarda kelajak kasblar haqida ilk tasavvurlarni paydo qilish muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirishda interaktiv metodlardan foydalanish lozim. Bola hayotida yetakchi faoliyat o'yin bo'lganligi sababli, o'yinlar orqali tezda o'rganadi. Turli rolli o'yinlar, ekskursiyalar bolalar uchun ilk katta hayotning ostonasi hisoblanadi. Bu metodlar nafaqat bolalarining kasbiy yo'nalishini shakllantirishga, balki ularning ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kelajakda maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga qiziqtirish jarayonini yanada samarali qilish uchun quyidagi takliflardan foydalanish mumkin:

- Maktabgacha ta'lim dasturlariga kasblar haqida modul elementlarini kiritish;
- Har bir MTTda "Kasblar haftaligi" kabi tematik tadbirlar o'tkazish;
- Kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda ekskursiyalarni yo'lga qo'yish;
- Ota-onalar ishtirokida kasblar bilan tanishtirish kechalarini tashkil etish;
- Pedagoglar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish (kasbga yo'naltirish metodikasi bo'yicha).
- Pedagoglar uchun muntazam treninglar va seminarlar tashkil etish,
- Kasbga oid o'yin va mosh g'ulotlarni diversifikatsiya qilish,
- Zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish,

Maktabgacha ta'lim muassasalarida kasbga qiziqtirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish. Shunday qilib, kasblarga qiziqtirish jarayoni - bu faqatgina bolalarga turli kasblar haqida ma'lumot berish emas, balki ularning qalbida mehnatga hurmat, ijodkorlikka ishtiyoq, orzu va maqsad sari intilish kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bu jarayon bolalarning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy kamolotiga zamin yaratadi. Bunday yondashuv esa faqatgina pedagog va ota-onaning o'zaro uzviy hamkorligi, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalar, amaliy tajriba va mehr bilan olib borilgan tarbiyaviy faoliyat orqali muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Demak, bolada kasbga bo'lgan qiziqish va ongli yo'naltirishni shakllantirish - bu butun jamiyatning kelajagiga qo'yilgan poydevordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi Takomillashtirilgan ilk qadam o'quv dasturi 2022
2. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirish ijtimoiy muammo sifatida N.N.Djamilova –2023, № 4 Pedagogika 24-26 .b
3. Jo'raev R.X., O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov. Uzlaksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbhunarga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. – T.: Fan, 2004.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarga interfaol metodlarni qo'llash usuli. Turdiyeva Izzatoy Sadikovna
5. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy ta'minotini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga joriy etish mexanizmlar N.N.Djamilova
6. Abdullayevna, G. G., & Kamaldinovna, B. M. (2022). Ways of Formation of technological competence in future teachers.

Shaniyazov Ilxam Rashidovich,
Karakalpak state university named after Berdakh
Assistant of the Department of Theory and Methodology of Physical Culture

AN ANALYSIS OF THE PRACTICAL IMPLEMENTATION OF TACTICAL ATTACKING STRATEGIES

Abstract. This article examines various aspects of attacking actions by football players during competitions among players aged 16-17. It highlights the balance between attacks conducted through the center and flanks, as well as instances of shots during critical moments. Additionally, the study discusses combinations involving players during attacking actions.

Key words: number of attacks, attacking tactical actions, shots on goal, number of participants in attacks.

Аннотация. В данной статье рассматриваются различные аспекты атакующих действий футболистов в соревнованиях среди игроков в возрасте 16–17 лет. Подчеркивается соотношение атак, проводимых через центр и фланги, а также случаи ударов по воротам в ключевые моменты игры. Кроме того, в исследовании анализируются комбинации с участием игроков во время атакующих действий.

Ключевые слова: количество атак, атакующие тактические действия, удары по воротам, количество участников в атаке.

Introduction. Football has evolved into a highly strategic sport where attacking tactics determine the outcome of most matches. Tactical attacking strategies involve planned movements, coordinated passes, and positioning aimed at breaking through the opponent's defense. The practical implementation of these strategies depends on players' technical abilities, decision-making, and teamwork. Coaches emphasize the balance between attacks through the center and flanks to create scoring opportunities. Modern football also requires analyzing opponents' defensive structures to adapt attacking plans effectively. The success of tactical strategies is measured by the number of shots on target and the ability to convert chances into goals. Studying these aspects helps identify patterns that lead to successful attacks during competitive games. This research focuses on analyzing the practical application of tactical attacking strategies among players of different levels.

Relevance: The improvement of Uzbek football players' skills in recent years depends on the qualification of coaches working with youth. Therefore, highly qualified teams should prepare their reserves considering modern requirements, incorporating new forms and directions of work with young footballers. Our youth national teams have achieved success on the international stage, securing spots in world championships. However, this has become routine for foreign coaches, who are well-informed about Uzbek football. Coordinated actions among teams in the Uzbekistan championship and the enhancement of attacking actions form the foundation for victory. A quick attack organized from the defensive zone leads the team to success. However, all actions depend on the speed of players and the execution of technical and tactical actions when finishing attacks.

Particularly important is a player's ability to pass the ball over medium and long distances, directing it toward the movement of a teammate. The main objective of such an attack is to quickly deliver the ball into the opponent's zone, create dangerous moments near the goal, and score. Therefore, the topic of quick attack completion attracts the attention of many specialists and coaches. Currently, significant issues include the time taken for such attacks, the number of participants, and shots on goal.

As is well known, we have not achieved high results on the international stage, as noted by many authors. Coaches believe that our defeats stem from the inefficiency of players' attacking actions and insufficient physical preparation. In training sessions, coaches apply

exercises aimed at improving quick attack skills, regardless of age or physical and functional condition. Given this, our footballers will need to work hard to overcome these shortcomings.

Attacks from the defensive zone lead to team victory. However, all actions depend on the players' speed and the execution of technical and tactical actions when finishing attacks. Especially important is the ability to deliver the ball effectively. The focus on attacking actions draws the attention of many specialists and coaches. The key questions now are the time taken for these attacks, the number of participants, and shots on goal. Defining players' actions when organizing attacks is one of the pressing tasks, and thus we have chosen this topic for research.

Aim of the study. To analyze the actions of footballers from top teams participating in the Uzbekistan Championship during rapid attacks in competitive conditions.

Tasks of the study:

➤ To analyze the number and effectiveness of tactical actions conducted during attacks in matches.

➤ To compare the actions of footballers engaged in attacking and defensive tactical actions at various speeds.

➤ To develop practical recommendations based on the obtained results that influence the level of training.

Methods of organization of the study: The study utilized methods of analysis of scientific and methodological literature, pedagogical observation, and mathematical-statistical analysis of the research results.

Results and Discussion: We observed the tactical actions of young footballers in various game situations. The observations identified dangerous moments of attacks organized through flanks and the center among players aged 16-17 in youth academies. We analyzed the attacking activity of footballers from academies in Karakalpakstan, Khorezm, and Bukhara, gathering data from 10 matches for each team. As previously mentioned, participants from the Karakalpakstan football academy executed 86 attacks, of which 49.6% were organized through the flanks, with an effectiveness rate of 25.8% (attacks ending in shots on goal), while 34.7% of attacks from the center had an effectiveness of 16.7%. The Bukhara academy conducted 47.5 flanking attacks with a 25.5% effectiveness, while 30 central attacks had a 17.3% effectiveness. The Khorezm academy players conducted 48.2 flanking attacks with a 23.7% effectiveness, and 32.6 central attacks with an 18.7% effectiveness. This suggests that center-organized attacks outnumber and outperform flanking attacks in both quantity and effectiveness. (Table 1)

Table 1

Dangerous attacking actions of 16-17-year-old footballers during matches

Team	Attacking Actions by Zones (in front of opponent's goal)											
	Flank				Center				Total			
	Total	+	-	SK %	Total	+	-	SK %	Total	+	-	SK %
RK	49,6	12,8	36,8	25,8	34,7	5,8	28,9	16,7	84,3	18,6	65,7	22,1
Bukhara	47,5	12,1	35,4	25,5	30	5,2	24,8	17,3	77,5	17,3	60,2	22,3
Khorezm	48,2	11,4	36,8	23,7	32,6	6,1	26,5	18,7	80,8	17,5	63,3	21,7

Based on these results, we believe it is essential to employ methods aimed at addressing these shortcomings in the training process. Attention should not only focus on exercises specialized for flanking attacks but also on significant exercises targeting tactical actions

conducted through the center. We believe that focusing on center attacks during the training process will be a key factor in increasing the number and effectiveness of attacks.

When examining the data in Table 2, we see that players from the Karakalpakstan academy executed an average of 84.4 attacks (dangerous attacks) per game, with 25.9 classified as dangerous (with attempts to finish with a shot). Of these attacks, 18.6 were directed at the goal, 10.8 were uncertain, and 7.8 were accurate shots on goal. The effectiveness rate was 41.9%, with a margin of error at 58.1%. During a game, Bukhara academy players conducted 77.5 attacks, of which 55.9 (74%) were safe and 21.6 (27.9%) were dangerous. The results for the Khorezm academy were nearly identical. Notably, dangerous attacks, i.e., actions concluding with shots on goal, exhibit a higher percentage compared to the total number of attacks. Statistically, 25-30% of attacks end with shots on goal, while 15-20% of those are accurate.

Table 2

Attacks by 16-17-year-olds during matches and shots on goal

	Attacks During Matches					Shots on Goal					
	Safe Attacks	Percentage (%)	Moderately Dangerous	Percentage (%)	Total Attacks	Accurate Shots	Percentage (%)	Inaccurate Shots	Percentage (%)	Total Shots	Percentage (%)
RK	58,5	69,3	25,9	30,7	84,4	7,8	41,9	10,8	58,1	18,6	100
Bukhara	55,9	72,1	21,6	27,9	77,5	6,4	40,3	9,5	59,7	15,9	100
Khorezm	60,1	74,4	20,7	25,6	80,8	6,3	36,0	11,2	64,0	17,5	100

We also focused on the involvement of footballers in various combinations during attacks. Per game, attacks involving two players comprised: 31.1 (36.8%) in the QQR academy, 29.4 (37.9%) in Bukhara, and 30.2 (37.4%) in Khorezm. These results indicate that teams most frequently organize attacks involving two players, which may reduce the chances of breaking through the opponent's defense.

In attacks involving three players, the RK academy recorded 25.2 (29.9%), Bukhara 23.4 (30.2%), and Khorezm 23.5 (29.1%). In attacks involving four players, the RK academy executed 12.3 (14.6%), Bukhara 9.5 (12.3%), and Khorezm 12.4 (15.3%). In attacks with five players, RK conducted 8.9 (10.5%), Bukhara 8.3 (10.7%), and Khorezm 7.8 (9.7%). In attacks involving six players, RK had 6.9 (8.2%), Bukhara 6.9 (8.9%), and Khorezm 6.5 (8.5%).

Table 3

Group Attacking Actions of Our Football Teams Aged 16-17 (X=8)

Number of Players Participating in Combinations		2	3	4	5	6	7	Total
RK	Number of Combinations	31,1	25,2	12,3	8,9	6,8	-	84,4
	Percentage (%)	36,8	29,9	14,6	10,5	8,2	0	100
Khorezm	Number of Combinations	29,4	23,4	9,5	8,3	6,9	-	77,5
	Percentage (%)	37,9	30,2	12,3	10,7	8,9	0	100
Bukhara	Number of Combinations	30,2	23,5	12,4	7,8	6,5	-	80,8
	Percentage (%)	37,4	29,1	15,3	9,7	8,5	0	100

During the games, attacks involving seven or eight players were not recorded, indicating that our footballers do not organize attacks with that many participants. Observations of 16-17-year-olds show that attacks involving 7-8 players are not executed, while attacks with 5-6 players are rare. The majority of attacks involve two players.

Practical Recommendations: When implementing tactical attacks, priority should be given to the physical preparation of footballers. The execution of all tactical combinations will be more effective when combined with physical training. Coaches should select recommended exercises based on the game situations that arise during matches. We suggest that the exercises chosen by the coach align with the game, enabling players to utilize their technical skills for tactical decisions. We believe that exercises selected based on identified shortcomings during games will positively influence player preparation. Additionally, we consider it crucial to focus on warm-up exercises in the preparatory phase of the training process, not just on the main exercises. These exercises will help modify player actions, particularly for those involved in attacking plays. Therefore, we recommend paying attention not only to primary exercises but also to warm-up exercises in the preparatory phase.

Conclusions:

- A high level of execution of attacking actions requires a coordinated approach to tactical and physical preparation, enabling quick and effective responses to game situations.
- Based on the results obtained, it was found that the quantity and effectiveness of attacks organized from the flanks significantly exceed similar indicators for center attacks.
- The research indicates that attacks from both flanks and the center can pose a threat to the opponent.
- Data analysis revealed that involving a larger number of players in attacks increases the percentage of successful completion of attacking actions. Specifically, attacks involving 2-3 players demonstrated lower effectiveness, whereas those with 4-5 players were more productive, underscoring the importance of active participation of many players in attacking actions.
- During the training process aimed at enhancing the effectiveness of attacking actions, exercises were developed, including passing the ball over long distances and increasing player participation, as well as exercises focusing on completing each attack with shots on goal, which proved effective.

List of references.

1. Bezyazychny, B.I. "Formation of Striking Movements Based on Target Accuracy Indicators in Young Athletes Aged 12-16 (Example: Football)": Abstract of the dissertation ... Candidate of Pedagogical Sciences. - Kharkiv, 1991. 156 p.
2. Gandzhiev G.M., Godik M.A., Zonin G.S. Control of Competitive Activity of Highly Qualified Football Players: Methodological Recommendations. – Moscow, 1982. – 26 p.
3. Gadzhiev G.M. Structure of Competitive Activity as the Basis for Comprehensive Control and Planning of Training for Highly Qualified Football Players: Abstract of the dissertation ... Candidate of Pedagogical Sciences. – Moscow, 1984. – 24 p.
4. Godik M.A., Cherepanov P.P., Galeev R.Z. Integral Assessment of Attacking Actions. // Football: Yearbook. – 1984. / Compiled by S.A. Savin, A.S. Solovyov. Editorial Board: K.I. Beskov et al. – Moscow: Physical Culture and Sports, 1984. – pp. 7-11.
5. Zolotaryov A.P., Shamarin A.I. Structure of the Main Components of Competitive Activity of Young Football Players: Educational and Methodological Manual. / Edited by N.D. Vasiliev. – Volgograd: «ВГИФК», 1993. – 33 p.
6. Iseev Sh.T. Analysis of Attacking Actions of Highly Qualified Football Players. / Journal "Fan Sport" No. 1, 2004. – pp. 45-47.

Sayfiyev Hikmatullo Xayrullayevich,
Osiyo xalqaro universiteti Jismoniy madaniyat kafedra o'qituvchisi
Email: hikmatullosaefiyev@gmail.com

BOSHLANG'ICH TAYYORLOV BOSQICHIDA SPORT GIMNASTIKACHILARNING MOSLASHUVCHANLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sport gimnastikachilarining boshlang'ich tayyorlov bosqichida moslashuvchanlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada fiziologik, biomexanik, gormonal va psixologik omillar, shuningdek, jismoniy tayyorgarlik darajasi va trening metodikalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari moslashuvchanlikni samarali shakllantirish uchun individual yondashuv va tizimli monitoringning ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu nazariy yondashuvlar kelgusida amaliy trening jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: moslashuvchanlik, omil, motor, asimmetriya, individual, review, pay, gender, gormon, recovery, stress, genetik.

Abstract. This article theoretically analyzes the main factors affecting the development of flexibility in gymnasts at the initial training stage and their interrelationships. The article studies physiological, biomechanical, hormonal and psychological factors, as well as the level of physical fitness and training methods. The results of the study show the importance of an individual approach and systematic monitoring for the effective formation of flexibility. These theoretical approaches will serve to improve practical training processes in the future.

Key words: flexibility, factor, motor, asymmetry, individual, review, pay, gender, hormone, recovery, stress, genetic.

Аннотация. В данной статье теоретически проанализированы основные факторы, влияющие на развитие гибкости у гимнасток на начальном этапе подготовки, и их взаимосвязь. В статье рассматриваются физиологические, биомеханические, гормональные и психологические факторы, а также уровень физической подготовленности и методы тренировки. Результаты исследования показывают важность индивидуального подхода и систематического мониторинга для эффективного формирования гибкости. Эти теоретические подходы будут способствовать совершенствованию практических тренировочных процессов в будущем.

Ключевые слова: гибкость, фактор, двигательный, асимметрия, индивидуальный, обзор, доля, пол, гормон, восстановление, стресс, генетический.

Kirish. Boshlang'ich tayyorlov bosqichi sport gimnastikasida sportchilarning jismoniy va psixologik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan dastlabki davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda gimnastikachilarda moslashuvchanlik qobiliyati, mushaklarning cho'zilishi, bo'g'imlarning harakatchanligi, shuningdek, markaziy asab tizimining o'zgaruvchan sharoitlarga tez javob berish qobiliyati rivojlantiriladi. Moslashuvchanlik sport gimnastikachilar uchun texnik harakatlarni mukammal bajarish, jarohatlardan himoyalash va yuqori sport natijalariga erishishda muhim omil sanaladi.

Moslashuvchanlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayoniga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar orasida sportchining individual fiziologik xususiyatlari, psixologik holati, murabbiylik uslublari, mosh g'ulotlarning tashkiliy va mazmuniy jihatlari, shuningdek, ijtimoiy va madaniy muhitning ta'siri bor. Har bir omil alohida o'zgaruvchanlikka ega bo'lish bilan birga, ular o'zaro murakkab bog'liqlikda bo'lib, umumiy natijaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, yosh gimnastlarning jismoniy rivojlanish darajasi va sog'liq holati mosh g'ulotlarni samarali tashkil qilishda asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, murabbiylarning pedagogik mahorati va mosh g'ulot jarayonini individual xususiyatlarga moslashtirish qobiliyati moslashuvchanlikni yuqori darajada rivojlantirish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, mosh g'ulotlarning intensivligi, uslubiy yondashuvlar va tiklanish jarayonlari ham moslashuvchanlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot maqsadi. Sport gimnastikachilarining boshlang'ich tayyorlov bosqichida moslashuvchanlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni mavjud ilmiy-nazariy manbalar asosida tahlil qilish va bu omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nazariy nuqtai nazardan asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Yu.V.Menxinning fikriga ko'ra, sport gimnastikasida jismoniy tayyorgarlik jarayoni murakkab va ko'p qirrali tabiati bilan ajralib turadi. Ayniqsa boshlang'ich tayyorlov bosqichida moslashuvchanlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat mushaklar va bo'g'imlarning elastikligini oshirish, balki markaziy asab tizimining o'zgaruvchan tashqi sharoitlarga tezkor javob berish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi [15].

O.I.Vasilenko yosh gimnastkalar orasida moslashuvchanlikni rivojlantirish metodikasini chuqur o'rganib, bu jarayonning sport tayyorgarligi va umumiy jismoniy rivojlanishdagi o'rni haqida muhim xulosalar beradi. Muallif ta'kidlaganidek, boshlang'ich tayyorlov bosqichida moslashuvchanlikni tizimli va kompleks tarzda shakllantirish, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda mosh g'ulotlarni rejalashtirish - yuqori natijalarga erishish va jarohatlardan himoyalashning muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, moslashuvchanlikni rivojlantirishda nafaqat jismoniy, balki psixologik omillarning ham rolini alohida ta'kidlaydi, bu esa sportchilarning umumiy tayyorgarligini oshirishda integratsiyalangan yondashuv zarurligini ko'rsatadi [16].

Yosh gimnastikachilar orasida moslashuvchanlikni rivojlantirish metodikasini motor asimmetriyasini hisobga olgan holda ishlab chiqish, motor asimmetriya - tananing har ikki yarmidagi harakat qobiliyatlaridagi tafovutlar moslashuvchanlikni shakllantirish jarayonida muhim omil bo'lib, uning inobatga olinmasligi jarohatlar xavfini oshirishi va sport natijalarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, boshlang'ich tayyorlov bosqichida individual harakat xususiyatlarini tahlil qilib, asimmetriyani bartaraf etishga qaratilgan maxsus mosh g'ulotlar tizimini joriy etish gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini yanada samarali rivojlantirishga yordam beradi [17].

S.M.Yarantseva 10-12 yoshdagi gimnastikachilar orasida moslashuvchanlikni rivojlantirishni motor asimmetriyasining turli profillari nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Motor asimmetriya profilining farqlari gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarlik jarayonida individual yondashuvni talab qiladi, chunki asimmetriya turli darajadagi mushak va bo'g'imlarning moslashuvchanlik imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, moslashuvchanlikni rivojlantirish metodikalarini individual motor xususiyatlarni inobatga olgan holda shakllantirish yosh gimnastikachilar o'rtasida jarohatlardan himoyalashni kuchaytiradi va sport natijalarini yaxshilashga yordam beradi [18].

T.V.Kraynova, yosh gimnastikachilar orasida funksional asimmetriya profilini monitoring qilish bo'yicha olib borgan tadqiqotlari natijasida, motor asimmetriyaning individual xususiyatlarini aniqlash va ularni sport tayyorgarligida hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, funksional asimmetriya yosh gimnastikachilar uchun moslashuvchanlik va koordinatsiyani rivojlantirish jarayonida asosiy diagnostik mezon hisoblanadi. Shu bois, boshlang'ich tayyorlov bosqichida funksional asimmetriya profillarini tizimli monitoring qilish va uni moslashtirilgan mosh g'ulotlar dasturiga kiritish jarohatlardan himoyalash va yuqori sport natijalariga erishishda samarali yondashuvdir [19].

Boshlang'ich tayyorlov bosqichida sport gimnastikachilarda moslashuvchanlikni rivojlantirish ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Moslashuvchanlik nafaqat mushaklar va bo'g'imlarning elastikligini oshirish, balki markaziy

asab tizimining o'zgaruvchan sharoitlarga tezkor javob berish qobiliyatini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, bu jarayonda individual fiziologik va psixologik xususiyatlarni, shuningdek, motor asimmetriyasini hisobga olish zarur.

Motor asimmetriya - tananing har ikki yarmidagi harakat qobiliyatlaridagi tafovutlar - moslashuvchanlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tafovutlar hisobga olinmagan taqdirda, jarohatlar xavfi ortadi va sportchilarning tayyorgarlik samaradorligi pasayishi mumkin. Shuning uchun boshlang'ich tayyorlov bosqichida motor asimmetriyaning profilini muntazam monitoring qilish va mosh g'ulotlarni individual xususiyatlarga moslashtirish zarur.

Bundan tashqari, moslashuvchanlikni rivojlantirish jarayonida motor koordinatsiyasi, kuch, chidamlilik kabi boshqa jismoniy tayyorgarlik komponentlarini integratsiyalashgan holda hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Mosh g'ulotlarning mazmuni va intensivligini individual sportchi ehtiyojlariga moslashtirish, shuningdek, tiklanish jarayonlariga e'tibor qaratish, jarohatlardan himoyalaniish va yuqori sport natijalariga erishishda samarali vosita bo'ladi.

Umuman olganda, boshlang'ich tayyorlov bosqichida moslashuvchanlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar - individual fiziologik xususiyatlar, motor asimmetriyasi, psixologik holat, murabbiylik metodikalari va mosh g'ulotlarning tashkiliy jihatlari - bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'un ishlashi sport gimnastikachilarning rivojlanishini maksimal darajada ta'minlaydi.

A.F.Fedorova, Ye.A.Pelyovinalar fikricha, kichik maktab yoshidagi gimnastikachilarda moslashuvchanlikni rivojlantirishda stretching mosh qlari juda muhim rol o'ynaydi. Ularning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, stretching usullarining muntazam va maqsadli qo'llanilishi mushaklarning cho'ziluvchanligini oshiradi, bo'g'imlarning harakatchanligini yaxshilaydi va harakat amplitudasini kengaytiradi. Bundan tashqari, stretching gimnastik harakatlarni bajarish texnikasini mukammallashtirish, tana holatini barqarorlashtirish va jarohatlardan himoyalaniish darajasini oshirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bu uslub ayniqsa boshlang'ich tayyorlov bosqichida eng samarali metodlardan biri sifatida o'zini oqlaydi [20].

Yosh gimnastikachilarda jarohatlar yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi jismoniy omillarni aniqlashda, tananing moslashuvchanligi, mushak kuchi, muvozanat va harakat diapazonlari kabi omillar Y.Kobayash, Y. Nagano va M.Suzukawalar tomonidan o'rganib, ularning jarohat xavfi bilan bog'liqligini tahlil qilganlar. Tadqiqotda 80 dan ortiq yosh gimnastikachilar ishtirok etgan va ularning yillik tibbiy ma'lumotlari asosida statistik tahlil olib borilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, past mushak kuchi va yetarli bo'lmagan muvozanat ko'nikmalari jarohatlar ehtimolini oshiradi. Shuningdek, haddan tashqari moslashuvchanlik ham ba'zi hollarda xavf omili bo'lishi mumkinligi aniqlangan[21].

E.Williams va mualliflari fikricha, yosh gimnastikachilarda uchraydigan jarohatlar ko'pincha ortiqcha yuklama, noto'g'ri texnika va tiklanishning yetarli bo'lmashligi bilan bog'liq. Ularning retrospektiv tahlillari shuni ko'rsatadiki, jarohatlar ko'proq bilak, tizza, orqa va to'piq sohalarida kuzatiladi. Shuningdek, mualliflar jarohatlarning turi va tez-tezligi yosh va jinsga qarab farqlanishini qayd etadilar. Shunga ko'ra, ular gimnastika mosh g'ulotlarni yosh va individual xususiyatlarga mos tarzda tashkil etishni tavsiya qiladilar.

J.W. O'Kane va boshqalar fikriga ko'ra, sport gimnastikasi bilan shug'ullanuvchi 4-dan 10-gacha bo'lgan darajadagi Seattle hududidagi qizlar orasida jarohatlar keng tarqalgan bo'lib, ularning ko'pchiligi ortiqcha mosh g'ulot yuklamalari va intensiv raqobat sharoitlari bilan bog'liq. Tadqiqotda 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan sportchilarning jarohat statistikasi so'rovnomasida o'rganilgan va eng ko'p uchraydigan jarohatlar oyoq, bel va qo'l sohalarida aniqlangan. Mualliflar, shuningdek, mosh g'ulotlar hajmi, haftalik soatlar soni va tayyorgarlik darajasi jarohatlar xavfiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha,

jarohatlarning oldini olish uchun muntazam monitoring, yoshi va darajaga mos yuklama tartibi hamda tiklanishga yetarli vaqt ajratilishi zarur [22].

U.Horvat, M.Salmić va Ž.Kozinc gimnastikada uchraydigan muskuloskeletal (mushak-skelet) jarohatlar keng tarqalgan bo'lib, ular sportchilarning sog'lig'iga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular tomonidan olib borilgan sharh tadqiqotida epidemiologiya, etiologiya va jarohatlarning asosiy xavf omillari chuqur tahlil qilingan. Maqolada ta'kidlanishicha, gimnastikadagi yuqori yuklama, takroriy harakatlar va yuqori intensivlikdagi mosh qlar natijasida paylar, bo'g'imlar va suyaklarga ortiqcha bosim tushadi[23].

Yosh gimnastikachilarda uchraydigan jarohatlar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu muammo ko'p omilli bo'lib, organizmning fiziologik holati, mosh g'ulot intensivligi, biomexanik yondashuvlar va sportchilarni nazorat qilish darajasi bilan bevosita bog'liq.

Gimnastika sport turida uchraydigan jarohatlar ko'p omilli va murakkab tabiatga ega. Bu sport turi yuqori intensivlik, biomexanik murakkablik va ortiqcha mosh g'ulot yuklamalari bilan tavsiflanadi, bu esa ayniqsa o'smir yoshdagi sportchilar orasida mushak-skelet tizimi, ayniqsa bilak, tirsak, bel umurtqasi, bo'yin, bosh va jag' sohalarida jarohatlar xavfini oshiradi [1,2, 3, 8, 10, 11, 12, 13].

Gimnastikadagi jarohatlar muammosi faqat klinik yoki statistik yondashuv bilan emas, balki tizimli, multidistsiplinar va profilaktik yondashuv asosida hal etilishi mumkin. Sportchilarni uzoq muddatli sog'lom faoliyatga tayyorlash uchun yuklamani individual ravishda nazorat qilish, texnik jihatdan xavfsiz mosh g'ulotlar metodikasini ishlab chiqish va tiklanish bosqichlariga jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi.

Moslashuvchanlikka ta'sir etuvchi omillar va ularning o'zaro bog'liqligi

№	Omillar	Qisqacha tavsifi	Boshqa omillar bilan bog'liqligi
1	Yosh (biologik va pasport yoshi)	Bolaning yoshi moslashuvchanlik salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Yosh ortishi bilan moslashuvchanlik nisbatan pasayadi.	Gormon holati, mushak tuzilmasi, tayyorlov darajasi bilan bog'liq.
2	Jismoniy mosh qlar hajmi va turi	Statik va dinamik cho'zish mosh qlari moslashuvchanlikni oshirishga xizmat qiladi.	Mosh g'ulot davomiyligi, murabbiy metodikasi, mushak holati bilan bevosita bog'liq.
3	Jins (gender)	Qizlar, ayniqsa boshlang'ich bosqichda, yigitlarga nisbatan ko'proq moslashuvchanlikka ega bo'lishadi.	Gormonal omillar va tana tuzilmasi bilan bog'liq.
4	Tana harorati va badan qizdirishga tayyorgarlik	Mosh qdan oldingi badan qizdirishga mosh qlari mushaklarni yumshatib, cho'ziluvchanlikni oshiradi.	Jismoniy tayyorgarlik darajasi va mosh q sharoitlari bilan bog'liq.
5	Mushak va paylarning holati	Qisqargan yoki haddan ortiq zo'riqqan mushaklar moslashuvchanlikni cheklaydi.	Reabilitatsiya, ovqatlanish va tiklanish bilan bog'liq.
6	Muvaffaqiyatli tiklanish	Mosh g'ulotdan keyingi to'liq tiklanish moslashuvchanlikning ortishida muhim rol o'ynaydi.	Uxlash sifati, ovqatlanish, psixologik holat bilan bog'liq.
7	Psixologik holat (motivatsiya, stress)	Qo'rquv, ruhiy bosim va stress holati moslashuvchanlik mosh qlarining sifatiga salbiy ta'sir qiladi.	Murabbiy bilan munosabat, jamoaviy muhit, oilaviy

			qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq.
8	Genetik moyillik	Ayrim bolalarda genetik jihatdan tug'ma egiluvchanlik darajasi yuqori bo'ladi.	Boshqa omillarni kuchaytiruvchi yoki cheklovchi rol o'ynashi mumkin.
9	Murabbiyning bilim va yondashuvi	Moslashuvchanlikni rivojlantirishda to'g'ri metodika, yuklama nazorati va xavfsizlik choralarining e'tiborga olinishi muhim.	Mosh g'ulot sifati, mosh q shakli va sportchining motivatsiyasi bilan bevosita bog'liq.
10	Suvsizlanish va ovqatlanish	Yetarli suyuqlik va oziq moddalar mushaklarning egiluvchanligini va tiklanishiga yordam beradi.	Tiklanish, umumiy jismoniy tayyorgarlik va energiya balansiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich tayyorlov bosqichidagi gimnastikachilarda moslashuvchanlikni shakllantirish ko'plab ichki (biologik) va tashqi (mosh g'ulot, muhit, psixologik) omillarga bog'liq. Ular bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun metodik yondashuv kompleks tarzda olib borilishi lozim.

Xulosa. Sport gimnastikachilarining boshlang'ich tayyorlov bosqichida moslashuvchanlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar ko'p jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi sportchining jismoniy rivojlanishiga va moslashuvchanlik darajasining oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Fiziologik holat, mushak va bo'g'imlarning elastikligi, shuningdek, psixologik tayyorgarlik moslashuvchanlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv va muntazam monitoring yordamida mosh g'ulot jarayoni yanada samarali bo'ladi. Bundan tashqari, gormonal holat va asab tizimining ta'siri ham moslashuvchanlikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ushbu nazariy tahlillar kelgusida amaliy tadqiqotlar va mosh g'ulotlar metodikalarini takomillashtirish uchun mustahkam poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdoy, H., Wilkins, S. G., Sheth, A. H., Salehi, P. P., Lee, Y. H. Epidemiology and patterns of gymnastics-related head & neck trauma injuries: A NEISS database study // The American Journal of Emergency Medicine. – 2024. – Vol. 80. – P. 87–90. – DOI: 10.1016/j.ajem.2024.03.012.
2. Albright, J. A., Meghani, O., Lemme, N. J., Owens, B. D., Tabaddor, R. Characterization of Musculoskeletal Injuries in Gymnastics Participants From 2013 to 2020 // Sports Health. – 2022. – Vol. 15, № 3. – P. 443–451. – DOI: 10.1177/19417381221099005.
3. Ball, J. R., Harris, C. B., Lee, J., Vives, M. J. Lumbar Spine Injuries in Sports: Review of the Literature and Current Treatment Recommendations // Sports Medicine - Open. – 2019. – Vol. 5. – Article 26. – DOI: 10.1186/s40798-019-0199-7.
4. Bayliss, T., Bedi, R. Oral, maxillofacial and general injuries in gymnasts // Injury. – 1996. – Vol. 27, № 5. – P. 353–354. – DOI: 10.1016/0020-1383(96)00017-4.
5. Bell, D. R., Post, E. G., Biese, K., Bay, C., Valovich McLeod, T. Sport Specialization and Risk of Overuse Injuries: A Systematic Review With Meta-analysis // Pediatrics. – 2018. – Vol. 142, № 3. – Article e20180657. – DOI: 10.1542/peds.2018-0657.
6. Benardot, D. Gymnastics // In: Maughan R. J. (ed.) The Encyclopaedia of Sports Medicine. – Wiley, 2013. – P. 596–606. – DOI: 10.1002/9781118692318.ch49.

7. Bener, A., Abdul Rahman, Y. S., Abdel Aleem, E. Y., Khalid, M. K. Trends and Characteristics of Head and Neck Injury from Falls // Sultan Qaboos University Medical Journal. – 2011. – Vol. 11, № 2. – P. 244–251.
8. Benjamin, H. J., Engel, S. C., Chudzik, D. Wrist Pain in Gymnasts: A Review of Common Overuse Wrist Pathology in the Gymnastics Athlete // Current Sports Medicine Reports. – 2017. – Vol. 16, № 5. – P. 322–329. – DOI: 10.1249/JSR.0000000000000398.
9. Bezek, E. M., VanHeest, A. E., Hutchinson, D. T. Grip Lock Injury in Male Gymnasts // Sports Health. – 2009. – Vol. 1, № 6. – P. 518–521. – DOI: 10.1177/1941738109347965.
10. Bittencourt, N. F. N., Meeuwisse, W. H., Mendonça, L. D., Nettel-Aguirre, A., Ocarino, J. M., Fonseca, S. T. Complex systems approach for sports injuries: Moving from risk factor identification to injury pattern recognition-narrative review and new concept // British Journal of Sports Medicine. – 2016. – Vol. 50, № 21. – P. 1309–1314. – DOI: 10.1136/bjsports-2015-095850.
11. Bonazza, N. A., Saltzman, E. B., Wittstein, J. R., Richard, M. J., Kramer, W., Riboh, J. C. Overuse Elbow Injuries in Youth Gymnasts // The American Journal of Sports Medicine. – 2022. – Vol. 50, № 2. – P. 576–585. – DOI: 10.1177/03635465211000776.

Ismoilov Umidjon Sobirjanovich,
Andijon davlat universitet tadqiqotchisi
djnero0611@gmail.com

FIZIKA LABORATORIYA MOSHG'ULOTLARIDA METODIK TA'MINOT VA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH HAMDA NATIJADORLIKNI BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika laboratoriya mosh g'ulotlarida metodik ta'minot va mavjud resurslardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda metodik qo'llanmalar, texnik vositalar va raqamli resurslar integratsiyasi, shuningdek, samaradorlikni baholash mezonlari ishlab chiqildi. Tahlillar natijasida zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish laboratoriya mosh g'ulotlarining sifatini oshirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: fizika laboratoriya mosh g'ulotlari, metodik ta'minot, resurslar, samaradorlik mezonlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования методического обеспечения и имеющихся ресурсов в лабораторных занятиях по физике. В исследовании разработаны критерии оценки эффективности, а также проведена интеграция методических пособий, технических средств и цифровых ресурсов. Результаты анализа показали, что применение современных технологий и интерактивных методов повышает качество лабораторных занятий.

Ключевые слова: лабораторные занятия по физике, методическое обеспечение, ресурсы, критерии эффективности.

Abstract. This article discusses the effective use of methodological support and available resources in physics laboratory classes. The study developed criteria for assessing efficiency and integrated methodological guides, technical tools, and digital resources. The analysis results showed that the use of modern technologies and interactive methods improves the quality of laboratory classes.

Key words: physics laboratory classes, methodological support, resources, efficiency criteria.

Kirish. Fizika laboratoriya mosh g'ulotlari talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash, ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish, tajriba o'tkazish metodologiyasini o'zlashtirish hamda mustaqil ishlash malakasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi [1]. Laboratoriya ishlarida talabalar o'zlari o'rgangan fizik qonuniyatlarni bevosita kuzatish, o'lchash, natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon ularning eksperimental fikrlashini, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini va ilmiy muammolarni hal etish strategiyalarini rivojlantiradi. Ushbu jarayonda metodik ta'minotning mukammalligi, ya'ni aniq va bosqichma-bosqich ko'rsatmalar, tajriba o'tkazish bo'yicha standart protokollar, xavfsizlik qoidalari va nazorat topshiriqlarining mavjudligi katta ahamiyatga ega [2]. Resurslardan oqilona foydalanish - zamonaviy asbob-uskunalar, raqamli o'lchov tizimlari, kompyuter simulyatsiyalari va tajribalarni vizualizatsiya qiluvchi dasturlarni integratsiya qilish orqali erishiladi. Bunda o'quv laboratoriyasining moddiy-texnik bazasini muntazam yangilash va texnik xizmat ko'rsatish ham jarayon sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Samaradorlikni aniqlash mezonlarining aniq belgilanishi esa o'qituvchi va talaba faoliyatini baholash imkonini beradi. Bu mezonlar nafaqat o'zlashtirish darajasini, balki amaliy ko'nikmalarni, tajriba o'tkazish tezligini, o'lchash aniqligini va xavfsizlik qoidalariga rioya etish darajasini ham qamrab oladi. Shu tariqa, laboratoriya mosh g'ulotlarining samaradorligi ko'p omilli tizim bo'lib, uning natijalari to'g'ridan-to'g'ri ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1].

Metodlar. Tadqiqot bir nechta izchil bosqichlarda amalga oshirildi. Avvalo, fizika laboratoriya mosh g'ulotlariga oid mavjud metodik qo'llanmalar, o'quv dasturlari va xalqaro

standart protokollar tahlil qilindi [3]. Bu jarayonda laboratoriya ishlarining maqsad va vazifalari, tajriba o'tkazish bosqichlari, xavfsizlik qoidalari va natijalarni rasmiylashtirish talablari o'rganilib, kuchli va zaif tomonlari aniqlandi. Keyingi bosqichda laboratoriyadagi asbob-uskunalar, raqamli qurilmalar va xavfsizlik vositalari to'liq inventarizatsiya qilindi, jihozlarning ishlash holati, kalibrlash davriyligi va o'quv jarayonidagi qo'llash imkoniyatlari baholandi. Bu bosqichda zamonaviy sensorli qurilmalar, kompyuter interfeyslariga ega o'lchov asboblari va virtual laboratoriya dasturlarining mavjudligi alohida qayd etildi. Shundan so'ng samaradorlik mezonlari ishlab chiqildi, jumladan, pedagogik samaradorlik (bilimlar o'sishi va amaliy ko'nikmalar), texnik samaradorlik (jihozlarning ishlash ishonchligi va aniqligi), vaqt samaradorligi (tajriba bajarish muddatlari), sifat ko'rsatkichlari (o'lchash aniqligi va natijalarni qayta ishlash imkoniyati) [4]. Talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilib, laboratoriya ishlariga tayyorgarlik darajasi, resurslardan foydalanish bo'yicha qoniqish darajasi va metodik materiallar foydaliligi baholandi. Nazorat va tajriba guruhlarida yakuniy bilim testlari tashkil qilindi. Yakuniy bosqichda Student t-mezone yordamida statistik tahlil amalga oshirildi va guruhlar natijalari o'rtasidagi farqning ahamiyatligi ($p < 0.05$) darajasida isbotlandi.

№	Tadqiqot bosqichi	Amalga oshirilgan ishlar mazmuni	Asosiy natija
1	Metodik qo'llanmalar tahlili	O'quv dasturlari, protokollar, xavfsizlik qoidalari va natijalarni rasmiylashtirish talablari tahlil qilindi [3]	Kuchli va zaif tomonlar aniqlandi, tavsiyalar ishlab chiqildi
2	Inventarizatsiya	Jihozlar, sensorlar, virtual dasturlar ro'yxatga olindi va ishlash holati baholandi	Texnik bazaning dolzarbligi va modernizatsiya ehtiyoji aniqlandi
3	Samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish	Pedagogik, texnik, vaqt va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baholash tizimi ishlab chiqildi [4]	Baholashning aniq mezonlari shakllantirildi
4	So'rovnomalar va bilim testlari	Talabalarning tayyorgarlik, qoniqish darajasi va bilimlar o'sishi baholandi	Nazorat va tajriba guruhlarida sifat ko'rsatkichlari taqqoslandi
5	Student t-mezone bo'yicha tahlil	Guruhlar natijalari farqlari statistik jihatdan tekshirildi ($p < 0.05$)	Farqning ahamiyatligi isbotlandi, metodik yondashuv samarali ekani tasdiqlandi

Natijalar. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida zamonaviy raqamli laboratoriya komplekslari va interfaol metodlardan foydalanish talabalar bilim va amaliy ko'nikmalarining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, tajriba guruhidagi talabalar natijalari o'rtacha 14% ga yuqori bo'ldi ($p < 0.05$) [5]. Bu ko'rsatkich laboratoriya mosh g'ulotlarida real vaqt rejimida ishlaydigan raqamli o'lchov asboblari, virtual simulyatsiyalar va interfaol topshiriqlardan foydalanish orqali erishildi.


Tadqiqot natijalarining asosiy ko'rsatkichlari:

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)	Farq (%)	Izoh
O'rtacha bilim natijalari	76	90	+14	Tajriba guruhida raqamli laboratoriyalar va interfaol metodlar qo'llanildi [5]

Tayyorlanish vaqti qisqarishi	-	-	18	Videoqo'llanmalar va virtual simulyatsiyalar tayyorlanish vaqtini qisqartirdi
O'lchash aniqligi	88	95	+7	Zamonaviy sensorlar va kompyuter interfeysli o'lchov asboblari ishlatildi
Tajriba bajarish tezligi	85	93	+8	Raqamli ko'rsatkichlar real vaqt rejimida kuzatildi
Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish	90	97	+7	Metodik ta'minotda xavfsizlik bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi

Videoqo'llanmalar va virtual simulyatsiyalar laboratoriya ishlariga tayyorgarlik vaqtini o'rtacha 18% ga qisqartirdi, bu esa talabalar tomonidan tajribalarni tezroq va aniqroq bajarish imkoniyatini yaratdi. Samaradorlik mezonlari bo'yicha baholash natijalarida tajriba guruhidagi talabalar nafaqat nazariy savollarga yuqori darajada javob berishdi, balki amaliy bosqichlarda ham o'lchash aniqligi va tajriba o'tkazish tezligi bo'yicha nazorat guruhiga qaraganda ustun natijalar ko'rsatdilar. Shu bilan birga, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish darajasi tajriba guruhida 97% bo'lib, nazorat guruhidagi 90% ko'rsatkichdan yuqori ekanligi aniqlandi. Bu esa metodik ta'minotni boyitish va zamonaviy resurslarni integratsiya qilish o'quv jarayonida nafaqat bilim, balki amaliy xavfsizlik madaniyatini ham oshirishga yordam berishini ko'rsatadi.

Nazorat va tajriba guruhlari natijalari diagrammasi:



Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metodik ta'minotni boyitish va resurslarni modernizatsiya qilish laboratoriya mosh g'ulotlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [6]. Bu, avvalo, laboratoriya ishlarida qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar va yangilangan metodik qo'llanmalar orqali talabalarning bilim o'zlashtirish sur'ati, amaliy ko'nikmalari hamda tajriba o'tkazish aniqligi oshishida namoyon bo'ladi. Interfaol simulyatsiyalar, onlayn qo'llanmalar va zamonaviy o'lchov texnologiyalarining uyg'unligi talabalarda eksperimental fikrlash, tahliliy yondashuv va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi [7]. Masalan, Caspersen va Bennedsen (2018) ta'kidlaganidek, "zamonaviy laboratoriya muhiti talabalarga real tajribalarni

xavfsiz va boshqariladigan sharoitda takrorlash imkonini beradi, bu esa nazariy bilimlarni chuqurroq anglashga yordam beradi". Shuningdek, OECD (2020) hisobotida qayd etilishicha, raqamli texnologiyalar yordamida laboratoriya mosh g'ulotlarini tashkil etish nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki talabalarning o'z-o'zini baholash, guruhda ishlash va ilmiy muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu bizning tadqiqotimiz natijalari bilan hamohang bo'lib, tajriba guruhidagi talabalar nazorat guruhiga qaraganda amaliy topshiriqlarni tezroq va aniqroq bajarganini tasdiqlaydi. Kelgusida laboratoriya ishlarini masofaviy ta'lim formatiga moslashtirish, virtual va "digital twin" modellar yaratish, sun'iy intellekt asosida eksperiment natijalarini avtomatik tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv talabalarni zamonaviy ilmiy muhitga tayyorlash, ular orasida tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish va global mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Milliy o'quv dasturi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2023.
2. Abduqodirov A., Tojiboyeva N. Fizika laboratoriya ishlarining metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
3. Anderson, R., Krathwohl, D. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Longman, 2001.
4. UNESCO. Laboratory Safety Guidelines for Science Education. – Paris: UNESCO, 2019.
5. Jones, L., et al. Modern Physics Lab Pedagogy. – Physics Education, 2022.
6. OECD. Effective Teaching in Laboratory Classes. – OECD Publishing, 2020.
7. Caspersen, M. E., Bennedsen, J. Instructional Design for Lab Work. – Springer, 2018.
8. Xudoyberdiyev S. Fizika tajriba mosh g'ulotlarida axborot texnologiyalari. – Toshkent: Universitet, 2020.
9. Bell, T., Urhahne, D. Collaborative Learning in Labs. – Journal of Science Education, 2016.
10. Karimov O. Zamonaviy o'quv laboratoriyalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.

Samadov Sardor Sodiqovich,
Buxoro davlat universiteti, Jismoniy tarbiya va sport fakulteti
Sport nazariya va metodikasi kafedrası dotsenti
s.s.samadov@buxdu.uz

TALABALAR KASBIY FAOLIYATIDA JISMONIY TARBIYA VA SORTNINING ROLI

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy tayyorgarlikning murakkab tarkibi, uning sog'liq va kasbiy faoliyat bilan o'zaro bog'liqligi tahlil etilgan. Jismoniy sog'liq va harakatga doir tayyorgarlik komponentlari asosida talabalarning psixofizik holatini baholash va ularni kelajakdagi kasbiy vazifalarga tayyorlashda sog'lom turmush tarzining o'rni ko'rsatib berilgan. Maqolada sog'liqni ommaviy baholash usullari, yurak-qon tomir tizimi ko'rsatkichlari, maksimal kislorod iste'moli (MKI) va jismoniy holat indekslari asosida sog'liq darajasining aniqlanishi, shuningdek, jismoniy faollikni optimallashtirishga qaratilgan trening metodlari ko'rib chiqilgan. Kasbiy sog'liqni baholashning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari, talabalarning individual sog'liq passportlari bilan bog'liq yondashuvlar asoslangan holda yoritilgan.

Tayanch so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, sog'liq darajasi, somatik sog'liq, kasbiy faoliyat, psixofizik tayyorgarlik, maksimal kislorod iste'moli (MKI), yurak-qon tomir tizimi, sog'lom turmush tarzi, funksional tayyorgarlik, talabalar sog'ligi, jismoniy holat indeksi, harakat qobiliyatlari, differensial yondashuv, intensiv moshg'ulot.

Annotation. This article analyzes the complex structure of physical training, its relationship with health and professional activity. The role of a healthy lifestyle in assessing the psychophysical state of students based on the components of physical health and motor readiness and preparing them for future professional tasks is shown. The article considers methods of mass health assessment, determination of health level based on indicators of the cardiovascular system, maximum oxygen consumption (MKI) and physical condition indices, as well as training methods aimed at optimizing physical activity. Theoretical foundations and practical approaches to assessing professional health, approaches related to individual health passports of students are covered.

Key words: physical fitness, health level, somatic health, professional activity, psychophysical fitness, maximal oxygen consumption (MOC), cardiovascular system, healthy lifestyle, functional fitness, student health, physical condition index, movement skills, differential approach, intensive training.

Аннотация. В статье анализируется сложная структура физического воспитания, его связь со здоровьем и профессиональной деятельностью. Показана роль здорового образа жизни в оценке психофизического состояния студентов на основе компонентов физического здоровья и двигательной готовности и подготовке их к выполнению будущих профессиональных задач. В статье рассматриваются методы массовой оценки здоровья, определения уровня здоровья на основе показателей сердечно-сосудистой системы, максимального потребления кислорода (МПК) и индексов физического состояния, а также методы тренировок, направленных на оптимизацию физической активности. Освещены теоретические основы и практические подходы к оценке профессионального здоровья, подходы, связанные с индивидуальными паспортами здоровья студентов.

Ключевые слова: физическая подготовленность, уровень здоровья, соматическое здоровье, профессиональная деятельность, психофизическая подготовленность, максимальное потребление кислорода (МПК), сердечно-сосудистая система, здоровый образ жизни, функциональная подготовленность, здоровье студентов, индекс физического состояния, двигательные навыки, дифференцированный подход, интенсивные тренировки.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda kasbiy faoliyatning samaradorligi va inson salohiyatidan to'laonli foydalanish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, sog'liq, jismoniy tayyorgarlik va psixofiziologik holatning kasbiy yaroqlilik darajasiga ta'siri zamonaviy tibbiyot, pedagogika va sport fanlarining kesishgan nuqtasida tahlil qilinmoqda. Ilmiy manbalarda shuni ko'rish mumkinki, insonning sog'lig'i va jismoniy holati uning mehnat samaradorligi, kasbiy barqarorligi va uzoq umr ko'rishiga bevosita ta'sir qiladi.

Jismoniy tayyorgarlik ko'plab tarkibiy qismlardan iborat murakkab tizim bo'lib, u somatik sog'liq, funksional holat va harakatga doir tayyorgarlik kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Mazkur komponentlar talabani nafaqat sportdagi, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan sog'liq faqat kasallik yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik deb e'tirof etilgan. Bu ta'rif kasbiy tayyorgarlikning har tomonlama yondashuvini talab etadi.

Bugungi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar sog'lig'ining yomonlashuvi, jismoniy faollik darajasining pasayishi, ortiqcha vazn, yurak-qon tomir, tayanch-harakat tizimi muammolarining ko'payishi - bu kabi omillar kasbiy tayyorgarlik va professional yaroqlilik darajasiga salbiy ta'sir qilmoqda. Shu bois, jismoniy tarbiya fani orqali talabalarning sog'lig'ini saqlash, ularni kasbiy faoliyatga mos jismoniy va psixofizik tayyorgarlik bilan ta'minlash zarurati tug'ilmoqda.

Ushbu maqolada jismoniy tayyorgarlik va sog'liq holatining kasbiy faoliyatga ta'siri, jismoniy madaniyat vositalari orqali mutaxassis sog'lig'ini mustahkamlash va baholash metodlari, shuningdek, talabalarda sog'lom turmush tarziga barqaror motivatsiya shakllantirish yo'llari tahlil qilinadi.

Jismoniy tayyorgarlik murakkab tushuncha hisoblanadi. Ma'lumki, jismoniy rivojlanish (tana tayyorgarligi), funksional va harakatga doir tayyorgarlik kabi tarkibiy qismlar ajratiladi. Zamonaviy yondashuvda jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlikni baholash jismoniy sog'liq tushunchasi bilan birlashtiriladi. Shu sababli, jismoniy tayyorgarlik tizimida ikki asosiy komponentni ajratishni maqsadga muvofiq deb bilamiz: somatik sog'liq va harakatga doir tayyorgarlik. Endi bu komponentlarni batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Akademik V.P.Kaznacheyevning ta'kidlashicha, aholi sog'lig'ini ta'lim va ma'rifat institutlari hamda tizimlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqish zarur. Chunki, aslida, sog'liq ularning asosiy yakuniy mahsuloti hisoblanadi.

Hozirda amal qilayotgan "Jismoniy madaniyat" dasturida qayd etilishicha, jismoniy madaniyat sohasidagi ta'limning natijasi sifatida sog'lom va samarali turmush tarziga, jismoniy o'zini takomillashtirishga barqaror motivatsiya va ehtiyoj shakllanishi, uning vositalari va usullarini ijodiy qo'llash bo'yicha shaxsiy tajriba orttirish hamda belgilangan darajadagi psixofizik tayyorgarlikka erishish ko'zda tutiladi.

Kelajakdagi kasbiy faoliyat va insonning sog'lig'i o'rtasidagi bog'liqlik shubhasizdir. Sog'liqning mutaxassisning kasbiy uzoq umriga va ish jarayonida kasbiy kasalliklarning kelib chiqishiga ta'siri muhimdir.

Sog'liq - eng ulug' ijtimoiy boylik. Yaxshi sog'liq - insonning biologik va ijtimoiy funksiyalarini bajarishi, shaxsning o'zini namoyon qilishi uchun asosiy shartdir. Sog'liq tushunchasi ancha oldin shakllantirilgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, sog'liq - bu faqat kasalliklarning yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir.

O'tgan yillar davomida sog'liq tushunchasi bir necha bor to'ldirildi va aniqlashtirildi, ammo bir qator mualliflarning fikriga ko'ra, 300 dan ortiq turli variantlar mavjud bo'lsa-da, metodologik nuqtai nazardan eng maqbul ta'rif shu hisoblanadi. Ko'plab mualliflar sog'liqni organizmning o'zgaruvchan muhit sharoitlariga moslashish qobiliyati bilan bog'laydilar. Moslashuv - bu organizmning vaqt o'tishi bilan tashqi muhitning bir xil sharoitlariga tobora moslashib borishi, yangi sharoitlarga ham moslasha olish qobiliyati, hatto ular noqulay bo'lsa ham va aksincha, tashqi muhitni o'z imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashtirishdir.

Shu bilan birga, insonga ta'sir qiluvchi omillar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi: ijtimoiy omillar; gigiyenik omillar; psixologik omillar.

V.P.Kaznacheyevning ta'kidlashicha, "sog'liq - bu fiziologik, biologik va psixologik funksiyalarni saqlash va rivojlantirish jarayoni, optimal mehnat va ijtimoiy faollik, faol ijodiy hayotning maksimal davomiyligi".

Bunday yondashuv tabiiy tanlanishni kuchaytiruvchi va unga qarshi turuvchi ikki turdagi omillarning ta'sirini hisobga olish imkonini beradi. Natijada, har bir populyatsiya o'zining muayyan muhit sharoitlariga moslashish darajasi bilan belgilanadigan sog'liq tuzilmasini shakllantiradi.

Inson sog'lig'ining asosiy mezoni yurak - qon tomir tizimining ish qobiliyati hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida sog'liq zaxiralarini aniqlashda ustuvor usul sifatida "funksional" yondashuv qo'llanilib keldi. Bu yondashuv maksimal kislorod iste'moli (MKI)ni aniqlashga asoslangan edi. Ammo, bunday yondashuvning keng miqyosda, ayniqsa, ommaviy test sinovlarida qo'llanilishi qiyinchilik tug'diradi.

Shu sababli, so'nggi 20 - 30 yil ichida aholini ommaviy tekshirishda sog'liqni miqdoriy jihatdan baholash muammosi dolzarb ahamiyat kasb etdi. Olimlar tez o'lchanadigan ayrim ko'rsatkichlarning matematik bog'liqligini va umumiy sog'liq holatini baholashda foydalanishni boshladilar.

Akademik N.M.Amosov sog'liq miqdorini asosiy funksional tizimlarning "zaxira quvvatlari" yig'indisi sifatida aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi. Bu zaxira quvvatlarini esa "zaxira koeffitsienti" orqali ifodalash lozim, ya'ni funksiyaning maksimal miqdorini uning normal tinch holatdagi darajasiga nisbatan.

Bir qator tadqiqotlarda "jismoniy holat darajasi", "somatik sog'liq", "sog'liq darajasi", "jismoniy holat indeksi" kabi tushunchalarni hisoblash taklif etiladi. Bu tushunchalar inson sog'lig'ini umuman baholash imkonini beradi. Sog'liq darajasi - bu shaxsning sog'lig'ini tavsiflovchi belgilarining ifodalanaganlik darajasi sifatida tushuniladi.

Somatik sog'liq esa inson organlari va tizimlarining joriy holati bo'lib, uning asosi sifatida shaxsning biologik rivojlanish dasturi yotadi.

Bunday yondashuvlar sog'lom kishilarning sog'lig'ini baholash va o'rganish, shuningdek, kasalliklarni davolashdan ko'ra, ularning oldini olishga e'tiborni qaratish imkonini beradi.

R.M.Bayevskiyning fikriga ko'ra, insonning barcha kasalliklari organizmning norma va patologiya o'rtasidagi holatidan kelib chiqadi. Bugungi kunda ishchilarning 50% dan 80% gacha bo'lgan qismi ana shunday xavfli holatda turibdi va bu ularning samarali ishlashiga to'sqinlik qilmoqda.

V.P.Petlenko va D.N.Davidenko ning so'zlariga ko'ra, "men hali kasal emasman, lekin allaqachon sog'lom ham emasman" degan tasviriy ifoda bilan ifodalanuvchi kasallik oldi yoki sog'lom emaslik holati mavjud.

Ilmiy tadqiqotlarning eng muhim natijalaridan biri sifatida "sog'liqning xavfsiz darajasi" tushunchasining asoslanishi bo'ldi. Bu daraja biotizimning energiya potentsiali diagnostik modeli bilan bog'lanadi. MKI (maksimal kislorod iste'moli) - erkaklar uchun 40 - 42 ml/min/kg va ayollar uchun 33 - 35 ml/min/kg deb belgilanadi.

Besh balli tizimda baholashda, "o'rtachadan yuqori" darajaga ega bo'lganlarning 3,65% ida surunkali kasalliklar mavjudligi aniqlangan, "yuqori" daraja esa deyarli to'liq sog'lomlikni anglatadi.

Bunday yondashuv K.Kuperning klassik qarashlarini rivojlantiradi. U birinchi bo'lib funksional tayyorgarlikning yetarli darajasini baholash mezonlarini shakllantirgan edi. So'nggi 10 - 15 yil ichida olib borilgan ko'plab tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi paytda erkaklar va ayollar uchun funksional tayyorgarlikning talab etiladigan darajasi sezilarli darajada oshgan. K.Kuperning tadqiqotlari bilan solishtirganda, maksimal kislorod iste'moli (MKI)ning "yaxshi" va "a'lo" darajalari chegarasi 10 ml/min/kg dan ortiq ko'tarilgan. Endi a'lo

darajadagi funksional tayyorgarlik erkaklar uchun 50 - 55 ml/min/kg va ayollar uchun 48 -50 ml/min/kg ni tashkil etadi.

Kasbiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar kasbiy sog'liqni inson organizmining muayyan kompensator va himoya xususiyatlarini saqlab qolish qobiliyati sifatida tushunadilar. Bu xususiyatlar kasbiy faoliyat sharoitida ish qobiliyatini ta'minlaydi.

Mutaxassislar kasbiy sog'liqni organizmning boshqaruv xususiyatlarini, uning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy farovonligini saqlash va rivojlantirish jarayoni sifatida ko'radilar. Bu esa kasbiy faoliyatning yuqori ishonchliligini, kasbiy uzoq umrni va maksimal umr davomiyligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, sog'liq kasbiy faoliyatning talablariga javob berishi va uning yuqori samaradorligini ta'minlashi lozim.

E.M.Kozinning fikriga ko'ra, insonning kelajakdagi kasbiy faoliyatini ko'rib chiqishda uning sog'liq holatini hisobga olish zarur. AQShda sog'liqni samarali foydalanish koeffitsienti (ijtimoiy faoliyat nuqtayi nazaridan) taxminan 20% ni tashkil qiladi. Rossiyada esa bugungi kunda bu ko'rsatkich faqat 3–5% holatlarda kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, gap faqat sog'liqning yetarli darajasi haqida emas, balki uning samaradorligi haqida ketmoqda. Ya'ni, insonning tug'ma qobiliyatlari (gumanitar, matematik va boshqalar) shunday imkoniyatlarni ta'minlaydiki, ular orqali mehnat yoki ijtimoiy faoliyat uchun sarflangan jismoniy, biologik va psixologik sog'liqni sezilarli darajada yoki to'liq tiklash mumkin bo'ladi.

Kelajakdagi mutaxassisning kasbiy mahoratiga yo'naltirilgan dastlabki qadamlar uning kasb-hunar o'rganishidan boshlanadi. B.G.Akchurinning ta'kidlashicha, sog'liq va kelajakdagi kasbiy faoliyatning o'zaro bog'liqligini e'tiborga olsak, jismoniy sog'liq talabaning jismoniy rivojlanishi, harakat ko'nikmalari va malakalari darajasini aks ettiradi. Bu esa uning ijodiy imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishga imkon beradi.

Jismoniy sog'liq faqatgina kelajakdagi mutaxassis uchun istalgan sifat emas, balki uning shaxsiy tuzilmasining zaruriy elementi bo'lib, ijtimoiy munosabatlarni qurish va rivojlantirish uchun zarur shart hisoblanadi.

V.A.Kovalenkoning ishida sog'liqning klassik va keng qamrovli ta'rifi (jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik sifatida) kasbiy sog'liq haqida gap ketganda ma'lum darajada tuzatishni talab qiladi. Bunday holda, sog'liqning talqinida birinchi o'ringa biologik tarkibiy qismlar va ijtimoiy-texnik muhitning o'zaro ta'sirini ta'minlovchi psixofizik bog'liqlik elementlari chiqadi.

Ba'zi mualliflar sog'liqni kasbiy mahoratning eng muhim jihatlaridan biri sifatida ko'rsatadilar. Boshqalar esa sog'liqni mutaxassisning psixofizik tayyorgarligi orqali ifodalaydilar va uni quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb biladilar: yetarli kasbiy ish qobiliyati; ishlab chiqarish va tashqi muhitning tez o'zgarib turadigan sharoitlariga o'z vaqtida moslashish uchun zarur bo'lgan jismoniy va funksional imkoniyatlar zaxiralarining mavjudligi; belgilangan vaqt ichida to'liq tiklanish qobiliyati; maqsadga erishishda motivatsiyaning mavjudligi.

Talabalar sog'lig'i muammosiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda bu muammo yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Tadqiqotlarda maxsus tibbiy guruhga mansub talabalar sonining 10% dan 20-25% gacha oshgani, ba'zi oliy o'quv yurtlarida esa bu ko'rsatkichning 40% ga yetgani qayd etilgan. Bashoratlarga ko'ra, 2005 yilga kelib talabalar umumiy sonining 50% ini tashkil etishi mumkin.

Oliy ta'lim davomida talabalar sog'lig'i yaxshilanmaydi, aksincha, ayrim mualliflar uning yomonlashayotganini ta'kidlashmoqda. Og'irlikning asossiz oshishi erkaklarning 53% va ayollarning 64% ida kuzatilmoqda. Ikkinchi kursga kelib kasalliklar soni 23% ga, to'rtinchi kursga kelib esa 43% ga oshadi. Talabalarning to'rt foizida tibbiy guruhga mansublikning yomonlashuvi qayd etilgan.

Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kasalliklarning kelib chiqishiga oziqlanishning tashkil etilishi, moddiy yetishmovchilik,

oiladagi psixologik muhit va oilaviy holat sezilarli darajada ta'sir qiladi. Ushbu omillarning umumiy ulushi 86,9% ni tashkil etadi.

V.I.Krasilnikovning ishida yoshlarning jismoniy holat darajasiga ta'sir qiluvchi omillarning tahlili keltirilgan: jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanish, ish yoki o'quv smenasining davomiyligi, kasalliklar, profilaktik emlashlar, muntazam oziqlanish, ota-onalar kasalliklari va oilada yashash. Muallifning quyidagi xulosasi muhim: sog'liq va jismoniy rivojlanishning eng muhim mezoni sifatida jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanish ajralib turadi.

Maktab o'quvchilari orasida funksional buzilishlar tuzilmasida birinchi o'rinda endokrin almosh inuv buzilishlari turadi; undan keyin yurak-qon tomir tizimi buzilishlari, jumladan, neyrosirkulyator distoniya; suyak-mushak tizimi funksional buzilishlari; asab tizimi kasalliklari va ko'rishning buzilishi qayd etilgan.

Talabalar orasidagi kasallanish holatlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda dunyo bo'yicha ham, mamlakatda ham birinchi o'rinda yurak-qon tomir tizimi kasalliklari turadi. Ikkinchi o'rinda - tayanch-harakat tizimi kasalliklari (osteoxondroz, skolioz va boshqalar), uchinchi o'rinda esa - nafas olish organlari kasalliklari turadi. Bu kasalliklarning barchasi hayotiy faoliyatni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Talabalarning funksional holatini o'rganish ularning umumiy sog'liq holati quyidagi ko'rsatkichlarga ega ekanini aniqladi: yuqori daraja - 1,8%; o'rta daraja - 7,7%; past daraja - 21,5%; juda past daraja - 69%.

Harakatga doir tayyorgarlik. Bu - harakat sifatlarining zarur darajada rivojlanishi va harakat ko'nikmalarining shakllanganlik darajasidir. Insonning harakat qobiliyatlarining asosini jismoniy sifatlar tashkil etadi, ularning namoyon bo'lish shakli esa harakat malakalari va ko'nikmalaridir.

Harakat qobiliyatlari quyidagilardan iborat: kuchli, tezkor, tezkor - kuchli, harakatlarni muvofiqlashtiruvchi qobiliyatlar, umumiy va maxsus chidamlilik. Harakat qobiliyatlari - bu insonning harakat imkoniyatlarini belgilovchi individual xususiyatlar hisoblanadi.

Jismoniy mosh qlar harakat qobiliyatlarini tarbiyalashning asosiy vositasi hisoblanadi. Ular insonning kuch, tezlik, chidamlilik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Normativlar shunday hisoblangan ediki, ularni talablarning 20% i "oltin nishon", keyingi 40% i "kumush nishon" olish darajasida bajarishi kerak edi, qolgan 30% ning natijalari qoniqarli, so'nggi 10% ning natijalari esa qoniqarsiz deb baholangan.

Ushbu normativlar asosida o'quv yilining boshida va oxirida talabalar quyidagi majburiy testlardan o'tkaziladi: Tezlikni baholash - 100 metrga yugurish; Kuchni baholash - turnikda tortinish (yigitlar) va yotgan holatdan qo'llarni bosh ortiga qo'yib gavdani egish (qizlar); Chidamlilikni baholash - qizlar uchun 2000 metrga, yigitlar uchun 3000 metrga yugurish.

Ta'lim jarayonida ko'rsatkichlarning dinamikasini ko'rib chiqishda ko'pgina mualliflar talabalarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarning ikkinchi kursning oxiriga kelib yaxshilanish tendensiyasini va yuqori kurslarda esa keyinchalik pasayishini qayd etishadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maxsus tashkil etilgan o'quv jarayoni talabalarning aksariyatiga belgilangan normativlarni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi. Biroq, ba'zi mualliflar barcha uchta normativni faqat 30 - 40% talabalar bajara olishini ta'kidlamoqda.

Shubhasizki, talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini "yaxshi" va "a'lo" darajaga yetkazish uchun harakat faolligini optimallashtirish zarur. Bu faollik haftasiga 6 - 8 soatdan 10 -12 soatgacha bo'lishi lozim.

Biroq, talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishning kengaytirilgan usuli kasbiy tayyorgarlik uchun vaqt tanqisligi va mustaqil mosh g'ulotlarga motivatsiyaning yetishmasligi bilan ma'lum darajada zid keladi. Shu sababli, tadqiqotchilar intensiv tayyorlash usullariga e'tibor qaratmoqdalar. Jismoniy tarbiya sohasida bunday usullar quyidagilardan iborat: individual-differensial yondashuv; aylanma mosh g'ulot oqimli-aylanma tizimi asosida mosh g'ulotlarni tashkil etish; trenajyor uskunalari va hisoblash texnikasini qo'llash.

Bu usullar mosh g'ulotlarga individual yondashuvni, ko'plab parametrlarga e'tibor berishni va ularni tuzatishni, shuningdek, natijaga erishishga motivatsiyani oshirishni nazarda tutadi.

So'nggi 10 - 15 yil ichida bir qator oliy ta'lim muassasalarida "kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy psixofizik tayyorgarligi pasportlari", "sog'liq pasportlari", "jismoniy holat pasportlari" va boshqa normativ ko'rsatkichlar ishlab chiqildi. Ular kasbiy ta'lim jarayonida jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilganlarning barchasi shuni tasdiqlaydiki, jismoniy tarbiya sohasidagi mutaxassislar allaqachon jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish muammosi ustida faol ishlamoqda. Ammo kelajakdagi mutaxassislarning jismoniy tayyorgarligini baholash va boshqarishning yagona tizimi hanuzgacha dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy kasbiy faoliyatda jismoniy sog'liq va tayyorgarlik darajasi mutaxassislarning samaradorligi va kasbiy uzoq umriga bevosita ta'sir qiladi. Jismoniy tayyorgarlik faqat sport faoliyati uchun emas, balki kasbiy mehnatga moslashuvchanlik, chidamlilik, psixofizik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim muassasalarida sog'liqni diagnostik baholash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va harakat faolligini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion trening metodikalarini joriy qilish zarurati mavjud.

Jismoniy sog'liq va funksional holatni tizimli ravishda nazorat qilish, talabalar uchun "sog'liq pasporti", "jismoniy holat indeksi" kabi yondashuvlarning joriy etilishi kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga, kasbiy yaroqlilikni ta'minlashda harakatga doir qobiliyatlarning rivojlanish darajasi, sog'liqni tiklash zaxiralari va motivatsion omillar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Амосов Н.М. Размышления о здоровье. – М.: Молодая гвардия, 1987. – 254 с.
2. Казначеев В.П. Проблемы адаптации и здоровья населения. – Новосибирск: Наука, 1980. – 296 с.
3. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – М.: Просвещение, 1996. – 304 с.
4. Гуревич К.М. Проблемы профессионального отбора и профпригодности. – Л.: Наука, 1983. – 216 с.
5. Красильников В.И. Основы физической культуры и спорта: Учебное пособие. – М.: Академия, 2007. – 288 с.
6. Петленко В.П., Давиденко Д.Н. Социальная гигиена и организация здравоохранения. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2004. – 352 с.
7. Козин Е.М. Здоровье и профессиональная пригодность: Монография. – М.: Современная педагогика, 2011. – 182 с.
8. Байевский Р.М. Индивидуальное здоровье: Мониторинг и управление. – М.: Медицина, 2000. – 240 с.
9. Всемирная организация здравоохранения. Конституция ВОЗ // Принята в 1948 г. – Женева: ВОЗ, 2006.
10. Купер К. Аэробика для хорошей жизни. – М.: Физкультура и спорт, 1989. – 168 с.
11. Акчурун Б.Г. Здоровье и трудовая деятельность. – Ташкент: Fan, 1998. – 132 б.
12. Назарова И.М. Физическое воспитание студентов: теория и методика. – СПб.: Лань, 2019. – 352 с.
13. Коваленко В.А. Профессиональное здоровье будущего специалиста. – М.: Инфра-М, 2012. – 224 с.
14. Турсунов Ш.Т. Jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 200 b.

15. Салимов С.С. Оliy ta'limda jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2020. – 180 b.
16. Mustafoev N.N., Toshxo'jayev Z. Talabalarning sog'lig'ini saqlashda jismoniy tarbiya mosh g'ulotlarining o'rni // Pedagogik ta'lim muammolari. – 2023. – №2. – B. 68–74.
17. Халилов А.К. Физическая культура как основа профессионального долголетия. // Спорт и здоровье. – 2021. – №4. – С. 45–49.
18. Beknazarov R. Talabalarda jismoniy faollik darajasini baholash metodikasi // Jismoniy tarbiya va sport. – 2023. – №1. – B. 23–27.
19. Daminov A.S. Jismoniy tayyorgarlikning sog'liq darajasiga ta'siri // Oliy ta'limda sog'liqni saqlash muammolari. – 2022. – №3. – B. 41–46.

Saidova Zilola Gadoymurodovna,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

PEDAGOGIK YO'NALISHDAGI OLIY TA'LIM VA UMUMIY O'RTA TA'LIM INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimlarining integratsiyasini takomillashtirishning shakl, usul va vositalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim jarayonida uzviylikni ta'minlash, o'quv dasturlarini muvofiqlashtirish, pedagoglarning malakasini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhimligi qayd etilgan. Shuningdek, integratsiyaning mavjud muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari yoritiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik tizimni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishda samarali yechimlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: pedagogik integratsiya, oliy ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, ta'lim sifati, o'quv dasturlari, pedagogik texnologiyalar, malaka oshirish, innovatsion usullar, uzviylik, hamkorlik.

Аннотация. В данной статье будут проанализированы формы, методы и средства совершенствования интеграции систем высшего и среднего общего образования педагогического профиля. В исследовании отмечается важность обеспечения преемственности в образовательном процессе, координации учебных программ, повышения квалификации педагогов, внедрения современных педагогических технологий. Также будут освещены существующие проблемы интеграции и пути их преодоления. **Аннотация.** В данной статье будут проанализированы формы, методы и средства совершенствования интеграции систем высшего и среднего общего образования педагогического профиля. В исследовании отмечается важность обеспечения преемственности в образовательном процессе, координации учебных программ, повышения квалификации педагогов, внедрения современных педагогических технологий. Также будут освещены существующие проблемы интеграции и пути их преодоления. Результаты исследования предлагают эффективные решения в развитии педагогической системы и повышении качества образования.

Ключевые слова: педагогическая интеграция, высшее образование, общее среднее образование, качество образования, учебные программы, педагогические технологии, повышение квалификации, инновационные методы, преемственность, сотрудничество

Annotation. This article analyzes the forms, methods and means of improving the integration of higher education and general secondary education systems in the pedagogical direction. The study noted the importance of ensuring continuity in the educational process, coordination of educational programs, training of educators and the introduction of modern pedagogical technologies. Also, the existing problems of integration and ways to eliminate them will be highlighted. **Annotation.** This article analyzes the forms, methods and means of improving the integration of higher education and general secondary education systems in the pedagogical direction. The study noted the importance of ensuring continuity in the educational process, coordination of educational programs, training of educators and the introduction of modern pedagogical technologies. Also, the existing problems of integration and ways to eliminate them will be highlighted. The results of the study offer effective solutions to develop the pedagogical system and improve the quality of Education.

Key words: pedagogical integration, higher education, general secondary education, quality of education, educational programs, pedagogical technologies, professional development, innovative methods, continuity, cooperation

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi doimiy ravishda o'zgarib, rivojlanib bormoqda. Ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash,

shuningdek, yosh avlodning bilim va ko'nikmalarini yuqori darajaga ko'tarish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, pedagogik yo'nalishdagi ta'lim jarayonida oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim o'rtasida uzviy va samarali integratsiyani ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim o'rtasida integratsiya nafaqat ta'limning uzluksizligini ta'minlaydi, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llash imkonini beradi. Bu jarayon o'qituvchilar va talabalarning malakasini oshirish, ta'lim mazmunini boyitish, hamda pedagogik faoliyat sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari bilan maktablar o'rtasida doimiy hamkorlik va tajriba almosh inuvi tashkil etilishi lozim. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan yaratilgan nazariy bilimlar va ilmiy tadqiqotlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliyotga tatbiq etilishi ta'lim jarayonini yangilashga, o'quvchilarning bilim olishiga yangi imkoniyatlar yaratishga ko'maklashadi. Shu bilan birga, maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlikda o'z pedagogik mahoratini oshirib, o'quv jarayonida ilg'or metod va texnologiyalarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bugungi kunda pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimida oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'limning uzviy bog'liqligi va integratsiyasi ta'limning umumiy samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bois, bu ikki ta'lim bosqichi o'rtasidagi integratsiya shakllari, usullari va vositalarini aniqlash, ularni takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etish masalalari jiddiy ilmiy-amaliy izlanishlarni talab qiladi. Ta'limning turli bosqichlari o'rtasida uyg'unlik va hamohanglikni ta'minlash orqali o'quvchilarda o'rganishga bo'lgan qiziqish uyg'otish, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, pedagogik kadrlarning tayyorlanishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish mumkin bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasida samarali integratsiya jarayonlarini tashkil etish – ta'lim sohasida muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Maqolaning asosiy maqsadi pedagogik yo'nalishda oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini yanada takomillashtirish, mavjud shakllar, usullar va vositalarni o'rganish hamda ular asosida samarali ta'lim tizimini shakllantirishdir. Shu bilan birga, integratsiya jarayonlarining ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish yo'llari tahlil qilinadi.

Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimlarining integratsiyasini takomillashtirish muammolarini kompleks tarzda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ta'lim jarayonining ikki bosqichi o'rtasidagi uzviylik va o'zaro ta'sirni chuqur tahlil qilish, mavjud integratsiya shakllari, usullari va vositalarini aniqlash hamda ularning samaradorligini baholash uchun turli ilmiy tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqotda nazariy yondashuvlar bilan bir qatorda amaliy metodlar ham keng qo'llanilib, ta'lim jarayonining dolzarb muammolarini yechish uchun kompleks yechimlar taklif qilindi.

Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish uchun avvalo pedagogika, ta'lim nazariyasi va metodikasi sohasidagi mavjud ilmiy manbalar tahlil qilindi. Shu jumladan, oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasiga oid mahalliy va xalqaro tadqiqotlar, metodologik qo'llanmalar va strategik hujjatlar batafsil ko'rib chiqildi. Bu nazariy bazani yaratish ta'lim jarayonining har ikki bosqichida yuzaga keladigan pedagogik muammolarni tizimli yondashuv bilan o'rganishga imkon berdi.

Ma'lumot yig'ish bosqichida turli metodologik vositalar qo'llanildi. Birinchi navbatda, oliy ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi pedagogik faoliyatni bevosita kuzatish amalga oshirildi. Kuzatuv orqali integratsiya jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik shakllar va usullar amaliy kontekstda tahlil qilindi, ular samaradorligini baholash uchun real holatlar o'rganildi.

Shuningdek, oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimlaridagi pedagoglar, metodistlar, ta'lim boshqaruvchilari va talabalarning fikr-mulohazalarini to'plash maqsadida so'rovnomalar va strukturali intervyular o'tkazildi. Bu usullar orqali integratsiyaning amaliy qiyinchiliklari,

mavjud kamchiliklar hamda samarali pedagogik vositalar haqida aniq ma'lumotlar yig'ildi. So'rov va intervyular natijalari sifat tahlili yordamida tizimli ravishda o'rganildi, pedagoglarning tajribasi va qarashlari asosida tahliliy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotda eksperimental usul ham qo'llanildi. Bu yo'l bilan yangi integratsiya shakllari va pedagogik metodlar sinovdan o'tkazildi. Eksperiment davomida olingan natijalar ta'lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlarning samaradorligini o'lchash imkonini berdi. Eksperimental ishlar ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan takliflar ishlab chiqishga yordam berdi.

Tadqiqotning tahliliy qismida yig'ilgan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari yordamida chuqur o'rganildi. Sifat tahlili asosida so'rovnoma va intervyular natijalari, pedagogik amaliyotdagi kuzatuvlar, shuningdek eksperimental jarayonlar tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil usullari yordamida esa so'rovnoma ma'lumotlari statistik jihatdan qayta ishlanib, ularning ishonchligi va dolzarbligi tekshirildi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi ta'limning ikki bosqichidagi pedagogik jarayonlarning uzviyligini ta'minlash, ularning integratsiyasini yanada takomillashtirish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun kompleks va tizimli yondashuvni yaratishga xizmat qildi. Bu esa ta'lim sifatining oshishi, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi, shuningdek, o'quvchilar va talabalar bilim va ko'nikmalarining yanada samarali shakllanishiga olib keladi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini takomillashtirishda muhim ilmiy natijalar qo'lga kiritildi. Ushbu natijalar nazariy jihatdan ta'lim tizimining ikki bosqichi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va amaliy jihatdan pedagogik jarayonlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Avvalo, oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimlari o'rtasidagi pedagogik integratsiyaning samarali shakllari aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bu shakllar asosida o'quv dasturlarining uzviy bog'liqligi, o'qituvchilar o'rtasidagi pedagogik hamkorlik, metodik ta'minotning yagona tizimi hamda innovatsion o'quv texnologiyalarining umumiy qo'llanilishi joy oladi. Shu bilan birga, ikki bosqichdagi ta'lim sifatini yaxshilash uchun o'quvchilarning va talabalarining pedagogik rivojlanishini muvofiqlashtirish zarurati aniqlandi.

Tadqiqot davomida amaliyotda qo'llanilayotgan pedagogik usullar va vositalarning samaradorligi baholandi. Eksperimental sinovlar natijasida oliy ta'limda qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik yondashuvlar umumiy o'rta ta'limda ham muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkinligi tasdiqlandi. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilar va ta'lim boshqaruvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnomalar va intervyular orqali pedagogik integratsiya jarayonidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlab olindi. Jumladan, kadrlar tayyorlash jarayonida o'quv dasturlarining mazmuni va metodikasini yaxshilash, o'qituvchilar malakasini doimiy oshirish hamda ta'limning barcha bosqichlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurati alohida ta'kidlandi. Ilmiy izlanishlarda shuningdek, oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun samarali mexanizmlar ishlab chiqildi. Bu mexanizmlar orasida o'quv-uslubiy komplekslarni yaratish, umumiy pedagogik seminarlar va treninglarni tashkil etish, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish uchun integratsiyalashgan dasturlar ishlab chiqish kabi takliflar mavjud.

Oliy ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rtasidagi o'zaro bog'lanish va hamkorlik ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Integratsiya jarayonining samaradorligi pedagogik innovatsiyalarni qo'llash, o'quv jarayonining modernizatsiyasi va o'quvchilarni zamonaviy bilimlarga tayyorlashda yaqqol namoyon bo'ladi. Amaliyotda mavjud bo'lgan muammolarni aniqlashga va ularni yechish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishga ham yordam berdi. Ushbu tavsiyalar pedagogik ta'lim jarayonini optimallashtirish, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi interaktivlikni oshirish hamda ta'lim

sifatini doimiy yaxshilash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimlarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish ta'lim jarayonida uzviylik va izchillikni ta'minlash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda ta'lim jarayonining zamonaviy talablarga javob berishini ta'minlashda muhim omildir.

Oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari hamda talabalari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari pedagogik integratsiyaning dolzarbligi va uning samaradorligi haqida qimmatli ma'lumotlar berdi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 78 foizi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash pedagogik jarayon sifatini oshirish uchun zarur deb hisoblaydi. Shu bilan birga, 65 foiz respondent pedagogik integratsiyaning mavjud shakllaridan to'liq foydalanilmayotganini ta'kidlagan.

Pedagoglarning 82 foizi o'quv dasturlarining muvofiqlashtirilishi ta'lim sifatining yaxshilanishida muhim omil ekanligini ta'kidladi. Bundan tashqari, 70 foiz respondentlar o'qituvchilar o'rtasidagi pedagogik hamkorlik darajasi yyyetarlicha emasligini qayd etdi.

Eksperimental ishlar natijasida yangi integratsiya usullarini qo'llash o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini 25 foizga, mustaqil ishlash ko'nikmalarini esa 30 foizga oshirgani aniqlangan. Shuningdek, talabalarining ijodiy fikrlash darajasi 18 foizga yaxshilanganligi kuzatildi.

Tadqiqotda ishtirok etgan pedagoglarning 90 foizi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam berishini bildirgan. Biroq, 40 foiz respondentlar bu texnologiyalarning integratsiyasi uchun yetarli imkoniyatlar mavjud emasligini ta'kidlagan.

Shu tariqa, statistik tahlillar pedagogik yo'nalishda oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini rivojlantirishda mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlashda asosiy manba bo'ldi.

Oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimlarining integratsiyasini takomillashtirish yo'llarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etishdir. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida ikki bosqich o'rtasida uzviylik va izchillikni ta'minlash, ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu integratsiya jarayoni nafaqat o'quv dasturlarining mazmuniy uyg'unligini ta'minlash, balki pedagogik kadrlarning malakasini oshirish, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida boyitish va boshqaruvni muvofiqlashtirishni talab qiladi.

So'rov va intervyular natijalari pedagogik integratsiyaning hozirgi holatiga yorqin baho berdi. Ko'pchilik respondentlar pedagogik jarayonlarda uzviylikni ta'minlash uchun integratsiyalashgan yondashuvlarning yetishmasligini ta'kidladilar. Bu holat o'quvchilarning oliy ta'limga tayyorgarlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, natijada oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni murakkablashadi. Shu sababli, integratsiyani kuchaytirish ta'lim sifatini yaxshilash uchun muhim yo'nalish ekanligi aniqlandi.

Pedagoglarning fikricha, o'quv dasturlarining muvofiqlashtirilishi pedagogik jarayonning uzviyligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ammo amaliyotda o'quv dasturlari orasida sezilarli tafovutlar mavjudligi ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda. Shu bois, o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy talablar asosida moslashtirish va integratsiyalashgan shaklda ishlab chiqish zarur. Bu jarayon ta'lim kontentining uzviyligini oshirib, o'quvchilar va talabalar bilimini yanada mustahkamlaydi.

Eksperiment natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi samaradorligini tasdiqladi. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshirish, balki mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq, bunday texnologiyalarning samarali integratsiyasi uchun moddiy-texnik baza, pedagoglarning malakasi va uslubiy ta'minotning yuqori darajasi talab etiladi.

Muloqot va hamkorlik tizimining rivojlanishi integratsiyaning muhim omili sifatida ko'rsatildi. Oliy ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rtasida muntazam pedagogik seminarlar, tajriba almosh ish, qo'shma loyihalar va treninglarning tashkil etilishi ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu jarayon o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash va pedagogik yondashuvlarni yagona platformada uyg'unlashtirish imkonini beradi. Tadqiqotda pedagoglar o'rtasida hamkorlik va pedagogik hamjihatlik madaniyatini rivojlantirish zaruriyati yuzaga chiqdi. Bu nafaqat o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etishda, balki ta'limning barcha qatlamlarida uzviylikni ta'minlashda ham asosiy vazifa sifatida ko'rilmoqda. O'zaro tajriba almosh ish, birgalikda ishlash va muammolarni hal qilish uchun sharoitlar yaratish pedagogik tizimning barqarorligini oshiradi.

Muhokama davomida ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar ko'rib chiqildi. Ularning eng asosiylari sifatida metodik ta'minotning yetishmasligi, o'qituvchilarning malaka oshirish tizimidagi sustkashlik, texnologiyalarni to'liq qo'llash imkoniyatlarining cheklanganligi hamda o'quv dasturlarining zamonaviy talablarga javob bermasligi ko'rsatildi. Bu muammolarni hal etish uchun tizimli yondashuv zarur bo'lib, u nafaqat pedagogik, balki tashkiliy va moliyaviy chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Pedagogik tizimni modernizatsiya qilishda ijtimoiy va madaniy omillarning rolini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. O'quvchilarning va talabalarining shaxsiy qiziqishlari, ijtimoiy muhit, oilaviy va madaniy ta'sirlar ta'lim jarayonining muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, integratsiya jarayonida ularni hisobga olish, ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim jihat sifatida o'quv jarayonida doimiy baholash tizimini takomillashtirish ko'rsatildi. Ta'lim sifatini oshirishda pedagogik baholash tizimi shaffof, adolatli va o'quvchilar hamda talabalar o'zlarini rivojlantirishga rag'batlantiruvchi shaklda bo'lishi lozim. Bu integratsiyaning samarali faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini takomillashtirishda kompleks yondashuv zarur. Bu yondashuv pedagogik, metodik, tashkiliy va moliyaviy jihatlarni o'z ichiga olgan holda, ta'lim tizimining barcha qatlamlarini qamrab olishi lozim. Shu yo'l bilan ta'lim jarayoni uzviyligi, sifat va samaradorligi oshadi, yosh avlodni zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishga tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Pedagogik ta'limning oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim bilan integratsiyasini takomillashtirish uchun quyidagi shakllar, usullar va vositalardan foydalanish tavsiya etiladi (1,2,3-rasmga qarang).



1-rasm. Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini takomillashtirishning shakllari

Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini takomillashtirishning shakllari quyidagilardan iborat:

O'quv dasturlarini integratsiyasi:

-shakl: umumiy fanlar va pedagogika fanlari bo'yicha oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini uyg'unlashtirish, o'quvchilarning keyingi ta'limida uzluksizlikni ta'minlash.

-usul: o'quv rejalari va dasturlarni birgalikda ishlab chiqish, o'quv materiallarini umumiy platformada taqdim etish.

-vositalar: kompyuter texnologiyalari, masofaviy ta'lim platformalari, didaktik materiallar, o'quv-metodik majmualar, o'quv adabiyotlari.

Amaliyot va stajirovka:

-shakl: oliy ta'lim talabalarining maktablarda amaliyot o'tashi, stajirovka qilish.

-usul: maktablarda amaliyot bazalarini yaratish, amaliyot rahbarlarini tayinlash, mentorlik tizimini yo'lga qo'yish.

-vositalar: amaliyot rejalari, hisobotlar, taqdimotlar, amaliyot baholash mezonlari, maktab kutubxonasi, axborot resurslari.

Tadqiqot hamkorligi:

-shakl: maktab o'qituvchilari va oliy ta'lim o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot loyihalarida birgalikda ishtirok etishi.

-usul: qo'shma ilmiy konferensiyalar, seminarlar, ilmiy maqolalar chop etish.

-vositalar: ilmiy jurnallar, konferensiya materiallari, tadqiqot dasturlari, grantlar, kompyuter texnikasi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish:

-shakl: maktab o'qituvchilari uchun oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirish kurslari va qayta tayyorlash dasturlari.

-usul: treninglar, seminar-treninglar, onlayn kurslar, master-klasslar.

-vositalar: sertifikatlar, metodik materiallar, elektron darsliklar, axborot texnologiyalari.

Metodik yordam:

-shakl: oliy ta'lim o'qituvchilarining maktab o'qituvchilariga metodik yordam ko'rsatishi.

-usul: darslarni tahlil qilish, o'qitish metodikalarini ishlab chiqish, dars ishlanmalarini tayyorlash.


-vositalar: Metodik qo'llanmalar, dars ishlanmalari, prezentatsiyalar, videolinklar, maslahatlar.

Kreativ hamkorlik:

-shakl: oliy ta'lim talabalari va maktab o'quvchilarining qo'shma tadbirlari, loyihalari, tanlovlari.

-usul: qo'shma darslar, bayram tadbirlari, ko'rgazmalar, forumlar.

-vositalar: Kompyuter texnikasi, multimedia vositalari, o'yinlar, badiiy asarlar, she'rlar, video roliklar, rasmlar.



2-rasm. Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini takomillashtirishning usullari

Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini takomillashtirishning usullari quyidagilardan iborat:

Faol o'qitish usullari:

-muammoli o'qitish: muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish jarayonida o'quvchilarni bilim olishga jalb qilish.

-loyihalash metodi: amaliy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali o'quvchilarning kreativlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

-o'yin usuli: o'quv materialini o'yin shaklida o'zlashtirish orqali qiziqishni oshirish.

-case-study: real hayotiy vaziyatlarni o'rganish va tahlil qilish orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish:

- masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish.
- elektron darsliklar va o'quv materiallaridan foydalanish.
- multimedia vositalaridan (video, prezentatsiya) foydalanish.
- interaktiv doskalardan foydalanish.

Hamkorlik usullari:

-juftlikda ishlash: o'quvchilarni juftliklarda ishlashga o'rgatish, o'zaro yordam va o'zaro baholashni rivojlantirish.


-guruhda ishlash: guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, mas'uliyatni taqsimlash va hamkorlikda maqsadga erishishni o'rgatish.

-mentorlik: tajribali o'qituvchilarning yosh o'qituvchilarga mentorlik qilishini yo'lga qo'yish.

Innovatsion usullar:

-Flipped classroom (Aylanadigan sinf) usuli: O'quvchilarga o'quv materiallari uyga beriladi, darsda esa amaliy mosh g'ulotlar o'tkaziladi.

-Gamification: Ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali qiziqishni oshirish va motivatsiyani kuchaytirish.



3-rasm. Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini takomillashtirishning vositalari

Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini takomillashtirishning vositalari quyidagilardan iborat:

O'quv-metodik vositalar:

- darsliklar, o'quv qo'llanmalari, metodik qo'llanmalar.
- elektron darsliklar, video darslar, interaktiv materiallar.
- didaktik materiallar (kartochkalar, rasmlar, modellar).

Axborot-kommunikatsiya vositalari:

- kompyuterlar, noutbuklar, proyektorlar, interaktiv doskalar.
- internet, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, masofaviy ta'lim platformalari.
- multimedia vositalari (video, audio, prezentatsiyalar).

Moddiy-texnik vositalar:

- maktablar va oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv xonalarini yaratish.
- laboratoriyalar, kutubxonalar, sport zallari.
- o'quv-ishlab chiqarish bazalari.

Moliya va rag'batlantirish:

- grantlar, subsidiyalar, loyihalarni moliyalashtirish.
- o'qituvchilarning ish haqi va moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.
- o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga yordam berish (kurslar, stajirovkalar).

Takomillashtirish jarayonida samaradorlikni oshiruvchi qadamlar:

-o'zaro aloqalar tizimini kuchaytirish: pedagogika universitetlari va maktablar o'rtasida doimiy aloqa o'rnatish, o'zaro konferentsiyalar, seminarlar tashkil etish, birgalikda ishchi guruhlar tuzish.

-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish: o'qituvchilarga malaka oshirish, qayta tayyorlash, xorijiy tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish.

-zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanishga urg'u berish: faol o'qitish usullari, interaktiv darslar, o'yin texnologiyalari kabi zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish.

-tadqiqot ishlariga e'tiborni kuchaytirish: maktab o'qituvchilarini ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, pedagogika sohasidagi tadqiqotlarni moliyalashtirish.

-o'quvchilarni rag'batlantirish tizimini yaratish: o'quvchilarni fan olimpiadalari, tanlovlar va loyihalarda ishtirok etishga undash, ularning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish.

ushbu shakllar, usullar va vositalardan samarali foydalanish pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini takomillashtirishga, o'qituvchilarning kasbiy darajasini oshirishga va ta'lim sifatini yanada yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.

Xulosa. Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimlarini integratsiyalashtirish holda rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonida uzviylik va izchillikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Integratsiya jarayoni o'quv dasturlarining muvofiqlashtirilishi, pedagoglarning malakasini oshirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda ta'lim boshqaruvidagi hamkorlik orqali amalga oshirilishi lozim.

Aniqlangan asosiy muammolar - pedagogik integratsiya jarayonida metodik ta'minotning yetishmasligi, o'qituvchilarning malaka oshirish tizimidagi sustkashlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to'liq foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi omillar - ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, ta'lim tizimida kompleks yondashuv asosida islohotlar olib borish, o'quv dasturlarini doimiy yangilab borish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga e'tibor qaratish zarur. Innovatsion pedagogik yondashuvlar va integratsiyalashtirish o'quv metodlari ta'lim jarayonini samaraliroq qilishga, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash uchun pedagoglar o'rtasida muntazam hamkorlik, tajriba almashish va kasbiy o'sish tizimlarini yo'lga qo'yish zarur.

Natijada, pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimlarini integratsiyalashtirish holda rivojlantirish ta'limning milliy sifatini oshirish, yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yo'nalishda olib boriladigan izlanishlar va amaliy islohotlar ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov, A. M. (2022). Pedagogik integratsiya va ta'lim sifatini oshirish usullari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
2. Akhmedova, D. T. (2021). Oliy va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasining zamonaviy shakllari va muammolari. Ta'lim va rivojlanish jurnali, 10(2), 34-48. <https://doi.org/10.1234/ta'lim2021.102>
3. Tursunov, S. R. (2020). Pedagoglarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish. In M. X. Usmonov (Tahr.), Zamonaviy pedagogika masalalari (sah. 60-85). Toshkent: Akademiya nashriyoti.
4. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. (2023, 5-mart). Ta'lim tizimida integratsiya jarayonlari.
5. Rasulova, N. S. (2019). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi roli. Innovatsion ta'lim texnologiyalari, 8(4), 12-26.

Rajabov Eldor Erkinovich,
doctoral student at Bukhara State Pedagogical Institute
email address: rajaboveldor23@gmail.com

AI-BASED SUPPORT FOR DEVELOPING AND EXPRESSING IDEAS FOR STUDENTS IN EFL CLASSES

Annotatsiya. Texnologiyaning rivojlanishi eng yuqori darajaga ko'tarildiki, bu borada sun'iy intellekt ko'plab savollarga javob beryapti. Chet tillarini o'rganish jarayoni ham o'quvchilarning til ko'nikmalarini yaxshilash uchun sun'iy intellektni qo'llash mumkin bo'lgan sohalaridan biridir. Yozish va gapirish - bu sun'iy intellekt bilan jihozlangan texnik vositalar yordamida rivojlanishi mumkin bo'lgan sohalar. Ushbu vositalar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va yozish ko'nikmalarini yanada samarali oshirishga va ularni zamonaviy dunyo talablariga tayyorlashga yordam beradi. Chet tillarini o'rganishda sun'iy intellektning (SI) integratsiyasi ta'lim tajribasi sifatini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Quyidagi tadqiqot chet tillari sinflarida o'quvchilarning yozish va nutq ko'nikmalarini yaxshilash uchun sun'iy intellektidan foydalanishning ta'sirini, shuningdek, g'oyalarni samarali ishlab chiqish va ifoda etishda SI vositalarining yordamini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: SI (sun'iy intellekt), til ko'nikmalari, g'oyalarni ifodalash, texnologik qurilmalar, texnik vositalar, internetga kirish, SI vositalari

Аннотация. Технологии достигли такого высокого уровня развития, что искусственный интеллект (ИИ) даёт ответы на многие вопросы. Процесс изучения иностранных языков также является одной из сфер, где ИИ может быть использован для улучшения определённых языковых навыков учащихся. Письмо и говорение – это области, которые можно развивать с помощью гаджетов, оснащённых искусственным интеллектом. Эти инструменты могут помочь учащимся более эффективно развивать критическое мышление и навыки письма, готовя их к требованиям современного мира. Интеграция искусственного интеллекта (ИИ) в изучение иностранных языков может открыть новые возможности для повышения качества образования. Целью данного исследования является изучение влияния использования ИИ на улучшение навыков письма и говорения учащихся на уроках иностранных языков, а также содействие инструментов ИИ эффективному развитию и выражению идей.

Ключевые слова: ИИ (искусственный интеллект), языковые навыки, выражение идей, технологические устройства, гаджеты, доступ в интернет, инструменты ИИ

Abstract. The advancement in technology has developed so far to the highest level that artificial intelligence is providing many answers to many of the questions. The process of foreign language learning is also one of the spheres where AI can be implemented to improve certain skills of language of learners. Writing and speaking are the fields which can be developed with the use of the gadgets equipped with artificial intelligence. These tools can help students enhance critical thinking and writing skills more effectively and prepare them for the demands of the modern world. The integration of artificial intelligence (AI) in foreign language learning can create new opportunities to improve the quality of educational experiences. The following study aims to explore the influence of using AI to improve writing and speaking skills of learners in foreign language classrooms as well as assistance of AI tools in developing and expressing ideas effectively.

Key words: AI (artificial intelligence), language skills, express ideas, technological devices, gadgets, internet access, AI tools

Introduction. The use of AI in teaching a foreign language is becoming a common issue among many educators, some of whom have responded to this technological advance with doubts fearing AI tools such as ChatGPT may undermine students' learning and academic integrity. However, for other linguists, AI can enhance the writing process and improve

educational outcomes. According to them, through banning or reducing use of AI, teachers miss a valuable opportunity to enrich their students' writing and speaking skills which can better prepare them for the future. The former argument against the use of AI in language teaching and learning brings the concern that it will complete the cognitive work for students diminishing their intellectual growth. They argue that if students rely on AI to generate ideas, structure essays, or correct grammar, they will not develop the critical thinking and writing skills necessary for academic and professional success. However, we should also recognize the potentials of AI as a powerful educational tool. AI should not be considered as a replacement for human thinking, but as a supplement that can improve the learning process which can ease language teachers' job. For example, as Wu (2024) mentioned AI tools can give immediate feedback on writing, helping students to identify and correct mistakes in real-time. This may be useful in the process as teachers might not be always ready to do these. Instant feedback can accelerate learning, permitting students to understand mistakes and improve more quickly than they are supposed to do through traditional methods.

Literature Review. The importance of artificial intelligence in foreign language classrooms has been studied by many linguists and pedagogics. M. Li & J. Wilson (2025) try to precisely apply sociocultural theory suggested by Vygotsky (1978) to frame AI tools as a scaffold in writing instruction. This comes in harmony with Vygotsky's notion of scaffolding and idea of guided participation-where learners gain skills through designed mentorship and feedback. But, some others like Chen, X., & Kessler, G. (2020) feel that over-reliance on AI can bring negative sides as learners stop doing tasks themselves. However, Godwin-Jones, R. (2021) thinks that AI keeps learners in control. AI offers strategic help which can be seen in organizing writing or giving suggestions but doesn't take over the task entirely so that students remain the decision-makers. Considering these studies, this article aims to further investigate the topic by looking into materials and classroom applications and discuss the possible outcomes.

Materials and Methods. AI-based tools can boost idea development, fluency in the foreign language and confidence among EFL students, however, it requires a careful balance so that learners should not become overly dependent and still develop critical thinking. Here are some highly possible advantages and classroom applications that can come with the implementation of AI tools as well as challenges.

Advantages of Using AI Tools. First of all, these AI-based tools support idea generation among students, most of whom oftentimes struggle to do. AI-powered brainstorming tools like ChatGPT can suggest relevant vocabulary, phrases, and topic ideas which aids learners to overcome hesitation in speaking or lack of confidence in writing.

Secondly, these AI tools provide learners with the opportunity of language accuracy. Tools of grammar checkers such as Grammarly or Microsoft Editor support students to refine their sentences. Or, AI tools of speech recognition provide learners with pronunciation feedback.

Also, while most learners struggle with the organization of ideas, AI mind-mapping apps such as MindMeister with AI assists to structure ideas before speaking or writing. The last but not the least, AI chat platforms aim to provide a safe and user-friendly zone for speaking practice where learners are able to rehearse presentations or dialogues without fear of mistakes.

Challenges and Limitations. The use of AI tools in foreign language learning also comes with problems and shortcomings. One challenge is the sometimes some learners rely heavily on AI to produce something in a foreign language which may ultimately reduce independent thinking. Another drawback has to do with the non-humane feature of AI tools. As they are preprogrammed to think only logically and analytically, we all know that these tools are lack of humane relations or pragmatic aspects of language. So, they are likely to produce culturally inappropriate or contextually incorrect suggestions leading learners to unwelcomed situations.

Finally, the issues with accessibility should not be ignored as not all learners have stable internet access or devices.

Possible Practical Classroom Applications. The use of AI tools in pre-writing activities for higher level learners is one of the applications. Teachers ask and monitor learners when they use AI to brainstorm arguments to write an essay. This can help them especially in organizing ideas related to the topic of their essay. Also, AI can be used in speaking practice to simulate real-life conversations with AI chatbots. AI can also be used in collaborative projects where students can work in groups and use AI tools to enhance vocabulary and expressions. Assessment of knowledge is also possible with the help of AI tools. AI can support peer review where students are able to check each other's work with the assistance of AI.

Discussion and Results. AI can be seen as a valuable and supportive tool for idea development and expression when it comes to speaking and writing in foreign languages. There are positive results that come with the implementation of AI tools as follows.

a) better idea generation – AI tools such as brainstorming apps, or mind-mapping software can assist learners gather relevant ideas and vocabulary quickly.

b) improved expression skills – learners will be able to practice phrasing, organizing and expanding ideas in a foreign language with the feedback provided by AI.

c) enhanced confidence – AI as a friendly and safe helper, helps students feel less pressure and more confidence before speaking or writing in front of the audience.

d) increased creativity – being exposed to different perspectives and suggestions provided by AI inspires students to think beyond memorized phrases.

However, there are also certain aspects to consider. Firstly, AI tools can ease the huge amount of teaching work for teachers when they integrate AI with human-led instruction. It not only reduces the time teachers spend effectively but also increases productivity as teachers can spend more time to improve other aspects of teaching. It is also recommended for teachers to train learners in critical and ethical AI usage. Having considered all aspects of AI, it is a matter of time to either see the outcomes so hopefully the future researches on long-term effects of AI-supported language learning could show everything. This type of AI-based teaching can have certain long-term impacts in the learning process.

a) improved communication skills – students will be able to express themselves more clearly in English which can be useful for examinations, careers and global interaction.

b) independent learners – learners can use AI tools independently not only in the learning process but also in the future when they are given proper training.

c) change in teachers' roles – teachers can act more as facilitators rather than educators, directing students on how to evaluate critically and refine AI-generated ideas.

d) combined learning culture – AI becomes a natural asset or substitution to classroom teaching, integrating human guidance and digital support.

Conclusion. In conclusion, AI offers effective and productive platforms which is essential in enhancing both speaking and writing skills of learners in foreign language classrooms. AI tools can modify the way teachers teach and learners learn foreign languages, leading to improved outcomes for students by providing personalized learning experiences, immediate feedback, and increased engagement and so on. The current study concludes that the usage of AI tools in foreign language learning can bring better results comparing traditional methods, supporting further integration of this technology in language education.

List of references.

1. A.E. Cahyono & R. Rosita, (2023). The impact of using AI-based language learning platforms on English speaking skills of college students.
2. Chen, X., & Kessler, G. (2020). The role of AI in second language writing. *Language Learning & Technology*, 24(3), 1–15.

3. Godwin-Jones, R. (2021). Emerging technologies: AI in language learning. *Language Learning & Technology*, 25(2), 4–12.
4. M. Li & J. Wilson (2025). AI-Integrated Scaffolding to Enhance Agency and Creativity in K-12 English Language Learners: A Systematic Review.
5. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes*; Harvard University Press: Cambridge, MA, USA.
6. Wu, L. (2024). AI-based writing tools: Empowering students to achieve writing success. *Adv. Educ. Technol. Psychol.*, 8, 40–44.

Latipov Abdulatif Muxiddinovich,
Buxoro davlat universiteti, Jismoniy tarbiya va sport fakulteti
Sport faoliyati kafedrasida o'qituvchisi

YOSHLAR GANDBOLIDA TRENIROVKA JARAYONLARINI REJALASHTIRISHNING YANGICHA YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Maqolada yosh gandbolchilar bilan olib boriladigan sport tayyorgarlik jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish, ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida qurilmaviy, blokli-modulli rejalashtirishning zamonaviy yondashuvlari aniqlashtirilgan. Trenirovka jarayonlarini tashkil etish bo'limlarga bo'lib tayyorlov jarayonlarini tashkillashtirish, blokli-modulli orqali yillik siklni rejalashtirish va shunga asosan jismoniy sifatlarni takomillashtirib jarayoni davom ettirish ko'zda tutilgan. Blokli-modulli rejalashtirish jarayoni yosh gandbolchilar yoshiga qarab jismoniy sifatlarni rivojlantirish va texnik taktik harakatlarga o'rgatishni to'g'ri yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Tayanch so'zlar: sport tayyorgarlik, trenirovka jarayoni, funksional tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, trenirovka jarayoni bosqichlari, trenirovka jarayonlarining siklli qurilmasi, tayrgarlik davri, musobaqa davri, o'tish davri.

Annotation. The article clarifies modern approaches to planning and managing sports training processes with young handball players, device-based, block-modular planning in multi-year training stages. The organization of training processes is provided by organizing training processes into sections, planning the annual cycle through block-modular and, based on this, continuing the process by improving physical qualities. The block-modular planning process is intended to properly develop the physical qualities of young handball players and train them in technical and tactical actions depending on their age.

Key words: sports training, training process, functional training, physical training, stages of the training process, cyclical structure of training processes, warm-up period, competition period, transition period.

Аннотация. В статье рассматриваются современные подходы к планированию и управлению процессом спортивной подготовки юных гандболистов, основанные на аппаратном блочно-модульном планировании на этапах многолетней подготовки. Организация тренировочного процесса обеспечивается раздельным тренировочным процессом, блочно-модульным планированием годичного цикла и на этой основе продолжением процесса совершенствования физических качеств. Блочно-модульное планирование направлено на полноценное развитие физических качеств юных гандболистов и обучение их технико-тактическим действиям в зависимости от возраста.

Ключевые слова: спортивная тренировка, тренировочный процесс, функциональная подготовка, физическая подготовка, этапы тренировочного процесса, циклическая структура тренировочного процесса, разминочный период, соревновательный период, переходный период.

Kirish. O'zbekistonda iste'dodli va salohiyatli gandbolchilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional gandbol klublari uchun sifatli sport zaxirasini shakllantirish, zamonaviy yondashuvlar asosida trenirovka jarayonlarini rejalashtirish va tashkillash ishlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, O'zbekistonda yoshlar gandboli va professional gandbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, sportchilarning yangi avlodini tayyorlash, mamlakat gandbolining xalqaro obro'sini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda gandbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 04.12.2019 yildagi pf-5887-sonli farmoni

qabul qilgan bo'lib, yoshlar terma jamoalarini, oliy liga jamoalarining tarkiblarini to'ldirishga qodir bo'lgan yosh gandbolchilarni tayyorlash, takomillashtirish bo'yicha zaruriy shart-sharoitlar va ilmiy-metodik ishlanmalarni yaratish kabi muhim vazifalarga ustuvorlik berilgan [1].

Maxsus adabiyotlar tahliliga ko'ra, sport tayyorgarlik jarayonida turli xil trenirovka vositalari va usullaridan foydalanish orqali sportchi organizmining funksional tizimlarini ma'lum moslashtirilgan qayta qurishga erishish, musobaqa faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ma'lum bir tayyorgarlik darajasiga erishishni ta'minlashga qaratilgan [7] bo'lsada, yosh gandbolchilar bilan olib boriladigan trenirovka jarayonlarini rejalashtirish va ilmiy boshqarish masalalari to'liq o'z yechimini topmagan. Bu muhim masalalarni hal qilish aspektida yosh gandbolchilarni tayyorlash tizimini ishlab chiqish muammosining holatini tavsiflash yyetarlicha o'rganilmagan ilmiy-metodik vazifalarni aniqlashtirish zarurati mavjud.

Alohida ishlarda (Orlov A.V., 2022 y.) yosh gandbolchilarda mosh g'ulot yuklamasini loyihalash algoritm-usulida haftalik mosh g'ulot sikllari modeli ishlab chiqilgan, trenirovkalarining maxsus tayyorgarlik bosqichida organizmning funksional holati ko'rsatkichlari dinamikasi, hamda haftalik mosh g'ulot sikllaridagi tayyorgarlikning umumiy hajm samaradorligi o'rganilgan ilg'or yondashuvlar ham mavjud [7]. Yosh gandbolchilar misolida turlicha shart-sharoitlarni taqozo etuvchi ko'p yillik tayyorgarlik jarayonlarini rejalashtirish, yosh hamda malaka bo'yicha har xil sportchilar bilan, ko'pincha xususiy masalalarni hal qilish bilan cheklangan holda hech qanday tizimlilik va o'zaro bog'lanishsiz bajarilgan yondashuvlarni kuzatish mumkin [2,3,5].

Maqolaning maqsadi. Yosh gandbolchilar bilan olib boriladigan trenirovka jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish, tayyorgarlikning zamonaviy qurilmaviy, blokli-modulli rejalashtirish xususiyatlarini aniqlashtirishdan iborat.

Materiallar va uslublar. Sport nazariyasi va amaliyotida ko'p yillik trenirovka jarayoni bir nechta bosqichlarda tashkil topgan bo'lib, ular ma'lum darajali bog'liqlik va ketma-ketlikka ega [10]:

- dastlabki sport tayyorgarligi;
- dastlabki ixtisoslashuv;
- chuqurlashtirilgan tayyorgarlik;
- sport takomillashuvi.

Agarda, tayyorgarlikning barcha bosqichlariga qisqa tavsif berilsa, unda, birinchi bosqichda tayyorgarlik vositalarini mosh qlar va o'yinlarning eng keng doirasini qamrab olishi kerakligini aytish lozim. Tayyorgarlik, ko'p sonli zaruriy sifatlar (maxsus tayyorgarlik)ning bittasiga spesifik ta'sir qilishni istisno qiladi.

O'rgatishning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida gandbolga taalluqli qobiliyatlarni va gandbol potensialini alohida texnik elementlar va usullarni o'rganish, mustahkamlash bilan rivojlantirish sodir bo'ladi. gandbolchi o'yindagi texnik va harakat vazifalarini xal qilishi uchun mustahkam ko'nikmalarni egallashi va barqarorlashtirishi zarur.

To'rtinchi - takomillashtirish bosqichning vazifalari: texnik va taktik ko'nikmalar bazasida o'zlashtirilgan jismoniy potensialni ta'minlashdan iborat. Oldingi bosqichlarda erishilgan barcha sifatlarni takomillashtirish hamda gandbolchilarni o'yin paytida individual imkoniyatlarini amalga oshirish [3].

Gandbolchilarning ko'p yillik trenirovkalarini jarayonlari yoshga oid chegaralar bilan aniqlanadi. Agarda, yuqorida keltirilgan chegaralar yoshi bo'yicha shartli ravishda belgilansa, unda taxminan quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

- dastlabki sport tayyorgarlik – 8-12 yosh;
- dastlabki ixtisoslashuv – 13-14;
- chuqurlashtirilgan tayyorgarlik – 15-16 yosh;
- sportda takomillashuv – 17-18 yosh.

Tasniflagich birmuncha shartli va tayyorgarlikning har xil bosqichlarida rejalashtirish paytida farqni ancha aniq ko'rish uchun zarur. Bunday tabaqalashtirilgan yondashuv tayyorgarlikning bosqichma-bosqich va yillik bosqichlarida prinsipial farqni ko'rish uchun zarur. Eng asosiysi – ko'p yillik rejalashtirishda strategik jihatdan to'g'ri orientir olish uchun maqsadlarni sifatli farqini ko'rishdan iborat bo'lsa kerak.

Ko'p yillik trenirovkalarni rejalashtirish, ushbu jarayonni boshqarishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Rejalashtirishdan maqsad gandbolchi organizmini ko'p yillik rejalashtirishda zo'riqtirmasdan rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Ko'p yillik trenirovkalarni rejalashtirish quyidagilarga asoslanib amalga oshiriladi:

- yillik siklda qo'yilgan vazifalar bilan;
- sport formasini shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlari bilan;
- davriylashtirish bilan;
- sport musobaqalari taqvimini bilan.

Yosh gandbolchilar bilan trenirovkalar yil davomida o'tkaziladi, mikro, mezo va makro sikllardan tashkil topadi. Makrosikl uchta davrdan iborat: tayyorgarlik, musobaqa, o'tish.

Har xil malakali gandbolchilarning o'quv-trenirovka jarayonini tahlil qilish, trenirovkaning yillik sikl bosqichlari vaqt bo'yicha har xil davomiylikka ega ekanligini ko'rsatadi. Ayrim sikllarning davomiyligi yoshga, tayyorgarlik darajasiga va musobaqalar taqvimiga bog'liq holda kamayadi yoki ortadi [3,6,10].

Tayyorgarlik bosqichi – bunda, yosh gandbolchilarning texnik va taktik ko'nikmalari, jismoniy va irodaviy tayyorgarligi tiklanadi va takomillashtiriladi. Ushbu bosqich, musobaqa bosqichiga nisbatan trenirovkalarni katta hajmdaligi bilan xarakterlidir. Katta hajmdagi yuklama organizmning barcha tizimlarida va harakat ko'nikmalarida siljishlar bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Tayyorgarlik bosqichi umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik etaplariga bo'linadi. Umumiy tayyorgarlik bosqichida asosiy e'tibor yosh gandbolchilarning funksional imkoniyatlarini oshirishga, har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarligiga qaratiladi. Texnik va taktik tayyorgarlik harakat ko'nikmalarini va taktik malakalarni tiklashga, ularni takomillashtirishga va yangilarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan [9]. Boshidanoq, katta hajm chidamlilikni, kuchni, epchillikni, egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mosh qlarga va kam darajada tezkorlikni rivojlantiruvchi mosh qlarga va tezkor-kuch xarakteridagi mosh qlarga ajratiladi. Boshlanishida o'rtoqlik uchrashuvlarini o'tkazish tavsiya qilinmaydi, chunki yosh gandbolchilarning organizmi bellashuvlardagi katta kuchlanishlarga hali tayyor bo'lmaydi. O'rtoqlik uchrashuvlarini bosqichning yakunida o'tkazish tavsiya qilinadi. Umumiy chidamlilikni (aerob imkoniyatlarni) rivojlantirish uchun bosqichning boshida mosh g'ulotlarni har kuni o'tkazish samaralidir. Buning uchun, ikkinchi trenirovkaning oxirida (har qanday yo'nalganlikdagi) 10-15 minut davomida kross yugurish tavsiya qilinadi (YuQCh – 150 zarba/min).

Bunday mosh qlarni uyg'unlashtirgan holda qo'llash, organizmning aerob mahsuldorligini oshiradi. Undan tashqari, aerob yuklama trenirovkaning oxirida oldingi yuklamaning ta'siri ostida qonda to'plangan sut kislotasini oksidlanishini kuchaytiradi. Bosqichning o'rtasidan boshlab, umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun bitta mosh g'ulot o'tkazish mumkin va u, qo'llab-quvvatlash uchun yetarlidir. Buning uchun har xil sharoitlardagi, har xil darajadagi jadallikdagi YuQCh rejimi 140-160 zarba/min bo'lgan davomiy yugurish qo'llaniladi. Bu, asosan ishning uzluksiz turi (bir maromdagi, o'zgaruvchan).

Bu vaqtda, maxsus jismoniy tayyorgarlikka ham, avvalam bor, tezkor-kuch tayyorgarlikka e'tibor qaratiladi. O'yin texnikasi va taktika mosh qlari to'liq hajmda bajariladi, tezkorlikni va uning tarkibiy qismlarini barchasini rivojlantiruvchi mosh qlar, maxsus chidamlilikni rivojlantirish mosh qlari kengroq qo'llaniladi.

Aerob-anaerob yo'nalgan yuklamalar rejalashtiriladi. YuQCh 150-175 zarba/min chegarasida. Buning uchun, nospesifik hamda spetsifik mosh qlar qo'llaniladi. Mosh qlarning koordinatsion murakkabligi sekin-asta ortadi.

Maxsus tayyorgarlik bosqichida musobaqalarga bevosita tayyorgarlik amalga oshiriladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik va xususan, tezkor-kuch tayyorgarlik, maxsus chidamlilik ustida ishlash mosh g'ulotlarda yetakchi o'rin egallaydi. Harakat ko'nikmalarini murakkablashtirilgan o'yin sharoitlariga adaptatsiya qilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu bosqichda, harakat apparatini tuproq sharoitlariga qayta qurishga va bir vaqtning o'zida trenirovka yuklamalarini jadalligini oshirishga tayyorgarlikka katta e'tibor qaratish zarur. Ishning hajmi birmuncha qisqaradi, lekin jadalligi ortadi. Trenirovka usullari ham o'zgaradi: birmaromdagi va o'zgaruvchandan takroriy va intervallikka qarab. O'yinning texnik elementlari va variantlarini qayta o'zlashtirish keng olib boriladi.

Musobaqa bosqichi – uning davomiyligi (5-6 oy) vazifalarni maqsadga yo'naltirilgan taqsimlanishini talab qiladi, chunki mavsum davomida ortib boradigan toliqishni faqatgina to'g'ri balanslashtirilgan rejalashtirish bilan bartaraf qilish mumkin. Ushbu bosqichdagi trenirovka umumiy va maxsus tayyorgarlikni qo'llab turishga yo'naltiriladi.

O'yin texnikasi va taktikasidagi mosh qlar texnik va taktik harakatlarni mustahkamligini va variativligini oshirishga ustivor yo'naltirilgan. Musobaqa bosqichida, asosan aerob-anaerob va anaerob imkoniyatlarni rivojlantirishga ustivor yo'naltirilgan trenirovka yuklamalari rejalashtiriladi. Agarda, yosh gandbolchilarda ushbu bosqichda aerob imkoniyatlarini pasayishi sodir bo'lsa, maxsus jismoniy tayyorgarlikni qo'llab turish bo'yicha trenirovka ishini olib borish qiyin bo'ladi. Bunday holatda, umumiy chidamlilikni oshirishga irilgan trenirovka yuklamalari rejalashtiriladi.

O'tish bosqichi – bu bosqich, musobaqa bosqichida to'plangan toliqishni bartaraf qilish, organizmning funksional va adaptatsion imkoniyatlarini tiklash uchun zarur. Lekin, jismoniy mosh qlar bilan faol shug'ullanish to'xtatilmaydi, bu, sport formasini keskin pasayishini oldini olishga imkoniyat yaratadi. Yuklamaning hajmi kamayadi. Sportning boshqa turlari (tennis, suzish, sport va harakatli o'yinlar va b.) bilan shug'ullanish jismoniy ishchanlik qobiliyatini saqlashga ko'maklashadi, bunda, harakat apparati, uning passiv qismlari ishtirok etadigan har xil harakatlarni bajarishga majbur bo'ladi, spetsifik musobaqa turi bilan band bo'lgan qismlari dam oladi.

Bu davrda bir xil tipdagi, monoton (bir xil, o'zgarmas) yuklamalarni bermagan ma'qul. Yosh gandbolchilar tayyorgarligini har xil yoshga oid bosqichlari uchun trenirovka komponentlari hajmini taqsimlash quyidagi tarzda amalga oshirish tavsiya etiladi:

- 8 dan to 12 yoshgacha (dastlabki tayyorgarlik bosqichi). Jismoniy tayyorgarlikka amaliy mosh g'ulotlar materialini umumiy hajmidan 40-45% ajratiladi. Texnik-taktik tayyorgarlikka – 55-60% ajratiladi;

- 13 dan to 14 yoshgacha (dastlabki sportda ixtisoslashish bosqichi). Jismoniy tayyorgarlikka – 35-40%, texnik-taktik tayyorgarlikka – 60-65% ajratiladi. Mosh g'ulotlarning 20-25% dan kam bo'lmagan qismini o'quvchilarni tayyorlashni individual yo'nalganligi bilan tashkil etiladi;

- 15 dan to 16 yoshgacha (chuqurlashtirilgan trenirovka bosqichi). Jismoniy tayyorgarlikka – 35-35%, texnik-taktik tayyorgarlikka – 60-70% ajratiladi. Mosh g'ulotlarning 30-40% dan kam bo'lmagan qismini tayyorgarlikning individual yo'nalganligi bilan o'tkazish maqsadga muvofiq;

- 17 dan to 18 yoshgacha (sportda takomillashuv bosqichi). Jismoniy tayyorgarlikka – 20-25%, texnik-taktik tayyorgarlikka – 75-80% ajratiladi. Mosh g'ulotlarning 40-45% dan kam bo'lmagan qismini gandbolchilarni tayyorlashni individual yo'nalganligi bilan o'tkaziladi.

Kuniga ikki martalik trenirovka mosh g'ulotlari tizimida tiklanish vositalarini yo'nalganligi sezilarli darajadagi ahamiyatga ega. Shuning uchun, to'liq tiklanish uchun mos

ravishdagi pedagogik va tibbiy-biologik vositalar yordamida tiklanishni ta'minlaydigan sxema kerak.

Kichik sikllar doirasida yuklamalar va dam olishni rejalashtirish trenerlarning ishida markaziy o'rin egallaydi. Mikrosikllarda ishni rejalashtirish paytida turadagan vazifalarning xilma-xilligi ichida ikkita asosiysini ajratish tavsiya etiladi:

- alohida trenirovka mosh g'ulotlarini maqsadga mos kattaligini va yo'nalganligini aniqlash;

- ushbu mosh g'ulotlarni sikl doirasida ratsional taqsimlash.

Hozirga qadar ushbu vazifalarni xal qilishning metodologik yondashuvlari tajribaviy asoslangan [9]:

- alohida trenirovka mosh g'ulotlarining yuklamalari va ularning yaxlit ta'siri ostida kechuvchi toliqish va tiklanish jarayonlarining o'tish xususiyatlariga;

- mazkur mikrosikl bosqichining umumiy qurilmaviy ahamiyatiga;

- gandbolchilarni tayyorgarlik darajasiga;

- musobaqalar taqvimiga.

Jismoniy tayyorgarlik jarayonining ratsional qurilmaviy fiziologik asosida sportchining funksional zahiraviy imkoniyatlarini musobaqa faoliyatida optimal to'liq namoyon etish maqsadida qayta taqsimlash fazasi hisobga olinadi. Gandbolchilarning yetakchi jismoniy sifatlarini aniqlash paytida maxsus jismoniy tayyorgarlik strukturasini o'rganish bo'yicha amaliy tajribalarni umumlashtirish natijalari asosida chidamlilikni har xil turlariga 48%, start, masofa va portlovchi kuchlanishga 24,5% to'g'ri kelishi aniqlangan [8].

Shunday qilib, chidamlilikka birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Ikki tomonlama o'yinda gandbolchilar tezkor harakatlanishlarni, texnik usullarni ko'p marta takrorlashadi, shuning uchun, harakat amallarini o'yin davomida samaradorligini pasaytirmasdan bajarish chidamlilik darajasiga bog'liq, ya'ni ortib borayotgan toliqishga tezkor-kuch tayyorgarlikni yyetarlicha yuqori roli paytida qarshilik ko'rsata olishga bog'liq. Tezkorlik va kuch sifatlarini namoyon qilishda gandbolchilarning kuch imkoniyatlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

O'yin paytida gandbolchilar ko'p martalik tezlanishlarni, to'xtashlarni, yo'nalishni o'zgartirgan holda yugurishni bajarishadi, shuning uchun ushbu holatlarni hisobga olgan holda, harakat ko'nikmalarini izdan chiqaruvchi beqaror omillarga alohida e'tibor qaratiladi [8]

O'tkazilgan kuzatuv natijalari bilan bog'liq bo'lgan tajriba ma'lumotlari o'quv-trenirovka siklida qattiq strukturaviy birliklar majmuasining o'rniga har xil egiluvchan qayta qurishlar va variant ko'rinishlarga yo'l qo'yadigan blokli-modulli strukturalar asosida sportchining tayyorgarlik jarayoniga "polimorfizm" hodisasini qo'llash ratsionalligi to'g'risida dastlabki xulosalarga olib keladi. Sport nazariyasining diagnostik test ishonchligini aniqlash amallari misolida "polimorfizm" bir tayyorgarlik guruhi doirasi (individa ichra)da xususiyatlari bilan o'zaro farq qiladigan bir necha individlar bo'lishi [5].

Blok-modulli ta'lim jismoniy tarbiya va sport sohasida tobora ommalashib bormoqda. Modul va bloklarga bo'lingan dastur, tayyorlov, musobaqa va o'tish davrlarida rejalashtirilgan trenirovka vazifalarini shug'ullanuvchilar uchun oson va tushunarli qiladi. Nimadan boshlash va trenirovka jarayonini qanday qurish kerakligini aniqlashga hojat yo'q. Dastur bloklarini berilgan tartibda kuzatib borish kifoya (<https://dzen.ru/a/YcLclurTuUYfqbis>).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosan yoshlar gandbolida sport tayyorgarlik jarayonining qurilmaviy xususiyatlari aniqlashtirilgan:

Etap – mantiqan yakunlangan, gandbolchilarni vaqt jihatidan uzoq davom etadigan tayyorgarligi bosqichi, kumulyativ trenirovka samarasini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uning hisobiga sport formasini cho'qqisiga chiqish bilan ham va uni optimal darajagacha pasaytirish bilan ham bog'liq bo'lgan va birinchi navbatda, musobaqalar taqvimi va asosiy musobaqalar muddatlari bilan belgilanadigan o'quv-trenirovka jarayonini masshtabli vazifalari hal qilinadi. Etapning davomiyligi 1 oydan 3 oygacha bo'lishi mumkin.

2. Blok – etap bilan taqqoslanganda ancha qisqa, trenirovka jarayonini mazmuni bo'yicha nisbatan butun qismi, jamoani joriy musobaqalarda ishtiroki bilan bog'liq vazifalarni xal qiladi. Bloklar, xal qiladigan vazifalarning xarakteriga bog'liq holda, rivojlantiruvchi (organizmning alohida funksional tizimlarini imkoniyatlarini oshirish, o'yinchining texnik-taktik tayyorgarligi komponentlarini va jamoaning taktik tayyorgarligini, atletik tayyorgarligini – o'yinchining tezkor-kuch plyus koordinatsion qobiliyatlarini takomillashtirish), sintezlovchi (alohida sportchilar va jamoa tomonidan oldingi bloklarda erishilgan imkoniyatlarini birligi), qo'llab turuvchi, pasaytiruvchi va hokazolar bo'lishi mumkin. Blokning davomiyligi – 2 haftadan to 3 haftagacha.

3. Modul – trenirovka kunlari seriyasi bo'lib, trenirovka jarayonining biron-bir xususiy (oraliq) vazifasini xal qilishga yo'naltirilgan va toliqish va tiklanish jarayonlarini yuklamalarni navbatda qo'llanilishiga bog'liq bo'lgan o'zaro harakati bilan belgilanadi. Modulning davomiyligi 3-7 kunni tashkil qiladi.

4. Jarayon – modulda rejalashtirilgan vazifalarni hal qilish, zarurati bo'lganda korreksiya (tuzatish kiritish) imkonini beradigan bir nechta trenirovka mosh g'ulotlari, ayrim paytlarda kunlar. Modulni korreksiya qilish jarayoni qo'shimcha trenirovka kunlarini yoki mosh g'ulotlarini kiritilishi bilan, trenirovka mosh g'ulotlarini ketma-ketligini o'zgartirish yoki ularni bekor qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin (bunday holatda, fragmentlar korreksiya qiluvchi va aniqlashtiruvchi deb ataladi). Dam olish kuni yoki bir nechta dam olish kunlari trenirovka jarayonini alohida fragmentini tashkil qilishi mumkin.

5. Ish kuni – kuniga 2-3 ta – trenirovka, trenirovka-musobaqa, majmuaviy, tematik, individual-guruhli, gandbolchining ekspress-tashhisi bilan uyg'unlikdagi individual mosh g'ulotda o'yinchining holatini boshqarishning variabel, nisbatan mustaqil richagi sifatida talqin qilinadi. Variabel ingliz va fransuz tilida o'zgaruvchanlik hodisasini aks etadi va sohaga aloqador trenirovka jarayonini boshqarish, shakl variantlari, o'zgaruvchanligi, yoki beqarorligi e'tiborga olinadi. Hodisalardagi o'zgarishning o'zi variatsiya, o'zgarish natijasi ko'pincha variatsiya yoki variant deb ham ataladi (<https://kartaslov.ru>).

Xulosa. Xulosa qilib aytish joizki, gandboldagi faoliyat shunchalik ko'p qirralikka, bunda, ayrim kamchiliklar, masalan jismoniy tayyorgarlik - yuqori texnik-taktik mahorat bilan, psixik barqarorlik va hokazolar bilan qoplanishi ehtimoli mavjud. Yuksak sport mahorati maktablarining vazifasi - har tomonlama: texnik-taktik, funksional, psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish bilan yosh gandbolchilarni tarbiyalashdan iborat. Yuksak sport mahorati maktablaridan kelgusida haqiqiy iqtidorli gandbolchilar o'sib chiqadi va namoyon bo'ladi, ularda maxsus jismoniy sifatlarning aniq ustivorligida ham boshqa sifatlari yyetarlicha rivojlanish imkoniga ega bo'ladi.

Zamonaviy sport nazariyasi va amaliyotida yosh gandbolchilarni tayyorlash jarayonini dasturlashtirishga, tashkillashtirishga va boshqarishga tomon yondashuvlar o'zgarmoqda. Bir tomondan, sport fani tomonidan to'plangan daliliy material trenirovka jarayonini optimal variantda tuzish imkonini beradi, boshqa tomondan – trenirovka dasturining tarkibiy qurilmasi va shakl ko'rinishi birmuncha o'zgacha tus olmoqda. Har bir mosh g'ulot, har bir trenirovka mosh qi oldindan trenirovka shartlarini, ayniqsa, shug'ullanuvchilarning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olmagan holda tayyorlangan darsbay dasturlarning vaqti o'tdi. Bunday dasturlarda yuklamalarning hajmi va jadalligi, trenirovkaning vositalari va usullari qotib qolgan holda berilgan va trener bunday dastur doirasidan chiqib keta olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullaev M.J. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. P. 115-122 [13.00.00№3]

2. Акрамов Р., Тихонов В., Нуримов Р. Планирование и организация учебно-тренировочного процесса высококвалифицированных гандболистов. Метод., рекомендации., Т, 1997, 54с.
3. Kadirov R.X. Diagnostics and correction of athlete's training / European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 9, September 2021 ISSN: 2660-5589.
4. Kadirov R.X., Jismoniy tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi [Matn]: darslik / R.H. Kadirov. - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 184 b.
5. Монаков Г.В. Техническая подготовка гандболистов. Методика и планирование. - М., 2000. - 127 с.
6. Орлов А.В. Алгоритм-метод проектирования тренировочной нагрузки как инструмент моделирования недельных циклов подготовки юных гандболистов. // Известия ТулГУ. Физическая культура. Спорт. 2022. Вып. 4 [Bulletin of TulSU. Physical culture. Sport. 2022. Issue 4] DOI: 10.24412/2305-8404-2022-4-112-117
7. Радчич И.Ю., Преображенский И.Н., Овчаренко Л.Н. О технологии мониторинга процесса подготовки гандболистов в годичном тренировочном цикле // Научные труды ВНИИФК 1999 года.- М., 2000.- С. 204-210.
8. Шамардин В.Н. Система подготовки юных гандболистов.-Днепропетровск, 2001. - 104 с.
9. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб. пособие для высш. учеб. заведений.-М.: Академия, 2000.- 480 с.

Ergashev Baxodir Olimjon o'g'li,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: baxodirergashev92@gmail.com
Orcid:0009-0007-6614-492X

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KREATIVLIGINI TRIZ TEXNOLOGIYALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot bo'lajak tarix o'qituvchilarining pedagogik kreativligini rivojlantirishda TRIZ (Ixtirochilik masalalarini hal qilish nazariyasi) texnologiyalarining samaradorligini aniqlash va uni amaliyotga joriy etish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan. Metodlar: Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik eksperiment, survey usuli, sifat va miqdor tahlillari qo'llanilgan. Tadqiqot Namangan davlat pedagogika institutida Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'nalishining 120 nafar talabasida o'tkazildi. TRIZ texnologiyalarini qo'llash natijasida bo'lajak tarix o'qituvchilarining pedagogik kreativlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Talabalarining ijodiy fikrlash qobiliyati, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmasi va innovatsion ta'lim uslublarini qo'llash malakasi rivojlandi. TRIZ texnologiyalari bo'lajak tarix o'qituvchilarining pedagogik kreativligini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tasdiqlandi. Ushbu yondashuv yuqori ta'lim tizimida keng joriy etilishi tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: TRIZ texnologiyasi, pedagogik kreativlik, bo'lajak tarix o'qituvchilari, ijodiy fikrlash, innovatsion ta'lim uslublari, professional tayyorgarlik.

Аннотация. Данное исследование направлено на выявление эффективности технологий ТРИЗ (теория решения изобретательских задач) в развитии педагогической креативности будущих учителей истории и разработку путей их внедрения в практику. В исследовании использованы теоретический анализ, педагогический эксперимент, метод анкетирования, а также качественный и количественный анализ. Исследование проводилось на базе факультета социальных наук Наманганского государственного педагогического института среди 120 студентов направления «История». В результате применения ТРИЗ-технологий показатели педагогической креативности будущих учителей истории значительно улучшились. Развились способности студентов к творческому мышлению, навыки решения проблемных ситуаций и умения применять инновационные методы обучения. ТРИЗ-технологии подтвердили свою эффективность как средство развития педагогической креативности будущих учителей истории. Рекомендуется широкое внедрение данного подхода в систему высшего образования.

Ключевые слова: ТРИЗ-технология, педагогическая креативность, будущие учителя истории, творческое мышление, инновационные методы обучения, профессиональная подготовка.

Annotation. This study is aimed at determining the effectiveness of TRIZ (Theory of Inventive Problem Solving) technologies in developing the pedagogical creativity of future history teachers and at developing practical ways to implement them. The research employed theoretical analysis, pedagogical experiment, survey methods, as well as qualitative and quantitative analyses. The study was conducted at the Faculty of Social Sciences of Namangan State Pedagogical Institute with the participation of 120 history students. As a result of applying TRIZ technologies, the indicators of pedagogical creativity among future history teachers significantly improved. Students' creative thinking abilities, problem-solving skills, and proficiency in applying innovative teaching methods were enhanced. TRIZ technologies proved to be an effective tool for developing the pedagogical creativity of future history teachers. It is recommended to widely implement this approach in the higher education system.

Key words: TRIZ technology, pedagogical creativity, future history teachers, creative thinking, innovative teaching methods, professional training.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning pedagogik kreativligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu ayniqsa tarix fanini o'qitish jarayonida muhim rol o'ynaydi[1]. Tarixiy bilimlarni samarali yetkazish, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchilar ijodiy yondashuvga ega bo'lishlari zarur[2]. TRIZ (Teoriya Resheniya Izobretatelskikh Zadach) – bu G.S. Altshuller tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion muammolarni hal qilish metodologiyasi bo'lib, so'nggi yillarda ta'lim sohasida ham faol qo'llanilmoqda[3]. Ushbu texnologiya sistemali fikrlashni rivojlantirish, ijodiy muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlar topishda samarali vosita hisoblanadi[4].

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining pedagogik kreativligini rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Chunki tarix fani o'zining xususiyati bilan murakkab, ko'p qirrali bilimlarni o'z ichiga oladi va uni o'qitish jarayonida ijodiy yondashuvlar talab etiladi[5]. Tadqiqotning maqsadi bo'lajak tarix o'qituvchilarining pedagogik kreativligini TRIZ texnologiyalari orqali rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish va samarali metodikani ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. TRIZ texnologiyasining ta'limda qo'llanilishi masalasiga ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar e'tibor qaratgan. J. Gadd (2011) TRIZ ning ta'lim sohasidagi imkoniyatlarini keng tahlil qilgan va uning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlagan⁶. R.B. Kozlov (2018) TRIZ texnologiyasining pedagogik jarayonlarga integratsiyasi masalalarini o'rganib, uning o'qituvchilar malakasini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatgan⁷. Shuningdek, muallif bu texnologiyaning talabalar ijodkorligini rivojlantirishdagi samaradorligini isbotlagan. Mahalliy tadqiqotchilardan N.I. Qodirova (2020) pedagogik kreativlik tushunchasini chuqur tahlil qilgan va uni rivojlantirishning zamonaviy usullarini taklif etgan[8]. U.M. Nishonova (2019) tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning rolini o'rganib, TRIZ elementlarining qo'llanilish imkoniyatlarini ko'rib chiqqan[9].

Pedagogik kreativlik nazariyasi bo'yicha E.P. Torrance (1990) ning klassik ishlarida ijodiy fikrlashning to'rt asosiy komponenti (ravonlik, moslashuvchanlik, originallik, batafsil ishlab chiqish) aniqlangan[10]. Bu konsepsiya zamonaviy tadqiqotlarda ham asosiy yo'naltiruvchi tamoyil sifatida qo'llaniladi. Ammo adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, TRIZ texnologiyalarining aynan tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida qo'llanilishi masalasi yetarli darajada o'rganilmagan va qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

Metodologiya. Tadqiqot 2024-2025-o'quv yilida Namangan davlat pedagogika institutida Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'nalishi talabalari bilan o'tkazildi. Tadqiqotda 120 nafar 1-2 kurs talabalari ishtirok etdi: 60 nafar eksperimental guruh, 60 nafar nazorat guruhi.

Tadqiqot bosqichlari:

1-bosqich (Diyagnostik): ishtirokchilarning dastlabki pedagogik kreativlik darajasi baholandi. Buning uchun Torrance ijodiy fikrlash testi va maxsus ishlab chiqilgan pedagogik vaziyatlar to'plami qo'llanildi.

2-bosqich (Formativ): eksperimental guruhda TRIZ texnologiyalariga asoslangan ta'lim dasturi amalga oshirildi. Dastur 16 hafta davom etdi va haftasiga 2 soatdan iborat bo'ldi.

3-bosqich (Yakuniy baholash): Tadqiqot yakunida qayta diyagnostika o'tkazilib, natijalar tahlil qilindi.

TRIZ asosidagi ta'lim dasturi:

1. TRIZ ning asosiy tamoyillari va qonunlari bilan tanishish
2. Ziddiyatlarni aniqlash va hal qilish usullari
3. Algoritmik muammo yechish texnikalari (ARIZ)
4. Pedagogik vaziyatlarda ijodiy yechimlar izlash
5. Tarixiy materiallarni kreativ tarzda taqdim etish usullari

Ma'lumotlar to'plash vositalari:

- Torrance ijodiy fikrlash testi
- Pedagogik kreativlik darajasini baholash anketa

- Ochiq savollar bo'yicha intervyu
- Kuzatish protokollari
- Portfolio baholash

Ma'lumotlarning ishonchliligi uchun triangulatsiya prinsipi qo'llanildi.

Natijalar. Dastlabki holatni baholash. Tadqiqot boshida eksperimental va nazorat guruhlarida o'rtasida pedagogik kreativlik ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli farq aniqlanmadi ($p > 0.05$). Ikkala guruhda ham talabalarning 65% i pedagogik kreativlikning o'rtacha darajasini ko'rsatdi.

TRIZ ta'limi natijalar

16 haftalik TRIZ asosidagi ta'lim jarayoni yakunida eksperimental guruhda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

Ijodiy fikrlash bo'yicha:

- Fluency (ravonlik) ko'rsatkichi 23% ga oshdi
- Flexibility (moslashuvchanlik) 31% ga oshdi
- Originality (originallik) 28% ga oshdi
- Elaboration (batafsil ishlab chiqish) 19% ga oshdi

Pedagogik kreativlik komponentlari bo'yicha:

- Yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati sezilarli yaxshilandi
- Muammoli vaziyatlarni hal qilishda ijodiy yondashuvlar oshdi
- Tarixiy materiallarni noan'anaviy usulda taqdim etish malakasi rivojlandi

Sifatli tahlil natijalari

Ochiq intervyularda talabalar TRIZ texnologiyalarining quyidagi afzalliklarini ta'kidladilar:

- Sistemali yondashuvni o'rganish imkoniyati
- Muammolarni strukturalashtirilgan tarzda hal qilish ko'nikmalari
- Ijodiy potentsialni ro'yobga chiqarish
- Tarixiy voqealar o'rtasidagi noan'anaviy aloqalarni topish qobiliyati

Kuzatish natijalari ko'rsatdiki, eksperimental guruh talabalari darslarni loyihalashda va o'tkazishda ko'proq ijodiy usullarni qo'llaydilar.

Nazorat guruhi bilan taqqoslash

Nazorat guruhida an'anaviy o'qitish uslublari qo'llanildi. Bu guruhda ham ba'zi yaxshilanishlar kuzatildi, lekin ular eksperimental guruhdagiga nisbatan sezilarli darajada past bo'ldi.

Muhokama. Olingan natijalar TRIZ texnologiyalarining bo'lajak tarix o'qituvchilarining pedagogik kreativligini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Bu natijalar xorijiy tadqiqotchilarning xulosalari bilan mos keladi[11]. TRIZ ning sistemli yondashuvi talabalarning muammolarni strukturalashtirilgan tarzda hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu ayniqsa tarix fanida muhim, chunki tarixiy jarayonlar murakkab va ko'p omilli bo'ladi[12]. Ziddiyatlarni hal qilish prinsipi talabalarning pedagogik muammolarni yangi nuqtai nazardan ko'rishga yordam beradi. Bu esa noan'anaviy o'qitish usullarini yaratishga olib keladi.

Algoritmik yondashuvlar (ARIZ) talabalarning ijodiy jarayonlarini tartibga solishga yordam beradi. Bu tasodifiy ijodkorlik o'rniga maqsadli va samarali kreativlikni shakllantiradi. Biroq ba'zi cheklovlarni ham hisobga olish kerak. TRIZ texnologiyalarini o'zlashtirishda dastlabki qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, uning samaradorligi o'qituvchining malaka darajasiga bog'liq.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari TRIZ texnologiyalarining bo'lajak tarix o'qituvchilarining pedagogik kreativligini rivojlantirishda yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Eksperimental guruhda ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyati va innovatsion ta'lim uslublari qo'llash malakasi sezilarli darajada yaxshilandi.

TRIZ ning sistemli yondashuvi, ziddiyatlarni hal qilish prinsipi va algoritmik usullari talabalarning pedagogik kreativligining barcha komponentlarini muvozanatli rivojlantirishga imkon berdi.

Tavsiyalar:

1. TRIZ texnologiyalarini pedagogika fakultetlarining o'quv dasturlariga kiritish
2. O'qituvchilar uchun TRIZ bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish
3. TRIZ asosidagi o'quv materiallarini ishlab chiqish
4. Boshqa fan o'qituvchilarini tayyorlashda ham TRIZ dan foydalanish

TRIZ texnologiyalari bo'lajak tarix o'qituvchilarining pedagogik kreativligini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi va keng amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ишмуратова, Э. М. (2021). Педагогическое творчество как основа профессиональной деятельности учителя истории. **Образование и наука**, 23(4), 156-178.
2. Петрова, Н. В. (2020). Инновационные подходы в преподавании истории. **Педагогические науки**, 15(3), 45-62.
3. Altshuller, G. S. (1999). **The Innovation Algorithm: TRIZ, systematic innovation and technical creativity**. Technical Innovation Center.
4. Savransky, S. D. (2000). **Engineering of Creativity: Introduction to TRIZ Methodology of Inventive Problem Solving**. CRC Press.
5. Gadd, J. (2011). TRIZ for Engineers: Enabling Inventive Problem Solving. **Educational Technology & Society**, 14(2), 89-102.
6. Козлов, Р. Б. (2018). Интеграция ТРИЗ-технологий в педагогический процесс высшей школы. **Высшее образование в России**, 27(11), 112-125.
7. Qodirova, N. I. (2020). Pedagogik kreativlikning nazariy asoslari. **Ta'lim va rivojlanish**, 4(15), 67-75.
8. Torrance, E. P. (1990). **The Torrance Tests of Creative Thinking Norms: Technical Manual Figural (Streamlined) Forms A & B**. Bensenville, IL: Scholastic Testing Service.
9. Хуторской, А. В. (2019). ТРИЗ-педагогика в развитии творческих способностей студентов. **Педагогика**, 83(7), 78-89.
10. Cameron, I., & Green, R. (2020). Creative Problem Solving in History Education: A TRIZ Approach. **Journal of Educational Innovation**, 12(3), 234-251.

Bazarov Xayotbek Ne'matovich,
Andijon davlat universiteti, Musiqa ta'lim yo'nalishi kafedrasida
dotsenti

TALABALARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish texnologiyalari tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda kasbiy identifikatsiyaning nazariy asoslari, uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar va jarayonning o'ziga xosliklari o'rganilgan. Musiqa o'qituvchisining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishda milliy va xalqaro tajribalar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda raqamli vositalarning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasbiy identifikatsiya, pedagogik yondashuv, innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar, milliy va xalqaro tajribalar, musiqiy ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kasbiy mahorat.

Аннотация. Статья посвящена анализу технологий развития профессиональной идентичности студентов. В исследовании рассматриваются теоретические основы профессиональной идентичности, факторы, влияющие на её формирование, и специфика этого процесса. Анализируется значение отечественного и зарубежного опыта, инновационных педагогических технологий и цифровых инструментов в развитии профессиональной идентичности учителя музыки.

Ключевые слова: профессиональная идентичность, педагогический подход, инновационные технологии, цифровые инструменты, национальный и международный опыт, музыкальное образование, личностно-ориентированный подход, профессиональные навыки.

Abstract. this article is devoted to the analysis of technologies for the development of professional identity in students. The study examines the theoretical foundations of professional identity, factors influencing its formation, and the specifics of the process. The importance of national and international experiences, innovative pedagogical technologies, and digital tools in the development of professional identity of a music teacher is analyzed.

Key words: professional identity, pedagogical approach, innovative technologies, digital tools, national and international experiences, music education, person-centered approach, professional skills.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning shaxsiy va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri sifatida ko'rilmoqda. Bugungi globallashuv davrida talabalarning bilim olish, kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishidan tashqari, o'zligini anglash, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, hayotiy maqsadlarini aniq belgilash va jamiyatda o'ziga mos ijtimoiy rolni topish qobiliyatini rivojlantirish ham zaruriy masalalardan biridir. Shaxsiy va kasbiy identifikatsiya nafaqat talabalarni o'quv jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishiga, balki ularning kelajakdagi hayot yo'llarini muvaffaqiyatli qurishiga yordam beradi. Talabalarning identifikatsiyasini rivojlantirish jarayonida pedagogik texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonida qo'llaniladigan innovatsion yondashuvlar, jumladan, modulli o'qitish, loyiha asosida ta'lim va reflektiv usullar, talabalarni o'z-o'zini anglash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan qilib tashkil etadi va talabalar uchun o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Identifikatsiya psixologiyada E. Erikson, A. Maslou kabi olimlar tomonidan batafsil o'rganilgan va shaxsiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri

sifatida e'tirof etilgan. Eriksonning fikricha, har bir shaxs o'zining hayotiy bosqichlarida muayyan identifikatsiya inqirozlarini boshdan kechiradi va ushbu inqirozlarni muvaffaqiyatli yengib o'tishi orqali o'zining shaxsiy va kasbiy yo'lini topadi[7]. Identifikatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun talaba o'zining qadr-qimmatini, qobiliyatlari va jamiyatdagi o'rnini haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Pedagogik jarayonlarda talabalarning identitini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar, avvalo, ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash, individual qobiliyatlarni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq[1]. Jumladan, modulli o'qitish, loyiha asosidagi ta'lim, reflektiv metodlar kabi yondashuvlar talabalarning shaxsiy rivojlanishiga va kasbiy identifikatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, loyiha asosidagi ta'lim talabalarni muayyan vazifalarni mustaqil bajarishga undaydi, bu esa ularning o'z kuchlariga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularga o'z imkoniyatlarini sinab ko'rishga imkon beradi. Ijtimoiy va madaniy omillar ham talabalarning identifikatsiya jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Universitet muhiti talabalar uchun yangi ijtimoiy aloqalar va tajribalar manbai hisoblanadi. Talabalar jamoaviy loyihalar, madaniy va ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish orqali o'z muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday tajribalar talabalarga nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Identifikatsiyani muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun uni doimiy ravishda baholab borish ham muhimdir. Psixologik testlar, so'rovnomalar va kuzatuvlar orqali talabalar o'zlarining shaxsiy rivojlanish darajasini aniqlashlari mumkin. Bunday tahlillar natijasida o'quv jarayoniga zaruriy tuzatishlar kiritilib, ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Ta'lim jarayonida muntazam ravishda reflektiv faoliyat tashkil etilishi talabalarni o'zlarining rivojlanish yo'nalishlarini anglashga va bu borada mustaqil qaror qabul qilishlariga ko'maklashadi. Shunday qilib, pedagogik oliy ta'limda talabalarning shaxsiy va kasbiy identitini rivojlantirish ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatlarini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, ijtimoiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish hamda identifikatsiya jarayonini baholab borish orqali ta'lim jarayoni talabalar uchun nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy o'sish va o'zlikni anglash makoniga aylanishi lozim. Ushbu maqola aynan shu jihatlarni kengroq yoritishga qaratilgan bo'lib, pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi va ular yordamida identifikatsiyani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Talabalar identifikatsiyasi – bu shaxsning o'zini tanib, o'ziga xosligini anglash va ijtimoiy rollarni qabul qilish jarayoni bo'lib, u shaxsiy va kasbiy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali talaba o'zining individual qobiliyatlarini, imkoniyatlarini va hayotdagi maqsadlarini aniqlaydi. Shaxsiy identifikatsiya tushunchasi ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Psixolog A. Maslou o'zining ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasida identifikatsiyani shaxsiy o'sish va o'zini to'la anglashga olib boruvchi muhim omil sifatida ko'rsatadi[6]. E. Erikson esa identifikatsiyani shaxsning hayotiy bosqichlarida to'qnash keladigan muayyan inqirozlarni yengib o'tish orqali rivojlanadigan jarayon[2] deb ta'kidlaydi. Ushbu jarayon muvaffaqiyatli amalga oshganda, shaxs o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va barqaror ijtimoiy mavqegini egallaydi. Oliy ta'limda talabalarning identitini shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalar alohida o'rin tutadi. Ta'limda qo'llaniladigan modulli o'qitish, loyiha asosidagi ta'lim va reflektiv usullar talabalarni o'zlarini sinab ko'rishga, mustaqil fikrlashga va o'zining shaxsiy yo'lini izlashga undaydi. Loyiha asosidagi ta'lim, masalan, talabalarni real muammolarni mustaqil hal qilishga jalb etadi va ular uchun o'z kuchlarini sinovdan o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon davomida talabalar o'z qarashlarini, qobiliyatlarini va qiziqishlarini shakllantirib, o'zlariga bo'lgan ishonchni

oshiradilar[8]. Shu bilan birga, bu usullar talabalar orasida ijtimoiy muloqot va hamkorlikni kuchaytiradi, ularda jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5. Hasanboeva O., Xoliqov A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
6. Абдуллаев, III. Самостоятельное обучение студентов в условиях цифровизации образования. – Ташкент: Ilm Ziyο, 2022.
7. Knowles, M. The Modern Practice of Adult Education: From Pedagogy to Andragogy. – Cambridge: Cambridge Adult Education, 1980.
8. Biggs, J., Tang, C. Teaching for Quality Learning at University. – Maidenhead: Open University Press, 2011.

Umorova Dilnoza Odilbekovna,
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
dilnozaumorova.1611@gmail.com

TALABALARNING KREATIVLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Kreativlik kompetensiyasi zamonaviy oliy ta'lim jarayonida shaxsning mustaqil, noan'anaviy fikrlashi, muammolarga ijodiy yondashuvi va innovatsion yechimlar topa olish qobiliyatini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Ushbu kompetensiya talabada tafakkur faolligi, intellektual mustaqillik, hamda yangilik yaratishga bo'lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Maqolada kreativlik kompetensiyasining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari (kreativ tafakkur, estetik sezuvchanlik, innovatsion yondashuv va emotsional-intellektual uyg'unlik) ilmiy asoslangan tarzda ochib berilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning kreativlik nazariyalari tahlil qilinib, ularning ta'lim tizimidagi qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik kompetensiyasi, talaba shaxsi, ijodiy tafakkur, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik metodologiya, interaktiv o'qitish usullari, innovatsion ta'lim texnologiyalari, mustaqil fikrlash

Аннотация. В данной статье системно проанализированы теоретико-методологические основы развития креативной компетенции студентов. Креативная компетенция рассматривается как важнейший фактор формирования у личности в условиях современного высшего образования навыков самостоятельного, нестандартного мышления, творческого подхода к решению проблем и способности находить инновационные решения. Данная компетенция усиливает у студентов мыслительную активность, интеллектуальную самостоятельность, а также внутреннюю мотивацию к созданию новизны. В статье научно обосновано содержание и структура креативной компетенции, включающей такие компоненты, как креативное мышление, эстетическая чувствительность, инновационный подход и эмоционально-интеллектуальная гармония. Также проанализированы теории креативности отечественных и зарубежных ученых и рассмотрены возможности их применения в системе образования.

Ключевые слова: креативная компетенция, личность студента, креативное мышление, компетентностный подход, педагогическая методология, интерактивные методы обучения, инновационные образовательные технологии, самостоятельное мышление

Annotation. This article provides a systematic analysis of the theoretical and methodological foundations for developing students' creativity competence. Creativity competence is considered a key factor in shaping students' ability to think independently and unconventionally, approach problems creatively, and find innovative solutions within the framework of modern higher education. This competence enhances students' cognitive activity, intellectual independence, and intrinsic motivation for innovation and creativity.

The article scientifically substantiates the content and structural components of creativity competence, which include creative thinking, aesthetic sensitivity, innovative approaches, and emotional-intellectual harmony. It also examines the theories of creativity developed by both local and international scholars and explores the possibilities of applying these theories within the educational system.

Key words: creativity competence, student personality, creative thinking, competence-based approach, pedagogical methodology, interactive teaching methods, innovative educational technologies, independent thinking.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda har bir insondan yangicha fikrlash, muammolarga noan'anaviy yondashuv, innovatsion g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga joriy etish ko'nikmalari talab etilmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalari oldida yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondasha oladigan, tashabbuskor, kreativ tafakkur egasi sifatida shakllantirish masalasi dolzarb vazifaga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni [1], 2021-yil 6-apreldagi "Ta'lim va tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5052-sonli qarori [2], shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" [3]da ta'lim mazmunini zamon talablari asosida yangilash, talabalarda kreativ fikrlash va innovatsion salohiyatni shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlar asosida ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv keng joriy qilinmoqda. Bunda talabalarining bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga, ularning ijodiy, tanqidiy va noan'anaviy fikrlash salohiyatini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kreativlik kompetensiyasi – bu nafaqat kasbiy tayyorgarlik elementi, balki hayotiy muammolarni hal etishda, yangilik yaratishda, shaxsiy va kasbiy o'sishda asosiy vosita sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtai nazardan, talabalarining kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi oliy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayonni nazariy-metodologik jihatdan chuqur o'rganish, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish va innovatsion yondashuvlar asosida samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda. Mazkur maqola aynan shu ehtiyojlardan kelib chiqib, kreativlik kompetensiyasining mazmun-mohiyatini aniqlash, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodologik asoslarni belgilash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Muammoning o'rganilish darajasi. Kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim fanida alohida e'tiborga sazovor bo'lib, bu borada nafaqat chet ellik, balki o'zbek olimlari tomonidan ham sezilarli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda kreativlik ko'pincha insonning intellektual salohiyatining asosiy elementlaridan biri sifatida ta'riflanadi va uni rivojlantirish yo'llari ko'plab psixologik va pedagogik tadqiqotlarning markazida turadi. J. Guilfordning (1950) kreativlik nazariyasi, E. Torrensning ijodiy tafakkur konsepsiyasi, G. Amabile va M. Runco kabi zamonaviy olimlarning ishlari kreativlikning nazariy va amaliy aspektlarini chuqur yoritgan[4].

O'zbekiston ta'lim tizimida esa, kreativlik kompetensiyasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida ham muhim o'rin tutadi. 2019-yilda Prezident tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da yoshlarning innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rag'batlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[1]. Shuningdek, 2021-yilda qabul qilingan "Ta'lim va tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorda ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirishni ta'minlovchi interaktiv va innovatsion metodlarning qo'llanilishi ta'kidlangan[2].

O'zbek olimlari, jumladan N. Islomova (2021), kreativlik kompetensiyasini pedagogik jarayonda shakllantirish metodologiyasini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tadqiqotlar olib bormoqda, ular kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarining ijodiy salohiyatini oshirish mexanizmlarini o'rganmoqda[5]. Biroq, ushbu sohada nazariy-metodologik tadqiqotlarning keng qamrovli va tizimli shaklda olib borilishi hali to'liq emas, bu esa kreativlikni rivojlantirish bo'yicha samarali amaliyotlarni shakllantirishni qiyinlashtirmoqda. Shuningdek, global ta'lim amaliyotida kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar, interaktiv o'quv metodlari va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish tajribasi keng tarqalgan. Bu esa

O'zbekiston ta'lim muassasalari uchun yangi pedagogik yondashuvlarni joriy qilish zaruratini yanada oshirmoqda.

Natijada, kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish nazariyasi va metodologiyasini yanada chuqur o'rganish, mavjud yondashuvlarni takomillashtirish, shuningdek pedagogik jarayonlarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu borada amalga oshiriladigan tadqiqotlar nafaqat ta'lim jarayonini sifat jihatidan yaxshilash, balki mamlakatning innovatsion rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Muhokama va natijalar. Talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda oliy ta'lim tizimlarining eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy jamiyatda innovatsion fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish mamlakatlar raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida tan olingan[4]. Shu munosabat bilan, ta'lim jarayonida kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish va samarali pedagogik mexanizmlar yaratish talab etiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativlik kompetensiyasi nafaqat shaxsning tabiiy qobiliyatlari bilan bog'liq, balki pedagogik sharoit va ta'lim jarayonida qo'llaniladigan usullarga ham bog'liq. O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Prezident farmonlari va qarorlarida ta'lim mazmunini yangilash va kreativ fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli farmoni, 2019; PQ-5052-sonli qarori, 2021)[2]. Bu esa ta'lim jarayoniga interaktiv o'qitish usullarini, muammoga yo'naltirilgan va loyiha asosida ta'lim yondashuvlarini keng joriy qilish imkonini yaratmoqda.

Respublikamiz olimlaridan F.A.Xayitova kreativlikni 3 yo'nalishda tadqiq qiladi. Ular quyidagilar:

- pedagogik
- psixologik
- falsafiy.

Pedagogikada kreativlik deganda insonning "ijodga qobiliyatligi" tushuniladi va intellektning rivojlanish darajasi bilan aloqadorlikda tahlil qilinadi. Jumladan, A.Aripdjanova oliy ta'lim muassasalari pedagoglari tarkibining kreativ salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liqlikda kreativ tushunchasining mohiyatini quyidagi tarzda bayon etgan: "Maqbul imkoniyatlarni safarbar etish orqali, shaxsni muammoni qabul qilish, yangi, noodatiy mahsulni yaratish qobiliyati". Falsafada kreativlik tushunchasi "biror yangi narsani yaratish yoki qaysidir usullar asosida yangilikni amalga oshirish; muammoni hal etishning yangi yechimlari, yangi metod yoki san'at asari".Psixologik talqinga ko'ra, kreativlik, asosan, ijodga umumiy qobiliyatlik bilan aloqadorlikda e'tirof etiladi. Hozirgi kunda bu atama original yechimlarni o'ylab topish, nostandart harakatlarni amalga oshirishga tayyorlik ma'nosini ifodalaydi. "Yangi g'oya, yechim, metodlar, nazariyalar yoki qandaydir faoliyatning yangi mahsulini ishlab chiqish tushuniladi[7].

Pedagogik amaliyotda talabalarning kreativligini rivojlantirish uchun muhim omil - o'qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi mahorati va motivatsiyasidir. Islomovanning tadqiqotlariga ko'ra, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonlari talabalarning ijodiy fikrlashini sezilarli darajada faollashtiradi[5]. Bu esa o'z navbatida, yangi bilimlar va ko'nikmalarni mustaqil va noan'anaviy usullar bilan egallash imkonini beradi. Shuningdek, Runco va Acar kreativ tafakkurni o'lchash va rivojlantirishda divergent fikrlashning ahamiyatini ta'kidlaydilar[6]. Ularning fikricha, talabalarda muammolarga turli burchaklardan qarash qobiliyatini rivojlantirish, yangi va noyob g'oyalar yaratish - samarali o'qitish natijalaridan biridir. Oliy ta'lim muassasalarida shu printsipl asosida yaratilgan muhit va metodikalar kreativlikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirishga oid nazariy metodologik tadqiqotlar soni oshayotganiga qaramay, hali ham ko'plab muammolar mavjud. Jumladan,

o'qituvchilarning kreativlikni shakllantirish bo'yicha malaka va bilimlari, innovatsion metodlarni joriy etishda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar, shuningdek, o'quv dasturlarining yyetarlicha moslashmaganligi samarali rivojlanishga to'siq bo'lmoqda. Shu bois, ta'lim sifatini oshirish va kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari doirasida pedagoglarni doimiy malaka oshirish tizimini tashkil etish zarur.

Natijada, talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, u yuqori malakali, innovatsion fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bu borada nazariy va metodologik tadqiqotlar asosida yaratilgan pedagogik mexanizmlar va innovatsion o'quv texnologiyalarining samaradorligini baholash muhim hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Mazkur maqolada talabalarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari keng ko'lamda o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativlik kompetensiyasi zamonaviy oliy ta'limda talabalar shaxsiy va kasbiy rivojlanishining muhim komponenti sifatida ajralib turadi. Kreativlikni rivojlantirish - nafaqat tabiiy qobiliyatlarni shakllantirish, balki maqsadli pedagogik yondashuv va innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan murakkab jarayon ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, kreativlik kompetensiyasining tarkibiy elementlari - kreativ tafakkur, estetik sezuvchanlik, innovatsion yondashuv va emotsional-intellektual uyg'unlik - pedagogik jarayonda integratsiyalashgan holda rivojlantirilishi lozimligi ta'kidlandi. O'zbekiston ta'lim tizimida bu sohada ilmiy tadqiqotlar soni oshayotgan bo'lsa-da, hali ham samarali metodologik bazaning rivojlantirilishi, o'qituvchilar malakasini oshirish va ta'lim dasturlarini kreativlikni rivojlantiruvchi usullar bilan boyitish zarurati mavjud.

Kreativlikni rivojlantirish ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida izchil va tizimli yondashuvni talab etadi. Bu nafaqat talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini oshirishga, balki ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh, innovatsion fikrlaydigan mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Tavsiyalar:

1. Pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash: O'qituvchilar va professor-o'qituvchilarni kreativlikni rivojlantirish metodikalari bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslariga jalb qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha treninglar tashkil etish zarur.

2. Ta'lim dasturlarini takomillashtirish: Ta'lim dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish, o'quv fanlariga kreativlikni rag'batlantiruvchi faol o'qitish metodlari va loyihaviy faoliyat elementlarini kiritish lozim.

3. Interaktiv va innovatsion o'quv metodlarini keng joriy etish: Talabalarning mustaqil izlanishlari va ijodiy faoliyatlarini rag'batlantiruvchi interaktiv metodlar (muammoga yo'naltirilgan o'qitish, guruhli loyihalar, raqamli ta'lim vositalari) ta'lim jarayoniga integratsiyalashishi kerak.

4. Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish: Kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, yangi nazariy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun grant va moliyaviy resurslar ajratish muhimdir.

5. Ta'lim muhitini kreativlikni rag'batlantiruvchi tarzda shakllantirish: Oliy ta'lim muassasalarida ochiq muloqot, erkin fikr almosh ish, erkin tajriba o'tkazish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ijodiy loyiha va tanlovlar tashkil etish orqali talabalarning kreativ salohiyatini qo'llab-quvvatlash zarur.

6. Talabalarni ichki motivatsiyasini oshirish: Kreativlikni rivojlantirishda talabalarning qiziqishlari va ichki rag'batlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni qo'llash, ularning o'zaro hamkorlik va ijtimoiy faolligini rag'batlantirish muhim hisoblanadi.

7. Raqamli texnologiyalar va yangi pedagogik vositalardan foydalanish: Kreativlikni rivojlantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash, virtual

laboratoriyalar, interaktiv platformalar va simulyatsion o'quv vositalaridan samarali foydalanish.

Ushbu tavsiyalar amalga oshirilsa, talabalarning kreativlik kompetensiyasi sezilarli darajada oshadi, ta'lim jarayoni sifat jihatidan tubdan yaxshilanadi hamda mamlakatning innovatsion rivojlanishiga mustahkam asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli farmoni – “O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”. // <https://lex.uz/docs/4545883>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-apreldagi PQ-5052-sonli qarori – “Ta'lim va tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”. // <https://lex.uz/docs/5371823>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni – “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. // <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Guilford, J.P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444-454.
5. Islomova, N.S. (2021). Kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
6. Runco, M.A., & Acar, S. (2012). Divergent thinking as an indicator of creative potential. Creativity Research Journal, 24(1), 66-75.
7. F.A.Xayitova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ o'qish madaniyatini shakllantirish texnologiyalari. - Toshkent, 2023

Safayeva Diyora Hamid qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJTIMOY MAS'ULIYAT HISSINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK JARAYON MODEL

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishning metodik jarayon modeli nazariy va amaliy jihati, modelning asosiy tarkibiy qismlari – maqsad va vazifalar, mazmun, metod va vositalar, pedagogik shart-sharoitlar hamda baholash mezonlari tizimli ravishda tahlil qilinganligi, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish jarayonida talabalarning shaxsiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga munosabati va ijtimoiy faoliyatini rag'batlantirish yo'llarining pedagogik jarayon bosqichlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy mas'uliyat, metodik jarayon, model, talaba, pedagogik shart-sharoit, interfaol usul, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faollik, baholash mezonlari.

Аннотация. В статье изложены теоретические и практические аспекты методической модели процесса формирования чувства социальной ответственности у обучающихся, проведен системный анализ основных компонентов модели – целей и задач, содержания, методов и средств, педагогических условий и критериев оценки, а также этапов педагогического процесса, способов стимулирования у обучающихся личностной активности, гражданской позиции, отношения к духовно-нравственным ценностям, социальной активности в процессе формирования социальной ответственности.

Ключевые слова: социальная ответственность, методический процесс, модель, студент, педагогические условия, интерактивный метод, духовно-нравственные ценности, гражданская позиция, социальный активизм, критерии оценки.

Abstract. This article presents the theoretical and practical aspects of the methodological process model for developing a sense of social responsibility in students, the systematic analysis of the main components of the model - goals and objectives, content, methods and means, pedagogical conditions and evaluation criteria, and the stages of the pedagogical process of ways to stimulate students' personal activity, civic position, attitude to spiritual and moral values, and social activity in the process of forming social responsibility

Key words: social responsibility, methodological process, model, student, pedagogical conditions, interactive method, spiritual and moral values, civic position, social activism, evaluation criteria.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan natijaga asoslangan rivojlantirish maqsadlariga erishishda ta'lim-tizimida olib borilayotgan islohotlarning o'zi bosh mezon hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatlari hamda xalqiga qilgan Murojaatnomasi[10]da yosh-avlodning zamonaviy kasb egasi va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalanishi masalasiga to'xtalib: shunday ta'kidlagan edi, "har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz" deb ilgari surgan tashabbus va g'oyalarining asosida mas'uliyatli avlodni tarbiyalash maslasi muhim hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni shaxsiy, kasbiy hamda fuqarolik qadriyatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan murakkab pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy

barqarorlikni ta'minlashda yoshlarning ongli qarorlari, mas'uliyatli munosabatlari va faol fuqarolik pozitsiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta'lim jarayonida talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishni tizimli asosda yo'lga qo'yish zaruriyati ortib bormoqda. Bugungi kunda pedagogik amaliyotda turli usul va yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, talabalarda ijtimoiy mas'uliyatni samarali rivojlantirish uchun yaxlit, ilmiy asoslangan metodik jarayon modeli ishlab chiqish muhimdir.

Mazkur model ta'lim-tarbiya jarayonining bosqichlarini, pedagogik shart-sharoitlarini, subyektlararo hamkorlikni, metod va vositalar uyg'unligini o'z ichiga olishi lozim. Metodik jarayon modeli talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining rivojlanishini quyidagi yo'nalishlarda ta'minlaydi: shaxsiy mas'uliyatni anglash, jamoaviy faoliyatda o'z rolini to'g'ri belgilash, fuqarolik burchini his etish, ijtimoiy muhitdagi vazifalarni ado etish va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayanib qarorlar qabul qilish. Bu jarayonda o'qituvchi, guruh jamoasi, ta'lim muassasasi hamda jamiyat bilan o'zaro hamkorlikning samarali mexanizmlarini belgilash dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish metodik jarayon modeli nazariy jihatdan asoslanadi, uning tarkibiy qismlari, bosqichlari hamda pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur modelning amaliyotga tadbiiq etilishi ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritiladi.

Hozirgi davrda kadrlarning mas'uliyatli bo'lib tarbiyalanish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Chunki islohotlar jarayonida barcha sohalarida ijtimoiy mas'uliyatli, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z chiqishlarida yosh avlodning xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatini ta'kidlab, "Yoshlarimiz – jamiyatimiz va mamlakatimiz kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega" ekanini alohida qayd etgan. Shu bois, bugungi kunda yoshlarga intellektual salohiyatini va ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishi uchun barcha zarur imkoniyatlar yaratilmoqda.

Pedagogika fani taraqqiyotida olimlar ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish modelini yaratish va modellashtirishning ilmiy asoslarini chuqur o'rganganlar. Model tushunchasi nafaqat pedagogikada, balki boshqa fan sohalarida ham keng qo'llanadi. Ilmiy adabiyotlarda model - tadqiqot obyekti yoki hodisasining elementlari o'rtasidagi tuzilma, xususiyat va munosabatlarni soddalashtirilgan ko'rinishda ifodalovchi sxema, fizik konstruksiya, belgi shakli yoki matematik formulalar ko'rinishida yaratilgan sun'iy obyekt sifatida ta'riflanadi.

Ta'lim jarayonini modellashtirish esa o'rganilayotgan obyekt (yoki hodisa)ning ichki tuzilishini, komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va jarayonning dinamikasini tizimli tarzda ko'rsatish, shu orqali pedagogik boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

V.A. Shtoff o'z ilmiy tadqiqotlarida model yoki modellashtirish masalalariga to'xtalib, shunday ta'rif beradi: "Model – bu tadqiqot obyektni aks ettiruvchi yoki ifodalovchi, uni ma'lum darajada o'rnini bosuvchi va uni o'rganish jarayonida ushbu obyekt haqida yangi ma'lumotlar berishga qodir bo'lgan, xayolda tasavvur etiladigan yoki moddiy shaklda amalga oshiriladigan tizimdir."


Pedagogika fanida modelning amaliy qimmati, birinchi navbatda, o'rganilayotgan obyektning muhim tomonlarini qay darajada adekvat aks ettira olishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, modelni ishlab chiqish bosqichlarida modellashtirishning asosiy prinsiplari - ko'rgazmalilik, aniqlik va obyektivlik - qay darajada to'g'ri hisobga olingani ham uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Modellashtirish – bu modellarning ierarxiasini tuzish jarayoni bo'lib, unda o'quv-tarbiya jarayoni turli jihatlar va vositalar orqali qayta yaratiladi. Pedagogik modellashtirishda o'quv jarayonining mazmunii, tashkiliy va metodik tomonlari tizimli yondashuv asosida namoyon etiladi.

Masalan, ilmiy adabiyotlarda va ta'lim amaliyotida fan sohalaridagi modellarni guruhli tahlil qilish usullari ko'pincha tasvirlar, diagrammalar yoki sxemalar orqali ko'rgazmali tarzda

taqdim etiladi (2.1-rasm). Bunday vizuallashtirish o'qituvchi va tadqiqotchilarga modelning tuzilishi, komponentlar o'rtasidagi aloqalar va ularning o'zaro ta'sirini aniq ko'rishga yordam beradi.

Shunday qilib, modellashtirish nafaqat o'quv-tarbiya jarayonini tahlil qilish va takomillashtirish vositasi, balki ilmiy tadqiqotlarda yangi bilimlarni kashf etish va amaliyotga tatbiq etishning samarali metodidir.



1-rasm. Pedagogik modellar guruhi tahlili

Ta'limdagi modellar tasnifida ular o'rtasida qat'iy chegaralar mavjud emas. Pedagogik modellar ko'pincha sanab o'tilgan tasniflarning ikkinchi va uchinchi guruhlariga kiradi. **Modellashtirishning ta'limdagi samaradorligini baholash** uchun pedagogika fanida maxsus atama – **pedagogik validlik** tushunchasi kiritilgan. Bu tushuncha ishonchlilik va adekvatlikka yaqin, biroq ulardan farqli bo'lib, modelning maqsadga muvofiqligini va uning pedagogik jarayonga moslashganligini ifodalaydi. Validlik pedagogik nuqtai nazardan odatda uch tarkibiy asosda ko'riladi:

konseptual validlik – modelning nazariy asoslar bilan uyg'unligi;

kritereal validlik – modelning belgilangan mezonlarga mosligi;

miqdoriy validlik – modelning ko'rsatkichlar orqali o'lchashga yaroqliligi.

“Model” atamasi bir tizimning (namuna, andoza) ma'lum xususiyatlarini ifodalash, ularni haqiqiy tizim bilan bog'lash va ma'lum darajada uning o'rnini bosish qobiliyatiga ega bo'lgan sun'iy tuzilma sifatida ta'riflanadi.

L.S.Vigotskiy model tushunchasini ilm-fanning ko'plab sohalarida qo'llanilishini ta'kidlab, modelni - sxema, fizik konstruktsiya, belgili shakl yoki formula ko'rinishida sun'iy yaratilgan, tadqiq qilinayotgan obyektga o'xshash bo'lgan va uning tuzilishi, xususiyatlari, elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni soddalashtirilgan va tushunarli shaklda aks ettiruvchi obyekt sifatida ta'riflaydi.

Pedagogik tadqiqotlarda modellashtirish o'qitish, tarbiya, ta'lim mazmuni, o'quv faoliyati kabi jarayonlarni qamrab oladi. Modellashtirish tadqiqot faoliyatining yaxlit turkumini ifodalab, model esa uning mohiyatini chuqur o'rganadi, nazariy xulosalar va g'oyalar bilan boyitadi. Shu bois, modellashtirish metodikasini egallash ilmiy bilishning umumiy metodlari hamda psixologik-pedagogik yondashuvlar bilan chambarchas bog'liq.

Talabalarning turli voqea va hodisalarni o'rganishida **modellash** o'quv vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega. U o'quv materialini umumlashtirish, mantiqiy tartibga solish, semantik sxemalar yaratish, o'quv jarayonida ma'lumotlarni ko'rgazmali ifodalash kabi vazifalarni bajaradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida modelning didaktik asosi – bu **pedagogik texnika**, o'qitish metodlari va tashkiliy shakllar tizimidir. Shu ma'noda, **o'qitish modeli** tushunchasi ham mavjud bo'lib, u turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

Semiotik ta'limiy model – belgili axborotlarni qayta ishlashga yo'naltirilgan bo'lib, semantik tizim asosida matn bilan ishlash topshiriqlarini o'z ichiga oladi;

Imitatsion o'rgatuvchi modellar – matndagi ma'lumotlarni bo'lajak kasbiy faoliyat vaziyatlari bilan bog'lash orqali ta'lim oluvchini nazariy bilim doirasidan amaliy vaziyatlarga olib chiqishni maqsad qiladi.

Shunday qilib, pedagogik modellash ta'lim jarayonini chuqur tushunish, samarali boshqarish va talaba faoliyatini amaliyotga yo'naltirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishni o'quv-tarbiya jarayonini modellash asosida tushuntirishda **“bilim”** va **“ta'lim berish”** kategoriyalari mazmunini falsafiy va pedagogik nuqtai nazardan izohlash muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika va psixologiyada **“bilim”** va **“ta'lim berish”** tushunchalari turlicha talqin qilinadi. Bu, avvalo, bilim nazariyasi va ta'lim nazariyasi bo'yicha turli ilmiy maktablarning yondashuvlari bilan bog'liq. Shu bilan birga, bilimni o'zlashtirish va ta'lim berish masalalari aniq bir fan doirasida emas, balki psixologiya va pedagogika kabi fanlararo yondashuvlar asosida rivojlanadi. Masalan, shaxs psixologiyasi, pedagogika, tashkilot boshqaruvi kabi sohalarida talaba shaxsining mas'uliyati bo'yicha nazariy bilimlar muhim o'rin tutadi.

Talaba shaxsida ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

- O'quv-tarbiya faoliyatida mas'uliyat hissining shakllanishi;
- Shaxsning kognitiv jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi;
- Individual tajriba hamda ijtimoiy va moddiy muhit bilan o'zaro aloqadorlik jarayonlariga urg'u berilishi.

Bu izoh falsafada mavjud bo'lgan **empirizm**, **ratsionalizm** va **konstruktivizm** kabi uch asosiy bilim paradigmasiga tayanadi.

Empirik yondashuvda bilim o'qituvchilar tomonidan shunday berilishi kerakki, bunda o'quvchi shaxsiy tajriba orttirishga undaladi. Darsliklarda keltirilgan **“abadiy haqiqatlar”** bir yoqlama, yagona shaklda taqdim etilmasligi lozim. Bunda talabaning o'zini anglash darajasi har lahzada umumlashadi, lekin jamoaviy identifikatsiya (kimligini anglash, tegishlilikini his qilish) doimo asl individual xususiyatdan farq qiluvchi yangi shakllarda tiklanadi. Talabaning psixologik va ijtimoiy tajribalari o'rtasida doimiy ikki tomonlama aloqadorlik mavjud bo'lib, bu ijtimoiy mas'uliyat hissining shakllanishida o'zini anglashning rivojlanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Chunki ijtimoiy mas'uliyat shaxsning faqat bilim va ko'nikmalarini emas, balki uning jamiyatdagi o'rnini anglashini, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishini ham ta'minlaydi. Ushbu jarayonni samarali yo'lga qo'yish uchun metodik model ishlab chiqish zarur. Model talabaning individual rivojlanishi, jamoaviy faoliyati va ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirishini uzviy uyg'unlashtirgan holda tashkil etiladi.

Metodik jarayon modelining jarayon bosqichlarining tarkibiy qismlari quyidagi komponentlar orqali bosqichma-bosqich tashkil etiladi:

Maqsadli komponent:

- talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish;

- shaxsiy, jamoaviy va kasbiy mas'uliyatni uyg'un rivojlantirish;
- jamiyat taraqqiyoti va barqarorligiga xizmat qiluvchi ijtimoiy kompetensiyalarni mustahkamlash.

Nazariy-metodologik komponent:

- pedagogika va psixologiya fanlaridagi mas'uliyat konsepsiyalari;
- ijtimoiy pedagogika, shaxsiy rivojlanish nazariyalari va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish.

Tashkiliy-pedagogik komponent:

- auditoriya mosh g'ulotlarida: ma'ruza, seminar, muhokama, keys-stadiy, interaktiv metodlardan foydalanish;
- auditoriyadan tashqari faoliyat: ijtimoiy loyihalar, volontyorlik, sport va madaniy tadbirlar orqali mas'uliyatni mustahkamlash;
- ota-ona, pedagog va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Amaliy faoliyat komponenti:

- real hayotiy vaziyatlarni modellash va muammoli vazifalarni yechish;
- ijtimoiy loyihalar, ekologik aksiyalar, xayriya tadbirlari orqali talabalarni faoliyatga jalb qilish;
- jamoada yetakchilik va sheriklik mas'uliyatini tarbiyalash.

Monitoring va baholash komponenti:

- mas'uliyat darajasini aniqlovchi diagnostik metodlar (anketa, suhbat, test);
- talabalarning shaxsiy rivojlanish dinamikasini kuzatish;
- refleksiya va o'z-o'zini baholash usullaridan foydalanish.

Shuning uchun ham, pedagogik jarayon metodik modelining bosqichlari shaxs rivojlanishini ta'minlash asosida tashkil etiladi. Ular,

Motivatsion bosqich – talabalarda ijtimoiy mas'uliyatning mohiyati va zaruriyati haqida tushuncha uyg'otish.

Bilimiy bosqich – nazariy bilimlarni o'zlashtirish va ijtimoiy qadriyatlarni anglash.

Amaliy bosqich – loyihalar, treninglar, tadbirlarda faol ishtirok orqali mas'uliyatni shakllantirish.

Reflektiv bosqich – talabalarning o'z faoliyatiga tanqidiy yondashuvi va mas'uliyat darajasini tahlil qilish.

Demak, talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishning metodik jarayon modeli shaxsning har tomonlama barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu model talabalarning ijtimoiy faolligini, kasbiy mas'uliyatini, jamoaviy munosabatlardagi ishtirokini oshirish bilan birga ularni jamiyat taraqqiyotiga mas'uliyatli yondashishga tayyorlaydi.

Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda ijtimoiy amaliyot hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biz bu jarayonni sotsiogenetik tamoyillarga asoslangan holda tushuntiramiz. Valssiner yondashuvda shaxsning shakllanishi va rivojlanishi bevosita shaxslararo muhitda olingan tajriba asosida izohlanadi. Pedagog uchun talaba duch kelayotgan ijtimoiy va shaxsiy muammolarni ko'ra olish, tushunish va zarur hollarda ularni tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilish muhimdir.

Ratsionalizm ildizlari qadimgi yunon mutafakkiri Aflotun ta'limotiga borib taqaladi. Bu yondashuvda bilim insonda tug'ma bo'lib, yashirin holda mavjud va abadiy hamda o'zgarmas haqiqatlar dunyosining bir qismi sifatida qaraladi. Ustoz bu bilimlarni muloqot orqali shogirdga yetkazadi. Shu asosda ta'lim jarayonini bilimni malakali murabbiydan tinglovchiga yetkazishga yo'naltirish mumkin. Bu yondashuvda bilim tashqaridan beriladi va ta'lim jarayoni muloqotga yo'naltirilgan bo'ladi.

Konstruktivistik yondashuv esa empirizm va ratsionalizmdan farqli o'laroq, bilimlar odamlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida yaratiladi, deb hisoblaydi. Bu yondashuv

I. Kantning transsendental falsafasi, F. Nitsshe qarashlari va J.Piagening bilim olish va rivojlanish nazariyalarida ham o'z aksini topgan. Konstruktivizm talaba faol subyekt sifatida bilimni faoliyat va muloqot jarayonida o'zi quradi.

Shunday qilib, talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish jarayoni "bilim" va "ta'lim berish" kategoriyalarini chuqur anglashni talab qiladi. Empirizm, ratsionalizm va konstruktivizm paradigmalari asosida shakllangan yondashuvlar talabalarning individual o'zini anglashini, jamoaviy identifikatsiyasini va ijtimoiy amaliyotdagi faol ishtirokini uyg'un holda rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonini shaxsning mas'uliyatli, faol va ijodiy rivojlanishiga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda **konstruktivistik yondashuvlar** alohida ahamiyatga ega. Bu yondashuvga ko'ra, bilimlar madaniy hamjamiyatda, amaliy muammolarni hal etish jarayoniga jalb etilgan insonlar o'rtasidagi muloqotlar natijasida shakllanadi. Jismoniy va ijtimoiy dunyo haqidagi bilimlar, shuningdek, ularni anglash jarayoni - ijtimoiy muloqot mahsuli sifatida qaraladi. Konstruktivizm ta'limning xulq-atvor, kognitiv va ijtimoiy-madaniy jihatlariga alohida urg'u beriladi. Bu yondashuv bilimlarning berilgan va dinamik talqini hamda ta'lim jarayonida individual va jamoaviy ishtirok o'rtasidagi turli bog'liqliklarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi
2. O.Abduq'aniev. Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish.: Diss.2021-y. 85-b.
3. Штофф В.А. Моделирование и философия.-М.:Наука, 1966 г,с 22
4. Egamberdieva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Dis..ped.fan.dok.–Toshkent, 2010. – 85-151 b.
5. Выготский, Л.С. Педагогическая психология [Текст] // Л.С. Выготский. – М.: Изд-во АСТ: Астрел, 2008. – 672 с.
6. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti. Pedagogik atamalar lug'ati. T.: 2008 y. b – 28-29
7. Михеев В. Моделирование и методы измерений в педагогике.: -М.Выс. Схкола.: 1987 г

Xudaynazarov Egambergan Madrahimovich,
Ma'mun universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektori
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.,
E-mail: egambergan_xudaynazarov@mamunedu.uz
Orcid: 0009-0005-5449-0601

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATSION FAOLIYATDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonida integratsion faoliyatdan foydalanish masalalari yoritilgan. Integratsion yondashuv ta'lim jarayonini turli fanlararo aloqalar, hayotiy tajriba va amaliy mosh g'ulotlar bilan boyitib, o'quvchilar tafakkurini tizimli shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda boshlang'ich ta'limda integratsion faoliyatning afzalliklari, uning metodik asoslari hamda amaliy qo'llash usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada integratsion yondashuvning mantiqiy fikrlashni shakllantirishdagi ta'siri, o'quvchilar bilimini mustahkamlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, integratsion faoliyat, fanlararo yondashuv, metodika, ta'lim jarayoni, innovatsion pedagogika.

Annotation. This article discusses the issues of using integrative activities in the process of developing the logical thinking abilities of future primary school teachers. The integrative approach enriches the educational process with various interdisciplinary connections, life experience and practical exercises, and serves to systematically form the thinking of students. The study analyzes the advantages of integrative activities in primary education, its methodological foundations and methods of practical application. The article also substantiates the impact of the integrative approach on the formation of logical thinking, its role in consolidating students' knowledge and developing their creative abilities.

Key words: logical thinking, integrative activity, interdisciplinary approach, methodology, educational process, innovative pedagogy.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы использования интегративных методов в процессе развития логического мышления будущих учителей начальной школы. Интегративный подход обогащает образовательный процесс разнообразными межпредметными связями, жизненным опытом и практическими упражнениями, служит системному формированию мышления учащихся. В исследовании анализируются преимущества интегративных методов в начальном образовании, их методические основы и способы практического применения. В статье также обосновывается влияние интегративного подхода на формирование логического мышления, его роль в закреплении знаний учащихся и развитии их творческих способностей.

Ключевые слова: логическое мышление, интегративная деятельность, междисциплинарный подход, методика, образовательный процесс, инновационная педагогика.

Kirish. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy portretida eng muhim belgilaridan biri - mantiqiy fikrlashning yetukligi va uni o'quv jarayonida ongli ravishda shakllantira olish mahoratidir. Boshlang'ich ta'lim - bu shunchaki savod chiqarish emas, balki bolaning tafakkur tizimini poydevordan qurish bosqichidir. Aynan shu davrda taqqoslash, tahlil, umumlashtirish, sabab-oqibatni ko'rish, qoidani misoldan ajratib olish kabi mantiqiy amallar kundalik mosh g'ulotlar ritmiga singib boradi. O'qituvchi esa bu jarayonning bosh me'mori sifatida fanlararo aloqalarni "ko'prik"ga aylantirsa, o'quvchining bilim olishi izchil

tizim, o'yin va kashfiyot ohangida kechadi. Shunday ekan, integratsion faoliyat - boshlang'ich ta'limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nafaqat dolzarb, balki tabiiy yo'lidir.

Integratsion faoliyat deganda ko'pincha "fanlarni qo'shib o'qitish" gina anglashiladi. Holbuki u bundan kengroq: mazmun, metod va faoliyat turlarining uyg'unlashuvi, real hayotiy kontekstlar bilan bog'lanishi, bir mavzuni turli nuqtai nazardan ko'rish madaniyatidir. Masalan, "Andozalar va naqshlar" mavzusi matematika darsida takroriylik va simmetriyani, tasviriy san'atda kompozitsiyani, ona tilida esa naqshlar haqidagi matnni tahlil qilishni o'zida jamlashi mumkin. Shu jarayonda bola qoidani kuzatishdan chiqaradi, o'xshashlik va farqlarni aniqlaydi, xulosaga keladi - ya'ni mantiqiy operatsiyalarni tabiiy muhitda bajaradi. Demak, integratsion yondashuv mantiqiy fikrlashni "alohida dars" sifatida emas, balki kundalik o'quv faoliyatining ichki mexanizmi sifatida yo'lga qo'yadi.

Bugungi ta'lim islohotlari kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvni talab qilmoqda: bolada muammo qo'yish, dalillash, modellash, qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanishi lozim. Shu yerda muhim ziddiyat paydo bo'ladi: fragmentar, mavzularni bo'lib tashlaydigan o'qitish amaliyoti mantiqiy fikrlashning uzviy rivojiga to'sqinlik qiladi; standart dastur talablari esa shaxsiylashtirilgan izlanishlarga joy qoldirmay qolishi mumkin. Integratsion faoliyat ana shu taranglikni yumshatadi: u bir tomondan o'quv rejasining mazmuniy talablarini bajaradi, ikkinchi tomondan o'quvchilarning qiziqishi, tajribasi va kashfiyot ehtiyojini hisobga olgan holatda o'qitish "yo'l xaritasi"ni moslashtirish imkonini beradi. Bo'lajak o'qituvchi uchun esa bu - darsni "fan" emas, "voqealik" atrofida loyihalash, savollarni ketma-ketlikda joylashtirish, dalillar zanjirini qurish madaniyatidir.

Mantiqiy fikrlashning o'zi ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: vizual-fazoviy, matematik-simvolik, til-nutqiy, hamda kundalik hayotga xos pragmatik mantiq. Integratsion faoliyat shu ko'rinishlar o'rtasida "o'tish yo'laklari"ni ochadi. Masalan, rasm chizishdagi naqshni sonlar ketma-ketligiga aylantirish, hikoyadagi sabab-oqibatni sxema sifatida chizish, tajribadagi natijani jadvalga tushirish - bularning barchasi turli kodlar o'rtasida tarjima qilishni o'rgatadi. Aynan shu "tarjima" jarayonida o'quvchi fikrini umumlashtiradi, mantiqiy bog'lanishlarni charxlaydi, xulosaning qayerdan kelib chiqqanini ko'ra boshlaydi.

Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida ham muammolar yo'q emas: darslarni integratsiyalashtirish holda loyihalash tajribasi yetishmaydi, topshiriqlar banki kam, baholash mezonlari esa ko'pincha faqat yakuniy javobni o'lchaydi. Aslida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda jarayonning o'zi - taxmin, sinov, xato, qayta urinish, dalillash - qiymatga ega. Shuning uchun formatif baholash, kuzatuv varaqalari, rubrikalar, o'quvchi kundaligi, e-portfolio kabi vositalar integratsion darslarning ajralmas qismi bo'lishi kerak. Bo'lajak o'qituvchi ana shunday baholash madaniyatini o'qish jarayonidayoq o'zlashtirsa, maktabga borgach, mantiqiy fikrlashni "ko'rinarli" va boshqariladigan ko'nikmaga aylantira oladi.

Uslubiy jihatdan esa integratsion faoliyat problemali o'qitish, loyiha va tadqiqot usullari, vaziyatli (case) tahlil, mantiqiy o'yinlar va didaktik konstruktlar, "fikir xaritalari", modellash, STEAM yo'nalishidagi mini-loyihalar bilan uyg'unlashganda eng samarali natija beradi. Darslar "savol-taxmin-dalil-xulosa-refleksiya" sikliga qurilganda, o'qituvchi savolning kuchini his qiladi: yaxshi savol o'quvchini kuzatishga, taqqoslashga, asoslashga va bahslashishga undaydi. Integratsion scenariylar aynan shu savollarni bog'laydi va mantiqiy zanjirni uzmaydi.

Kutilayotgan natija shuki, integratsion faoliyat asosida loyihalangan mosh g'ulotlar bo'lajak o'qituvchilarda darsni tizimli qurish, dalillash va tahlil madaniyatini mustahkamlaydi, mantiqiy fikrlashni metodik qarorlar markaziga olib chiqadi. Amaliy ahamiyat, o'z navbatida, integratsion darslar uchun namunaviy senariylar, topshiriqlar banki, baholash rubrikalari va refleksiya vositalarini ishlab chiqish orqali ta'minlanadi. Natijada boshlang'ich maktabda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi "epizodik mosh q"dan "kundalik intellektual faoliyat"ga aylanadi, o'qituvchi esa bu jarayonning ongli rejasoziga aylanadi. Shunday qilib, maqola mantiqiy fikrlashni integratsion faoliyat orqali rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini

yoritadi, ta'limiy amaliyot uchun konkret yechimlar taklif etadi va bo'lajak o'qituvchilar tayyorloviga qo'llaniladigan modelni asoslaydi. Bu model bugungi kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim talablari bilan uyg'un bo'lib, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Nazariy asos. Mantiqiy fikrlash inson tafakkurining markaziy ko'rinishlaridan biri bo'lib, bilimlarni tahlil qilish, asoslash, umumlashtirish va amaliy faoliyatda qo'llash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida ayniqsa boshlang'ich bosqichda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki bola bilim olishning dastlabki yillaridanoq tahlil qilish, sabab va oqibatni ko'ra bilish, hodisalar orasidagi aloqadorlikni anglash ko'nikmalariga ega bo'lsa, keyingi bosqichlardagi o'quv faoliyati ham samarali kechadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirishni ta'minlaydigan nazariy asoslarni chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Integratsion faoliyat tushunchasi pedagogik nazariyada ko'p qirrali talqin etiladi. U, bir tomondan, turli fanlar mazmunini uyg'unlashtirish, o'quvchilarning bilim olish jarayonida yaxlit dunyoqarashni shakllantirishni bildirsa, ikkinchi tomondan, faoliyatning turli shakl va usullarini birlashtirish orqali mantiqiy tafakkurni faollashtirishni anglatadi. Mosh hur pedagog va psixologlarning nazariy qarashlarida ham integratsion yondashuvning asoslari ko'zga tashlanadi. Masalan, Dewey esa ta'limni hayot bilan bog'lash, tajriba orqali o'qitish zarurligini ilgari suradi; Bruner esa bilimlarni spiralsimon qurilishi, ya'ni oldingi bilimlarning keyingi bosqichlar bilan uzviy bog'liqligi g'oyasini ilgari suradi. Bu nazariyalar integratsion faoliyatning mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi samaradorligini asoslab beradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy poydevorida mantiq fanining qoidalari ham yotadi. Aristotel mantiqi, keyinchalik rivojlangan formal mantiq va zamonaviy kognitiv psixologiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, har qanday fikrlash jarayonida taqqoslash, umumlashtirish, tahlil va sintez kabi operatsiyalar muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'limda bu operatsiyalar o'quv topshiriqlarining integratsiyasi orqali yanada samarali shakllanadi. Masalan, matematika darsidagi sonli ketma-ketlikni tabiatshunoslikdagi hodisalar bilan bog'lash, tasviriy san'atdagi naqshlarni geometrik shakllar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchi bir vaqtning o'zida ikki xil faoliyat kodini solishtiradi va umumiy xulosaga keladi. Bu jarayon esa tafakkurning dialektik rivojlanishiga olib keladi.

Integratsion faoliyatning nazariy asoslari, shuningdek, konstruktivizm paradigmasiga ham borib taqaladi. Konstruktivizmga ko'ra, bilimlar o'quvchiga tayyor holda berilmaydi, balki ularni faoliyat orqali o'zi "quradi". Integratsiya esa o'quvchi uchun turli fan va faoliyatlarni bog'lash orqali bilimni yanada mustahkamroq va mazmunliroq qurish imkoniyatini yaratadi. Bunda o'qituvchining vazifasi - bilimlarni uzatish emas, balki sharoit yaratish, savollar qo'yish va o'quvchini mantiqiy izlanishga undashdan iborat bo'ladi. Shu jihatdan, integratsion faoliyat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tafakkurini kengaytiradi, ularni oddiy mosh q bajarishdan ko'ra, fikrlash jarayonini boshqarishga o'rgatadi. Nazariy jihatdan qaraganda, integratsion faoliyat va mantiqiy fikrlash o'zaro chambarchas bog'liq: biri mazmuniy, ikkinchisi kognitiv poydevor sifatida xizmat qiladi. Integratsiya o'quvchini real voqelikni turli rakurslarda ko'rishga majbur qiladi; bu esa mantiqiy fikrlashni faol mexanizmga aylantiradi. Shu bois, integratsion yondashuv boshlang'ich ta'lim metodikasida nafaqat didaktik vosita, balki tafakkurni shakllantirishning konseptual nazariy yo'nalishi sifatida qaralishi zarur.

Adabiyotlar va manbalar tahlili. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish masalasi bo'yicha o'tkazilgan ilmiy izlanishlar va nashr etilgan manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish nafaqat mahalliy, balki jahon pedagogikasida ham dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Ushbu mavzu turli fanlar chorrahasida - pedagogika, psixologiya, mantiq, metodika va ta'lim texnologiyalari kesishgan nuqtada tadqiq qilinadi.

Mahalliy va rus olimlari izlanishlarida ham bu masala keng yoritilgan. Masalan, A. A. Leontev [8; 304] va S. L. Rubinshteynlarining [9; 720] psixologik-pedagogik qarashlarida faoliyatning mantiqiy tafakkur shakllanishidagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. O'zbek pedagogikasida esa A. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan boshlab, jadidchilik davri pedagoglari bola tafakkurini faqat yod olish emas, balki mantiqan anglash orqali rivojlantirish zarurligini ilgari surganlar [1; 160]. Mustaqillikdan keyingi davrda N. Azizxo'jayev [3; 232], A. Abduqodirov va R. Ochilov [2; 312] kabi olimlar ta'limda integratsion yondashuvning metodik asoslarini ishlab chiqdilar. Shuningdek, O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda mantiqiy moshqlar, didaktik o'yinlar, fanlararo aloqalar orqali tafakkurni rivojlantirish mexanizmlari keng yoritilgan.

Manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, integratsion faoliyat orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga oid ishlarni uch yo'nalishda ko'rish mumkin:

Pedagogik metodikalar – Montessori, Freinet hamda zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlar [5; 376].

Mahalliy tajriba va ilmiy izlanishlar – jadid pedagoglari, mustaqillikdan keyingi ta'lim islohotlari hamda o'zbek olimlarining boshlang'ich ta'lim metodikasiga oid tadqiqotlari.

Ammo manbalar tahlili ayrim bo'shliqlarni ham ko'rsatadi: integratsion faoliyatning aniq modellarini ishlab chiqish, mantiqiy fikrlashni baholash mezonlarini yaratish va ularni amaliyotda keng qo'llash yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois, mazkur maqola integratsion faoliyatning nazariy va metodik jihatlarini birlashtirib, bo'lajak o'qituvchilar tayyorlovida qo'llash imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Muhokama. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish masalasi ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Nazariy manbalar va amaliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun integratsion faoliyat yetakchi metodik yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Integratsion faoliyatning afzalligi shundaki, u bilimlarni faqat fanlar bo'yicha bo'lib emas, balki hayotiy voqelik bilan bog'liq, yaxlit tizim sifatida taqdim etadi. Shu orqali o'quvchilar hodisalarni turli rakurslardan ko'rib, sabab-oqibat bog'liqliklarini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Muhokama jarayonida asosiy masalalardan biri shundaki, mavjud ta'lim amaliyotida ko'plab darslar hali ham fragmentar tarzda, "bir mavzu – bir fan" prinsipi asosida olib borilmoqda. Bunday yondashuv mantiqiy fikrlashni izchil shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli integratsion faoliyatni boshlang'ich ta'lim jarayoniga qo'shish, o'qituvchidan darsni turli yo'nalishlarni uyg'unlashtirgan holda loyihalashni talab qiladi. Misol uchun, "Tabiatdagi fasllar" mavzusi nafaqat tabiatshunoslik, balki ona tili (fasllar haqidagi matnlar), matematika (fasllardagi o'zgarishlarni sonlarda ifodalash), tasviriy san'at (tabiat manzarasini tasvirlash) darslari bilan uyg'unlashtirilishi mumkin. Shu tarzda o'quvchi hodisani kompleks ko'rish va u haqda mantiqiy xulosalar chiqarishga o'rganadi.

Shu bilan birga, integratsion faoliyatni qo'llashda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Avvalo, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar va topshiriqlar banki yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Natijada bo'lajak o'qituvchilar ko'pincha integratsion darslarni tasodifiy yoki epizodik tarzda tashkil etishga majbur bo'ladilar. Ikkinchi muammo - baholash mezonlari masalasi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida faqat tayyor javobni emas, balki o'quvchining fikrlash jarayonini ham baholash zarur. Bu esa formatif baholash, refleksiya daftarlari, rubrikalar, portfoliolar kabi zamonaviy vositalarni talab qiladi.

Muhokamaga arziydigan yana bir jihat - o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda shaxsiylashtirish va standartlashtirish o'rtasidagi taranglikdir. Bir tomondan, davlat ta'lim standartlari barcha o'quvchilardan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni talab qiladi; ikkinchi tomondan, har bir bolaning o'z qiziqishi, tajribasi, intellektual imkoniyatlari mavjud. Integratsion faoliyat aynan shu qarama-qarshilikni yumshatadi: u standartlarni bajarish bilan birga shaxsiy qiziqishlarni hisobga olish imkonini beradi. Masalan, matematik masalani

hal etishda san'at, tabiatshunoslik yoki kundalik hayotiy tajriba elementlarini qo'shish o'quvchining shaxsiy dunyoqarashini ham faollashtiradi.

Muhokama jarayonida shuni alohida ta'kidlash kerakki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi sharoit yaratuvchi shaxsdir. U savollarni to'g'ri qo'yishi, o'quvchini mustaqil fikrlashga undashi, integratsion topshiriqlar orqali ijodiy izlanishga rag'batlantirishi zarur. Bu esa o'qituvchidan metodik tayyorgarlik bilan birga pedagogik tafakkurning keng doirasini ham talab qiladi. Muhokamalar shuni ko'rsatadiki, integratsion faoliyat mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali mexanizm hisoblanadi. Ammo bu imkoniyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun metodik qo'llanmalarni boyitish, baholash mezonlarini takomillashtirish, o'qituvchilarni integratsion yondashuvga tayyorlash zarur. Ana shundagina boshlang'ich ta'lim darslari o'quvchilar tafakkurini izchil shakllantiruvchi hamda ularni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi haqiqiy maydonga aylanishi mumkin.

Xulosa. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish masalasi ta'lim tizimida eng dolzarb yo'nalishlardan biridir. Chunki boshlang'ich ta'lim inson tafakkurining poydevorini qo'yadigan bosqich bo'lib, bu davrda shakllangan mantiqiy operatsiyalar keyingi barcha o'quv bosqichlarida, shuningdek, kundalik hayotiy faoliyatda ham asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tafakkurni rivojlantirishni boshqaruvchi shaxs sifatida ko'rilishi kerak. Integratsion faoliyat mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi. U fanlararo aloqalarni mustahkamlaydi, o'quvchini real voqelikni turli rakurslarda ko'rib, sabab-oqibat bog'liqliklarini izchil tahlil qilishga o'rgatadi. Shu bilan birga, integratsiya ta'lim jarayoniga hayotiylik bag'ishlaydi, o'quvchini mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga yo'naltiradi. Muhimi, bu jarayon tafakkurni sun'iy moshqlardan emas, balki kundalik darslar mazmunidan kelib chiqib shakllantiradi.

Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar va adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatdiki, integratsion faoliyatning psixologik asoslari, pedagogik yondashuvlari va mahalliy tajribalari (jadid pedagoglari, zamonaviy o'zbek olimlari) mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun mustahkam nazariy poydevor yaratadi. Shu bilan birga, amaliyotda ushbu yondashuvni qo'llash uchun hali ham qo'llanmalar, topshiriqlar banki va baholash mezonlarini boyitish zarurati mavjudligi ayon bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida integratsion faoliyatni metodik tizimga joriy etish - mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning eng to'g'ri yo'llaridan biridir. Bu nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarda mustaqil, izchil va dalillangan fikrlash madaniyatini shakllantiradi. Demak, integratsion faoliyat boshlang'ich ta'limni yangi bosqichga olib chiqadigan konseptual mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ochilov R. Ta'limda integratsiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. - 210 b.
2. Montessori M. The Montessori Method. - New York: Schocken Books, 1964. - 376 p.
3. Madraximovich, K. E. (2020). Improving the methodological training of primary school teachers on the basis of innovative approaches. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8*(7).
4. Xudoynazarov, E. M. (2019). Didactic possibilities of oral exercises in forming initial classes pupils' mathematical thinking activity. *Eastern European Scientific Journal, Ausgabe. Germany, (1-2019)*, 249.
5. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. - Москва: Политиздат, 1977. - 304 с.

6. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - Санкт-Петербург: Питер, 2002. - 720 с.
7. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science and Creative Thinking. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 356 p.
8. UNESCO. Life Skills Education for Children and Adolescents in Schools. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – 214 p.

Davletov Erkaboy Yusubovich,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ma'mun universiteti "Aniq fanlar" kafedrasini mudiri

O'QUVCHILAR HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA MEZONLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilar hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish va baholashning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy yondashuvlari yoritilgan. Unda hayotiy kompetensiyalarni baholash indikatorlari va mezonlari ta'lim jarayonining uzviy qismi sifatida ko'rib chiqilib, ular o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishida qanday rol o'ynashi tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish, tanqidiy fikrlash, kommunikativ madaniyat, jamoada ishlash, axborotdan samarali foydalanish kabi ko'nikmalarni o'lchash mezonlari metodik jihatdan izohlangan. Maqolada xalqaro tajribalar asosida kompetensiyalarni baholashning zamonaviy metodlari taqqoslanib, milliy ta'lim tizimi uchun mos tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, hayotiy kompetensiya, baholash, indikator, mezon, ta'lim jarayoni, shaxsiy rivojlanish, kommunikativ madaniyat, tanqidiy fikrlash, xalqaro tajriba.

Аннотация. В статье рассматриваются научно-теоретические основы и практические подходы к формированию и оценке жизненных компетенций студентов. Рассматриваются индикаторы и критерии оценки жизненных компетенций как неотъемлемая часть образовательного процесса, анализируется их роль в личностном, социальном и профессиональном развитии студентов. Методологически обоснованы критерии оценки таких навыков студентов, как решение проблемных ситуаций, критическое мышление, коммуникативная культура, работа в команде и эффективное использование информации. В статье сравниваются современные методы оценки компетенций с учетом международного опыта и разрабатываются соответствующие рекомендации для национальной системы образования.

Ключевые слова: студент, жизненная компетентность, оценка, индикатор, критерий, образовательный процесс, личностное развитие, коммуникативная культура, критическое мышление, международный опыт.

Annotation. This article covers the scientific and theoretical foundations and practical approaches to the formation and assessment of students' life competencies. It considers indicators and criteria for assessing life competencies as an integral part of the educational process and analyzes the role they play in the personal, social and professional development of students. Also, the criteria for measuring students' skills such as solving problem situations, critical thinking, communicative culture, teamwork, and effective use of information are methodologically explained. The article compares modern methods of assessing competencies based on international experience and develops appropriate recommendations for the national education system.

Key words: student, life competence, assessment, indicator, criterion, educational process, personal development, communicative culture, critical thinking, international experience.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot asrida ta'lim jarayoni o'quvchilarni faqatgina nazariy bilimlarga ega qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni turmushda uchraydigan real vaziyatlarga tayyorlashni ham talab etadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, texnologik yangiliklar inson faoliyatining barcha jabhalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, maktab ta'limining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish va ularni samarali baholash tizimini yo'lga qo'yishdir.

Hayotiy kompetensiya – bu insonning kundalik hayotda, ta'limda va kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarning uyg'un majmuasidir [2]. O'quvchi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, o'z fikrini asoslab bayon etish, jamoada ishlash, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish kabi sifatlarni egallamasa, uning bilimlari amaliyotda to'laqonli samara bermaydi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilar hayotiy kompetensiyalarini o'lchash va baholash masalasi ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi.

Biroq bugungi kunda ushbu kompetensiyalarni baholashda yagona yondashuv yoki umumiy standart mavjud emas. Ba'zi hollarda o'quvchilar faqat akademik natijalar asosida baholanadi, bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini to'liq aks ettirmaydi. Shu bois kompetensiyalarni baholash indikatorlari va mezonlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'lmoqda. Mazkur jarayon nafaqat o'quvchining mavjud salohiyatini aniqlashga, balki uning kelgusidagi rivojlanish strategiyasini belgilashga ham xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyalarni baholashda ko'proq integrallashgan yondashuvlar, ya'ni test, kuzatuv, loyiha, portfoliolar va amaliy topshiriqlar birgalikda qo'llanilganda samaradorlik oshadi. O'zbekiston ta'lim tizimi ham ana shunday zamonaviy baholash mezonlari va indikatorlarini tatbiq etish orqali o'quvchilarni hayotga tayyorlashda yanada yuqori natijalarga erishishi mumkin. Demak, ushbu maqola o'quvchilar hayotiy kompetensiyalarini baholash indikatorlari va mezonlarini aniqlash, ularni tizimli ravishda o'rganish hamda milliy ta'lim jarayoniga moslashtirish masalalariga bag'ishlanadi.

Muhokama. O'quvchilar hayotiy kompetensiyalarini baholash masalasi nafaqat ta'lim tizimining samaradorligini aniqlashda, balki jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Zero, ta'limning asosiy maqsadi bilim berish bilangina chegaralanib qolmay, balki o'quvchini turmushga, kasbga, insoniy munosabatlarga, global muammolarga munosib javob bera olishga tayyorlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyalarni baholashning indikatorlari va mezonlarini ishlab chiqish bugungi kun ta'limining dolzarb vazifalaridan biridir.

Avvalo, baholash indikatorlari o'quvchi faoliyatidagi muayyan sifat va ko'nikmalarni aniqlash uchun ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi. Masalan, o'quvchining tanqidiy fikrlash qobiliyati, muammoli vaziyatlarni hal etish mahorati, kommunikativ madaniyati yoki ijodiy yondashuvi kabi jihatlar turli indikatorlar orqali kuzatilishi mumkin. Bu jarayon oddiy test sinovlari yoki reyting baholari bilangina chegaralanib qolmay, balki kuzatuv, portfoliolarini tahlil qilish, loyiha ishlarini baholash, amaliy vazifalarni bajarish kabi kompleks yondashuvlarni talab etadi.

Ikkinchidan, baholash mezonlari indikatorlardan farqli ravishda o'quvchilarning ma'lum bir kompetensiya darajasini aniqlash uchun aniq belgilangan standart yoki o'lchov sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quvchi "ijodiy fikrlash" kompetensiyasida yuqori darajada bo'lishi uchun u yangi g'oya ilgari surishi, o'z fikrini dalillar bilan asoslab bera olishi va innovatsion yechimlarni taklif qila olishi kerak. Demak, mezonlar o'quvchilarni baholashda nafaqat natijani, balki jarayonni ham hisobga olish imkonini beradi [3].

Muhokama jarayonida shuni alohida ta'kidlash kerakki, hayotiy kompetensiyalarni baholash tizimi faqat nazariy asoslarda qurilmasligi lozim. Amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan mexanizmlar ishlab chiqilmasa, har qanday indikator yoki mezonlar qog'ozda qolib ketishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy ta'limda integrallashgan yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Masalan, bir vaqtning o'zida o'quvchining bilim darajasi test orqali aniqlansa, uning kommunikativ madaniyati suhbat yoki guruhviy faoliyatda, ijodiy fikrlashi esa loyiha ishlari orqali baholanishi mumkin.

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, kompetensiyalarni baholashda ko'p qirrali yondashuvlar yuqori natija beradi. Masalan, OECD va PISA dasturlarida o'quvchilarning faqat bilim darajasi emas, balki hayotiy vaziyatlarda bilimni qo'llash qobiliyatiga ham katta e'tibor qaratiladi. Bu esa milliy ta'lim tizimiga ham mos keladigan muhim tajriba bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, muhokamadan kelib chiqadigan xulosa shuki, o'quvchilar hayotiy kompetensiyalarini baholash indikatorlari va mezonlarini ishlab chiqish ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchining individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlabgina qolmay, balki ta'lim tizimining umummilliy sifat ko'rsatkichlarini oshirishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar va manbalar tahlili. O'quvchilar hayotiy kompetensiyalarini baholash masalasi bo'yicha ilmiy izlanishlar nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham keng yoritilgan. Mazkur adabiyotlar va manbalarni tahlil qilish, avvalo, ushbu yo'nalishda mavjud ilmiy-nazariy yondashuvlarni aniqlash, shuningdek, amaliy tajribalarni umumlashtirish imkonini beradi.

Birinchi navbatda, xalqaro ilmiy adabiyotlarda hayotiy kompetensiyalarni baholashga oid tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilganini ko'ramiz. Masalan, OECD tomonidan ishlab chiqilgan PISA dasturida o'quvchilarning bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish darajasi asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi [4]. Bu baholashda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, muloqotga kirishish va axborot bilan ishlash ko'nikmalari asosiy indikator sifatida qo'llaniladi. Xuddi shuningdek, UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Life Skills" konsepsiyasi ham kompetensiyalarni baholashda shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan ko'rsatkichlarni belgilaydi [5].

Ikkinchidan, rus va MDH mamlakatlari olimlarining tadqiqotlarida kompetensiyalarni shakllantirish va baholashning pedagogik, psixologik hamda metodik jihatlari keng o'rganilgan. Jumladan, V.A.Bolotov [6]; 216], A.V.Hutorskiy [7; 148] kabi olimlarning asarlarida kompetensiya tushunchasi va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish metodlari yoritilgan. Ularning ta'kidlashicha, kompetensiyalarni baholashda an'anaviy baholash usullari (imtihon, test) bilan cheklanib qolmasdan, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari va ijodiy vazifalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, O'zbekiston olimlari va tadqiqotchilari tomonidan ham kompetensiyaviy yondashuv va uning baholash mexanizmlari bo'yicha qator ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan. Xususan, ta'lim sohasida olib borilgan tadqiqotlarda o'quvchilar shaxsiy rivojlanishini aniqlashda indikatorlar va mezonlarni ishlab chiqishning metodik asoslari, milliy ta'lim standartlariga mos yondashuvlar ilgari surilgan. Ayrim tadqiqotlarda esa xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, integrallashgan baholash tizimini yaratish zarurligi ta'kidlangan [1].

Adabiyotlarni umumiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik tadqiqotlarda kompetensiyalarni baholash masalasi alohida yondashuvni talab qilishi qayd etiladi. Xalqaro tajribalar natijalari integrallashgan baholash tizimining samaradorligini isbotlab bergan bo'lsa, milliy tadqiqotlarda esa o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari, ta'lim an'analari va mahalliy sharoitlar hisobga olinishi kerakligi alohida urg'u bilan ko'rsatib o'tiladi.

Shu asosda aytish mumkinki, mavjud adabiyotlar va manbalar o'quvchilar hayotiy kompetensiyalarini baholash indikatorlari va mezonlarini ishlab chiqishda boy nazariy asos va amaliy yo'nalishlarni taqdim etadi. Biroq ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish, yagona konsepsiya va metodik yondashuvni ishlab chiqish hali ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Quyidagi jadvalda hayotiy kompetensiyalarni baholash mezonlari, ularning bosqichlari hamda statistik ko'rsatkichlar misolida yoritilgan. Statistika shartli ravishda ta'lim jarayonida o'tkazilgan kuzatuv va ilmiy izlanishlar asosida berilgan.

Mezonlar	Bosqichlar (darajalar)	Tavsif	Statistik ko'rsatkich (o'quvchilar ulushi %)
----------	------------------------	--------	--

Tanqidiy fikrlash	1-bosqich – boshlang'ich	Masalalarni faqat oddiy yechim orqali tushunadi, mustaqil fikr kam.	28%
	2-bosqich – o'rta	Muammoli vaziyatlarga 2–3 xil yechim taklif qila oladi, dalillardan foydalanadi.	46%
	3-bosqich – yuqori	Yechimlarni tahlil qiladi, alternativalarini solishtiradi va asosli qaror qabul qiladi.	26%
Kommunikativ madaniyat	1-bosqich – boshlang'ich	Oddiy savollarga javob beradi, suhbatni davom ettirish qiyin.	32%
	2-bosqich – o'rta	Guruhiy ishlarda faol qatnashadi, fikrini qisqa va ravon bayon eta oladi.	44%
	3-bosqich – yuqori	Bahs-munozaralarda o'z fikrini dalillar bilan isbotlaydi, murosaga keladi.	24%
Muammoli vaziyatni hal etish	1-bosqich – boshlang'ich	Muammoli vaziyatda aniq yo'l ko'rsatmalarsiz harakat qila olmaydi.	30%
	2-bosqich – o'rta	Oddiy muammolarni 1–2 usulda hal etadi, ba'zan yordamga muhtoj bo'ladi.	50%
	3-bosqich – yuqori	Turli vaziyatlarda ijodiy yondashadi, samarali va tezkor yechim topa oladi.	20%
Axborot bilan ishlash	1-bosqich – boshlang'ich	Ma'lumotni izlashda qiynaladi, manbalarni tanlamaydi.	35%
	2-bosqich – o'rta	Internet va darsliklardan kerakli ma'lumot topa oladi, ammo tahlil qilishda qiyinchilik bor.	42%
	3-bosqich – yuqori	Turli manbalarni solishtiradi, tanlab oladi va xulosalar chiqaradi.	23%
Ijodiy fikrlash	1-bosqich – boshlang'ich	Tayyor andozalarga tayanadi, mustaqil g'oya ilgari surmaydi.	40%
	2-bosqich – o'rta	Yangi g'oyalar taklif qiladi, lekin ularni to'liq asoslay olmaydi.	38%
	3-bosqich – yuqori	Innovatsion g'oyalar ishlab chiqadi, ularni amaliyotda qo'llash yo'llarini ko'rsatadi.	22%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning aksariyati o'rta bosqich darajasida (taxminan 40–50%) to'plangan.

Yuqori darajadagi kompetensiyalarga ega bo'lgan o'quvchilar ulushi 20–26% oralig'ida.

Boshlang'ich bosqichda qolayotganlar esa 30–40% ni tashkil etmoqda, bu esa baholash indikatorlari asosida rivojlantiruvchi metodlarni kuchaytirishni talab etadi.

Xulosa. O'quvchilar hayotiy kompetensiyalarini baholash ta'lim tizimining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini aniqlashda

beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki bilimning o'zi yetarli emas – uni hayotiy vaziyatlarda qo'llash, tanqidiy yondashuvni namoyon etish, axborotni tahlil qilish, jamoada samarali faoliyat yuritish va ijodiy fikrlash qobiliyatlari bugungi davrda o'quvchining asosiy muvaffaqiyat mezoniga aylanmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyalarni baholashda an'anaviy yondashuvlar o'zini to'liq oqlamaydi. Faqat reyting, test va yozma imtihonlar orqali baholash o'quvchining real salohiyatini ochib bera olmaydi. Shu sababli indikatorlar va mezonlar tizimi ishlab chiqilishi, baholash jarayoni esa integrallashgan shaklda – testlar, portfoliolar, loyiha ishlari, amaliy topshiriqlar va kuzatuvlar orqali amalga oshirilishi zarur. Bu esa o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarini ham qamrab olish imkonini beradi.

Xalqaro tajribalar ham shuni tasdiqlaydiki, kompetensiyalarni baholash o'quvchini kelajakka tayyorlashning samarali vositasidir. O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham ushbu yo'nalishda yagona metodik yondashuvni ishlab chiqish, milliy ta'lim standartlariga mos indikatorlar va mezonlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, o'quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini baholash – bu oddiy nazorat mexanizmi emas, balki ularni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan uzviy jarayondir. To'g'ri tashkil etilgan baholash tizimi nafaqat o'quvchilarning individual salohiyatini ochib beradi, balki ta'lim sifatini oshirish, jamiyat ehtiyojlariga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga ham keng imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Halász, G., Michel, A. Key Competences in Europe: Interpretation, Policy Formulations and Implementation. // European Journal of Education. – 2011. – Vol. 46(3). – P. 289–306.
2. Weinert, F.E. Concept of Competence: A Conceptual Clarification. – Munich: Max Planck Institute for Psychological Research, 2001. – 45 p.
3. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science and Creative Thinking. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 356 p.
4. UNESCO. Life Skills Education for Children and Adolescents in Schools. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – 214 p.
5. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. – М.: Педагогика, 2011. – 216 с.
6. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты. – М.: Народное образование, 2003. – 148 с.

Azimov Muxammadi Azim o'g'li,
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tayanch doktoranti
Email: muhammadmagistr@gmail.com

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TARIXGA DAHLDORLIK TUYG'USI ORQALI G'OYAVIY EKSPANSIYALARGA QARSHI KURASHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada tarixga dahldorlik tuyg'usini rivojlantirish orqali g'oyaviy ekspansiyalarning psixo-pedagogik ta'sir usullari, targ'ibot vositalari va manbalari bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, unda buzg'unchi ahamiyatga molik bo'lgan g'oyalarni o'rganishda klassifikatsiya va qiyoslash usullaridan keng foydalanilgan. Ushbu tadqiqot ishida yoshlar uchun salbiy ta'sir ko'rsatuvchi g'oyalarga qarshi immunitetni xosil qilishda tarixga dahldorlik tuyg'usidan foydalanishning metodik jihatlarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekspansiya, destruktiv g'oya, globallashuv, tarixiy dahldorlik, qadriyatlar, vosita, metod, tadqiqot usuli, gipoteza va antimanipulativ.

Annotation. The article analyzes data related to the methods of psycho-pedagogical influence, propaganda tools and sources of ideological expansions through the development of a sense of belonging to history. It also widely uses classification and comparison methods in the study of ideas of destructive significance. This study develops proposals and recommendations for improving the methodological aspects of using a sense of belonging to history in order to form immunity for young people against ideas that have a negative impact.

Key words: expansion, destructive idea, globalization, historical belonging, values, tool, method, research method, hypothesis and antimanipulative.

Аннотация. В статье анализируются данные, касающиеся методов психолого-педагогического воздействия, пропагандистского инструментария и источников идеологической экспансии через развитие чувства принадлежности к истории. Также широко используются методы классификации и сравнения при изучении идей деструктивной значимости. В исследовании разрабатываются предложения и рекомендации по совершенствованию методологических аспектов использования чувства принадлежности к истории для формирования у молодёжи иммунитета к идеям, оказывающим негативное воздействие.

Ключевые слова: экспансия, деструктивная идея, глобализация, историческая принадлежность, ценности, инструмент, метод, исследовательский метод, гипотеза и антиманипулятивность.

Kirish. Bugungi kunda insoniyat mintaqaviy urushlardan ko'ra, zamonaviy axborot makonida ro'y berayotgan tahdidlardan ko'proq aziyat chekmoqda. Bunga sabab bir tomondan, imperalizmni ilgari surayotgan gigant davlatlarning ochiqdan-ochiq qo'shni mamlakatlarga bo'lgan da'vosi bo'lsa, ikkinchi tamondan millionlab kuzatuvchilarga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar va axborot agentliklari o'z g'oyaviy ekspansiyalari orqali bir millatni boshqa bir millatga qarshi qo'yish, millatlar o'rtasidagi tarixiy ulug'vorlikni aniqlash va yagona tarix va qadriyatlar asosida birlashuvchi xalqlarni parchalab yuborish kabi mafkuralarni olg'a surishmoqda. Mohiyatidan olib qaraganda, g'oyaviy ekspansiya – ma'lum bir davlat yoxud jamiyatning o'z g'oyalarini boshqa mintaq va millatlarda turli xil usullar yordamida tarqatish, ularga ta'sir ko'rsatishni anglatadi. Ushbu ekspansiyalar mamlakatlar o'rtasida madaniy va siyosiy konfliktlarni keltirib chiqaradi.

G'oya va mafkuraning globallashuvi mamlakatlar uchun kuchli ta'sirga ega hisoblanadi. Chunki, globallashuv ko'p qirrali tushunchuncha sifatida ko'plab mamlakatlarni allaqachon zabt etib bo'lgan. Demak, globalizmning o'ziga xosligi va morfologik

murakkabligini uning an'anaviy mafkuralardan g'oyalarni o'zlashtirish va qayta joylashtirish qobiliyatigina ta'minlamaydi[1]. Ya'ni, globallashuv ilmiy yutuqlar va madaniy yuksalishning kirib kelishinigina ifodalamaydi. U o'zida g'oyaviy ekspansiyalarni ham eks ettirib, mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy inqiroziga ham sababchi bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Globallashuv davrida mavjud va keyinchalik vujudga keluvchi g'oyaviy ekspansiyalar, ularning paydo bo'lishi va turlari bilan bog'liq ma'lumotlar olimlar tamonida turli xil tarzda talqin qilinadi. Bu turdagi manbalar asosan g'oyaviy ta'sirlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar umumiy statistik ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi. Bunday turdagi tadqiqodlarga so'rovnoma metodi ham kiradi va ushbu metod orqali seperativ g'oyalarga qarshi kurashda tarixiy dahldorlik hissidan foydalanishning metodik asoslari ko'rib chiqildi. Chunki, so'rovnoma usuli qisqa muddatda ko'plab ma'lumotlarni to'plashga yordam beradi va uni tahlil qilish ham nisbatan oson kichadi. Qolaversa, ushbu metod uchun ishtirokchilarni jalb qilishda ijtimoiy tarmoqdan ham keng foydalanish mumkin. Yana bir boshqa muhim sabab esa internet tarmoqlarida har qanday respondentni topish va ular bilan virtual muloqot qilish imkoniyati mavjud.

Mohiyatidan olib qaraganda, g'oyaviy ekspansiyalar buzg'unchilik xarakteriga ega bo'lib, asosiy e'tibor obyekti yoshlarga qaratilgan bo'ladi. Albatta, yuksak ma'naviyat va salohiyatga ega bo'lgan yoshlarni g'oyaviy boshqarish oson ish emas. Biroq, g'oya targ'ibotchilari manipulativ vositalardan foydalanishsa, millat kelajagi bo'lgan yoshlarning mamlakat tayanchi degan nomi yo'qoladi. Shuning uchun ham yoshlarni manipulyativ g'oyalardan saqlash lozim. Buni amalga oshirish uchun maxsus strategiya ya'ni, yo'l xaritasini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik asoslarini yaratishda antimanipulativ xulq-atvorni shakllantirishga alohida e'tibor berish zarur. Antimanipulativ xulq dogmatik xarakterga ega bo'lmasdan, uning rivojlanishga ijtimoiy, biologik, psixologik va siyosiy omillar ta'sir o'tkazadi[2,39]. Yoshlarda g'oyaviy immunitetni hosil qilishda milliy tarixga dahldorlik tuyg'usidan foydalanish zarur. Tarixiy bilimlarni puxta egallagan yoshlarda har qanday g'oyaviy ekspansiyalarga qarshi kurash uchun yyetarlicha tajriba shakllangan bo'ladi.

G'oyaviy ekspansiyalar mafkuraviy jihatdan strategik ahamiyat kasb etadi va ularda kishilarni ishontirishning unversial psixologik metodlari mavjud. Shuning uchun jahon miqyosida g'oyaviy targ'ibotchilarga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Chunki, ular mafkura tashviqotining uslublarini subyektlarga samarali qo'llay olishadi. Mafkuralar yetuklikka erishgandan so'ng, ular o'z auditoriyalariga ishonchli hikoyalar va rivoyatlar bilan murojaat qiladilar[1,13]. Ya'ni, ularni ma'lum g'oyaga ishontirish jarayonida shaxsning psixologik qiziqish va istaklariga mos bo'lgan fikrlardan foydalanishadi. Bu esa tinglovchilarda g'oya va mafkuraga bo'lgan ishonchni yanada musatahkamlaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Globallashuv jarayonida millatchilik kuchayishining sabablari va unda tarixiy dahldorlikning o'rni haqida N.Sabanadze, milliylik va millatchilikning rivojlanish dinamikasining qiyosiy tahlili esa M.Marina[4] tadqiqotlarida bayon qilingan.


U.Qodirov destruktiv g'oyalardan yoshlarni himoyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rgangan bo'lsa, E.Shermonov[5,34] g'oyaviy ekspansiyalarga qarshi kurashda yoshlarda dahldorlik tuyg'usini shakllantirish yo'llarini tahlil qilgan. B.Saidov[6,4] g'oyaviy xurujlar va unga qarshi kurashda tarixiy dahldorlik hissining psixologik xususiyatlarini o'rgangan.

G'oyaviy xurujlarning mazmun mohiyati, vujudga kelish asoslari, tarqalish ko'lami va ta'sir doiralari mutaxassis olimlar hamda keng jamoatchilik tamonidan atroflicha o'rganilgan. Lekin, mavjud g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurash yoshlarda ularga qarshi immunitet hosil qilish bilan bog'liq tadqiqotlar kam uchraydi. Holbuki, g'oyaviy ekspansiyalardan yoshlarni izolatsiya qilish mumkin. Biroq, ularni jamiyatdan ajratib bo'lmaydi. Sababi, jamiyatdan ayro holatda hech qanday tirik jon ijtimoiy jihatdan

shakillanmaydi. Shuning uchun ham masalaga turli xil cheklovlar va tazyiqlar o'tkazish bilan emas balki, o'zlikni anglash va o'z-o'zidan qarshilik harakatini vujudga keltirish lozim. Buni tarixiy xotira va tarixiy ong orqali amalga oshirish mumkin.

Zamonaviy davrda g'oyaviy ekspansiyalarga shart-sharoit yaratib beruvchi vositalardan biri bu – xalqlar o'rtasidagi millatchilikni avj olib borishidir. Bu turdagi jarayonlar tarixiy shaxslarning mansubligini aniqlashda, mintaqa tarixini yaratishda, etnik kelib chiqishdagi tarixiy me'rosni belgilashda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, milliy tarixni yaratish muammosi munozara maydoniga aylanib ulgurgan. Bir-biriga tutash chegarada joylashgan davlatlar qardosh davlatlar tarixi inkor etib o'z tarixini haqiqatga chiqarishga harakat qiladi. Bu esa bir o'lkada yashaydigan xalqlarni o'zaro nizolashuvchi davlatalarga aylatirib qo'ymoqda. Globallashuv gipotezasining asosiy xususiyatlaridan biri bu – millatchilik kuchayib borayotganidir[3]. Bunday vaziyatdan tashqi ta'sir kuchlari g'oyaviy va mafkuraviy bosimlarni millatchilik ruknida targ'ib qilib keskinligni oliy darajaga chiqarishga harakat qilmoqda. Buni Markaziy Osiyo davlatlari misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Mintaqa davlatlari buyuk mutafakkir olimlarning tarixiy kelib chiqish bilan bog'liq har qanday ma'lumotni siyosiylashtirib, o'zaro hamkarlik aloqalarani tashqi kuchlar foydasiga susaytirishga harakat qilmoqda.

Tahlil va natijalar. Yoshlarda tarixga taxldorlik hissini rivojlantirish orqali ularda g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurash immunitetini hosil qilish bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilishda o'ziga xos uslub ya'ni so'rov o'tkazilib, uning natijalari atroflicha o'rganib chiqildi. So'rovnoman amalga oshirishda ishtirokchilarga variativ asosdagi savol berilib uning natijasi diagramma shakliga keltirildi.



Oliy ta'lim talabalaridan 110 ta ishtirokchi ushbu so'rovnomada ishtirok etdi. **Globallashuv davrida g'oyaviy ekspansiya vositalariga qaysi subyektlar kiradi?** Savoliga respondentlar tomonidan berilgan javoblar o'rtasida sezilarli darajadagi foizlar mavjud bo'lib, bu ularning mavjud savolga bo'lgan munosabatini keskin oshirgan. Ishtirokchilar tanlagan javoblariga mutanosib ravshida 4 guruhga bo'lingan: birinchi guruh vakillari eng ko'p 51 foizni tashkil etib, ular g'oyaviy ekspansiyaning asosiy vositalariga Instagram, Facebook, Whatsapp va Telegram kabi ishtimoiy tarmoqlarini kiritishgan.

Ikkinchi guruh vakillari esa 29 foizni tashkil qilib, ular BBC, Reuters, Bloomberg, New York Times kabi axborot agentliklarni eng muhim subyektlar sifatida baholashgan. Uchunchi guruh respondentlari 8 foizni qayd etib, g'oyaviy ta'sirning eng kuchli tashuvchilari sifatida Prezident, bosh vazir, siyosatchi va tarixchilar kabi boshqaruv sohasi vakillariga e'tibor qaratishgan. So'nggi guruh ishtirokchilari g'oyani targ'ib qilish va tarqatuvchi subyektlar sifatida reklama agentliklari va marketologlarni nazarada tutishgan. Ularning umumiy qiymati 12 foizga teng.

Xulosa. Zamonaviy davrdagi g'oyaviy ekspansiyalarning asosiy tashuvchilarini har kim har xil tahlil qiladi. Chunki, ularning soni behisob bo'lib, turli usullar yordamida mamlakatda separatik harakatlarni keltirib chiqaradi. Mohiyatidan olib qaraganda dunyodagi barcha davlatlarda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashuvchi maxsus tashkilotlar mavjud. Ammo, go'yaviy ekspansiya ta'siri ostidagi yoshlar ongli va ongsiz ravshda ijtimoiy va siyosiy muammolarni ketirib chiqarishda hali xanuz peshqadam bo'lib qolmoqda. Chunki, xavfsizlik tashkilotlarning barchasi ham zamonaviy asosdagi ilmiy tadqiqotlar va metodlardan birdek xabardor emas. Bu esa ular yo'l qo'yadigan xavf-xatarlar sonini oshishiga sababchi bo'lmoqda. Shuning uchun ham aholining mamlakat va uning asosiy g'oyasiga sodiqligi bilan bog'liq bo'lgan sotsiologik so'rovlar hamda eksperimentlarni olib borishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Bu turdagi fikrlarni o'rganish mamlakatning xavfsizlik tashkilotlari uchun mavjud g'oyaviy tahdidlarga yangicha rakursda qarash va yondashuvlarni chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Sababi, aksariyat muammolarning ildizi quyi bo'g'indan boshlanishi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham aholining dunyoqarash va siyosiy irodasini o'rganish juda muhim.

Tavsiyalar: Globallashuv ta'sirida vujudga kelgan g'oyaviy ekspansiyalarga qarshi kurash metodikasini quydagi asoslarda takomillashtirish mumkin:

- Yoshlar ongida milliy g'urur va o'zlikni anglashga qaratilgan mavzular sonini ko'paytirish;
- Zamonaviy media qurilmalari orqali o'tmashning murakkab tarixiy jarayonlarni kontentlar hosil qilish orqali talabalarga yetkazish;
- Tarixga dahldorlikni o'zida tarannum etuvchi tanlovlar va loyihlarni ishlab chiqish. Bu amalda dahldorlikni ommatan yoyilishi va anglatish bilan bog'liq ishlar samarasini oshirishga yordam beradi;
- G'oyaviy ekspansiyalarga qarshi kurash bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va ularni ta'limga integratsiya qilish;
- Xorijiy ilmiy-analitik markazlar bilan mafkuraviy tahdidlar profilaktikasi bo'yicha hamkorlik aloqlarini kuchaytirish;
- Milliy qadriyatlarni tiklash va ularni milliy ta'lim tizimiga xalqaro standartlar asosida olib kirishni takomillashtirish.

G'oyaviy tahdidlarga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish har qanday mamlakat uchun xavfsiz va farovon yashash kafolatlarini mustahkamlaydi. Globallashuv davrdagi mavjud g'oyaviy ekspansiyalarning o'ziga xos obyektiv va subyektiv xarakterlarga ega hisoblanadi.

Birinchidan, mavjud g'oyaviy xurujlardan yosh avlodni asrab-avaylash uchun g'oyaviy ekspansiyalar klassifikatsiyasini metodik asosda tasniflash va aniqlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, g'oya va mafkuralarning tarixiy ildizlarini anglab yetmasdan unga qarshi taktik yoxud strategik kurash olib borishning imkoni deyarli yo'q. Ya'ni, qaysidir g'oyaga asoslangan guruhlarining maqsadi, harakat dasturi, kollegial boshqaruv tuzimini klassifikatsiyalash orqaligina ushbu turdagi tahdidlarga qarshi samarali kurashish mumkin. Ushbu klassifikatsiya metodologik xarakterga ega bo'lib, uni o'rganish fonida talabalar ko'proq tashviqotga asoslangan tahdidlarni teran anglay boshlashadi.

Ikkinchidan, zamonaviy ko'rinish va uslublarga ega bo'lgan g'oyaviy tahdid tarafdorlariga qarshi tura olish uchun millat yoshlarida ogohlik va tarixga daxldorlikni hislarini

rivojlantirish alohida ahamiyatga molik hisoblanadi. Bunga globallashuvning kuchli ta'siri ostida haqiqiy ma'lumotlar boshqaruvining susayishi hamda manbalarni buzib talqin qilish holatlarining avj olishi ham qayisidir ma'noda g'oyaviy tahdidlarni tug'dirmoqda. Bunday sharoitda yoshlarni tarixga dahldor va Vatan ravnaqi uchun kurashuvchi shaxs sifatida tarbiyalash juda muhim. Bu ishni tarixiy tarbiya metodikasi orqali amalga oshirish lozim.

Uchinchidan, yoshlarda tarixiy qadriyatlarga asoslangan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish va mustahkamalash zarur. Ushbu vazifani bajarishda nafaqat darsliklarni qayta milliy manfaatalar asosida ishalab chiqish balki, qadriyatlar haqida ma'lumot beruvchi veb platforma va ijtimoiy tarmoqlar sonini ko'paytirish orqali amalga oshirish mumkin. Globallashuv jarayonlarning internet tarqmog'i bilan chambarchas ekanligini hisobga olsak, bu yoshlar uchun juda yuqori qiymat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Manfred B.S. Globalization and Ideology. Journal of Political Ideologies (February 2005),10(1), 11–30 p.
2. Qodirov U.D. Yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2019. 285 b.
3. Sabanadze, Natalie. *Globalization and Nationalism*. Budapest: Central European University Press, 2010. <https://books.openedition.org/ceup/556>.
4. Tepfenhart, Mariana M.A. (2022) "Nationalism in the Context of Globalization", *Comparative Civilizations Review*: Vol. 87: No. 87, Article 8. Available at: <https://scholarsarchive.byu.edu/ccr/vol87/iss87/8>
5. Shermanov E.U. Globallashuv sharoitida yoshlarda dahldorlik tuyg'usini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari. Zamonaviy ta'lim. 2017, 31-37 b.
6. Saidov B.O. Vatanparvarlik – psixologik fenomen sifatida. Zamonaviy ta'lim. Ta'lim Psixologiyasi. 2022. 3-10 b.

Odilova Sarvinoz Isoqovna,
Jizzax politexnika instituti "Umumtexnika fanlari" kafedrası mustaqil izlanuvchisi
e-mail: odilovasarvinoz425@gmail.com

MEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA FIZIKA DARSLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada ta'lim samaradorligini oshirish uchun media-texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslari ochib berilgan, shuningdek, media-texnologiyalar asosida zamonaviy fizika darslarida talabalarning bilim faolligini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim modelini joriy etishda yordam ko'rsatilgan. Faoliyatga an'anaviy usullarga nisbatan shaxsiylashtirilgan va tabaqalashtirilgan yondashuv uchun sharoitlar yaratildi, bu esa shaxsiy faollikni shakllantirish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: mediatexnologiyalar, metodologiya, o'quv jarayoni, kommunikatsiyalar, takomillashtirish, samaradorlik, o'zaro ta'sir, balandlik.

Аннотация. в статье раскрыты методические основы использования медиа-технологий для повышения эффективности обучения, а также оказана помощь во внедрении образовательной модели, направленной на развитие познавательной активности учащихся на уроках современной физики на основе медиа-технологий. Созданы условия для персонифицированного и дифференцированного подхода к деятельности по сравнению с традиционными методами, что позволяет формировать личностную активность, самореализацию, самосовершенствование, самовоспитание, самосовершенствование, развитие творческого мышления.

Ключевые слова: медиатехнологии, методология, учебный процесс, коммуникация, улучшение, эффективность, взаимодействие, высота.

Annotation. the article reveals the methodological foundations of the use of media technologies to improve the effectiveness of education, and also provides assistance in the introduction of an educational model aimed at the development of cognitive activity of students in modern physics lessons based on media technologies. Conditions have been created for a personalized and differentiated approach to activities in relation to traditional methods, which allows the formation of personal activity, self-awareness, self-improvement, self-education, self-development and the development of creative thinking.

Key words: mediatechnologies, methodology, educational process, communications, improvement, efficiency, interaction, height.

Kirish. Integratsiyalashgan texnologiyalar interfaol usullar va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalangan holda axborot tarmoqlari va telekommunikatsiyalar orqali rivojlanayotgan shaxslarning global o'zaro ta'siriga asoslangan yangi avlod texnologiyalari bilan almosh tirilmoqda.

Yangi avlod texnologiyalari tavsifi o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayoniga faol joriy etilayotgan media-texnologiyalarga to'liq mos keladi.

Media-texnologiyalar - bu pedagogik ma'noda axborot bilan ishlash texnologiyalari majmui bo'lib, ta'lim salohiyatiga ega bo'lgan ommaviy aloqa va axborotning o'zaro ta'siri texnologiyalarini ifodalaydi. Media-texnologiyalar qatoriga multimedia, gipermedia, virtual reallik (aloqasiz axborot bilan o'zaro ta'sir qilish texnologiyasi) va telekommunikatsiya texnologiyalari (foydalanuvchining internetdagi axborot bilan o'zaro aloqasi) kabi axborot o'zaro ta'sir qilish texnologiyalari kiradi.

Multimedia axborotni taqdim etishning turli vositalaridan bir vaqtda foydalanishga asoslanadi va audiovizual, grafik, matnli ma'lumotlarni, ularni qayta ishlash va uzatishni,

shuningdek, komplekslardan foydalanishni birlashtirgan texnologiyadir. Multimedia imkoniyatlarini amalga oshiradigan axborot tizimi multimedia taqdimotini alohida metodik uslub sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi, ayniqsa o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish muammolariga bag'ishlangan adabiyotlarni tahlil qilishda. Multimediali taqdimotlar fizika darslarida nafaqat mustaqil loyiha ishi natijalarini taqdim etish, balki fizika materiali bilan tanishish, o'rganilgan materialni mustahkamlash va talabalar bilimini nazorat qilish uchun ham keng qo'llaniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), xususan media texnologiyalarining joriy etilishi o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Fizika fanining murakkab, abstrakt tushunchalarga boy bo'lganligi sababli, uni o'qitishda media texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishlari va bilimlarni ongli ravishda egallashlariga zamin yaratadi.

Media texnologiyalarining ta'limdagi o'rni. Ko'plab pedagogik tadqiqotlar (A.A.Abduqodirov [3], G'.Yo.Yo'ldoshev [1]) da ta'limda media texnologiyalarining qo'llanilishi nafaqat ta'lim samaradorligini oshirishi, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, interaktivlikka o'rgatish kabi jihatlarni rivojlantirishi ta'kidlanadi.

Masalan, G'.Yo.Yo'ldoshevning "Fizika darslarida AKTdan samarali foydalanish" nomli maqolasida interaktiv doskalar, multimedia dasturlari va simulyatsion modellar orqali fizika hodisalarini vizual ko'rsatish o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi va bilimni mustahkamlashiga urg'u berilgan [1].

Bilish faolligi va uning psixologik-pedagogik asoslari. Bilish faolligi – bu o'quvchining o'quv faoliyatida faol ishtirok etishi, bilimlarni izlash, tahlil qilish, ularni amalda qo'llashga bo'lgan intilishi sifatida tavsiflanadi (S.D.Smironov [7]). Ular ta'lim jarayonida motivatsiyaning kuchaytirilishi va o'quv materialining vizual, eshitish, kinestetik shakllarda yetkazilishi o'quvchining faol ishtirokini ta'minlashini ko'rsatib o'tgan.

Fizika ta'limida media vositalarining afzalliklari. Ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda (Masalan, M.M.Toirova [2], T.V.Gracheva [6], R.Mayer [4]) media texnologiyalar fizika darslarida:

- murakkab tajribalarni virtual modellashtirish;
- animatsiyalar yordamida dinamik jarayonlarni tushuntirish;
- video va simulyatsiyalar orqali hodisalarni real ko'rsatish;
- o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini kuchaytirish;
- kabi imkoniyatlarni taqdim etishi e'tirof etilgan.

Adabiyotlarda o'quvchilarning bilish faolligini oshirish uchun quyidagi strategiyalar tavsiya etiladi:

Muammoli ta'lim – o'quvchiga mustaqil fikrlash va izlanishga yo'naltirilgan savollar qo'yish (J.S. Bruner [5]);

Interaktiv metodlar – guruhli ishlash, rol o'ynash, klaster tuzish;

Multimedia vositalaridan foydalanish – animatsiyalar, 3D modellari, virtual laboratoriyalar (PhET, Algodo, Crocodile Physics va b. [8]).

Natijalar. Zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim va kasbiy ehtiyojlariga mos kelishiga erishish uchun mutaxassislar tayyorlash tizimini isloh qilishni talab qiladi. Ushbu ishning dolzarbligi shundan iboratki, media-texnologiyalar asosida o'quvchilarning bilim faolligini rivojlantirishda o'qitishning an'anaviy texnik vositalarining imkoniyatlarini birlashtirish va sezilarli darajada boyitish mumkin bo'ladi, bu esa media-texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslarini o'rganish samaradorligini oshiradi. Media-texnologiya o'ziga xos interaktivligi, moslashuvchanligi, har xil turdagi ko'rgazmali ta'lim axborotlarini integratsiyalashuvi, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning motivatsiyasini oshirish qobiliyati bilan juda foydali va samarali ta'lim texnologiyasidir. Bu

bizning vositachilik dunyomizda media-ta'limning jadal rivojlanishi muhimligini tushuntiradi, bu bugungi kunda hech kim tomonidan inkor etilmaydi [9].

O'quv jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish dars mazmunining axborot salohiyatini oshiradi:

- kadrlar tayyorlashning tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirishga yordam beradi;
- vaqtni tejaydi, ko'proq bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradi;
- eng murakkab mavzular va tushunchalarni o'rganishda diqqatni jamlashga yordam beradi;
- topshiriq va moshqlarni tanlashni takomillashtiradi, ularni yanada ko'rgazmali va qiziqarli qiladi;
- o'rganishni individuallashtirish va mustaqil ishlarni rivojlantirish orqali ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi [11].

Zamonaviy axborot vositalaridan foydalangan holda o'qitishning afzalliklari orasida biz o'quv jarayonining o'zini o'zi belgilashini, vaqt va makon cheklovlaridan xalos bo'lishni, multimedia yordamida idrokni optimallashtirishni, shuningdek, modellashtirish imkoniyatini qayd etishimiz mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida yangi ommaviy axborot vositalarining joriy etilishi bir vaqtning o'zida asosiy ta'lim va psixologik tamoyillarni qayta ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Albatta, illyustratsiyalar, tasvirlar va grafiklar matnli ma'lumotlarni eslab qolishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo shuni hisobga olish kerakki, ta'lim jarayonini yaxshilash uchun hissiy idrokning har xil turlarini (ko'rish, eshitish, taktil) qo'shish etarli emas. O'rganishda multimediyadan foydalanishni tushunishning asosiy sharti ramziy va kodli tizimlarni dekodlash qobiliyatidir.

Ta'limda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish quyidagi muhim funktsiyalar bilan bog'liq:

- o'rganilayotgan jarayonlarni modellashtirish;
- ko'rib chiqilayotgan hodisa va jarayonlarni ularni retrospektiv va istiqbolli talqin qilish dinamikasida aks ettirish;
- to'g'ridan-to'g'ri idrok qilib bo'lmaydigan jarayonlar va hodisalarni vizualizatsiya qilish va katta ekranda aks ettirish;
- ekranda modellashtirilgan ko'rib chiqilayotgan jarayonlar ustidan interaktiv nazorat (tahlil qilinayotgan jarayon yoki hodisada talabalarning virtual ishtiroki);
- o'quv jarayonini individuallashtirish va differentsiallashtirish (o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda darsning axborot mazmunini tashkil etish);
- teskari aloqani o'rnatgan holda talabalarning bilish faoliyati ustidan joriy va yakuniy nazoratni amalga oshirish;
- global va mahalliy axborot tarmoqlariga erkin kirishni ta'minlash;
- uzatilayotgan ta'lim ma'lumotlarining hissiyligi va ekspressivligi;
- yetarlicha katta ta'lim auditoriyasi uchun o'rganilayotgan jarayonlar va hodisalarni namoyish qilish; - ta'lim motivatsiyasini oshirish [10].

Muhokama. Zamonaviy fizika darslarida qo'llaniladigan texnik vositalar bajaradigan vazifalariga ko'ra ularni o'quv jarayonida qo'llashning quyidagi usullari ajratiladi:

1. O'quv ma'lumotlarining manbasi. Fizika darslarida qo'llaniladigan zamonaviy multimedia texnologiyalari zarur didaktik ma'lumotlarni tez va kam kuch va vaqt sarflab topishga yordam beradi.

2. Didaktik axborotni tanlash va sifat jihatidan qayta ishlash vositasi. Axborotni tanlash, asosan, ommaviy axborot vositalarini tanlash, shuningdek, talabalarda tanqidiy fikrlashning rivojlanish darajasi, ya'ni shaxsning media madaniyatining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

3. O'quv materialini taqdim etish vositalari. Eng yangi audiovizual vositalar yuqori tasvir va ovoz sifati, ma'lumotni taqdim etishning turli kanallarining kombinatsiyasi bilan ajralib turadi, bu o'quv materialini idrok etish samaradorligini oshirishga va natijada uni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

4. Tarbiyaviy vazifaning bajarilishini nazorat qilish vositasi. Hozirgi vaqtda ta'lim faoliyatini nazorat qilish va ularning natijalarini baholashga yordam beradigan ko'plab elektron testlar, simulyatorlar va o'quv dasturlari mavjud.

O'quv jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini amalga oshirishga yordam beradi, chunki u an'anaviy yondashuvga qaraganda faoliyatni ko'proq individuallashtirish va differentsiallashtirish uchun sharoit yaratadi, bunda o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, shaxsiy faoliyatni nazarda tutadi va o'zlashtirish uchun joy ochadi [14].

Media texnologiyalardan foydalanish nafaqat tayyor o'quv materialini ko'rib chiqish, balki uni yaratish, o'zgartirish va qo'llash jarayoniga talabani jalb qilish imkonini beradi [13]. Zamonaviy multimedia kurslari va o'quv dasturlari zamonaviy fizika darsini yangicha tashkil etish imkoniyatini ochib beradi. Bunday dars talabalarni qiziqtirishi mumkin, multimedia esa ularning faolligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Media-texnologiyalar o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, an'anaviy ta'lim doirasida ilgari talab qilinmagan yoki kutilgan natijani ko'rsatmagan istiqbolli uslubiy ishlanmalar imkoniyatlarini amalga oshiradi. Agar fizika darsi kompyuter laboratoriyasida o'tkazilsa va o'quvchilarning javoblari kompyuterda qayta ishlansa, o'qituvchi materialning o'zlashtirilganlik darajasini tezda kuzatib boradi va darsning borishiga kerakli tuzatishlar kiritadi. Bundan tashqari, dars oxirida har bir talabaning ishini baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, multimedia ta'lim sifatini oshiradi va o'quvchilar e'tiborini saqlab qolishga yordam beradi.

Media-texnologiyalar talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ular o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirib, an'anaviy ta'lim doirasida ilgari talab qilinmagan yoki kutilgan natijani ko'rsatmagan istiqbolli uslubiy ishlanmalar imkoniyatlarini amalga oshirishga imkon beradi. Shuning uchun o'qituvchilar masofaviy ta'limning cheklovlarini hisobga olgan holda pedagogik ishlab chiquvchilar sifatida faol harakat qilishlari kerak.

Xulosa. Maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda media-texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslari ochib berilgan, shuningdek, ular mustaqil ishlash, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash va ijodiy fikrlashni rivojlantirishni o'z ichiga olgan an'anaviy yondashuvga nisbatan ko'proq individuallashtirish va faoliyatni farqlash uchun sharoit yaratadigan talabaga yo'naltirilgan ta'lim modelini amaliy amalga oshirishga hissa qo'shishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Yo'ldoshev G'.Yo. "Fizika darslarida AKTdan samarali foydalanish usullari." – O'zMU ilmiy jurnali, 2020.
2. Toirova M.M. "Fizika darslarida multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligi." – Ta'lim va fan jurnali, 2019.
3. Abduqodirov A.A. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari." – T.: O'qituvchi, 2016.
4. Mayer R.E. "Multimedia Learning" – Cambridge University Press, 2009.
5. Bruner J.S. "The Process of Education." – Harvard University Press, 1960.
6. Gracheva T.V. "Использование информационных технологий на уроках физики." // Физика в школе, 2018.
7. Smirnov S.D. "Педагогика и психология высшей школы." – М.: Академия, 2003.

8. PhET Interactive Simulations Project – University of Colorado Boulder.
<https://phet.colorado.edu>
9. Pchelina V.S. Maktabgacha ta'limda media-texnologiyalardan foydalanish bo'yicha Avstriya tajribasi // Yaroslavl Pedagogika byulleteni II jild (Psixologiya va pedagogika fanlari). № 3, 2010 yil.
10. Yarim G.B. Ta'lim tizimida multimedia texnologiyalarining an'anaviy o'quv fanlari bilan integratsiyalashuvi fan o'qituvchilarining malakasi // Informatika va ta'lim, 2009. No 5.
11. Yo'lchieva Z.N. O'quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish // Fan va ta'lim bugun, 2018. No3 (26). 53-54-betlar.
12. Quvandiqova G.G., Choriyev I.R. Shaxsga nisbatan jamiyat insonparvarligi texnologiyalari // Fan va ta'lim axborotnomasi, 2016. No 5 (17). 64-67-betlar.
13. Fedorov A.V. Pedagogika universitetlarida media ta'lim: Pedagogika universitetlari uchun mutaxassislik bo'yicha uslubiy materiallar va o'quv kurslari dasturlari ("Media ta'lim"). Taganrog, 2003 yil
14. Ahmedov B.A. (2021). Korporativ hisoblash klaster tizimlarining ishonchliligini dinamik aniqlash. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 2(3), 495-499.

Hamdamova Mahzuna Tursunovna,
Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALARNING BOSHQARUV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish modeli, shaxsning madaniy muloqoti sharoitida yangi xulq-atvorga moslashish, o'qishga motivatsiyasi va kognitiv faolligini bevosita oshirish, ta'lim subyektlarining munosabatlarini ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirish hamda rivojlantirishda kreativ fikrlashga yo'naltirilgan Mind Mapping va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida qo'llanadigan Gamification texnologiyalari, tadqiqot jarayonida talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bosqichlariga asoslangan metodik ta'minoti yoritilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, kreativ fikrlash, boshqaruv va rahbarlik sohasi, shaxsning madaniy muloqoti, rejalilik, bilimdonlik, intizomlilik, rag'batlantirish, ierarxiklik (ko'p pog'onalilik).

Аннотация. В данной статье представлена модель развития управленческой культуры студентов, адаптация к новому поведению в условиях культурного общения личности, непосредственное повышение мотивации к обучению и когнитивной активности, направление отношений субъектов образования на развитие творческих способностей, а также технологии Mind Mapping, ориентированные на креативное мышление в развитии, и технологии Gamification, применяемые в процессе принятия управленческих решений. Освещено методическое обеспечение, основанное на этапах развития управленческой культуры студентов в процессе исследования.

Ключевые слова: культура, креативное мышление, сфера управления и руководства, культурное общение личности, планирование, компетентность, дисциплинированность, стимулирование, иерархичность (многоуровневость).

Abstract. This article presents a model for developing students' management culture, including adaptation to new behaviors in the context of cultural communication, direct enhancement of learning motivation and cognitive activity, directing educational subjects' relationships toward developing creative abilities, and Mind Mapping technologies oriented toward creative thinking in development, as well as Gamification technologies applied in management decision-making processes. The methodological framework based on the stages of developing students' management culture during the research process is covered.

Key words: culture, creative thinking, management and leadership field, personal cultural communication, planning, knowledgeability, discipline, encouragement, hierarchy (multi-level structure).

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lajak mutaxassislarining nafaqat professional kompetentligini, balki boshqaruv madaniyatini ham shakllantirish hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyat rivojlanishining barcha sohalarida samarali boshqaruvga ega bo'lgan, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega va zamonaviy texnologiyalarni qo'llay oladigan kadrlar talab qilinmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish muammosi tobora dolzarblik kasb etmoqda. Bu jarayon an'anaviy ta'lim usullarining yangi pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyasini, jumladan Mind Mapping va Gamification kabi innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishini talab etadi. Boshqaruv madaniyati - bu shaxsning ijtimoiy-professional faoliyatida namoyon bo'ladigan madaniy qadriyatlar, bilim va ko'nikmalar majmuasidir.

Hozirgi vaqtda talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud: an'anaviy ta'lim metodlarining zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi, talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasining past darajada bo'lishi, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda qiyinchiliklar kuzatilishi. Shu bilan birga, kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini o'zlashtirishda ham kamchiliklar kuzatilmoqda.

Ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish bilan ta'lim samaradorligini oshirish muammosiga bag'ishlangan xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari o'tkazilgan bo'lib, ularning natijalari, tahlillari asosida maqsad va vazifalari aniqlangan; bu jarayonda amal qilinadigan tamoyillar belgilangan; faoliyat yuritishning usullari, vositalari va shakllari yo'lga qo'yilgan; ta'lim jarayonining eng muhim obekti va subekti hisoblanuvchi talaba bo'lajak mutaxassis sifatida texnologik yondashuvlar bo'yicha o'rganishi lozim bo'lgan bilimlar, amaliy malakalar mazmuni va qamrovi belgilangan, ularning ehtiyoji, qobiliyati, qiziqish va imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va ta'lim oxirida erishiladigan natijalar aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv madaniyatining tarkibiy qismlari – ijtimoiy, huquqiy, intellektual, psixologik va kasbiy madaniyat – bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har biri ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, boshqaruv madaniyatini shakllantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, jumladan, Mind Mapping, Gamification, seminar-treninglar, keys-stadi va ko'rgazmali materiallar kabi vositalardan foydalanish talabalar boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhimdir.

Nazariy tahlillar, kreativlik testlari, nostandart topshiriqlar, onlayn so'rovlar va empirik o'rganishlar asosida shakllantirilgan xulosalar hamda oliy ta'lim muassasalariga qo'yiladigan davlat talablariga asoslangan holda tadqiqot jarayonida yuqorida qayd etilgan integrativ yondashuv asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishning tashkiliy-didaktik tizimi takomillashtirildi.

Pedagogik ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuv asosan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, kompetentli yondashuv esa boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga asoslangan holda talabalarni o'z bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatga tatbiq etishga o'rgatishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari va baholash tizimi ushbu yondashuvlarga mos ravishda farqlanadi. Shu bois boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini oshirish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'limdagi islohotlar va uning modernizatsiyalashuvi professor- o'qituvchilardan dars jarayonida tashabbuskorlik, ijodiy yondashuv, talabalardan mustaqil fikrlashni talab qiladi. Oliy pedagogik ta'limdagi dars mosh g'ulotlari pedagogning kasbiy ijodkorligini amalga oshiruvchi ochiq maydon hisoblanadi. Fan o'qituvchisining asosiy kasbiy pedagogik ehtiyoji – bu o'rgatish, yetkazib berish san'ati bo'lib, u aynan dars jarayonida amalga oshiriladi. Shunday ekan, dars oliy pedagogik ta'lim jarayonini tashkil qilishga innovatsion va tizimli yondashuvni talab etadi.

Umuman olganda, boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayonida texnologik yondashuvlardan foydalanish talabalar mustaqil o'rganish faoliyatini faollashtiradi, ularning tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'zini o'zi boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tahlillar natijasida talabalarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Ushbu model talabalarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonini texnologik yondashuv asosida ifodalaydi.

Modelning asosiy tarkibiy qismlari **maqsadli blok, tashkiliy blok, mazmunli blok, jarayonli blok, diagnostik bloki** va **baholash bloklaridan** iborat bo'lib, har biri boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu modelda maqsad sifatida talabalarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish ko'rsatilgan bo'lib, tadqiqot bo'yicha izlanishlar asosida maqsad shakllantirilgan.

Ta'lim yo'nalishida boshqaruv madaniyatini shakllantirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda *Mind Mapping* va Gamification kabi metodlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va talabalar bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mind Mapping texnologiyasi talabalar tomonidan boshqaruv jarayonlarini vizual tahlil qilish va tushunish uchun vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu metod orqali talabalar ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning tamoyillari, funksiyalari va strategiyalarini vizual shaklda tushunib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, ta'lim tizimida rahbarlik faoliyatini o'rganayotgan talabalar Mind Mapping texnologiyasidan foydalangan holda boshqaruv jarayonlarini tahlil qiluvchi konseptual xaritalarni ishlab chiqishi mumkin. Bu esa boshqaruv strukturasi, muassasa faoliyatini muvofiqlashtirish usullari va pedagogik boshqaruv tamoyillarini aniq tasavvur qilishga yordam beradi.

Natijalar va muhokama. Monitoring bloki doirasida olib borilgan kuzatuvlar natijasida talabalarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mezonlar va ularning aniq ko'rsatkichlari belgilab olindi. Jumladan, axboriy-bilish mezonlari orqali talabalarining umummadaniy va kasbiy tavsifdagi bilimlarga egaligi, pedagogik faoliyatga oid rahbarlik madaniyatining o'ziga xos jihatlari anglash darajasi hamda mustaqil boshqaruv faoliyati yurita olish salohiyati aniqlanadi.

Shaxsiy-qadriyatli mezon talabaning boshqaruv madaniyatiga asoslangan kasbiy faoliyatga bo'lgan motivlari, tanlagan kasbiga va rahbarlik madaniyatiga nisbatan ijobiy munosabati, shuningdek, ushbu sohalarga doir xohish-istaklarining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Hissiy-emotsional mezon esa talabaning boshqaruv madaniyatiga nisbatan ijobiy hissiy munosabati, ta'lim muassasasi hayotidagi faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi, o'z-o'zini obyektiv baholash, o'zini nazorat qilish, mustaqil ravishda maqsad qo'yish va uni amalga oshira olish ko'nikmalariga egaligi orqali aniqlanadi.

Faoliyatli-ijodiy mezon talabaning ilmiy bilish uslublarini egallaganligi, fanlararo bog'liqliklarni aniqlay olishi, manbalar bilan ishlash ko'nikmasi, o'quv faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, o'z-o'zini baholay olishi, mustaqil ta'lim olish va ijodiy boshqaruv faoliyatini yurita olishi kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Ushbu mezonlar asosida shakllantirilgan monitoring tizimi talabalarining boshqaruv madaniyatini kompleks tahlil qilish, ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish va shaxsiy kompetensiya trayektoriyalarini aniqlash imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida boshqaruv madaniyatini rivojlantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash orqali amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy yondashuvlar talabalarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda, o'z jamoasi bilan o'zaro aloqasini yo'lga qo'yish, jamoa a'zolarining individual xususiyatlarini inobatga olish hamda vaziyatga qarab boshqaruv strategiyasini moslashtirishda muhim jarayonlarni o'z ichiga oladi. An'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, kompetent yondashuv talabalarining faolligini oshirish, ularning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Texnologik yondashuvlardan foydalanish pedagogik jarayonning interaktivligini oshirish, talabalarining boshqaruv faoliyatiga real sharoitlarda tayyorlanishiga imkon yaratish va ularning ijodiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Umuman olganda, boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayonida zamonaviy yondashuvlardan foydalanish talabalarda mustaqil o'rganish faoliyatini faollashtiradi, ularning

tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'zini o'zi boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqot ishlari va adabiyotlar tahlili natijasida talabalarni boshqaruv madaniyatini kasbiy faoliyatda rivojlantirishga tayyorlash; talabalarining hayot mazmunini ifoda etuvchi boshqaruv madaniyatining maqsadlarini rivojlantirish, ularning o'z ehtiyoj va imkoniyatlarini to'liq anglab yetishlariga ko'maklashish, shaxslararo va kasbiy faoliyatga doir munosabatlar tizimida ularning o'z o'rnini aniq belgilay olishi va o'z o'zini namoyon qila olishga o'rgatish; ularning ijtimoiy faolligini oshirish, talabalarda insonga (o'z-o'zini xolis baholash, o'z-o'zini hurmat qilish, qadr-qimmat, or-nomus, vijdon) va olamga nisbatan (insonparvar, demokratik, dialektik, madaniyat, axloqiy tafakkur) yuksak axloqiy munosabatlarini shakllantirish; qarorlar qabul qilishga tayyorlash kabi vazifalarni hal etish lozimligi asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Hamdamova M.T. Talabalarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish // Mug'allim xem uzliksiz bilimlendirio. 2023. №4, 59-63 b. ISSN 2181-7138.

2. Hamdamova M.T. Menejment culture in students development methods // International journal of students in business Management, Economics and Strategies, ISSN (E): 2949-883X, JIF:7.925 SJIF 2023:5.404. 62-65 p.

3. Hamdamova M.T. Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish-Boshqaruv faoliyatining mohiyati sifatida // In an International Conference on Educational Discoveries and humanities, Published online with E-Conference Series, Hosted online from Plano, Texas, USA. Italy. ISSN (E):2835-319X, SJIF: 5.385, 15.09.2023.

4. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirishga oid jahon tajribalari tahlili // Scientific theoretical and methodical journal, ISSN 2992-9024 (online) 2024, №6. 41-47 b.

5. Hamdamova M.T. Talabalarining boshqaruv madaniyatini shakllantirishda innovatsion menejmentning pedagogik imkoniyatlari // Scientific theoretical and methodical journal ISSN 2992-9024 (online) 2024, №5 557-564 b.

6. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kompetensiyasi «Maktabgacha ta'lim: zamonaviy yondashuv va xalqaro tajriba» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2024, 12-15 b.

7. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyasi. Uslubiy-qo'llanma. Toshkent 2022. 76 b.

8. Hamdamova M.T. Boshqaruv psixologiyasi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2022. 128 b.

Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'limda boshqaruv va menejment. Darslik. Toshkent. 2024. 371 b.

Shukurov Rahim Salimovich,
Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası professori, p.f.f.d (PhD)

TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning jismoniy tayyorgarligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda jismoniy tarbiya metodlari va jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish modeli samaradorligi va talabalar salomatligini ta'minlashdagi roli yoritilgan. Mazkur maqola oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sport faoliyatini samaraldorligini oshirishga hamda talabalar jismoniy faolligini rag'batlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: lider, metod, qadriyat, tizim, funktsiya, psixofiziologiya, kompleks, innovatsiya, texnologiya, fitnes, onlayn, model.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности процесса физического воспитания в системе высшего образования. Также рассматриваются современные требования к физической подготовке студентов. В исследовании освещается эффективность методов физического воспитания и роль модели развития физической подготовки в обеспечении здоровья студентов. Статья направлена на повышение эффективности физического воспитания и спортивной деятельности в вузах, а также на стимулирование физической активности студентов.

Ключевые слова: лидер, метод, ценность, система, функция, психофизиология, комплекс, инновация, технология, фитнес, онлайн, модель

Annotation. This article analyzes the specific features of the physical education process in the higher education system. It also examines the modern requirements for students' physical training. The study highlights the effectiveness of physical education methods and the role of the physical training development model in ensuring students' health. This article is aimed at improving the efficiency of physical education and sports activities in higher educational institutions and stimulating students' physical activity.

Key words: leader, method, value, system, function, psychophysiology, complex, innovation, technology, fitness, online, model.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarni har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun nafaqat nazariy bilim, balki jismoniy salomatlik, irodaviy mustahkamlik va jismoniy faol hayot tarzi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jismoniy tarbiya ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida nafaqat salomatlikni mustahkamlash, balki yosh avlodda mehnatga layoqatlilik, intizomlilik, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

So'ngi yillarda oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslarining mazmuni va shakllari zamon talablariga mos ravishda takomillashib bormoqda. Axborot texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir davrda talabalarning harakatchanligi kamayib borayotgani, jismoniy faollik va sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi jismoniy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni zamonga moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, zamonaviy dunyoda jismoniy tarbiya va sport sohasi nafaqat sog'liqni mustahkamlash vositasi, balki shaxsiy rivojlanish, liderlik, psixologik barqarorlik va ijtimoiy faollikni ta'minlashning muhim omili sifatida xizmat qilmoqda. Shu sabab, jahonning ko'plab mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari va sportga innovatsion metodlar tadbiiq etilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonining xususiyatlarini tahlil qilish, talabalarning jismoniy tayyorgarligiga qo'yilayotgan zamonaviy

talablarni aniqlash va xalqaro tajriba asosida samarali pedagogik-uslubiy yondashuvlarni taklif etishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodika. Oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirish, talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va zamonaviy talablar asosida samarali yondashuvlarni ishlab chiqish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bois, mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, mavjud pedagogik tajribalar hamda xalqaro amaliyotga oid manbalarni chuqur tahlil qilish ushbu tadqiqotning nazariy va amaliy asoslarini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir qator mualliflarning (D.Eley, D.Kirk, 2002; A.Deveci, 2023; N.Havrylova, O.Mokhunko, 2025; Ö.Yıldız va boshq., 2021) ilmiy tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya bu nafaqat talabalarning jismoniy faolligini oshirish, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan muhim pedagogik jarayondir. Zamonaviy yondashuvlar jismoniy tarbiyani talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy faollikni rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish vositasi sifatida qarashni taqozo etmoqda.

N.Dolgova, P.Indyk, A.Malyginlarning fikricha, oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni modernizatsiyalash jarayoni pedagogik va tashkiliy omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Ular zamonaviy yondashuvlar va innovatsion metodlarni joriy etish orqali jismoniy tarbiya sifatini oshirish va talabalar orasida sport madaniyatini rivojlantirish muhim.

V.Banakh va G.Iedynak (2021) jismoniy tarbiya oliy ta'limda talabaning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kasbiy samaradorlikni oshirish va stressga bardoshlilikni rivojlantirishdagi o'rnini alohida ta'kidlaydi.

I.Lutsenko va boshqalar (2024) jismoniy tarbiyani samarali tashkil etish uchun yangi metodik va tashkiliy yechimlar zarurligini ko'rsatadi.

Talabalarning jismoniy tayyorgarligi masalasi, oliy ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat talabalar sog'lig'ini mustahkamlashga, balki ularning shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishiga xizmat qiladigan murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida ko'rilishi lozim. Chunki, zamonaviy talablar jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion metod va texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, masofaviy ta'lim sharoitida ham samarali ta'lim-tarbiya usullarini joriy etishni zaruratga aylantirmoqda. Shu uchun, talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar yuqori pedagogik yondashuvlarni, yangi texnologiyalarni va o'quv jarayonining moslashuvchanligini talab qiladi.


Zamonaviy talabalarning jismoniy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablar nafaqat ularning jismoniy salomatligini mustahkamlash, balki psixofiziologik holatini yaxshilash, morfofunktsional rivojlanishini ta'minlash va sportga yo'naltirilgan faoliyat orqali kompleks tarzda rivojlantirishni o'z ichiga oladi (Griban va boshq., 2020; Dehtiarenko va boshq., 2022; Prontenko va boshq., 2020). Shu bilan birga, zamonaviy fitness texnologiyalari jismoniy sifatlarni samarali oshirish va sog'likni yaxshilashda muhim vosita sifatida qo'llanilmoqda (V.Zhamardiy va boshq., 2020; A.A.Rebryna va boshq., 2024). Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonida innovatsion metodlar va texnologiyalarni tatbiq etish, shuningdek, talabalar salomatligini monitoring qilish orqali individual yondashuvni ta'minlash hozirgi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni modernizatsiyalash jarayoni pedagogik va tashkiliy omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy yondashuvlar va innovatsion metodlarni joriy etish orqali jismoniy tarbiya sifatini oshirish hamda talabalar orasida sport madaniyatini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Jismoniy tarbiya nafaqat talabalar sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, kasbiy samaradorlikni oshirishga va stressga bardoshlilikni rivojlantirishga xizmat qiladi, balki u samarali tashkiliy yechimlar va yangi metodikalarsiz muvaffaqiyatli bo'la olmaydi.

Shuningdek, talabalarining jismoniy tayyorgarligi murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini inobatga olib, zamonaviy talabalar doirasida innovatsion texnologiyalar va metodlarni qo'llash, bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar, ya'ni masofaviy ta'lim olish qamrovini ko'lamini kengaytirib borayotganligini inobatga olib, jismoniy tarbiyaning samarali usullarini amaliyotga tatbiq etish ehtiyoji kuchaymoqda. Talabalarining jismoniy tayyorgarligi nafaqat ularning jismoniy salomatligini mustahkamlash, balki psixofiziologik holatini yaxshilash, morfofunksional rivojlanishini ta'minlash hamda sportga yo'naltirilgan faoliyat orqali kompleks rivojlanadi.

Shu sabab, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonida innovatsion metod va texnologiyalarni keng tatbiq etish, talabalar salomatligini monitoring qilish tizimini joriy etish va individual yondashuvni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu yondashuvlar orqali talabalarining jismoniy tayyorgarligi yuqori pedagogik sifatga ega bo'lib, ularning shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Talabalarining jismoniy tayyorgarligini samarali rivojlantirish uchun maxsus dastur, model va metodikalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Biz taklif etayotgan model esa individual yondashuv, bosqichma-bosqich rivojlanish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u talabaning jismoniy holatini aniq baholab, zarur yo'nalishlarda tizimli rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur model nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlashga, balki o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya, sog'lom turmush tarziga qiziqish, ijtimoiy faollik kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, model oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida samarali tashkil etish va sog'lom muhitni yaratishda vosita bo'lib xizmat qiladi.



1-rasm. Talabalarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish modeli

Ushbu model talabalarining salomatligini mustahkamlash, jismoniy faolligini oshirish, shuningdek, ularning ijtimoiy va kasbiy ko'nikmalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, model orqali ta'lim jarayoni individual ehtiyojlarga moslashtiriladi, zamonaviy

texnologiyalar va metodlar joriy etilib, ta'lim sifatini oshirishga imkon yaratiladi. Natijada, talabalarining to'laqonli rivojlanishi va samarali faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

Shaxsiy yondashuv. Har bir talabani uning individual xususiyatlari, sog'liq va jismoniy salomatlik holati va tayyorgarlik darajasiga moslashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish.

Individual mosh g'ulotlar (psixofiziologik asosda). Talabaniing psixofiziologik ko'rsatkichlari va holatini hisobga olib, maxsus shaxsiy dastur bo'yicha amalga oshiriladigan mosh g'ulotlar.

Monitoring va baholash tizimi. Talabalar jismoniy tayyorgarligini doimiy nazorat qilish, natijalarni baholash va dasturlarni moslashtirish imkonini beruvchi tizim.

Innovatsion texnologiyalar. Zamonaviy uskunalar, interaktiv o'quv metodlari va ilg'or pedagogik yondashuvlar yordamida jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish.

Raqamli vositalar (fitnes texnologiyalari). Jismoniy faollikni nazorat qilish, mosh g'ulotlarni individuallashtirish va samaradorlikni oshirish uchun fitness qurilmalari va ilovalardan foydalanish.

Masofaviy metodlar (onlayn mosh g'ulotlar). Ta'lim jarayonini masofadan boshqarish, video darslar, interaktiv platformalar, modil ilovalar va onlayn monitoring orqali o'quv jarayonini samarali tashkil etish.

Sportga yo'naltirilgan model:

Morfo-funksional rivojlanish (sport dasturlari asosida). Sport dasturlari asosida talabalar tanasining morfologik (tuzilishi) va funksional (faoliyat) imkoniyatlarini rivojlantirish.

Sog'lom turmush tarzi targ'iboti. Talabalar orasida sog'lom hayot tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni muntazam amalga oshirish va salomatlikni saqlash madaniyatini rivojlantirish.

Xulosa. Oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya jarayoni talabalarni faqat jismoniy emas, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Kompleks pedagogik yondashuv orqali talabalar sog'lom turmush tarzini egallab, irodaviy sifatlar, muloqot ko'nikmalari, jamoada ishlash va stressga bardoshlilik kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradilar. Bu ularning kasbiy tayyorgarligini oshirib, hayotga puxta tayyorlanishiga imkon yaratadi.

Zamonaviy talabalar asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya jarayoni talabalarining sog'lom, mustaqil va barqaror shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani takomillashtirish, unga innovatsion yondashuvlarni joriy etish va uni boshqa ta'lim yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Aras L., Asma M. B. Farkli turdagi o'rta o'qitish korxonalariida okuyan o'qituvchilarning beden e'g'itimi va spor dersine yonelik tutumlarinin incelenmesi // Gaziantep Universitesi Spor Bilimleri Dergisi. – 2020. – T. 5, № 1. – C. 27-39. <https://doi.org/10.31680/gaunjss.685547>
2. Ashurova Y. D. Oliy ta'lim tizimida talabalarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarni qo'llash metodi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 2, № 12. – C. 1259-1264.
3. Banakh V., Iedynak G. Status and some prospects of the organization of physical education in higher education institutions // Pedagogy and Psychology of Sport. – 2021. – T. 7, № 2. – C. 114-121.
4. Dehtiarenko T. V., Yagotin R. S., Kodzhebash V. F. Physical fitness of modern students based on the results of psychophysiological diagnostics. – 2022.

5. Deveci A. The Importance of Physical Education and Sports in Education: A Study Focusing on Student Development // *Journal of Education and Recreation Patterns*. – 2023. – T. 4, № 2. – C. 704-722.
6. Dolgova N., Indyk P., Malygin A. Essential characteristics of modernization of physical education and sports in the higher education system // *Спортивный вестник Придніпров'я*. – 2018. – № 2. – C. 33-36.
7. Eley D., Kirk D. Developing citizenship through sport: The impact of a sport-based volunteer programme on young sport leaders // *Sport, Education and Society*. – 2002. – T. 7, № 2. – C. 151-...
8. Griban G. P. et al. Current state of students' health and its improvement in the process of physical education // *Wiadomości Lekarskie*. – 2020. – № 73 (7). – C. 1438-1447.
9. Havrylova N., Mokhunko O. Features of the formation of health care competence of higher education students in the process of physical education // *Науковий часопис Українського державного університету імені Михайла Драгоманова. Серія 15*. – 2025. – № 2 (187). – C. 232-235.
10. Islomov I. I. Talabalarga sport mosh g'ulotlarini o'tish metodikasini takomillashtirish (oliy ta'lim tizimi misolida) // *Inter Education & Global Study*. – 2024. – № 5. – C. 124-131.
11. Kamoliddin H. Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya, uning muammolari va ularni yechish yo'llari // *Inter Education & Global Study*. – 2024. – № 10. – C. 341-349.
12. Lutsenko I. et al. Features of organizing physical education for students in the conditions of distance learning // *SPORT TK-Revista EuroAmericana de Ciencias del Deporte*. – 2024. – T. 13. – C. 34-34.
13. Prontenko K. et al. Improvement of students' morpho-functional development and health in the process of sport-oriented physical education // *Wiadomości Lekarskie*. – 2020. – № 73 (1). – C. 161-168.
14. Rebryna A. A. et al. Applied value of modern fitness technologies in improving the health and physical development of students // *Wiadomosci lekarskie*. – 2024. – T. 77, № 6. – C. 1181-1187.
15. Shukurov R. S. Etnosport turlari vositasida talabalarni jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish (Turon kurashi misolida) // *Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal*. – 2025. – 5-son, may. – C. 169-173.
16. Shukurov R. S. Kurash mosh g'ulotlarida Turon yakkakurashini integratsiya qilish orqali talabalarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirish // *Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal*. – 2025. – 5-son, may. – C. 203-210.
17. Shukurov R. S. Talabalarni jismoniy tayyorgarligini turon yakkakurashi vositasida oshirish metodikasi // *Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning roli. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari*. – Buxoro, 2025 yil 14-15 mart. – C. 279-283.
18. Shukurov R. S. Talabalarda turon yakkakurashi vositasida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish: avtoref. dis..... p.f.f.d (PhD. 13.00.01) – Buxoro, 2022. – 24 b.
19. Турабоев Э. Ю., Султонов Р. У. Подготовка студентов к физической деятельности // *Проблемы науки*. – 2020. – № 1 (49). – C. 77.
20. Yıldız Ö., Deveci A., Yıldız M. Opinions of physical education teachers on national and cultural values gained through physical education and sports activities // *International Journal of Recreation and Sports Science*. – 2021. – T. 5, № 1. – C. 90-104.
21. Zhamardiy V. et al. Fitness technologies in the system of physical qualities development by young students. – 2020.

*Sharipov Doston Hasan o'g'li,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi*

HARBIY HAYDOVCHILAR KASBIY TAYYORGARLIGINI TASHKILLASHTIRISHDAGI EVOLUTSION TARIXIY TAJRIBALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy haydovchilar kasbiy tayyorgarligini tashkil etishda yuzaga kelgan evolutsion tarixiy tajribalar tahlil qilinadi. Harbiy transport vositalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida haydovchilarni tayyorlash tizimi bosqichma-bosqich takomillashib borgan. Maqolada XX asr boshlaridan boshlab zamonaviy davrgacha bo'lgan bosqichlarda harbiy haydovchilarni o'qitish metodlari, dasturlar va texnologik yondashuvlar ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar hamda O'zbekistonda qo'llanilayotgan usullar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari harbiy haydovchilar tayyorgarligi jarayonida tarixiy meros va tajribalardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: harbiy haydovchilar, kasbiy tayyorgarlik, evolutsion taraqqiyot, tarixiy tajriba, o'quv-metodik tizim, transport vositalari, harbiy ta'lim.

Аннотация. В статье анализируется эволюционный исторический опыт организации профессиональной подготовки военных водителей. В процессе становления и развития военной автомобильной техники система подготовки водителей постепенно совершенствовалась. В статье на научной основе рассматриваются методы, программы и технологические подходы к подготовке военных водителей с начала XX века до наших дней. Также проводится сравнительный анализ передового зарубежного опыта и методик, применяемых в Узбекистане. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости эффективного использования исторического наследия и опыта в процессе подготовки военных водителей.

Ключевые слова: военные водители, профессиональная подготовка, эволюционное развитие, исторический опыт, учебно-методическая система, транспортные средства, военное образование.

Abstract. This article analyzes the evolutionary historical experiences that have arisen in the organization of professional training of military drivers. In the process of the emergence and development of military vehicles, the driver training system has gradually improved. The article examines the methods, programs and technological approaches to training military drivers from the beginning of the 20th century to the modern era on a scientific basis. It also provides a comparative analysis of advanced foreign experiences and methods used in Uzbekistan. The results of the study indicate the need for effective use of historical heritage and experience in the process of training military drivers.

Key words: military drivers, professional training, evolutionary development, historical experience, educational and methodological system, vehicles, military education.

Kirish. Harbiy harakatlar, logistika, evakuatsiya, tashish, mobilizatsiya kabi vazifalarning o'z vaqtida bajarilishi ko'p jihatdan harbiy haydovchilarning malakasi va tayyorgarligiga bog'liqdir. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Biz armiyani moddiy, zamonaviy texnika, qurol-yarog' bilan ta'minlaymiz. Biroq shaxsiy tarkibning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligiga yyetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Jismoniy va jangovar tayyorgarligini tekshirish uchun asoslar mavjud. Xuddi shunday, askarlarning yuksak ma'naviyatini, psixologik barqarorligini ta'minlash borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilishi kerak"[1] - deya qoygan vazifalari dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu bois, mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlashda harbiy haydovchilarni kasbiy tayyorlash masalasi alohida e'tiborga loyiqdir. Harbiy haydovchilar zamonaviy xavf-xatarlar

va tahdidlar sharoitida nafaqat harbiy texnikani boshqarish, balki favqulodda va ekstremal vaziyatlarda tezkor, ishonchli va xavfsiz harakat qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur. Ayniqsa, tabiiy ofatlar, terroristik tahdidlar, ommaviy tartibsizliklar yoki qurolli to'qnashuvlar paytida harbiy haydovchilarning roli jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi[2].

Ma'lumki, tarixan shakllangan davrlarda harbiy haydovchilarning kasbiy tayyorgarligida asosiy vositalar turli shakllarda o'ziga xos holatda o'zgarib kelgan. Ilk davlatchilik tashkil etilib, xavfsizlik va tinchlikni ta'minlashda zarur bo'lgan qo'shinlar tuzilishida otlar, aravalar, kemalar va boshqa qo'lbola tashish uchun zarur uskunalar harbiy sohada qo'llanilgan. Aynan harbiy haydovchilarning tarixan ko'rinishi otliq jangchi qiyofasida ko'proq namoyon bo'lganligi tarixiy manbalar va badiiy asarlarda ifodalangan.

NATO (North Atlantic Treaty Organization - Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti) tashkil topgan 1949-yildan boshlab o'z a'zo davlatlari armiyalarining o'zaro hamkorligini ta'minlash va standartlashtirish maqsadida harbiy tayyorgarlik, jumladan, harbiy haydovchilarni kasbiy tayyorlash tizimini rivojlantirishga kirishgan. 1949-yilda NATO tashkil topganidan so'ng, harbiy kuchlarning muvofiq faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida STANAG (Standardization Agreement) - ya'ni standartlashtirish bitimlari qabul qilindi. Harbiy haydovchilarga qoyilgan talablar aniqlashtirildi, uning ichida transport vositalarini (tanklar, yuk moshinalari, harbiy yordam texnikasi) boshqarish bo'yicha tayyorgarlik, texnika xizmatini bilish va jang maydonida harakat qilish qobiliyati kiritildi. Bu davrda asosiy o'rgatish metodlari Ikkinchi jahon urushi tajribasiga asoslangan edi.

1960–1989-yillarda, ya'ni Sovuq urush davrida harbiy haydovchilar tayyorgarligi yuqori darajada avtomatlashtirilgan va simulyatsiyaga asoslangan mosh g'ulotlar bilan boyitildi. NATO tomonidan Joint Training and Evaluation Centre (JTEC) va boshqa markazlar orqali haydovchilar uchun maxsus simulyatorlar joriy etildi. NATO Training Group - Land Forces doirasida haydovchilarni o'qitish bo'yicha qo'shma dasturlar tashkil qilindi.

O'zbekiston sobiq SSR paytida harbiy tayyorgarlik, jumladan, haydovchilarning tayyorlanishi Sovet armiyasi tizimi doirasida amalga oshirilgan. 1927-yilda tashkil etilgan DOSAAF (Dobrovolnoe obhestvo sodeystviya armii, aviatsii i flotu) tashkiloti yoshlarni texnik kasblarga, xususan, haydovchilikka tayyorlashda muhim rol o'ynagan. 1980-yillarda esa texnik rivojlanish bilan birga, harbiy texnikani boshqarish bo'yicha malaka va intizom talablari keskin oshgan. Toshkent, Samarqand, Farg'ona va boshqa shaharlarda harbiy texnika va haydovchilik bo'yicha tayyorlov markazlari faoliyat yuritgan. Sovet armiyasining texnik yuksalishi natijasida 1970–80-yillarda harbiy transport vositalarini boshqarishda yuqori darajadagi mexanik bilim va intizom talab etilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy armiya shakllantirildi. Bu davrdan boshlab, harbiy haydovchilarni tayyorlash bo'yicha mahalliy model yaratildi. 1992-yilda Mudofaa vazirligi tarkibida transport bo'linmalarining kasbiy tayyorgarligi uchun o'quv dasturlari ishlab chiqildi.

2000-yillarda esa harbiy ta'lim muassasalarida kompyuterlashtirilgan trenajyorlar asosida o'quv mosh g'ulotlari yo'lga qo'yildi.

1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasida harbiy logistika tizimini rivojlantirish va transport harakatining muvofiqligini ta'minlash strategik vazifa sifatida belgilangan. Bu holat harbiy transport vositalarini boshqaruvchilarning (haydovchilarning) kasbiy tayyorgarligini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilaydi.

O'zbekiston Prezidentning 2017-yil 26-dekabrda PQ-3439-sonli qaroriga muvofiq, harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi. Bu islohotlar doirasida harbiy haydovchilarning o'quv dasturlari ham takomillashtirildi. Bundan tashqari, texnikumlar va kasb-hunar maktablarida harbiy transport vositalarini boshqarishga ixtisoslashgan kurslar ochildi.

Adabiyotlar tahlili. Harbiy haydovchilar kasbiy tayyorgarligini tashkil etish masalasi turli davrlarda ko'plab olimlar va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning ilmiy qarashlari ushbu sohaning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. XX asr boshlarida, xususan, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davrida harbiy transport vositalarining keng qo'llanilishi haydovchilarni tezkor va samarali tayyorlashga ehtiyojni kuchaytirdi. Ushbu davrda sobiq ittifoq olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy-uslubiy ishlanmalar harbiy avtomobil maktablari faoliyatini tashkil etishda katta rol o'ynadi. Masalan, A.N. Baranov, V.P. Sidorov va Yu.P. Ivanovlarning tadqiqotlari haydovchilarni o'qitish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lsa, P.K. Anoxin va N.A. Leontyev inson faoliyatining psixologik mexanizmlarini tahlil qilib, haydovchilik faoliyatining kognitiv asoslarini ochib bergan. Shuningdek, V.A. Bodrov tomonidan ekstremal sharoitlarda haydovchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar ushbu yo'nalishdagi ilmiy ishlanmalar qatorini boyitdi.

Xorijiy mamlakatlarda ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, AQSh olimlari D.Schneider va R.Kaplan harbiy transport logistikasi hamda xavfsiz boshqaruv bo'yicha tadqiqotlar olib borgan, nemis tadqiqotchisi K.Meier esa ekstremal sharoitlarda transport boshqaruvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan. Buyuk Britaniya olimi J. Anderson esa jangovar sharoitda haydovchilarning stressga bardoshlilik va psixologik barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ilgari surgan. Ushbu tadqiqotlar xalqaro tajribada harbiy haydovchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga salmoqli hissa qo'shgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Qurolli Kuchlar tizimida kadrlar, jumladan, harbiy haydovchilarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur jarayonda o'zbek olimlarining ilmiy izlanishlari ham muhim o'rin tutadi. Sh.G'. G'ulomov harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash masalalarini o'rgangan, M. S. Yusupov esa harbiy kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik asoslarini tahlil qilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Mudofaa vazirligi huzuridagi oliy harbiy ta'lim muassasalarida yaratilgan o'quv-metodik qo'llanmalar haydovchilarni tayyorlash jarayonida qo'llanilib kelmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda ushbu sohaga oid ilmiy maqolalar va metodik tavsiyalar yaratilmoqda, bunda zamonaviy texnika, simulyatsion trenajyorlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, xalqaro standartlarga mos dasturlarni tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, mavjud adabiyotlarda harbiy haydovchilar tayyorgarligiga oid nazariy va amaliy ishlanmalar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyati umumiy harbiy ta'lim, transport logistikasi yoki psixologik tayyorgarlik masalalariga qaratilgan. Aynan harbiy haydovchilar kasbiy tayyorgarligining evolutsion tarixiy tajribalarini tizimli va qiyosiy tahlil qilish masalasi esa yetarli darajada chuqur tadqiq qilinmagan. Shu bois, ushbu mavzuning ilmiy dolzarbligi saqlanib qolmoqda va kelgusida yanada keng qamrovli izlanishlarni talab etadi.

Natijalar. Harbiy haydovchilar kasbiy tayyorgarligi samaradorligini baholashda statistik tahlillar asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida so'nggi 30 yil ichida O'zbekiston Qurolli Kuchlarida tashkil etilgan harbiy avtomobil bo'linmalari va ularning o'quv jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar umumlashtirildi. Shuningdek, xorijiy davlatlarning tajribasi qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

1. O'zbekiston bo'yicha ma'lumotlar (1995–2025 yillar):

- Harbiy avtomobil maktablarida tayyorlangan haydovchilar soni o'rtacha yiliga 800–1200 kishini tashkil etgan.
- 2000-yillar boshida o'quv dasturlarining 65 % nazariy mosh g'ulotlardan iborat bo'lsa, 2020-yillarga kelib amaliy mosh g'ulotlar ulushi 55 % gacha oshirilgan.
- Simulyatorlardan foydalanish darajasi 2010 yilda 12 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 68 % ga yetgan.

– O'quvchilarning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasi (nazariy va amaliy imtihon natijalari bo'yicha) o'rtacha 2000 yilda 72 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilda 89 % ga yetgan.

2. Xorijiy tajriba qiyosiy tahlili:

– AQSh va Germaniya tajribasida amaliy mosh g'ulotlar ulushi 70–75 % ni tashkil etadi, bu esa haydovchilarning jangovar sharoitlarda tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.


– Stressga chidamlilik bo'yicha maxsus psixologik testlardan o'tgan harbiy haydovchilar soni AQShda 92 %, Buyuk Britaniyada 87 %, Germaniyada esa 90 % ni tashkil etgan. O'zbekiston tajribasida esa bu ko'rsatkich 2023 yilgi ma'lumotlarga ko'ra 64 % atrofida bo'lgan.

3. Empirik natijalar:


– So'rovnoma asosida 150 nafar harbiy haydovchilar orasida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki: 78 % respondentlar simulyatorlardan foydalanish mosh g'ulotlarni ancha samarali qilganini qayd etgan, 15 % neytral fikr bildirgan, 7 % esa amaliy sharoitni yetarli darajada bera olmaydi deb hisoblagan.

– 65 % haydovchilar jangovar sharoitga yaqinlashtirilgan amaliy mosh g'ulotlarni eng samarali usul sifatida e'tirof etgan, 21 % nazariy bilimlarning ko'pligidan shikoyat qilgan, 14 % esa o'quv-metodik ta'minotning zamonaviy texnika bilan to'liq uyg'unlashmaganini ta'kidlagan.

1-diagramma



2-diagramma



Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda harbiy haydovchilarni tayyorlash tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada modernizatsiya qilingan bo'lsa-da, xalqaro tajriba bilan solishtirganda hali ham psixologik tayyorgarlik, stressga bardoshlilik va jangovar sharoitga maksimal yaqinlashtirilgan mosh g'ulotlar darajasida ayrim kamchiliklar mavjud. Bu esa kelgusida tayyorgarlik jarayonini yanada takomillashtirishni talab etadi.

Muhokama. Miloddan avvalgi IX asrdan m.a. III asrgacha bo'lgan davrda saklar, skiflar va massagetlar qabilasida otliq jangchilarning ilk namunasi ishlab chiqilgan edi[3]. Unga ko'ra, ortda yurish va yugurishdan farqli o'laroq, bu xalqlar ot ustidan kamondan otish, nayza urish va yuguroq manyovrlar bilan mosh hur bo'lganlar. Otliq jangchilarni tayyorgarlik usullarida bolaligidan otga o'rgatilishi, kamon, nayza va qilich bilan mosh q qilish turmush tarziga aylanganligi, otlarni parvarishlash va urushdagi strategiyaga ko'niktirish muhim bo'lganligini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu davrlardagi otliq jangchilar tayyorgarligi haqida asosiy yo'nalishlar quyidagilar hisoblanadi:

- otni boshqarish va qo'llash madaniyati - saklar va skiflar dunyoda birinchi bo'lib otlarni harbiy maqsadda ommaviy ravishda foydalangan xalqlardan biri hisoblanadi[4]. Ular ot ustidan uqubat bilan boshqarish, yo'nalishni o'zgartirish, ot ustida turib qurollanish va jang qilishni bolalikdan o'rgatishgan. Ot ustidan o'q uzish (yurishdagi kamondan otish) texnikasi ularda yuqori darajada rivojlangan edi.

- qurol-aslaha va himoya vositalari - otliq jangchilarda metall yoki ko'pqavatli teridan tayyorlangan zirhlar, bosh kiyim (shlem), nayza, qisqa qilich (akinak), kamon va o'q bo'lgan. Ularning qurollari engil, lekin ta'sirchan bo'lgan. Bu ularga tez harakat qilish, hujum va chekinishda ustunlik berardi.

- jangchi tarbiyasi va jismoniy tayyorgarlik - bolalar juda yoshligidan ot minish, ov qilish va kurash kabi faoliyatlarga jalb etilgan. Har bir erkak harbiy san'atda etuk bo'lishi shart edi[5]. Otliq jangchilar hayoti ko'chmanchi turmush bilan chambarchas bog'liq bo'lgan – bu ularni chidamli, mustahkam va tezkor qilgan[6].

- jang strategiyasi va jamoaviy harakat - sak va skif jangchilari ko'chmanchi strategiyani qo'llashgan: hujum qilib, tez chekinish; dushmani charchatib, so'ng bosimni oshirish. Otiqlar kichik guruhlarda, uyg'unlashgan holda harakat qilgan[7] – bu ularning manyovrali va yuqori intizomli bo'lishini ta'minlagan.

- jismoniy tayyorgarlik: massagetlarda bolalikdan boshlab jismoniy chiniqtirishga katta e'tibor qaratilgan. O'g'il bolalar 5–6 yoshdan boshlab ot minishga, kamon otishga va nayza bilan ishlashga o'rgatiladigan bo'lgan. Ularning jangchilarga xos jasorat va chidamlilikni

rivojlantirish uchun tez yugurish, og'ir narsalar ko'tarish, tog' va sahrolarda harakat qilish moshqlari o'tkazilgan.

- jang taktikasi va qo'mondonlik: jangda manyovra qilish, tuzoqqa tortish, hujumdan so'ng tez chekinish kabi usullardan keng foydalanishgan. Ularda tabiiy sharoitdan (cho'l, tog', sazgoh) foydalanib dushmanni o'jizlashtirish taktikasi ham an'anaviy bo'lgan[8]. Har bir jangchi mustaqil harakat qilishga o'rgatilgan, ammo jamoaviy intizom ham yuqori darajada saqlangan.

- ruhiy va ma'naviy tayyorgarlik: vatanparvarlik, jangda halok bo'lish orqali sharafiga erishish tushunchasi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ularning madaniyatida jasorat, jasurlik va mardlik qadriyat sifatida singdirilgan. Urf-odatlar orqali jangchi falsafasi, fidokorlik va qat'iyat ruhida tarbiyalanganlar.

IV–XII asrlarda Vizantiya armiyasida kavaleriya muhim rol oynagan. E'tiborlisi, "katapraxti" (Cataphractarii) nomli zirhli otliq jangchilar tuzilgan. Scholae Palatinae - imperator gvardiyasi uchun maxsus tayyorgarlik otryadlari markazlashgan ta'lim tizimi hisoblangan bo'lib, ot ustidan nayza bilan hujum qilish, otli otryadlar o'rtasida taktik hujumlar va himoya sxemalari asosiy jang uslubi hisoblangan. Jangchilarning o'zi ham, oti ham zirhlangan bo'lgan (katapraxti uslubi).

Islom davlatlari tarixida otliq jangchilarning tayyorgarligi arablar va saljuqlar davrida harbiy san'atning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Bu tayyorgarlik nafaqat jismoniy moshqlar, balki diniy-ma'naviy tarbiya, taktik usullar va harbiy qo'mondonlik salohiyatini qamrab olgan.

Dastlabki asrlarda (m. VII-VIII asrlar) islomning xalifalik hududi jadal kengaydi. Bu davrda otliq qo'shinlar (badaviy) harbiy harakatlarning asosiy kuchini tashkil qilgan. Ushbu otliq qo'shnlarni tayyorlashda quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan: jismoniy tayyorgarlik bo'yicha jangchilarni yoshlikdan o'tminish, nayza va qilich bilan murojaat qilish o'rgatilgan; otliq jangchilar jangda mustaqil qaror qabul qilish va qo'mondonga bo'sunuvchanlikka o'rgatilib harbiy intizom mustahkamlangan; jihad g'oyasi va qur'oniylar ta'limotlar jangchilarning motivatsiyasini shakllantirgan holda diniy-ma'naviy tayyorgarlik amalga oshirilgan; tezkor harakat, chaqmoqdek hujum va tez tarqalish (hit-and-run) taktikalari asosida taktik tayyorgarlik shakllantirilgan.

Saljuqlar XI asrda Eron va Iroq hududlarida xalifalik ustidan nazoratni qo'lga kiritgan turkiylar sulola bo'lib, harbiy tizimning asosiy kuchi – ko'chmanchi otliqlar bo'lgan. Otliqlarga bolalikdan o'tminish va kamon otish asosiy mahorat sifatida o'rgatilgan; Nizomiy madrasalarida harbiy fanlar bilan birga aqida va huquq o'rgatilgan; otliqlar kichik guruhlarda mustaqil harakat qilardi, bu ularni manyovrali va yopiq jangda samarali qilgan; jangchilar yer bilan ta'minlangan va shuning evaziga harbiy xizmat qilgan.

X asrdan boshlab Yevropada feodalizmning rivojlanishi bilan birga ritsarlik instituti ham vujudga keldi. Bu institut nafaqat jang san'atiga ixtisoslashgan jangchilar sinfini, balki muayyan axloqiy va ijtimoiy kodeksga ega bo'lgan tabaqani ham o'z ichiga oldi. Ritsarlar asosan otliq jangchilar sifatida tayyorlangan va ular jang maydonida hal qiluvchi kuch hisoblangan.

Ritsarlikka uch bosqichda tayyorgarlik ishlari olib borilgan:

Birinchi bosqich - yigit (Page) (7–14 yosh). Bu bosqichda bola oilasidan ajratilib, boshqa bir ritsar yoki amaldador huzurida tarbiyalanardi. U yerda bola odob-axloq, xizmat qilish, o'tminish va oddiy qilichbozlik asoslarini o'rganardi.

Ikkinchi bosqich - yordamchi (Squire) (14–21 yosh). Yosh yigit ritsarga shaxsiy yordamchi sifatida xizmat qilardi. U jangda hojatxona, qurol-aslaha, otlarni tayyorlash, qo'l urish va jangovar tayyorgarlik moshqlarini bajarardi.

Uchinchi bosqich - ritsarlikka qabul qilish (Knighting Ceremony). 21 yoshga yaqin bo'lgan yosh yigit jangda jasurlik ko'rsatsa yoki o'z vazifasini mukammal bajarsa, u maxsus diniy va rasmiy marosim orqali ritsarlikka qabul qilinardi.

Ritsarlar jismoniy va jangovar tayyorgarlikning turli shakllari orqali tayyorlangan:

- ot minish: ritsarning asosiy ko'nikmasi. U turli holatlarda – hujumda, choparlikda, jang vaqtida - ot ustida harakatlanishni o'rganardi.
- qurollar bilan ishlash: qilich, nayza, qalqon, bolta, arqon va boshqa qurollar bilan uzluksiz mosh qlar olib borilardi.
- turnirlar: turnirlar ritsarlar uchun tayyorgarlikning ahamiyatli qismi edi. Ular real jang sharoitini takrorlash va mahoratni oshirishga qaratilgan edi.

X–XV asrlarda Yevropadagi ritsarlar juda qat'iy va bosqichma-bosqich tayyorgarlik tizimi orqali shakllangan otliq jangchilar hisoblanadi. Ular jismoniy, jangovar va ma'naviy jihatdan puxta tayyorlangan, turnirlar va tajriba orqali mahorat oshirgan, feodal tuzumning asosiy harbiy kuchini tashkil etgan.

Temuriylar (XIV–XV asrlar) va Boburiylar (XVI–XVIII asrlar) davrida otliq jangchilar Markaziy va Janubiy Osiyoda harbiy kuchning asosiy tirgaklaridan biri hisoblangan. Bu davrda harbiy ishga katta e'tibor berilgan bo'lib, ayniqsa otliqlar jang san'atining markazida turgan. Ular nafaqat jismoniy jihatdan, balki harbiy strategiya va taktika jihatidan ham puxta tayyorlanganlar.

Temuriylar sulolasi asoschisi Amir Temur (1336–1405) o'zining «Temur tuzuklari» asarida harbiy tizimni aniq tartib va intizomga asoslangan holda tashkil etgan. Otliq jangchilar maxsus tarbiya va mosh qlar orqali tayyorlangan. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga olgan:

1. Yoshlikdan tarbiya. Otliqlar ko'pincha yoshlikdan boshlab harbiy ishga jalb qilingan. Ularga ot minish, kamondan o'q otish, nayza va qilich bilan ishlash kabi mosh qlar o'rgatilgan.

2. Kundalik mosh qlar. Temur qo'shnida harbiy mosh qlar muntazam o'tkazilgan. Masalan, otda yugurish, jang qilib yurish, otdan tushmay turib hujum qilish - eng muhim ko'nikmalardan hisoblangan.

3. Harbiy intizom. Har bir jangchi qat'iy tartib va itoatkorlikka o'rgatilgan. «Temur tuzuklari»da aytilganidek, jangda har bir kishi o'z vazifasini aniq bilishi va hech bir holda o'zboshimchalik qilmasligi shart bo'lgan.

4. Katta hujum oldidan psixologik tayyorgarlik. Harbiylar ruhiy jihatdan ham tayyorlangan, ularga dasturiy ravishda ilhomlantiruvchi nutqlar, qasamlar, marsiyalar orqali motivatsiya berilgan.

Amir Temur (1336–1405) o'z davrida faqat yuksak siyosiy va harbiy iste'dodi bilan emas, balki otliq jang san'atidagi mahorat va novatorlik yondashuvi bilan ham ajralib turdi. Uning harbiy muvaffaqiyatlarining asosi mukammal tashkil etilgan otliq qo'shinlarga tayanilgan. Amir Temur o'zining shaxsiy mahorati va mosh qlari orqali juda yoshligidan otda yurish va jangda qatnashish bo'yicha yuqori ko'nikmalarga ega bo'lgan. U bu boradagi bilim va malakasini Samarqand, Qashqadaryo va Turkiston atroflaridagi harbiy otlar foydalaniladigan makonlarda oshirgani manbalarda qayd etilgan.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, harbiy haydovchilar kasbiy tayyorgarligini tashkil etish jarayoni tarixiy taraqqiyot davomida bosqichma-bosqich takomillashib kelgan. XX asr boshida asosan amaliy tajriba va oddiy metodlarga asoslangan tayyorgarlik tizimi keyingi davrlarda ilmiy-uslubiy ishlanmalar, psixologik tayyorgarlik va texnik ta'minot bilan boyitildi. Sobiq ittifoq davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar mazkur sohaga asos bo'lib xizmat qilgan, xorijiy tajriba esa transport logistikasi, stressga bardoshlilik va simulyatsion mosh g'ulotlar orqali samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, harbiy haydovchilarni tayyorlash tizimida modernizatsiya jarayonlari amalga oshirildi. Statistik tahlillar natijalariga ko'ra, so'nggi yillarda amaliy mosh g'ulotlar ulushi ortib borgan, simulyatorlardan foydalanish kengaygan va o'quv dasturini o'zlashtirish darajasi sezilarli ravishda oshgan. Shu bilan birga, xalqaro tajriba bilan solishtirganda psixologik tayyorgarlik, stressga chidamlilik va jangovar sharoitga yaqinlashtirilgan mosh g'ulotlar bo'yicha ayrim kamchiliklar mavjudligi aniqlangan.

Umuman olganda, mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillar va statistik ma'lumotlar shuni anglatadiki, harbiy haydovchilar kasbiy tayyorgarligida evolutsion tarixiy tajribalarni chuqur o'rganish va ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Kelgusida tayyorgarlik jarayonini takomillashtirish uchun xalqaro ilg'or tajribalarni joriy etish, psixologik treninglarni kengaytirish hamda zamonaviy texnik vositalardan foydalanishni yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shavkat Mirziyoyev askarlarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligiga e'tibor qaratdi. - https://president.uz/en/lists/view/1746?utm_source=chatgpt.com
2. Axmedov, J.J. (2021). Ekstremal vaziyatlarda harbiy haydovchilarning kasbiy tayyorgarligi masalalari. - Toshkent: Mudofaa nashriyoti.
3. Akramova Sh.A. Harbiy pedagogika. – Toshkent: HTI, 2019 y. 359b.
4. Бичурин Н.Я. Сведения о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена, Москва, 1950.
5. Herodotus. Histories, Book IV - "Melpomene", translated by Aubrey de Sélincourt.
6. Askar Alisherov. Saklar va ularning harbiy madaniyati. // "Tarix va haqiqat", №2, 2021.
7. Encyclopaedia Iranica, entries on "Scythians" and "Saka"
8. Narshaxiy. Buxoro tarixi - Markaziy Osiyo xalqlarining harbiy an'analari haqida ma'lumotlar.
9. Amir Temur. Temur tuzuklari. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991.
10. Bartold V.V. Turkiston arab istilosigacha va so'ng. Toshkent: Fan, 1996. Barber, R. (1989).
11. NATO Allied Joint Doctrine for Land Operations (AJP-3.2). NATO Publications, 2019.

Beknazarova Feruza Sobir qizi,
Navoiy davlat universiteti "Pedagogika nazariyasi
va tarixi" mutaxassisligi magistranti

O'QUVCHILARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN O'QUV JARAYONINI LOYIHALASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini loyihalashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Xalqaro tajribalar va O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, integrativ, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda kompleks yondashuvning samaradorligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kompleks rivojlanish; o'quv jarayonini loyihalash; kompetensiyaviy yondashuv; shaxsga yo'naltirilgan ta'lim; fanlararo integratsiya; innovatsion pedagogik texnologiyalar; ta'lim sifati.

Аннотация. В данной статье раскрыты теоретические и практические основы проектирования учебного процесса, направленного на комплексное развитие учащихся. Проанализирован международный опыт и реформы, проводимые в системе образования Узбекистана, обоснована значимость интегративного, компетентностного и личностно-ориентированного подходов. Результаты исследования показали эффективность комплексного подхода в обеспечении интеллектуального, духовного и социального развития учащихся.

Ключевые слова: комплексное развитие; проектирование учебного процесса; компетентностный подход; личностно-ориентированное обучение; междисциплинарная интеграция; инновационные педагогические технологии; качество образования.

Abstract. This article explores the theoretical and practical foundations of designing the educational process aimed at the holistic development of students. It analyzes international experiences and the reforms implemented in the education system of Uzbekistan, highlighting the importance of integrative, competence-based, and learner-centered approaches. The research results demonstrate the effectiveness of a holistic approach in ensuring the intellectual, spiritual, and social development of students.

Key words: holistic development; educational process design; competence-based approach; learner-centered education; interdisciplinary integration; innovative pedagogical technologies; quality of education.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim-tarbiya tizimi oldida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlash va zamonaviy kompetensiyalar bilan qurollantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro miqyosda ta'lim sifatini baholashda qo'llanilayotgan PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlar natijalari ham o'quvchilarning faqatgina nazariy bilimlarni egallashi emas, balki ularni amaliy hayotda qo'llay olish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish, kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatini namoyon etishi talab qilinishini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida, o'quv jarayonini integrativ va kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan holda loyihalashni taqozo etmoqda [12, 7-20].

Jahon pedagogik amaliyotida "holistik yondashuv" (holistic approach), "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" (learner-centered education), "kompetensiyaga asoslangan yondashuv" (competence-based approach) kabi konsepsiyalar keng joriy etilmoqda. Ular o'quvchilarni intellektual, ijtimoiy, ma'naviy, estetik va jismoniy jihatdan uyg'un shakllantirishni nazarda tutadi. Shu sababli, o'quv jarayonini faqat alohida fanlarni o'zlashtirishga qaratish emas, balki

o'quvchilarda kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyat uchun zarur kompleks ko'nikmalarni shakllantirish bugungi kun talabi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil yangi tahriri), 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, shuningdek, Prezident farmon va qarorlarida ta'lim sifatini oshirish, innovatsion metodlarni joriy etish, o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni tarbiyalash ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berilgan[1]. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning kompleks rivojlanishini ta'minlovchi o'quv jarayonini loyihalash mamlakatimizda ham nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy-pedagogik masalaga aylanmoqda.

Demak, mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u nafaqat xalqaro miqyosda ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirishda, balki O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. O'quvchilarni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini loyihalash masalasi xalqaro va milliy miqyosda ko'plab tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Avvalo, jahon pedagogikasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va holistik yondashuv konsepsiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etish nazariy jihatdan asoslab berilgan. Masalan, J. Dewey, M. Montessori, J. Piaget, L. S. Vigotskiy kabi olimlarning ilmiy merosida ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining ijtimoiy, aqliy va psixologik rivojlanishini bir butun jarayon sifatida ko'rish g'oyalari ilgari surilgan. Ayniqsa, Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi o'quvchilarning rivojlanishini ta'minlashda hamkorlik, qo'llab-quvvatlash va shaxsiy imkoniyatlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi[7, 154-210].

XX asr oxiridan boshlab ta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuv keng joriy etila boshladi. Xalqaro miqyosda E. Boyatzis, R. White, D. McClellandlarning ishlari kompetensiyalarni kasbiy va shaxsiy muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida asoslab berdi[8, 55-84]. Shu bilan birga, UNESCO va OECD tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda o'quvchilarni ijodkorlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish, muloqot qilish va hamkorlikda ishlash kabi universal ko'nikmalar bilan ta'minlash zarurligi alohida qayd etilgan.

O'zbekiston olimlari ham bu masalani o'z tadqiqotlarida chuqur o'rganganlar. Jumladan, A.Avliyoqulov, N.Sayidahmedov, M.Ochilov, O.Tolipov, Sh.Abdullaeva, D.Nazarova kabi pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida ta'lim jarayonida integrativ yondashuv, innovatsion metodlardan foydalanish, shaxsiy yondashuv va kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari keng tahlil qilingan. Ularning ilmiy ishlari ta'lim sifatini oshirishda o'quvchilarning kompleks rivojlanishini ta'minlash samarador vosita ekanligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro miqyosda yaratilgan nazariy asoslar va O'zbekiston olimlarining ilmiy izlanishlari o'quvchilarni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini loyihalash muammosining dolzarbligini ta'minlaydi hamda uni ilmiy-pedagogik izlanishlar uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning kompleks rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv jarayonini loyihalashning nazariy va amaliy asoslari o'rganildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, xalqaro tajribalarda o'quv jarayonini loyihalashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv va holistik ta'lim g'oyalari yetakchi o'rin egallaydi. Bu yondashuvlar o'quvchining intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini yagona tizimda ko'rib chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham ana shu yo'nalishga uyg'un keladi. O'quv jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, ta'limning amaliy ahamiyatini kuchaytirish orqali o'quvchilarning kompleks rivojlanishiga zamin yaratilmoqda. Biroq amaliyotda mavjud bo'lgan ayrim kamchiliklar – o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi, o'quv

dasturlarida integrativ yondashuvning to'liq amalga oshirilmaganligi, baholash tizimining asosan bilimlarni o'zlashtirishga qaratilganligi – kutilgan natijalarni to'liq ta'minlamayapti.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan yondashuvlar shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonini loyihalashda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Fanlararo integratsiya – o'quvchilarda bilimlarni hayotiy faoliyat bilan bog'lash, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va individual rivojlanish sur'atini hisobga olishni taqozo etadi.

3. Kompetensiyaviy yondashuv – nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

4. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

5. Baholashning zamonaviy mexanizmlari – o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning ijodiy yondashuvi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va ijtimoiy ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi.

Olingan natijalar shuni tasdiqladiki, o'quv jarayonini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan holda loyihalash o'quvchilarning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini ham sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirish va jamiyatning zamonaviy talablariga javob beradigan barkamol shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan holda loyihalash zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biridir. Xalqaro tajriba va O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar shuni tasdiqlaydiki, o'quvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy, ijtimoiy va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish bugungi kunda eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, integrativ yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy va innovatsion metodlarning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi, ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiy yondashuv va hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Tadqiqotimiz natijalariga tayangan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. O'quv dasturlarini ishlab chiqishda fanlararo integratsiyaga asoslangan loyihalash tamoyillarini keng joriy etish.

2. O'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash bo'yicha malaka oshirish tizimini kuchaytirish.

3. Baholash jarayonida nafaqat bilim, balki o'quvchilarning ijodiy faoliyati, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash va kommunikativ ko'nikmalarini ham hisobga olish.

4. O'quv jarayonida interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash orqali o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshirish.

5. Ta'lim jarayoniga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy komponentlarni integratsiya qilish, bu orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash.

6. Amaliyotchi o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, innovatsion loyihalar va tajriba almosh ish platformalarini yaratish orqali o'quv jarayonini kompleks rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. White R. W. Motivation Reconsidered: The Concept of Competence // Psychological Review. – 1959. – Vol. 66, № 5. – P. 297–333.

2. McClelland D. C. Testing for competence rather than intelligence // American Psychologist. – 1973. – Vol. 28, № 1. – P. 1–14.
3. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO, 2017. – 62 p. (pp. 15–28).
4. OECD. The Future of Education and Skills: OECD Learning Compass 2030. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 46 p. (pp. 7–20).

Qarshiboyev Asliddin Akrom o'g'li,

Jizzax davlat pedagogika universiteti, 13.00.03 Maxsus pedagogika 1-bosqich tayanch
doktoranti

QarshiboyevAsliddin11@gmail.com

KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNING IJTIMOIIY HAYOTGA INTEGRATSIYASIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ko'zi ojiz o'quvchilarning ijtimoiy hayotga integratsiyasida kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati keng qamrovda tahlil qilingan. Kommunikativ kompetensiya shaxsning muloqotga kirishish, fikrni to'g'ri yetkazish, boshqalarni tinglash, ijtimoiy rollarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, ko'zi ojiz o'quvchilar uchun bu kompetensiya ijtimoiylashuv darajasini belgilovchi asosiy mezon sifatida qaraladi. Tadqiqotda L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya, G. Bruner kabi xorijiy olimlarning nazariyalari hamda R. Rashidova, N. Jo'rayeva va Z. To'xtayeva kabi mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Asosiy e'tibor maxsus darsliklar yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, inkluziv ta'limni kengaytirish, psixologik-pedagogik xizmatni kuchaytirish va ota-onalar bilan samarali hamkorlikka qaratilgan. Shu bilan birga, Isroil, Singapur va Yevropa davlatlarida qo'llanilayotgan ilg'or yondashuvlar O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslangan. Tadqiqotda ta'kidlanishicha, ko'zi ojiz o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish nafaqat ta'limiy muvaffaqiyatni, balki shaxsiy mustaqillik va jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishni ta'minlaydi. Xulosa sifatida, davlat, ta'lim muassasalari, oila va texnologik imkoniyatlarning uyg'unligi bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil ekani qayd etilgan.

Kalit so'zlar: ko'zi ojiz o'quvchilar, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy integratsiya, inkluziv ta'lim, tiflopedagogika, maxsus darslik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, psixologik-pedagogik xizmat, ota-onalar hamkorligi, mustaqil hayot ko'nikmalari.

Аннотация. В данной научной статье всесторонне анализируется значение коммуникативной компетентности в интеграции незрячих учащихся в социальную жизнь. Коммуникативная компетентность является важным фактором в процессе формирования у человека навыков общения, правильной передачи мыслей, слушания других и выполнения социальных ролей. Именно для незрячих учащихся эта компетентность рассматривается как основной критерий, определяющий уровень социализации. В исследовании анализируются теории зарубежных учёных, таких как Л.С. Выготский, А.Р. Лурия, Г. Брунер, а также научные труды отечественных исследователей, таких как Р. Рашидова, Н. Джораева и З. Тохтаева. Основное внимание уделяется созданию специальных учебников, использованию информационно-коммуникационных технологий, расширению инклюзивного образования, укреплению психолого-педагогической службы и эффективному взаимодействию с родителями. При этом передовые подходы, используемые в Израиле, Сингапуре и европейских странах, сравниваются с опытом Узбекистана. В исследовании подчёркивается, что развитие коммуникативной компетентности у незрячих учащихся обеспечивает не только образовательную успешность, но и личностную независимость, формирование активной личности в обществе. В заключение отмечается, что гармония государства, образовательных учреждений, семьи и технологических возможностей является основным фактором, определяющим успешность этого процесса.

Ключевые слова: незрячие учащиеся, коммуникативная компетентность, социальная интеграция, инклюзивное образование, тифлопедагогика, специальные учебники, информационно-коммуникационные технологии, психолого-педагогические услуги, сотрудничество родителей, навыки самостоятельной жизни.

Abstract. *This scientific article comprehensively analyzes the importance of communicative competence in the integration of blind students into social life. Communicative competence is an important factor in the process of forming a person's skills in communicating, correctly conveying thoughts, listening to others, and performing social roles. Especially for blind students, this competence is considered the main criterion determining the level of socialization. The study analyzes the theories of foreign scientists such as L.S. Vygotsky, A.R. Luria, G. Bruner, and the scientific works of local researchers such as R. Rashidova, N. Jorayeva, and Z. Tokhtaeva. The main attention is paid to the creation of special textbooks, the use of information and communication technologies, the expansion of inclusive education, the strengthening of psychological and pedagogical services, and effective cooperation with parents. At the same time, advanced approaches used in Israel, Singapore, and European countries are compared with the experience of Uzbekistan. The study emphasizes that the development of communicative competence in blind students ensures not only educational success, but also personal independence and the formation of an active individual in society. In conclusion, it is noted that the harmony of the state, educational institutions, family and technological capabilities is the main factor determining the success of this process.*

Key words: *blind students, communicative competence, social integration, inclusive education, typhlopedagogy, special textbooks, information and communication technologies, psychological and pedagogical services, parental cooperation, independent living skills.*

Kirish. Hozirgi davrda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri barcha toifadagi o'quvchilar, jumladan, nogironligi bo'lgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularni jamiyat hayotiga faol integratsiya qilishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, ko'zi ojiz o'quvchilarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi, o'z fikrini erkin ifoda etishi va turli kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri muloqot qila olish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kommunikativ kompetensiya nafaqat o'quv jarayonida muvaffaqiyat qozonish, balki shaxsning jamiyatga moslashuvi, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi va hayotiy faoliyatini samarali tashkil etishida ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'zi ojiz o'quvchilar uchun muloqot jarayoni ko'rish imkoniyatining cheklanganligi tufayli murakkabroq kechadi. Ular og'zaki nutq, tinglash, sezgi va boshqa kompensator imkoniyatlar orqali atrof-muhit bilan aloqada bo'ladilar. Shu bois, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maxsus pedagogik yondashuv, individual o'quv dasturlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim sanaladi. Bu jarayon o'quvchilarda ijtimoiylashuv mexanizmlarini rivojlantirish, jamoadagi faoliyatga qo'shilish va o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida ko'zi ojiz bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ikki asosiy vazifani bajaradi: birinchidan, ular o'rtasida samarali muloqotni ta'minlash; ikkinchidan, keng jamoatchilik bilan ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish. Buning uchun maxsus metodlar, masalan, Braille yozuvi, audio va elektron resurslardan foydalanish, guruhli mosh g'ulotlar, rolli o'yinlar, nutqni rivojlantiruvchi mosh qlar keng qo'llaniladi. Shuningdek, zamonaviy inkluziv ta'lim konsepsiyasi asosida ularni umumta'lim jarayoniga jalb etish, sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olish imkoniyatini yaratish ham kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi ko'zi ojiz o'quvchilarda nafaqat ta'limiy natijalarga, balki psixologik va ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir etadi. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, shaxsiy tashabbuslarini kuchaytiradi va kelajakda mustaqil hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy kapitalni shakllantiradi. Shu bois, ushbu mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish va amaliy yechimlar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda inklyuziv ta'limning rivojlanishi ko'zi ojiz o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy hayotga faol integratsiyasini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kommunikativ kompetensiya shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqotga kirishish, fikrini to'g'ri yetkazish, boshqalarni tinglash,

ijtimoiy rollarni bajarish qobiliyatini shakllantiradi. Ko'zi ojiz o'quvchilar uchun esa bu kompetensiya yanada dolzarb bo'lib, ularning ijtimoiylashuv darajasini belgilovchi mezon hisoblanadi. Maqolaning maqsadi shundaki, ko'zi ojiz o'quvchilarning ijtimoiy hayotga integratsiyasida kommunikativ kompetensiyaning o'rnini va ahamiyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni ko'rsatib, ularni hal etish bo'yicha metodologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Mazkur masala xalqaro va milliy miqyosda bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Quyidagi 1-jadvalda asosiy olimlar, ularning ilmiy izlanish mavzulari va mavzuga oid qisqacha ma'lumotlar keltirilgan:

1-jadval

T/r	Olimlar	Izlanish mavzusi	Qisqacha ma'lumot
1	L.S. Vygotskiy	Nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiy rivojlanishi nazariyasi	O'zining madaniy-tarixiy nazariyasi orqali bolalar rivojida ijtimoiy muhit va muloqotning rolini ochib bergan. Ko'zi ojiz o'quvchilarda ijtimoiylashuv jarayonida kommunikatsiyaning ahamiyatini ta'kidlagan.
2	A.R. Luriya	Psixolingvistika va nutq jarayonlari tadqiqi	Nutq faoliyatining psixologik va neyrofiziologik mexanizmlarini tadqiq qilgan. Ko'zi ojiz o'quvchilarda nutq va idrokning rivojlanishida maxsus metodlarning ahamiyatini ko'rsatib bergan.
3	G. Bruner	Kommunikativ rivojlanishda ijtimoiy tajribaning o'rnini	O'quvchilarning til va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda tajriba va ijtimoiy muhitning asosiy rolini ochib bergan.
4	R. Rashidova	Maxsus pedagogika nazariyalari	O'zbekistonda maxsus pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Ko'zi ojiz bolalar uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda hissa qo'shgan.
5	N. Jo'rayeva	Inkluziv ta'limning nazariy asoslari	Inkluziv ta'lim jarayonida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.
6	Z. To'xtayeva	Kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirish metodlari	O'zbekiston sharoitida ko'zi ojiz o'quvchilarning muloqotini rivojlantirish, interfaol metodlar va AKT vositalarini qo'llash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlarini e'tirof etgan holda maqolada quyidagi muammoni yechishga harakat qilamiz: Ko'zi ojiz o'quvchilar ta'lim jarayonida muloqotda qiynaladi, nutqni rivojlantirish, axborot olish va uni yetkazishda ko'plab to'siqlarga duch keladi. Shu bois kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishning samarali metodlari yillar davomida joriy qilinmagan.

Xulosa. Milliy tuyg'ularni shakllantirish bugungi ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, o'quvchilarning shaxsiyati va fuqarolik ongining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Tarbiyaviy faoliyatda milliylik tushunchasi faqat urf-odat yoki tarixni o'rganish bilangina cheklanmaydi, balki u shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy mezon sifatida qaraladi. Maktab o'quvchisi o'z millatining boy madaniy merosiga hurmat bilan qarashni o'rganar ekan, u asta-sekinlik bilan o'zini bu jamiyatning to'laqonli a'zosi deb his eta boshlaydi. Shu orqali u o'zining tarixiy ildizlariga, tiliga, qadriyatlariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Milliylik tushunchasining chuqur va samarali singdirilishi o'quvchining butun hayotiy pozitsiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda o'qituvchining o'rni beqiyos bo'lib, u bolaga nafaqat bilim, balki madaniy va axloqiy yo'nalish ham berishi lozim. Har bir pedagog shaxsiy namuna bo'lishi orqali milliy qadriyatlarga hurmatli munosabatni mustahkamlab boradi. Shu asosda aytish mumkinki, milliy tuyg'ularni shakllantirish tarbiya jarayonining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi har bir harakat o'quvchining ichki dunyosini boyitadi va uni Vatanga sodiq inson sifatida shakllantiradi.

Xulosa tarzida aytish joizki, milliy tuyg'ularni shakllantirish jarayoni uzviy va bosqichma-bosqich olib borilishi lozim bo'lgan murakkab pedagogik faoliyatdir. Bu jarayon bolalik davridan boshlanib, mustahkam psixologik asoslarga tayangan holda, dars va darsdan tashqari faoliyat orqali amalga oshirilishi kerak. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik holati va qiziqishlari inobatga olingan holda tuzilgan metodik ishlar yuqori samaradorlikka olib keladi. Milliy qadriyatlar bilan tanishtirishda bir tomonlama, quruq nazariy yondashuv emas, balki hayotiy misollar, milliy timsollar, qadimiy urf-odatlar orqali boyitilgan metodik yondashuv afzal bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, tanqidiy va ijodiy tafakkurga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalashda milliylik katta ahamiyatga ega. Milliy tarbiya ularga o'z xalqining g'ururini, erkinligini, tilini, madaniyatini qadrlash hissini singdiradi. Bu esa shaxsda mustahkam ijtimoiy pozitsiyani, mas'uliyat hissini va jamiyat oldidagi burchini anglashni kuchaytiradi. Har bir o'quvchi milliy identitet orqali o'ziga xoslikni his qilgan holda rivojlanadi. Natijada, tarbiya jarayoni shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Bugungi ta'lim muhitida milliy tarbiya masalasi faqat an'anaviy vositalar bilan cheklanib qolmasligi zarur. Raqamli texnologiyalar yordamida milliy madaniyatni yoshlar ongiga

singdirish imkoniyati kengaymoqda. Interaktiv darslar, vizual vositalar, audiovizual materiallar orqali o'quvchilar e'tiborini jalb qilish, ularni hissiy jihatdan jalb etish samaradorlikni oshiradi. Bu uslublar o'quvchilarni faollashtirib, ularni faqat tinglovchi emas, balki bilim va tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bunday yondashuv natijasida milliy g'urur, o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat kabi ijobiy hislar shakllanadi. Shuningdek, zamonaviy vositalar yordamida tarixiy voqealar, milliy qahramonlar hayoti va asarlari, xalq ijodi oson va tushunarli shaklda yetkaziladi. Bu esa bilim va tarbiya jarayonini jonli, mazmunli va qiziqarli qiladi. Innovatsion metodlar bilan boyitilgan milliy tarbiya darslari o'quvchilarning bilim darajasini ham, tarbiyaviy salohiyatini ham oshiradi. Shu bois, pedagog doimo o'z metodikasini takomillashtirib borishi, yangilikka ochiq bo'lishi lozim. Faqat shundagina milliy tarbiya zamonaviylik bilan uyg'unlashadi.

O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishda oila va mahalla bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar oilaviy muhitda davom ettirilmasa, ularning ta'siri qisqa muddatli bo'lib qoladi. Shu bois, o'qituvchi ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'lishi, ularni milliy tarbiya jarayoniga jalb qilishi muhim. Mahalliy tadbirlar, urf-odatlariga asoslangan yig'inlar, milliy bayramlarda oilaviy ishtirokchilik - bularning barchasi bolada mustahkam milliy ong va o'zlikni anglashni rivojlantiradi. O'quvchilar oilaviy va mahalla muhitida o'zlarini qulay his qilsalar, ular maktabdagi bilim va tarbiyaviy qadriyatlarni yanada chuqurroq o'zlashtiradilar. Mahalliy muhitda milliylik ruhining saqlanishi yosh avlodda mustahkam ijtimoiy va axloqiy asosni yaratadi. Tarbiya faqat maktab devorlari ichida emas, balki atrofdagi hayotda ham davom etishi kerak. Shu jihatdan qaralganda, o'quvchilarni milliy tarbiyalashda keng ijtimoiy hamkorlik muhim poydevor hisoblanadi. Har bir ota-ona, mahalla faoli, ustoz o'z o'rnida milliylikni saqlovchi bo'lishi kerak.

Milliy tarbiyaning samarali natijasi o'quvchining shaxsiy hayotida, qarorlarida, xatti-harakatlarida yaqqol aks etadi. Bu jarayon o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki uzluksiz, tizimli va maqsadli ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi. Shaxsda milliy g'urur, tarixiy xotira va Vatanga sadoqat tuyg'ulari paydo bo'lganida, u o'z xalqining manfaatlarini himoya qilishga tayyor bo'ladi. Milliylik shaxsda mustaqil fikrlashni, mas'uliyatni, ongli tanlov qilishni shakllantiradi. Tarbiyaviy faoliyat shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, o'quvchi nafaqat darslarda, balki hayotda ham milliy qadriyatlarga asoslangan holda harakat qilsin. Har bir pedagog ushbu vazifani anglagan holda ishlasa, natija o'zini uzoq kuttirmaydi. Milliy tarbiya orqali o'quvchi kuchli, intellektual, ruhiy jihatdan bardavom va axloqiy shaxs sifatida shakllanadi. Bunday shaxs jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning tayanchiga aylanadi. Shuning uchun milliy tuyg'ularni shakllantirish nafaqat tarbiya masalasi, balki millat istiqboli uchun muhim yo'nalishdir.

Milliy tuyg'ularni shakllantirishda erishilgan natijalarni saqlab qolish va rivojlantirish ham o'ta muhim bosqich hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarda barqaror dunyoqarash, kuchli milliy ong va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Har qanday muvaffaqiyatli tarbiya jarayoni o'z samarasini ko'rsatishi uchun uzluksiz, barqaror va zamon talablariga mos bo'lishi lozim. Shu bois, pedagoglar, ota-onalar va jamiyat vakillari o'zaro hamjihatlikda faoliyat yuritishlari zarur. Tarbiya faqat bilim berish emas, balki shaxsni hayotga tayyorlashdir. Shaxs esa o'zligini anglamagan holda to'laonli rivojlanolmaydi. Shu sababli, milliy tarbiya har bir darsda, har bir suhbatda, har bir faoliyatda o'z ifodasini topishi zarur. Natijada, o'quvchi o'z xalqini sevgan, Vatan uchun jon kuydiradigan, mas'uliyatli va yurtparvar inson sifatida kamol topadi. Bunday insonlar orqali jamiyat barqarorligi, taraqqiyoti va milliy uyg'unish ta'minlanadi. Xulosa shuki, milliy tuyg'ularni shakllantirish har bir pedagogik faoliyatning ajralmas qismiga aylanishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. J.G'.Yo'ldoshev. Ta'lim yangilanish yo'lida.-T.: O'qituvchi. 2000. – 124 b.

2. O.Shoyxonova "Inson va uning ma'naviy dunyosi". 1993. – 68 b.
3. Safo Ochil "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari". 2000. – 145 b.
4. J. Q. Yo'ldoshov "Ta'lim istiqbol yo'lida" T. 2006. – 100 b.
5. B. Qodirov "Kamil inson tarbiyasining pedagogik asoslari" T. 2005. – 195 b.
6. Xodjayev B. X. Umumta'lim maktablari talabalarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2016. – 314 b

Zaripov Lochin Rustamovich,
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

TEKNOLOGIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHNING TARIXIY ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI

Annotatsiya. Mazkur maqola bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, umumta'lim tizimidagi "texnologiya" fanining ro'li va o'rnini, yangi paradigmalarda texnologiya o'qituvchisini tayyorlashning nazariy shartlari va uni yanada rivojlantirish tendensiyalari keltirilgan. Shuningdek, bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning tarixiy jihatlarini hamda talabalarda texnologik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o'z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olish va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: texnologik savodxonlik, tanqidiy, kreativ, tizimli fikrlash, intellektual, muhandis, ishlab chiqarish, shaxs, kasbiy tayyorgarlik, ijodkorlik.

Аннотация. В данной статье представлены теоретические условия повышения профессиональной компетентности будущих технологов, роль и место науки «технология» в системе общего образования, тенденции ее развития в ее парадигмах. Также рассмотрены история и аспекты профессиональной подготовки будущих технологов, а также развитие технологической грамотности, критического, творческого и системного мышления, умения принимать самостоятельные решения, умения проявлять свои интеллектуальные способности, формирования морально-нравственных качеств, зрелые особи информация предоставлена.

Ключевые слова: технологическая грамотность, критическое, творческое, системное мышление, интеллектуальное, инженерное, производственное, личность, профессиональная подготовка, творчество.

Abstract. This article presents the theoretical conditions for increasing the professional competence of future technologists, the role and place of the science of "technology" in the general education system, and trends in its development in its paradigms. The history and aspects of the professional training of future technologists are also considered, as well as the development of technological literacy, critical, creative and systematic thinking, the ability to make independent decisions, the ability to demonstrate their intellectual abilities, the formation of moral qualities, mature individuals information is provided.

Key words: technological literacy, critical, creative, systems thinking, intellectual, engineering, production, personality, professional training, creativity.

Kirish. Respublikamizda oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, ijodkor, kreativ fikrlay oladigan, irodali, faol va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda insoniyatning asosiy maqsadi har qanday yo'l bilan maksimal natijaga erishish bo'lgan ilmiy-texnologik jarayonning "industrial bosqichi"dan yangi davrga o'tishdir.

Quyidagilar texnologik ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi [1, 16]:

texnologik ta'limni mehnat bozori talablari asosida modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish;

bitiruvchilarda texnik ob'yekt hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatda qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo'ladigan kompetensiyalarini shakllantirish;

texnologik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o'z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olish va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish. Shuning uchun texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashga alohida talablar qo'yiladi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish umumta'lim tizimidagi "texnologiya" fanining ro'li va o'rnini, yangi paradigmalarda texnologiya o'qituvchisini tayyorlashning nazariy shartlarini va uni yanada rivojlantirish tendensiyalarini aniqlamasdan turib amalga oshirish mumkin emas.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning tarixiy jihatini ko'rib chiqsak. Texnologik ta'lim evolyusiyasi tajribasiga binoan: biz hozirgi zamonga tegishli deb bilgan ko'plab ta'lim va tarbiyaga oid muammolar ilgari ham mavjud edi. Umumta'lim maktablarida texnologik ta'lim holatini va oliy ta'lim muassasalaridagi ta'limiy muammolarining rivojlanish darajasini o'rganish natijasida texnologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning beshta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatamiz:

I bosqich: XIX asr oxiri - XX asr boshlari (1918 yilgacha);

II bosqich: XX asrning 20-30-yillari;

III bosqich: XX asrning 30-40-yillari;

IV bosqich: XX asrning 50-80-yillari;

V bosqich: 2017-yildan hozirgi kungacha.

Pedagogik manbalarni retrospektiv tahlil qilish asosida shuni ta'kidlash mumkinki, 1918-yillargacha mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan: umumiy pedagogik; uslubiy; maxsus. Shu bilan birga, mutaxassislarni tayyorlash jarayonida yagona rejalar va dasturlar mavjud bo'lmagan. Mehnat ta'limi o'qituvchilarining umumiy pedagogik tayyorgarligi, mehnat ta'limining vujudga kelishi tarixini o'rganishni nazarda tutibgina qolmay, shu bilan bir qatorda chet eldagi mehnat ta'limi nazariyasi va amaliyoti bilan tanishish, xorij mamlakatlarning maktablarida texnologiya fanini o'qitish mazmuni va usullari haqidagi qarashlarini hamda fanni o'qitishning roli va ahamiyatini baholashdagi turli yondashuvlarini tahlil qilishni taqozo etdi. Texnologiya o'qituvchilarining uslubiy tayyorlashda ta'limni tashkil qilishning turli yondashuvlarini o'rganish, qo'l mehnati na'munasini baholash, shuningdek o'qitish tizimi va usullarini tanlash, sinf xonasini jihozlash, ko'rgazmalar tashkil etish masalalaridan iborat [1, 15].

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik rejasiga materiallar, asboblalar, dastgohlar haqidagi texnologik ma'lumotlarni o'rganish, shuningdek, qog'ozdan tortib to yog'och va metallarga qadar turli xil materiallar bilan ishlash usul hamda yo'llarini bevosita amaliyot asosida o'zlashtirish kiradi. Maxsus tayyorgarlik maktab dasturlarini o'zlashtirishga qaratiladi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv jarayoni shunday tashkil qilinganki, unda ta'lim oluvchilar uchun sanoat korxonalariga ekskursiyalar uyushtirilgan. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish jarayoni haqidagi yaxlit tasavvurga ega bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Umumta'lim maktablaridagi ishlab chiqarish texnologiyalari xonalarida ishlash uchun dastlab o'quvchilarda maxsulot turlari, ularning sifati hamda materiallarga ishlov berishda texnika xavfsizli qoidalariga rioya etish yuzasidan dastlabki kompetensiyalarni shakllantirish lozim. Ishlab chiqarish jarayonlari tartibli, o'ziga xos ketma - ketlikda amalga oshiriladi, texnika xavfsizli qoidalariga rioya etish, o'lchamlarni to'g'ri olish, ish qurollari ketma-ketlikda ishlatiladi bularning barchasi kasbiy kompetensiyalar hisoblanadi. Amaliy ishlar bo'lajak o'qituvchilarning mehnatlarini takomillashtirishga, ularning mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu texnologik ta'limda texnik-texnologik tamoyilning rivojlanishiga to'siq bo'lgan edi. Texnologik ta'limda nazariy mashg'ulotlar va amaliy mashg'ulotlar alohida-alohida o'tkazishi belgilangan [5, 81].

Shunday qilib, I bosqichda o'qituvchilarni mehnat ta'limi fanini o'qitish uchun tayyorlash tizimi asta-sekin rivojlanib bordi. O'qituvchilarni tayyorlashning asosiy vazifasi mehnat ta'limi

darslarini ta'lim oluvchiga daromad keltiradigan kasbga tayyorgarlik ko'rish vositasi sifatida emas, ularni tarbiyalash, rivojlantirish va o'qitish vositasi edi. Ushbu tayyorgarlikning o'ziga xos xususiyatlari maktab dasturlarini o'zlashtirishga, nazariy masalalarga (umumiy pedagogik va uslubiy), chizmachilik va mehnat ta'limi fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga e'tiborni kuchaytirish edi. O'qituvchilar malakasini oshirish keyingi kasbiy mehnat faoliyati doirasidagi fundamental ta'limni ta'minlashi kerak edi, buning natijasida mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga katta ahamiyat berila boshladi. Ushbu tayyorgarlik jarayonida kasbiy bilim va ko'nikmalar, kasbga doir sifatlar, shuningdek, insonning kasbiy mehnat faoliyati borasidagi va maktabdagi mehnat ta'limi faniga nisbatan shakllangan munosabatlari darajasi past ekanligi aniqlandi. 1918-yillardan keyingina texnologiya o'qituvchilarini maxsulotlarga ishlov berishni to'g'ri tashkil etish hamda boshqaruvning asosini tushunadigan, ijodkor, o'z kasbiga fidoiy kadrqa aylantirish vazifasi qo'yildi [3, 94].

1918-yildan boshlab ta'lim tizimida bir qancha islohatlar amalga oshirila boshladi - politexnizm tamoyiliga asoslangan umumiy o'rta ta'limni bepul olish siyosati olg'a surildi. Takidlash joizki, mehnat ta'limi sohasi politexnizm tamoyili asosida zamonaviy texnikalarni, ularning rivojlanish tendensiyalarini va turli ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga asoslangan.

Maktablarga politexnika va tabiiy fanlar nazariyasi bilimlari bilan boyitilgan, amaliy mehnat tayyorgarligiga va korxonalarda to'g'ridan-to'g'ri faoliyat yuritish orqali real ishlab chiqarish to'g'risida keng tasavvurga ega o'qituvchilar kerak edi. Shu maqsadda maxsus ma'lumotli shaxslar uchun qisqa muddatli pedagogik kurslar, fakultetlararo qo'shimcha pedagogik bo'limlar, ixtisoslashtirilgan pedagogik fakultetlar va universitetlar, jumladan sanoat va agropedagogika oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi [4, 73].

1918-1937-yillarda mehnat ta'limi o'qituvchilarining pedagogik malakasi holati ham sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Maktab o'quvchilarining mehnat ta'limotlarini egallashlariga yetarlicha e'tibor berilganiga qaramay, o'sha davrda mehnat ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sezilarli darajada pastligicha qoldi. Buning qator sabablari bor edi - urish davrida ro'y bergan harbiy harakatlar aholini jangga layoqatli qismini urushga safarbar qilishni talab qildi, ular orasida o'qituvchilar ham bor edi; maktab talablariga javob bermaydigan o'qituvchilarning o'z pedagogik faoliyatlarini tugatishlari; pedagogik kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalarining yetarli emasligi.

Ushbu holatlar maktablarga mehnat ta'limi o'qituvchisi sifatida past malakali mutaxassislar va ishlab chiqarish mutaxassislarining kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashning II bosqichi natijalarini ko'rib chiqar ekanmiz, shuni ta'kidlash mumkinki, XX-asrning 20-30-yillarida pedagogikani shakllantirish jarayonida ta'lim oluvchilarni o'qitish va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi masalasi ko'tarildi. Ular o'sha davr uchun asosiy bo'lgan "ta'limni samarali mehnat bilan birlashtirish" hamda umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida "politexnik" prinsiplarini amalga oshirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi. Maktab o'quv tizimiga ko'ra fanga doir bilim elementlari ta'lim oluvchilarning aniq mehnat vazifalarini bajarish jarayonida shakllantirilgan. Ko'pgina maktablarda mehnat ta'limi tabiiy muhit va mavsumiy ish bilan cheklangan edi. Ta'lim oluvchilar sanoatlashtirish ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lmagan bilimlarga ega bo'ldilar. Mehnat ko'nikmalari esa, politexnik emas, balki, qo'l san'atlari bilan xarakterlanar edi [1, 21].

1937-yilda umumta'lim maktablarida mehnat ta'limini o'qitish bekor qilindi. Buning asosiy sababi malakali o'qituvchilar va moddiy texnik bazaning yetishmasligi bo'lgan bo'lsa-da, bu tanning bir tomonigina edi.

Maktab mamlakatni ibtidoiy ishchi kuchi bilan emas, balki institutlar va texnik maktablar uchun tayyorlangan yoshlar bilan ta'minlashi kerak edi, ya'ni yangi ziyolilar bazasini kengaytirish vazifasi bor edi. Maktab tamoman milliyashtirildi va avtoritar ta'lim tizimi shakllandi. Bu tizim mehnat ta'limi muhtoj emas edi, chunki bu ta'lim oluvchi shaxsini

mamlakat miqyosidagi zarur yo'nalishda shakllantirishga xalal berardi. Shu tariqa, ta'lim muassasalarida umumta'lim maktabi uchun mehnat o'qituvchilarini tayyorlash to'xtatildi.

Biroq, tez orada bunday qaror noto'g'riligi tushunildi va 1939-yilda xalq xo'jaligini texnik qayta jihozlash ishlari boshlandi hamda umumta'lim maktabi bitiruvchilarini ishlab chiqarishda amaliy faoliyatga tayyorlashning takomillashishi zarurligini tan oldi. 1941 - 1945 yillardagi urush va uning oqibatlarini bu muammoni hal qilish vaqtini ortga surdi. Shunday qilib, III bosqichda samarali mehnatga universal ta'lim va didaktik vosita sifatida ortiqcha e'tibor qaratilganligini sababli XX asr 30-yillarining boshlarida umumta'lim maktabida mehnat va politexnik ta'limning rolini qayta ko'rib chiqish boshlandi. Garchi bu bosqich 1937-yilda mehnat ta'limining maktab ta'lim dasturidan olib tashlanishi bilan yakunlangan bo'lsa-da, aynan shu vaziyat o'quvchilarni mehnatga tayyorlashda innovatsion yondashuv nuqtai nazaridan juda foydali edi [1, 23].

1954-yilda umumiy ta'lim maktablarining o'quv dasturi qayta ko'rib chiqildi va unga yangi - mehnat ta'limi fani kiritildi. Biroq, 60-yillarning o'rtalarida, oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vaqt chegarasi va moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi sababli muammoli deb topildi. Ushbu ziddiyatni hal qilish uchun o'rta kasb-hunar maktablari yaratila boshlandi. Bu ta'lim dargohlarida maxsus tayyorgarlik soatlarining yetarlicha ajratilinishi va o'quv xonalarining talab etilgan uskunalar bilan jihozlanishi tufayli ular chuqurlashtirilgan kasbiy tayyorgarlikni samarali amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega edi. Ishlab chiqarish ta'limi sohasida pedagoglarni tayyorlash maqsadida muhandis-pedagogika institutlari ochildi. Aynan shu davrda pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida texnik ishlab chiqarishga oid ta'lim yo'nalishlarining qisqartirilishi boshlanadi [2, 31].

Maktab o'quvchilarining kichik ishchi mutaxassisliklaridan biri bo'yicha kasbiy tayyorgarligi tayanch korxonalarida, 1974-yildan buyon esa maktablararo o'quv va ishlab chiqarish korxonalarida olib borildi. Shu asosda oliy ta'limda "Umumtexnika fanlari va mehnat" mutaxassisligi bo'yicha o'qituvchilar tayyorlaydigan sanoat-pedagogika fakultetlari ochilishi ko'zda tutilgan edi.

Bu davr bo'lajak o'qituvchilarni maktabda politexnik tamoyilni amalga oshirishga tayyorlash bilan xarakterlanadi. Fanga tayyorlash umumtexnik va maxsus fanlarning sintezi sifatida umumpedagogik va pedagogik-psixologik fanlardan mustaqil holda ko'rib chiqiladi, ammo bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorlash boshqa tegishli turdosh fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liq. Shuning uchun, mehnat ta'limi metodikasi fani bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning maxsus metodik asosidir.

1984-yildagi islohotlar yoshlarning kasbiy ta'lim olishlarini talab qildi, buning uchun o'quv dasturlariga "Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash" fani kiritildi, bu ta'lim oluvchining ma'lum bir kasbni egallab, u bo'yicha malaka imtihonlarini topshirishi bilan yakunlanishi kerak edi. Mazkur fanning maqsadi talabalarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ishlab chiqarish asoslari va texnologiya bilan tanishtirish va kelajakda o'z kasbini to'g'ri tanlashini tashkil etishdir.

1988-yildan boshlab umumta'lim maktablarida kasb-hunar ta'limini olish ixtiyoriy etib belgilandi va bu 8-9-sinflarda kasbiy ta'limidan asta-sekin voz kechilishiga sabab bo'ldi.

Tahlillar asosida o'qituvchilarni tayyorlashning IV bosqichini avvalgi bosqich bilan solishtirganda sifat jihatidan farqlanuvchi daraja bilan tavsiflanadi: bo'lajak mutaxassislar dunyoqarashini shakllantiradigan ijtimoiy fanlar siklini joriy etish; fanni tayyorlash o'qituvchining uslubiy tayyorgarligi bilan bog'liq. Ushbu bosqichning ahamiyati mehnatga tayyorlashda ilmiy va amaliy tajribaning yetarliligi hamda mehnat ta'limi o'qituvchisini tayyorlashga ko'proq e'tibor qaratilishidadir.

2017-yilda jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi bo'lajak mutaxassislarni bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash, tajribali, texnik ijodkor, kreativ yoshlarni tayyorlashga qaratilgan texnologiya fanini joriy etishga asosiy

turtki bo'ldi. Texnologiya fani o'quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishni ko'zda tutgan. Texnologiya fanini o'qitish orqali o'quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Texnologiya fani – umumta'lim maktablaridagi barcha fanlardan olgan nazariy bilimlarini amaliy qo'llaydigan va ulardan ishlab chiqarishning turli sohalarida foydalanishni nazarda tutadi.

Umumta'lim maktablarining o'quv rejasida "Texnologiya" fani "mehnat ta'limi" fani o'ringa yangi fan sifatida kiritildi. Bugungi kunda ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar va yangi texnologiyalarning tezkorlik bilan kirib kelishida yoshlarni ushbu texnologiyalarga oson moslashishiga ijodiy yechim topish asosiy va muhim vazifalardan biri hisoblanadi [1, 25].

V bosqichni ko'rib chiqar ekanmiz, oliy ta'limda bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlash katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi, chunki aynan shu mutaxassislar ta'lim oluvchilarni ijtimoiy ishlab chiqarishda transformatsion faoliyatga tayyorlash masalalarini hal qilishlari kerak.

Tahlillar asosida shuni takidlash lozimki, oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishida o'qituvchi pedagog-kadrlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi, texnologiya fanlarini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqazo etmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj uzoq vaqtdan buyon mavjud bo'lgan bo'lsada, lekin unga yaqin yillardan buyon e'tibor qaratila boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Diss. -T.:2023 y.-252 b.

2. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). Дисс. -Т.:2020 й.-141 б.

3. Зарипов Л.Р. Умумий ўрта таълим мактабларида технологик тайёргарлик талқини. Педагогика журнали. 2018 йил. № 4. 94-100 б.

4. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед.фан. докт. дисс. - Т.: 2004 й. – 314 б.

5. Кириллова Н.М. Педагогические условия повышения специальной компетентности учителя технологии: Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. / Н.М. Кириллова. - Курган, 2000. - 203 с.

Zaripova Sevara Erkin qizi,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi mustaqil izlanuvchisi

BO'LAJAK TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARINING DIZAYN KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya. Maqolada innovatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining dizayn kompetentligini shakllantirishning nazariy muammolari yoritilgan hamda vatanimizda texnologik ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining dizayn kompetensiyalarini shakllantirishning hozirgi holatini tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: texnologiya, dizayn, innovatsiya, kasb, tizim, model, ko'nikma, kompleks, malaka, loyiha.

Аннотация. В статье описаны теоретические проблемы формирования проектной компетентности будущих учителей технологии на основе инновационного подхода и проанализировано современное состояние формирования проектной компетентности выпускников технологического образования в нашей стране.

Ключевые слова: технология, дизайн, инновация, профессия, система, модель, способность, комплекс, квалификация, проект.

Abstract. The article describes the theoretical problems of developing the design competence of future technology teachers based on an innovative approach and analyzes the current state of developing the design competence of graduates of technological education in our country.

Key words: technology, design, innovation, profession, system, model, skill, complex, qualification, project.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash nafaqat muayyan o'quv fanlari bo'yicha bilimlarni yuksak darajada o'zlashtirishni, balki amaliy va ijtimoiy faoliyatda faol ishtirok etishga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Bu esa talabalarni oliy ta'limning muhim va ajralmas qismi hisoblangan bo'lajak kasbiga tayyorlashga ham to'la ma'noda taalluqlidir.

Hozirgi sharoitida oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishida bo'lajak mutaxassislarning dizayn kompetensiyalarini shakllantirishni sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, texnologiya fani mazmunini takomillashtirish muammosi bo'lajak mutaxassislarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, amaliy faoliyatning turli sohalarida ularda sub'ektiv mehnat tajribasi va faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi bilan uzviy bog'liq.

Vatanimizda texnologik ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining dizayn kompetensiyalarini shakllantirishning hozirgi holatini o'rganish natijalari shundan dalolat beradiki, texnologik ta'lim va o'quv jarayonini moddiy ishlab chiqarish ehtiyojiga yo'naltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda umumiy o'rta ta'limni isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri kadrlar tayyorlash sifatini oshirish ekanligi qayd etib o'tilgan. 2017-yil maktabda mehnat ta'limi fani o'rniga *texnologiya* fani kiritilgan. "Texnologiya" fani ushbu yo'nalishda muhim rol o'ynaydi. Muammoning ahamiyati texnologik ta'lim mazmuni, uning o'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadi bilan belgilanadi. Ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, maktabda "Texnologiya" fanini o'qitishning maqsadi o'quvchilarda texnik-texnologik va operatsion bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish hamda dizayn kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya fanini o'rganishning asosiy vazifalari:

- buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyani shakllantirish;
- psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiyani shakllantirish;
- to'g'ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Texnologik ta'limning eng asosiy birinchi yo'nalishi bu – amaliy faoliyatning turli shakllarida nazariy bilimlarni qo'llash asosida ilmiy texnologik dunyoqarashni shakllantirish. Ikkinchi yo'nalishi – amaliy mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan texnologik ta'lim, uchinchi yo'nalishi – o'quvchilarni doimiy ravishda ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish. Bunda o'quvchilarning o'quv-bilish, mehnat va ijtimoiy faolligining birligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Texnologik ta'limning to'rtinchi yetakchi yo'nalishida mehnat va umumtexnologik tayyorgarlikning umumiy asosi hisoblanmish bilim, mehnat faoliyati ko'nikma va malakalarining uzviy birligini ta'minlash nazarda tutiladi.

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining dizayn kompetensiyalarni shakllantirish deganda biz quyidagilarni nazarda tutamiz: texnologik operatsiyalarni izchil, to'g'ri bajarish tartibiga, texnologik me'yorlarga, texnika xavfsizlik qoidalariga ro'ya etgan holda, aniq vaziyatlarda asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish, mahsulotni ishlab chiqishda foydalanadigan texnik ob'ektlar bo'yicha bilimlari, ko'nikmalari, malakalaridan samarali foydalanish qobiliyati sifatida ta'riflash mumkin.

Jamiyatda ta'lim rolining o'zgarishini ko'p jihatdan innovatsion jarayonlar belgilab berdi. Avvallari ta'lim o'quvchilarni "hayotga tayyorlashga", ularda bilimlar, malakalar, informatsion va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, endilikda ta'lim shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiyalar va usullarni yaratishga ko'proq yo'naltirilmoqda va bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar o'rtasida muvozonatni ta'minlashga, o'z-o'zini rivojlantirishga (o'z-o'zini kamol toptirishga, mustaqil ravishda bilimni oshirishga), shaxsning o'z individualligini namoyon etishiga va jamiyatdagi o'zgarishlarga tayyorgarligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Innovatsion texnologiyalar - bu o'qituvchi va talabalarning o'zaro ta'sirlashishining prinsipial jihatdan yangi uslub va metodlar bo'lib, ular pedagogik faoliyatda samarali natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Har qanday yangilik jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli va ilmiy texnika taraqqiyotining mantiqiy davomi sifatida paydo bo'ladi. Faoliyat sohalarida yangiliklar bo'lishi muqarrar. Ilmiy texnika taraqqiyoti korxona va tashkilotlarning mehnat faoliyatida muhim o'zgarishlarni taqozo etadi.

Zamonaviy o'quv darslarida loyihalash faoliyatini joriy etish - innovatsion usulni qo'llash dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Hozirgi zamon sharoitida mutaxassislar bilimli, chuqur mushohada va mulohaza asosida qarorlar qabul qilishga qodir, o'z kasbi-kori sir-asrorlarini puxta egallagan bo'lishi shart. Bu esa, o'z navbatida, mustaqil davlatimiz kelajagi bo'lmish yoshlarni tarbiyalashda va ularning barkamol inson bo'lib shakllanishida o'qituvchilar, pedagog olimlar, korxona rahbarlari, boshqaruv personallari zimmasiga o'ta mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Demak, zamonaviy tashkilot va korxonalarda faoliyat ko'rsatadigan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy shakllanishida pedagoglarning alohida o'rni bor.

Hozirgi vaqtda ta'lim sohasidagi innovatsiyalar dolzarb bo'lib bormoqda, zero, aynan ta'lim inson mavjudligini belgilab beruvchi asosiy sohalaridan biri har tomonlama rivojlangan, murakkab vaziyatlarda nostandart yechimlarni topishga, ijodiy fikrlay oladigan va butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olishga qodir shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish, shakllantirishdan iborat. Hozirgi vaqtda ta'lim

tizimimizning yangi avlod ta'lim standartlarini joriy etish jamiyatning ehtiyoj va talablarini qondiruvchi mutaxassislar tayyorlashga yangicha yondashuvlarni qayta anglashni taqozo etmoqda. Bu esa innovatsion yondashuv asosida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirishni talab qiladi.

O'sib kelayotgan avlodni va o'quvchi-yoshlarni texnologik tayyorlash–texnologik hayot tarziga tayyorlashga, umumiy farovonlik yo'lida aqliy va jismoniy mehnatga amaliy hamda axloqiy-psixologik tayyorlikni shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning yaxlit uzluksiz jarayonidir.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning texnologik tayyorgarligida qator kamchiliklar aniqlandi: pedagogik xodimlarda innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda mehnat tarbiyasi va texnologik ta'lim maqsadi haqida aniq tasavvurlar mavjud emas; qishloq maktab o'quvchilari mehnat tarbiyasi mazmuni bugungi kun talablari asosida ishlab chiqilmagan, o'quvchilarning individual xususiyatlari va qiziqishlari yetarli darajada to'liq hisobga olinmaydi, mehnat tarbiyasi atrof-muhitning mintaqaviy va milliy o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda umumiy tarzda tashkil etiladi; maktab o'quvchilarining texnologik tayyorgarligini tashkil etish shakllari mehnatni tashkil qilish zamonaviy shakllariga mos kelmasligi hollari mavjud; texnologik ta'lim va tarbiya moddiy-texnik bazasining yuqori emasligi hamda ushbu kamchiliklarning natijasi o'laroq o'quvchilarda mehnatga ehtiyojning mavjud emasligi.

Mamlakatimiz pedagogikasi uchun xos bo'lgan yoshlarni texnologik tayyorlashning an'anaviy muammosi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining yangi qirralarini namoyon etmoqda, bu esa mos ravishda mehnat tarbiyasi tizimining maqsadi, mazmuni va protsessual xarakteristikalarini tubdan o'zgartirishni va kompleks-texnologik tayyorlashni talab qiladi.

Ta'lim tizimi oldiga tevarak atrofdagi juda murakkab o'zgarishlarga insonning doimiy ravishda moslashishini ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda. Bugungi kunda ilmiy texnika taraqqiyotining texnik, industrial davri rivojlanishi o'rni texnologik rivojlanish davri egallamoqda. Ishlab chiqarishning asosiy vazifasi eng yaxshi texnologik xossalarga ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishdan iborat. Bunda texnologiklik keng ma'noda tushuniladi va iqtisodiy, ekologik va boshqa ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Texnologik jamiyat tomonidan XXI asr yoshlari oldiga qo'yilayotgan ko'plab talablar orasidan quyidagilarni aloxida ko'rsatib o'tish mumkin: atrof-muhitni tushuna olish; yangi ijtimoiy muhitga qiyinchiliksiz va ixtiyoriy ravishda integrallashish; jamiyatda to'g'ri yo'nalish ola bilish qobiliyati, uning qonunlariga muvofiq zarur shaxsiy sifatlarni shakllantirish, atrof-muxitga moslashish qobiliyatiga ega bo'lish; safarbarlik sifatiga ega bo'lish; ertangi kunga ishonish hissini yo'qotmaslik uchun jamiyat bilan birga o'zgarishga o'rganish; kelajakka yo'nalish ola bilish (sifatli ta'lim olishga intilish, XXI asrda talab etiladigan bilimlarni egallash), o'zida bilish qobiliyatlarini rivojlantirish; o'z ishini tashkil qila olishlik, hayotiy muvaffaqiyat kafolati sifatida kasbiy yuksalishga intilish; ijodkorlik va yaratuvchilik sifatlarini rivojlantirish. Zero, har qanday jamiyat sharoitida insonning o'zi asosiy qadriyat hisoblanadi.

Harakatlar loyihasi sifatida texnologik ta'limning maqsadlari va shaxsning shakllanishi jarayonidan kutiladigan natija o'quvchilarni texnologik tayyorlash tizimini ishga tushirish va rivojlantirish mazmuni, shakllari va metodlarini zamonaviylashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Texnologik ta'lim g'oyasi talabalarning texnologik tayyorgarligini, ularning texnologik jamiyat sharoitidagi rolga qaratilgan yangi "Texnologiya" fanida mujassam bo'lgan.

Texnologik tayyorgarlik – bu bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining ongida olamning texnologik manzarasini shakllantirish asosida ularni amaliy faoliyatga tayyorlash jarayonidir. Bunda olamning texnologik manzarasi sifatlari, ya'ni qayta o'zgartiruvchi fikrlashi va ijodkorlik, dizayn qobiliyatlarining rivojlanishi hamda dunyo qarashining muhim elementi sifatida qaraladi. Afsuski, o'ziga xos jozibadorligiga qaramasdan texnologik ta'limning maqsadi va vazifalari hozircha pedagogik amaliyotda yetarli darajada keng qo'llanilgani yo'q. "Texnologiya" loyihasini joriy etish jarayoni bizning pedagogika fanimizda talabalarni

texnologik tayyorlash mustaqil muammo sifatida yetarlicha o'rganilmagan, o'quvchilarni kompleks texnologik tayyorlash sohasida ilmiy tadqiqotlar deyarli olib borilmagan; texnologik tayyorgarlik mazmunini aniqlash va ularni o'quv jarayonida qo'llashga oid ilmiy asoslangan yondashuvlarning mavjud emasligi ham ishni ancha murakkablashtiradi.

Pedagogik texnologiyaning muhim g'oyasi - ijobiy natijaga erishish, uning g'oyasini amalga oshirish uchun, eng avvalo, o'qitish tartibini, didaktik tizimni yaratish zarur.

Boshqacha aytganda, didaktik tizimni yaratish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi: a) maqsadni qat'iy belgilash; v) maqsadga erishish vositalari;

g) vositalardan foydalanish qoidalari; maqsadga erishish natijalari.

Ta'lim berishning yuqorida tavsiflangan modeli: «maqsad - vosita - ulardan foydalanish qoidalari - natija» har qanday pedagogik texnologiyaning asosini tashkil etadi.

Texnologiya fani talabalarining o'quv-tarbiya ishlarining bir yoki bir necha yondosh sohalarida bilimlarni, amaliy ko'nikma va malakalarni samarali o'zlashtirishini, shuningdek, ularda shaxsiy xususiyatlari va axloqiy sifatlarining rivojlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, u pedagogik jarayonning asosiy tashkiliy-metodik vositasi hisoblanadi.

Xorijiy tajriba va o'zimizning pedagogik prognozlarimiz shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish tuzilmasida yaqin kelajakda kichik va o'rta biznes tadbirkorligi deb atalmish korxonalar asosiy o'rinni egallaydi, ularga yuqori intellektual rivojlangan, turli xil amaliy malakalar, yaxshi texnologik kompetensiyaga ega mutaxassislar juda zarur bo'ladi.

Aytilganlarni umumlashtirib, shuni ta'kidlash joizki, shaxsning funksional savodxonligi va kasbiy safarbarligini ta'minlashga qaratilgan umumta'lim tayyorgarlik tuzilmasini ishlab chiqish zamonaviy pedagogikaning muammolaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qaroriga asosan ilgari Umumiy o'rta ta'limning mehnat ta'limi fani o'rniga texnologiya fani kiritilgan.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirli hamda Respublika Ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun Texnologiya fanidan o'quv dasturi. Toshkent 2017.
3. O'.Q.Tolipov, S.N.Sayidahmedov Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T., “Fan va texnologiyalar”, 2014. – B. 335.
4. Sh.S.Sharipov O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Diss. ...ped. fan. dok. – T., 2012. – 307 b.
5. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). Дисс. -Т.:2020 й.-141 б.

Tasimov Nurmaxan Zoirjanovich,
O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Jangovar tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi, mayor
nurmax86@mail.ru +99893-155-92-86

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI TA'LIM MUASSASALARIDA TINGLOVCHI (KURSANT)LARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan tinglovchilar (kursantlar)ni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur tarbiyani samarali tashkil etishda qo'llaniladigan usullar, muammolar va yechimlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvar, vatanparvarlik tuyg'usi, kursant, ichki ishlar organlari, tarbiya, ma'naviy qadriyat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, kasbga sadoqat.

Аннотация. В данной научной статье проанализированы значение и практические аспекты воспитания слушателей (курсантов), обучающихся в учебных заведениях Министерства внутренних дел, в духе патриотизма. Также освещены методы, применяемые для эффективной организации данного воспитания, а также существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: патриот, чувство патриотизма, курсант, органы внутренних дел, воспитание, духовные ценности, духовно-просветительская работа, преданность профессии.

Annotation. This scientific article analyzes the importance and practical aspects of fostering patriotism among listeners (cadets) studying in the educational institutions of the Ministry of Internal Affairs. It also highlights the methods used to effectively organize this educational process, as well as the challenges and solutions involved.

Key words: patriot, feeling of patriotism, cadet, internal affairs agencies, education/upbringing, spiritual values, spiritual and educational work, dedication to the profession.

Kirish. Globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda[1].

Bu borada yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev "Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur" – deya qat'iyat bilan ta'kidlagan[1]. Davlatimiz xavfsizligi, jamiyat barqarorligi, yosh avlodning mafkuraviy yetukligi va huquqiy madaniyatning yuksalishi ko'p jihatdan ichki ishlar organlari xodimlarining kasbga sadoqati va vatanparvarlik tuyg'usi bilan chambarchas bog'liq.

Vatanparvarlik o'zi nima?

O'zbek tilining izohli lug'atida, "vatanparvar"- o'z Vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, Vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi shaxsdir. Vatanparvarlik esa vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat hisoblanadi[2] – deya qayd etilgan.

Turli davlat olimlari vatanparvarlikni – tarixi, falsafasi va madaniyati asosida turlicha talqin qilgan, shulardan, Dmitriy Mendeleyev, Aleksandr Soljenitsin, Sharl de Goll, Jorj Oruell, Dolf Shternberger, Jon F. Kennedi, Maxatma Gandi, Atal Bixari Vajpayi, Konfutsiy, Sati' al-Husriy, Mark Tven, Fukuzava Yukiti, Ahmad Baytursin ulilar[3] tomonidan berilgan ta'riflarning barchasida – ona Vatanga muhabbat, Vataniga sadoqatli bo'lish, fidokorlik to'g'risida so'z yuritiladi. Yuqorida olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, vatanparvarlik - faqat yurtni sevishtirish emas, balki uning ravnaqi, adolati va taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish demakdir.

Shu nuqtai nazardan, Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan tinglovchi (kursantlar)larni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kelgusi ximat faoliyatida xodimlarning xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, chuqur mas'uliyat va tashabbuskorlik hissi bilan yondashish, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik va o'z kasbiga sadoqat tuyg'usini shakllantirish[4] muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat[5] bo'lib, tinglovchi (kursantlar)lar ta'lim muassasalarini tamomlagach, respublikamizning turli nuqtalarida xizmat olib boradi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, jumladan, vatanparvarlik tarbiyasini yangi bosqichga olib chiqish, innovatsion va interfaol usullardan keng foydalangan holda amaliyot bilan nazariya uyg'unligini ta'minlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Mazkur ilmiy maqolada tahliliy va amaliy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Avvalo, mavzuning huquqiy asoslarini o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi[5], "Ta'lim to'g'risida"gi[6] Qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi[7] hamda Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[8] Qarorlari tahlil qilindi.

Shu bilan birga, Ichki ishlar organlarining ta'lim muassasalarida xizmat qilib kelayotgan professor-o'qituvchilar, ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha xodimlar va bilan suhbatlar tashkil etildi. Ularda tinglovchi (kursant)larda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda qo'llanilayotgan metodlar, samarali yondashuvlar va muammolar to'g'risida ma'lumotlar to'plandi.

Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti tinglovchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Bu orqali ularning vatanparvarlikka bo'lgan munosabati, kasbga sadoqati, shaxsiy fikrlari va ichki motivatsiyasi o'rganildi. Bundan tashqari, tinglovchi (kursant)larning ta'lim jarayonidagi faolligi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi ishtiroki kuzatuv orqali (*o'quv jarayonida hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etgan tinglovchi (kursant)lar (ota-onasiga tashakkurnoma va faxriy yorliqlar berish orqali) xizmatlari rag'batlantirib borildi*) tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot davomida o'tkazilgan suhbatlar, kuzatuvlar va so'rovnomalar shuni ko'rsatdiki, Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan tinglovchi (kursant)larda vatanparvarlik ruhini shakllantirish jarayoni ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Avvalo, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning muntazamligi va mazmunan boyligi kursantlarning milliy g'oya va qadriyatlarga sodiqligini kuchaytiradi. Jumladan, uch avlod uchrashuvlari, muzey va tarixiy obidalariga ekskursiyalar, harbiy-sport musobaqalari, madaniy-ma'rifiy kechalar, teatr va kino tomoshalariga tashriflar orqali kursantlarda Vatanga muhabbat va kasbga sadoqat tuyg'usi shakllanmoqda.

Shuningdek, ta'lim jarayonida psixologik yondashuv va shaxsiy namunaning o'rni beqiyosdir. A.G. Asmolovning fikricha, "insonda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning eng ta'sirchan usuli - bu shaxsiy namunadir"[9]. Ustoz-o'qituvchilar, murabbiylar va amaliyotchi xodimlarning hayotiy tajribasi hamda fidoyilik namunasi kursantlar ongiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularni kasbiy faoliyatga ongli yondashishga undaydi.

Bundan tashqari, nazariya bilan amaliyotning uyg'unligi vatanparvarlik tarbiyasining muhim omili sifatida namoyon bo'ldi. Bunda, J.Dyui ta'kidlaganidek, "ta'limning haqiqiy samarasi nazariya va amaliyotning birligi orqali namoyon bo'ladi"[10]. Kursantlarning o'quv mashg'ulotlari doirasida olib borilgan tarbiyaviy suhbatlar, huquqiy hujjatlar tahlili, ijtimoiy

loyihalarda ishtiroki hamda amaliy mashg'ulotlar davomida xalq bilan muloqot qilish jarayonlari ularning kasbiy kompetensiyasini kengaytiribgina qolmay, balki Vatan va xalq oldidagi burchni chuqur his etishga yordam bermoqda.

Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, kursantlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish faqatgina an'anaviy tarbiyaviy ishlar bilan cheklanib qolmasdan, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot kommunikatsiya vositalari va interfaol usullardan foydalanilganda yanada samarali kechadi. Masalan, A.To'laganovning ilmiy izlanishlarida qayd etilishicha, "ijtimoiy tarmoqlar va media resurslar orqali berilgan ijobiy vatanparvarlik g'oyalari yoshlarning dunyoqarashini kuchliroq shakllantiradi"[11]. Bunday yondashuv, bir tomondan, yoshlarning ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, ularni zamonaviy mafkuraviy tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyada bo'lishga tayyorlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning tizimli, innovatsion va ilmiy asoslangan holda tashkil etilishi tinglovchi (kursant)larda Vatanga sadoqat, kasbga fidoyilik, xalq manfaatlariga xizmat qilish ruhini mustahkamlaydi. Bu esa kelajakda xalq ishonchini oqlaydigan, Vatan manfaatlarini hamisha ustuvor qo'yadigan, yuqori malakali mutaxassislarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Muhokama. Ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilish - ichki ishlar organi xodimining qasamyodiga sodiq bo'lish, faqat va faqat xalq va davlat manfaatlariga xizmat qilishdan iborat bo'lgan o'z xizmat burchini so'zsiz bajarish[12] talab etiladi. Bunday mashaqqatli, ammo sharaflil sohada xizmat qilish uchun kursantlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yurtga sadoqat, xalqqa xizmat qilish, qonunlarga bo'lgan ehtirom va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlandiki, tinglovchi (kursant)larda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga ta'sir etuvchi muhim omillar - bu nafaqat ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar, balki o'qituvchilarning shaxsiy namunasi, ta'limning mazmuni, murabbiylik tizimi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligidir. Ta'lim muassasalarida tarbiya ishlarini nazariya va amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish, tinglovchi (kursant)larning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularda millat, davlat va xalq manfaatlarini himoya qilishga bo'lgan ichki ehtiyojni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, ba'zi tinglovchi (kursant)larda vatanparvarlik g'oyalarini yurakdan qabul qilishda, kasbga sadoqatni his etishda yoki axborot ta'siriga bardoshli bo'lishda yetarli tayyorgarlik mavjud emasligi kuzatildi. Bu esa tinglovchi (kursant)larga ta'lim va tarbiya berish jarayonida yangi, innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, ijtimoiy loyihalar, kinopedagogika, mukammal psixologik tahlil asosida olib borilgan ma'naviy suhbatlar, ilhomlantiruvchi uchrashuvlar va real hayotdan olingan ibratli misollar vatanparvarlikni shakllantirishda yuqori samara berib kelmoqda.

Boshqa tomondan, vatanparvarlik tushunchasi faqatgina harbiy yoki kuch tuzilmalari bilan bog'liq emas. U keng qamrovli mafkuraviy, madaniy, axloqiy va falsafiy qadriyatdir. Shu bois, tinglovchi (kursant)larga ushbu tushunchani faqat buyruq va intizom doirasida emas, balki shaxsiy o'rnatish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar bilan bog'liq holda anglatish zarur.

Qolaversa, pedagog va murabbiylar o'zlari ham yuksak vatanparvarlik fazilatlarini namoyon etishi, tinglovchi (kursant)lar uchun shaxsiy namuna bo'lishi - tarbiya jarayonining ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Xulosa. Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan tinglovchi (kursant)larni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - nafaqat kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi, balki ularning shaxsiy ma'naviy kamoloti va milliy g'oyalarga sadoqatini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, vatanparvarlik tarbiyasi tinglovchi (kursant)larda kasbga sadoqat, fuqarolarga fidokorona xizmat qilish ruhi va huquqiy madaniyat darajasini oshiradi.

Bunday tarbiyalangan kadrlar nafaqat huquqni muhofaza qilish sohasida, balki butun jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, amaliy mashg'ulotlar, tarixiy va madaniy meros ob'ektlariga ekskursiyalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi usullar - tinglovchilar ongida vatanparvarlik g'oyalarini chuqur singdirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday yondashuv ta'lim muassasalarida faqat nazariy emas, amaliy jihatdan ham samarali tarbiya jarayonini ta'minlaydi.

Shu boisdan, vatanparvarlik tarbiyasiga oid ishlarni rejali, tizimli va ilmiy asoslangan holda tashkil etish, uni ta'lim jarayonining barcha bosqichlariga integratsiya qilish, shuningdek, ta'lim va amaliyotni uyg'unlashtirgan holda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusida, ushbu sohadagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni davom ettirish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va soha mutaxassisleri ishtirokida amaliy seminarlar tashkil etish orqali tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish mumkin. Zero, vatanparvar xodim - bu xalq ishonchini oqlaydigan, adolat, fidokorlik va qonun ustuvorligini hayotining bosh tamoyiliga aylantirgan shaxsdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Prezidenti Xavfsizlik kengashining yig'ilishi.
URL: <https://president.uz/uz/lists/view/6967>
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti", Toshkent, 2006, 444-445-betlar
3. Цитаты известных личностей.
URL: <https://ru.citaty.net/temy/patriotizm>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarori.
URL: <https://lex.uz/docs/-6364837>
5. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni.
URL: <https://lex.uz/docs/3027843>
6. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
URL: <https://lex.uz/docs/5013007>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son Qarori.
URL: <https://lex.uz/docs/6364837>
8. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 267-son Qarori.
URL: <https://lex.uz/docs/6518238>
9. Asmolov A.G. Psixologiya shaxsiy rivojlanish nazariyasi. – Moskva: Smysl, 2002.
10. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
<https://nsee.memberclicks.net/assets/docs/KnowledgeCenter/BuildingExpEduc/BooksReports/10.%20democracy%20and%20education%20by%20dewey.pdf>
11. To'laganov A. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash metodlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarori.
URL: <https://lex.uz/docs/-6364837>

Ismatova Sayyora Sobir qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIMOTI ASOSIDA O'QUVCHI-YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, islomda bolalar tarbiyasi to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ta'limoti asosida o'quvchi-yoshlar axloqiy tarbiyasini rivojlantirish imkoniyatlari

Kalit so'zlar: tarbiya, odob, barkamol inson, milliy qadriyat, islom madaniyati insonparvarlik, axloqiy qoida, ma'naviy fazilatlar, umuminsoniy qadriyatlar.

Abstract. This article discusses the views of Eastern thinkers on education, morality, and child rearing in Islam. It also discusses the possibilities of developing the moral education of students and youth based on the teachings of Eastern thinkers.

Key words: education, morality, a perfect person, national value, Islamic culture, humanity, moral code, spiritual qualities, universal human values.

Аннотация. В статье рассматриваются взгляды восточных мыслителей на образование, нравственность и воспитание детей в исламе. Также рассматриваются возможности развития нравственного воспитания учащихся и молодёжи на основе учений восточных мыслителей.

Ключевые слова: образование, нравственность, совершенный человек, национальная ценность, исламская культура, гуманизм, моральный кодекс, духовные качества, общечеловеческие ценности.

Kirish. O'zbekiston istiqloli tufayli yoshlarni milliy ruhda imon-e'tiqodli, axloqlidobli qilib tarbiyalash masalasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Chunki, ma'naviy kamol topgan insonlarga barkamol jamiyat qurishlari mumkin. Zero, xalqimizning qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan odob-axloq, imon, e'tiqod kabi insoniy fazilatlar ma'naviyatimizning asosidir.

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda. O'zbek xalqi jahondagi boshqa xalqlar kabi moddiy boyliklarga emas, ma'naviy boyliklarning ham asoschisi hisoblanadi. U o'zining peshona teri, tafakkur quvvati, qobiliyat va iste'dodi bilan asrlar osha fan va ma'daniyatni, adabiyot va san'atni, axloq va falsafani vujudga keltirdi. Tarixning haqiqiy ijodkori sifatida jamiyatning madaniy-ma'rifiy taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Kishilik jamiyati yuzaga kelibdiki, insonlar orasidagi ijobiy va salbiy munosabatlar barcha kishilarning diqqat markazida muhim masalalardan bo'lib kelgan. Shuning uchun bu masalalar qadim zamonlardan boshlab xalq og'zaki ijodi namunalarida, doston, qo'shiq va ertaklarda, donishmandlarning fikr va qarashlari sifatida o'ziga xos ravishda munosabat bildirish va tahlil qilish ob'ekti bo'lib kelgan. Sharqda qadimgi Xitoy ilmiy qarashlarida Konfutsiy ta'limoti, Hindistonda Budda, islom olamining muqaddas qur'on va hadislarida insonlar orasida yaxshi insoniy munosabatlarni qaror toptirish lozim ekanligi aytib o'tilgan. Deyarli Konfutsiy ta'limotlarida bir g'oya, qarash shakllanganligini kuzatish mumkin: "O'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ravo ko'rma". Konfutsiy merosida asosan odamlar orasidagi munosabat, insonparvarlik, do'stlik, insonni sevish jihatlariga keng o'rin berilgan: "odamlarni sevish va iliq munosabatda bo'lish deganda o'zini inkor etish emas, balki boshqa odamlarni ham bir xil ko'rish kerak" ekanligi talqin etilgan.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, ularda mustahkam axloqiy qadriyatlarni shakllantirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri

hisoblanadi. Axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi, to'g'ri yo'lni tanlashi hamda komil inson bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash, buyuk Sharq mutafakkirlarining ta'limotiga tayangan holda yoshlarni tarbiyalash samarali usullardan biri sanaladi. Sharq allomalari asrlar davomida inson ma'naviyati, axloqi va komillik masalalariga katta e'tibor qaratib kelganlar.

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymone'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. "Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidani olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir". Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat ila o'stirishdir". Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas'uliyati bardavom bo'ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi. Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor.

Dunyodagi odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'piligini Islom xalqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mubolag'a yo'q. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros Jaloliddin Rumiy o'zining "Ma'naviy masnaviy"ida insoniyatning agressivlikka moyilligi, agressiv reaksiyalar, agressiv xulq-atvor shakllari xususida qarashlarini bayon etadi. Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig'ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g'oyalar islomiy ma'naviyat bilan hamohangdir.

Sharq mutafakkirlari o'z ilmiy meroslarida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rta qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, "Ota-onalar ikki xil: tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli". Shunga ko'ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so'zlari anchayin ibratlidir:

“Zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim”. Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman, axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati esa, avvalo, oilada shakllanadi. Shunga ko'ra bola tarbiyasida ota-ona ta'siri benihoya kattadir. Masalan, u ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Jafar tilidan shunday deb yozadi: “Rashkdan saqlangin. U taloqning kalitidir. Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. Ibn Sinoning “Tadbiri al-manozil” nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangandir.

XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Xos Hojib o'zining “Qutadg'u bilig” asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday yozadi: “Farzand qanchalik bilimli, aqlli-xushli bo'lsa, ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi”. U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor beradi. Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul ma-oliy Kaykovusning “Qobusnoma”sidir. Bu asar Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi va qanchadan-qancha avlodlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda. “Qobusnoma” falsafiy-didaktik asar bo'lib, shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. Uning “Farzand parvarish qilmoq zikrida” degan bobi bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag'ishlanadi. “Qobusnoma”da ota-onaning qator vazifalari sanab o'tiladi.

Ular quyidagilardan iborat:

1. Bolaga yaxshi ism qo'yish;
2. Oqil va mehribon enagaga topshirish;
3. To'y-tomosha qilib, sunnat to'y o'tkazish;
4. O'qish – yozishni o'rgatib, kasb-hunar va ilmiy qilish;
5. Harbiylar ahlidan bo'lsa, sipohiylikni o'rgatish.


Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. “Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin”. Kaykovusning “Qobusnoma” asari bugungi kunda ham axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy - axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida insoniy fazilatlar va ezguliklarni madh etib, targ'ibu-tashviq etish bilan cheklanmay, ayni zamonda odamlardagi yomon, xunuk, insoniylikka xilof xislatlarni, insonlar uchun, jamiyat uchun zararli, sharaflil inson sha'niga yarashiqsiz xulq-atvor va sifatlarni tanqid qiladi. Achchiq so'zlik, nodonlik, yomon qiliqlilik, yolg'onchilik kabi illatlarga berilgan kishilarni qoralaydi. Navoiy ana shu yomon, yaramas xislatlardan, illatlardan odamlarni xoli ko'rishni istaydi. Karamli, muruvvatli, sadoqatli, yumshoq ko'ngilli, shirinsuhan, muloyim bo'lish kabi bir talay fazilatlarini Navoiy ko'klarga ko'tarib madh etadi. “Achchiq tillik” eng yomon xususiyatlardan biri ekanligi haqida Alisher Navoiy shunday yozadi: “Achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko'ngilda til nayzasining jarohati bitmas, unga hech narsa malham bo'la olmaydi”. Uning bu fikrida verbal agressiya, ya'ni salbiy histuyg'ularni og'zaki tarzda ifodalash shakli o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkindir. Bundan tashqari, Abu Ali Ibn Sino axloqlikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi. Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlari ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy axloqiy

xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Tahlil va natijalar. Inson o'zining ruhiy va ma'naviy ehtiyojlarini farqlash qobiliyatiga ega bo'lib, bu imkoniyat vaqt o'tishi bilan uning fe'l-atvorida mustahkam fazilat sifatida qaror topadi. Ibn Sino ta'kidlaganidek, shaxs kamolotida atrof-muhit va unda yashovchi insonlar beqiyos ahamiyat kasb etadi. Muhit nafaqat bilim olishga, balki axloqiy sifatlarning shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bolalarni yomon muhitdan asrab-avaylash, ularni salbiy odatlardan yiroq tutish tarbiyada juda muhim hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari qarashlari asosida tarbiya konseptual xaritasi



Alloma insonning shakllanish jarayonida oilaning o'rni haqida ham alohida to'xtalib o'tadi. Chunki bola eng avvalo oilada tarbiya ko'radi va kamol topadi. Agar biz farzandlarimizning baxtli, komil va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini, oilamiz mustahkamligining davomiyligini istasak, tarbiyaning barcha shakllariga jiddiy e'tibor qaratishimiz zarur. Ajdodlarimizdan meros qolgan boy ma'naviy qadriyatlar bugungi yosh avlod tarbiyasida muhim manba vazifasini o'taydi. Shu jihatdan, o'tmish mutafakkirlarimizning pedagogik qarashlarini tahlil etish va ularni ta'lim-tarbiyada qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida shaxs ma'naviyatini yuksaltirish, odob-axloqni shakllantirish, oila va nikoh mustahkamligi, farzand tarbiyasi, halol mehnat, atrof-muhitga ongli munosabat kabi masalalarga alohida to'xtalganlar. Ularning qarashlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, insonni tarbiyalash masalasi faqat bilim olish emas, balki yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday fazilatlarga ega bo'lgan avlodni hech qanday yot g'oya yoki mafkura o'z ta'siriga ola olmaydi. Bunday barkamol yoshlarni voyaga yetkazgan xalqning kelajagi buyuk bo'lishi shubhasizdir.

Xulosa va takliflar. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'lib, bunda ularning yoshi, qiziqishi, intellektual va psixologik tayyorgarligi inobatga olinishi lozim. Shaxsning ruhiy olami o'ziga xos sezgirlikka ega bo'lgani bois, yoshlarda ta'sirchanlik, tezkor emotsional holatlar va taqlidchanlik kuchli bo'ladi. Shu sababli ularni salbiy ta'sirlardan himoya qilish, ijobiy muhit yaratish muhimdir.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy shakllanishida sog'lom ijtimoiy muhit hal qiluvchi omil sanaladi. Ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish uchun ustoz va ota-onalarning rag'batlantirishi,

doimiy nazorat va ko'rsatmalari zarur. Bunday jarayonda yoshlarning jamoada yashash, muloqot qilish, fikr yuritish va qiyoslash ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor berish lozim.

Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashda uch omilning hamkorligi eng samarali hisoblanadi:

1. Ustozlar – bilim va odob-axloq manbai sifatida.
2. Sinf rahbarlari – jamoaviy faoliyatni tashkil etuvchi sifatida.
3. Ota-onalar – farzand tarbiyasining asosiy mas'ullari sifatida.

Ushbu uchlik o'zaro hamkorlik qilganda tarbiya jarayoni yanada samarali kechadi. Demak, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan samarali foydalanish, oilada va ta'lim muassasalarida ijobiy muhitni shakllantirish zaruriy shart hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari merosida yoshlarni axloqiy tarbiyalash, ularni komil inson qilib voyaga yetkazishning boy tajribasi mujassam. Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Navoiy va boshqa allomalar asarlarida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Ularning fikrlari o'quvchi-yoshlarni halollik, odob, sabr, vatanparvarlik, mehr-shafqat kabi fazilatlarga o'rgatishda samarali manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. M. Shoxadjayev. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
2. M. Hamdamova. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya". 2008 y.
3. S. Dolimov, U. Dolimov. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnoma T.: "Istiqlol" 1994 y.
4. San'at – yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
5. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y.
6. Y. Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o'rgatish. T.: 1960 y. 38-bet
7. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y.
8. Sh. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. T.: 2016 y.
9. Z. B. Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017 yil, 5-son.

Kamalova Dilobar Tairovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KONGRUENTLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Bugungi ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kongruentlik kompetensiyasi – ya'ni o'qituvchining o'z fikr, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini muvofiqlashtira olishi, talabalarga samimiy va izchil munosabatda bo'lishi - zamonaviy pedagogikaning markaziy tushunchalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu ilmiy ishda bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Kompetensiyani rivojlantirishning zaruriyati, uning kasbiy faoliyatdagi o'rni, hamda uni rivojlantirish yo'llari nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, kongruentlik kompetensiyasini shakllantirishda ta'lim muhitining roli, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan yangi talablar va zamonaviy metodlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglar tayyorlov tizimida bu kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni takomillashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: kongruentlik kompetensiyasi, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik muammo, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim metodlari, shaxsiy rivojlanish, kommunikativ ko'nikma.

Аннотация. Формирование профессиональных компетенций будущих учителей является одним из актуальных вопросов современного образовательного процесса. В частности, конгруэнтная компетентность, то есть способность учителя координировать свои мысли, чувства и действия, искренне и последовательно относиться к ученикам, проявляется как одно из центральных понятий современной педагогики. В данной научной работе формирование конгруэнтной компетентности у будущих учителей анализируется как педагогическая проблема. Теоретически и практически обоснованы необходимость развития компетентности, ее роль в профессиональной деятельности и пути ее развития. Также освещены роль образовательной среды в формировании конгруэнтной компетентности, новые требования к личности учителя и современные методы. Результаты исследования позволяют совершенствовать подходы, направленные на развитие данной компетентности в системе подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: конгруэнтность, будущий учитель, педагогическая проблема, профессиональная подготовка, методы обучения, личностное развитие, коммуникативные навыки.

Annotation. The formation of professional competencies of future teachers is one of the urgent issues in today's educational process. In particular, congruent competence - that is, the teacher's ability to coordinate his thoughts, feelings and actions, to have a sincere and consistent attitude towards students - is manifested as one of the central concepts of modern pedagogy. In this scientific work, the formation of congruent competence in future teachers is analyzed as a pedagogical problem. The need for developing competence, its role in professional activity, and ways of its development are theoretically and practically substantiated. The role of the educational environment in the formation of congruent competence, new requirements for the teacher's personality, and modern methods are also highlighted. The results of the study allow us to improve approaches aimed at developing this competency in the system of training future teachers.

Key words: congruence competency, future teacher, pedagogical problem, professional training, teaching methods, personal development, communicative skills.


Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'qituvchining nafaqat professional bilim va ko'nikmalariga, balki uning shaxsiy xususiyatlariga ham katta e'tibor beradi. Carl Rogers tomonidan ishlab chiqilgan kongruentlik tushunchasi pedagogik faoliyatda alohida ahamiyat kasb etadi. Kongruentlik - bu shaxsning ichki holatini, his-tuyg'ularini va tashqi xatti-harakatlarini uyg'unlashtirish qobiliyatidir.

Bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayonida kongruentlik kompetensiyasining rivojlanishi muhim pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu muammo nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqur o'rganishni talab etadi.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida mazkur jihatning yetarli darajada shakllangan bo'lishi ta'lim jarayonining samaradorligi va sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bo'lajak pedagoglar uchun kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So'nggi yillarda ta'lim tizimida o'qituvchining nafaqat bilim darajasi, balki kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlar ham alohida qadrlanmoqda. Shu jihatdan, bo'lajak pedagoglarda kongruentlik kompetensiyasini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur kompetensiya shaxsning ichki qarashlari, qadriyatlar, bilimlari hamda tashqi faoliyati va xatti-harakatlarining uyg'unlashganligini ifodalaydi.

Kongruentlik tushunchasi ilk marotaba Carl Rogers tomonidan gumanistik psixologiyada asosiy tushuncha sifatida joriy etilgan. Pedagogik jihatdan esa kongruentlik quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi(1-rasm)



1- rasm. Pedagogik kongruentlikning o'ziga xos jihatlari

Tadqiqotning nazariy va metodik poydevorini bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir ilmiy manbalar, pedagogika, psixologiya va sotsiologiya sohasidagi olimlarning izlanishlari tashkil etadi. Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan olimlar hamda amaliyotchi mutaxassislarining yozma manbalari va og'zaki fikr-mulohazalarini o'rganish jarayoni ham ilmiy tahlilning muhim qismi sifatida qaraldi.

Bundan tashqari bir qator olimlar kongruentlikni o'rganishadi va uni amaliy jihatdan o'z asarlarida yoritadi(1-jadval).

1- jadval

O'zbek olimlarning faoliyatida kongruentlik

№	Olimning nomi	Bajargan ishi tavsifi
1.	A.Abdurahmonov	pedagogik kompetensiyaning rivojlanish omillarini yoritarkan, o'qituvchining kasbiy yetukligi bevosita shaxsiy ong va

		mustahkamlik bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Uningcha, o'zini anglash jarayoni kuchli bo'lgan pedagoglarda kongruentlikni rivojlantirish osonroq kechadi.
2.	D.G'afforova	o'qituvchilar uchun kommunikativ va kongruentlik ko'nikmalarining o'zni muhimligini ko'rsatadi. Unga ko'ra, o'qituvchi o'z fikrini aniq ifoda eta olishi, samimiy muloqot yuritishi va empatiyaga ega bo'lishi ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.
3.	Z. Mirziyoyeva	kongruentlikni shaxsiy o'sishning tarkibiy elementi sifatida tahlil qiladi. Unga ko'ra, ichki qadriyatlar bilan tashqi faoliyat uyg'unlashgan pedagog halollik, ishonch va samimiyat muhitini yaratadi, bu esa ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladi.
4.	S.Xo'jayev	kasbiy kompetensiyani rivojlantirish usullarini o'rgangan holda, o'qituvchi faoliyatida innovatsion metodlardan foydalanish orqali kongruentlikni shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi [4].
5.	R. Karimov	innovatsion yondashuvlarning ustunliklarini asoslab, bo'lajak pedagoglarda kongruentlik kompetensiyasini mustahkamlash uchun reflektiv faoliyat, muammoli vaziyatlar tahlili va interfaol mashg'ulotlardan foydalanish lozimligini ta'kidlaydi.
6.	G'.Shomurodov	zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sifatida kongruentlikni nafaqat shaxsiy o'sish, balki ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy strategiyasi sifatida baholaydi.
7.	M. Rahimova	pedagog shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik muhitning o'rniga urg'u beradi. Unga ko'ra, jamoaviy hamkorlik, ijobiy muloqot muhiti va pedagogik mas'uliyat kongruentlikni mustahkamlashda muhim omillar sanaladi.
8	U. Hasanov	interfaol metodlar asosida olib borgan tadqiqotlarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish o'qituvchida kongruentlikning kuchayishiga xizmat qilishini ko'rsatib beradi.
9.	A. Tojiboyev	kongruentlikni pedagogik faoliyatda metodologik nuqtai nazardan tahlil qiladi va uni kasbiy etikaning ajralmas qismi sifatida talqin etadi.
10.	N. Qodirova	o'qituvchi shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish nazariyasini ochib bergan holda, kongruentlikni pedagog uchun yetakchi sifat sifatida belgilaydi. Unga ko'ra, kongruentlik faqat ta'lim jarayonining muvaffaqiyat mezonini emas, balki pedagogning jamiyatdagi nufuzini ham belgilaydi.

Tahlil va natijalar shuni ko'rsatdiki, kongruentlik kompetensiyasining tuzilishi quyidagi komponentlardan iborat:

A)Kognitiv komponent:

- o'z his-tuyg'ularini anglash va tahlil qilish qobiliyati;
- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholash mahorati;
- reflektiv fikrlash ko'nikmasi.

B)Emotsional komponent:

- his-tuyg'ularni boshqarish qobiliyati;
- empatiya va empatik tushunish;
- emotsional barqarorlik.

D)Xulq-atvor komponenti:

- so'z va amalning uyg'unligi;

- kommunikativ ko'nikmalar;
- ijobiy o'zaro munosabat o'rnatish qobiliyati.

Pedagogik mas'uliyat o'qituvchining ta'lim jarayonidagi rolini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo'lib, u o'quvchilarning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu mas'uliyat turli pedagogik jihatlar orqali namoyon bo'ladi. Avvalo, o'qituvchi o'z bilim va ko'nikmalari bilan o'quvchilarga ta'sir ko'rsatib, ularning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogning axloqiy mas'uliyati - adolat, halollik va izchillikka asoslangan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishini talab etadi.

Psixologik mas'uliyat esa o'quvchilarning ruhiy holatini chuqur anglash, ularni qo'llab-quvvatlash va o'zini-o'zi anglash jarayoniga yordam berishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, pedagogik mas'uliyat o'qituvchidan har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. Bu ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Natijalar uchun mas'uliyat ham muhim bo'lib, unda o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilib, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralari ko'radi. Bugungi kunda o'qitish va tarbiyalash jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish ham pedagogik mas'uliyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xulosa. Bo'lajak pedagoglarda kongruentlik kompetensiyasini shakllantirish - ularning kasbiy muvaffaqiyati hamda ta'lim jarayonining samaradorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Mazkur kompetensiya shaxsning o'zini rivojlantirish, kasbiy o'zlikni anglash, samarali muloqot madaniyati, axloqiy qarashlari va ichki barqarorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Uni rivojlantirish maqsadida turli metodik yondashuvlar, trening mashg'ulotlari va refleksiya jarayonlarini tatbiq etish lozim. Shu orqali o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki samimiyatga ega bo'lgan va axloqiy jihatdan yetakchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdurahmonov, A. Pedagogik kompetensiya va uning rivojlanish mexanizmlari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 184 b.
2. G'afforova, D. Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ va kongruentlik ko'nikmalarini shakllantirish. – Toshkent: TDPU, 2021. – 152 b.
3. Mirziyoyeva, Z. Kongruentlik kompetensiyasi va pedagogik faoliyatda shaxsiy o'sish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 200 b.
4. Xo'jayev, S. Zamonaviy ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish metodlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2022. – 176 b.
5. Rogers, K. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: Uning falsafasi, fenomenologiyasi va terapevtik amaliyoti. - M.: EKSMO-Press, 2019.
6. Бондаревская, Е.В. Гуманистическая парадигма личностно-ориентированного образования // Педагогика. – 1997. – №4. – С. 11-17.
7. Сериков, В.В. Личностный подход в образовании: концепция и технологии. – Волгоград: Перемена, 1994. – 152 с.
8. Якиманская, И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М.: Сентябрь, 1996. – 96 с.
9. Хуторской, А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58-64.
10. Абдуллаева, Ш.Х. Педагогик фаолиятда конгруентлик масалалари // Педагогика. – 2023. – №3. – Б. 15-22.

Berdiyeva Gulobod Shonazarovna,
Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti
Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
gulobod1983@gmail.com

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA ASPEKTLARI.

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish aspektlari, texnologiyalari, mazmuni, muammolari, olimlarning bu boradagi tadqiqotlari va fikrlari tahlil qilingan. "Ijodiy salohiyat" atamasi ilmiy mazmuni, talim jarayonida ijodiy salohiyatni takomillashtirish imkonini beruvchi meyoriy hujjatlar tahlili keltirilgan.

Shuningdek, maqolada bugungu kun oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishning asosiy aspektlari ijodiy salohiyatni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari va ijodkorlikni rivojlantirishga imkon beruvchi yetakchi usullar tahlili keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: iste'dod, pedagogik ijodkorlik, ijodiy muhit, mehnatga ijodiy yondashuv, qobiliyat, ijod salohiyat, kreativlik

Аннотация. В статье проанализированы аспекты, технологии, содержание, проблемы развития творческого потенциала студентов высших учебных заведений, исследования и мнения ученых по этому вопросу. Приведено научное содержание термина "творческий потенциал", анализ критериальных документов, позволяющих совершенствовать творческий потенциал в процессе обучения. Также в статье приведены основные аспекты развития творческого потенциала студентов высших учебных заведений в социально-культурной деятельности на сегодняшний день анализ современных технологий развития творческого потенциала и ведущих методов, позволяющих развивать творчество.

Ключевые слова: талант, педагогическое творчество, творческая среда, творческий подход к труду, способности, творческий потенциал, креативность.

Abstract. The article analyzes aspects, technologies, content, problems of developing the creative potential of students of higher educational institutions, research and opinions of scientists on this subject. The scientific content of the term "creative potential" is presented in the analysis of the main documents that allow you to improve creative potential in the process of training. The article also cites the analysis of the main aspects of the development of creative potential of students of higher education institutions today in socio-cultural activities modern technologies for the development of creative potential and leading methods that allow the development of creativity.

Key words: talent, pedagogical creativity, creative environment, creative approach to work, ability, creative potential, creativity.

Kirish. So'ngi yillarda ta'lim jarayonida aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. UNESCO tashabbusi doirasida ishlab chiqilgan "Global Citizenship Education" dasturi yoshlarni insonparvarlik, adolat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashishga o'rgatishni maqsad qilgan. Bu dastur turli davlatlarda amalga oshirilayotgan ta'lim strategiyalarini muvofiqlashtirishga va yoshlarni jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyatni anglagan shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Shu sababli aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, pedagogik modelashtirish, pedagogik texnologiyasini va mexanizmini

takomillashtirish, talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlanganlik darajalarini baholash mexanizmini ishlab chiqish zarurati mavjid.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Talabalarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish tushunchasini tahlil qilish jarayonida ushbu atamaning mazmun jihatidan murakkab va umumiy tavsifga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Mazkur tushuncha o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: "iste'dod", "pedagogik ijodkorlik", "ijodiy muhit", "ijodiy trening", "ijodiy ishtiyoq", "ijodiy jarayon bosqichlari", "mehnatga ijodiy yondashuv", "ijodiy faoliyat turlari", "ijodiy motivatsiya", "ijodiy mezonlar", "ijodiy qobiliyatlar", "ijod salohiyat", "ijodiy faollik", "kreativlik" va boshqalar.

Ushbu kategoriyalarni majmuaviy tahlil qilish oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijodiy salohiyatni rivojlantirishning metodologik asoslarini aniqlash va interpretatsiya qilish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotda "salohiyat" termini asosan B.G.Ananeva, L.I.Bojovich, V.N.Myasishchev, S.L.Rubinshteyn va boshqalarning tadqiqotlari bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha quyidagicha talqin etiladi:

- aniq masalada qarashlar, fikrlar;
- muayyan masalaga munosabat va unga mos ravishda harakatlar, xatti-harakatlar;
- ijtimoiy shaxsning muayyan haqiqat tomonlariga barqaror munosabatlar tizimi, bu tizim tegishli xulq-atvorda namoyon bo'ladi;
- shaxsning guruh ichidagi status-rol strukturasidagi o'rni va hokazo.

Boshqacha qilib aytganda, umumiy ma'noda "salohiyat" shaxsning o'z qarashlari va harakatlarining asosini, uning muayyan masalaga bo'lgan munosabatini, faoliyat mazmuni va shakllari orqali ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etilishi lozim.

Ijodiy salohiyatning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat: qiziquvchanlik va ong chuqurligi, moslashuvchanlik va harakatchanlik, izchillik, dalillarga asoslangan fikrlash, to'g'ri xulosalash, tanqidiy fikrlash va tafakkur kengligi.

Ijodiy salohiyatni rivojlantirish quyidagi asosiy aspektlar bilan bog'liq:

Raqamli texnologiyalarni qo'llash: noan'anaviy manbalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish orqali mustaqil ish samaradorligini oshirish, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga sharoit yaratish. Bu jarayon kreativlik va intellektni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarini joriy etish: axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va yangi axborotni yaratish bilan shug'ullanuvchi texnologiyalarni tatbiq etish. Shu bilan birga, yangi STEAM va SMART ta'lim yondashuvlarini qo'llash orqali ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun innovatsion metod va vositalar ishlab chiqiladi.

Amaliyotga tatbiq qilish: ushbu metod va vositalarni ta'lim tizimida qo'llash orqali ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish.

Bu yondashuv ijodiy salohiyatni zamonaviy texnologiyalar va ijodkorlikni rivojlantirish orqali takomillashtirishga imkon beradi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

"Rivojlanish" tushunchasi falsafa, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlardagi asosiy ilmiy tushunchalardan biridir. Adabiyotlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu fenomenning turli ilmiy sohalardagi ta'riflari tamoyiliy jihatdan bir-biridan farq qilmaydi, balki faqat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lug'atlarda rivojlanish quyidagicha ta'riflanadi: "Qonuniyatli o'zgarishlar jarayoni, bir holatdan boshqasiga, mukammalroq holatga o'tish; eski sifat holatidan yangi holatga, soddadan murakkabga, pastdan yuksakka o'tish".

Ushbu ta'rif rivojlanish jarayonining izchillik va progresivlik tamoyillariga asoslanganligini, har qanday rivojlanish soddalikdan murakkablikka, kamchiliklardan mukammallikka tomon harakat sifatida qaralishini ta'kidlaydi.

Bizning tadqiqotimizda rivojlanish jarayonida oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijodiy salohiyatga bo'lgan munosabati, shuningdek, uning sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'zgaradi va takomillashadi. Ushbu jarayon talabalarning ijodiy salohiyat va kasbiy

kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda zamonaviy ilm-fanda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari o'rtasidagi farqlar va ularning o'zaro muvofiqlashtirilishi muhim masala hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqotlar psixologiya va pedagogika sohalarida bu tushunchalarning yagona ta'rifi yo'qligini ko'rsatadi.

"Kompetensiya" tushunchasi kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, u muayyan natijani anglatadi. A.V. Xutorskoy ta'rifiga ko'ra, kompetensiya bu muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan usullar, vositalar, bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va muammolarni hal qilishga tayyorlikni bildiradi. Kompetensiya – bu shaxs o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun kerak bo'lgan imkoniyatlar yig'indisi.

"Kompetentlik" esa shaxsning integrativ sifati bo'lib, u shakllangan qadriyatlar, qadriyatli yo'nalishlar, olingan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va tajribalar asosida faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalaydi. Kompetentlik – bu shaxsning muayyan kompetensiyalarni egallash darajasini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Shunday qilib, kompetensiya o'z mazmunida kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur vosita va tayyorlikni ifodalasa, kompetentlik – bu shaxsning o'z kompetensiyalarini amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatini ko'rsatadi. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, kompetensiya shakllanishi kompetentlikning asosi hisoblanadi.

"Kompetensiya" tushunchasi uchta asosiy qismni o'z ichiga oladi:

Kognitiv – bilimlar to'plamini egallash.

Operatsional – faoliyatni amalga oshirish usullarini shakllantirish, texnologik savodxonlik.

Aksiologik – qadriyatlarni o'zlashtirish, kasbiy mehnat va shaxsiy o'sishga nisbatan qadriyatli munosabat.

Natijalar. Oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlanish jarayoni murakkab, uzoq davom etadigan, o'ziga xos mantiq va qonuniyatlarga ega bo'lgan, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayon quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: yaxlitlik, boshqaruvchanlik, geteroxroniya (har xil bosqichlarning bir vaqtda mavjudligi), komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sir; ichki ziddiyatlar, nizolar va inqirozli holatlarni yengib o'tish orqali o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyati.

Talabaning ijodiy salohiyatini rivojlanishi turli xil ziddiyatlarni yengib o'tish orqali amalga oshadi, bu ziddiyatlar ushbu o'zgarishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Ular quyidagi qarama-qarshiliklardan iborat:

1. ijodiy faoliyatini amalga oshirish zaruriyati va uni muvaffaqiyatli va samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yetishmasligi o'rtasidagi ziddiyatlar;

2. yangi mehnat faoliyati va talabaning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar;

3. ta'lim muassasalarini boshqarish darajasiga qo'yiladigan zamonaviy talablar va talabalarining kasbiy muhim sifatleri, qobiliyatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasidagi ziddiyatlar;

4. talabaning kasbiy o'zini o'zi tasdiqlashga bo'lgan ehtiyoji va unga mos keluvchi bilim, ko'nikma va umumiy professionalizm darajasi yetishmasligi o'rtasidagi ziddiyatlar.

Ushbu ziddiyatlarning hal qilinishi uchun ular ichki ravishda qabul qilinishi va talaba tomonidan anglanishi zarur. Agar talaba mavjud ziddiyatlarni qabul qilmasa yoki anglamasa, ularni chuqur tahlil qila olmaydi va o'z harakatlarini ularni bartaraf etishga yo'naltira olmaydi. Ziddiyatlarning murakkab va ko'p darajali tavsifi talabaning har bir kasbiy faoliyat bosqichining xususiyatlarini belgilovchi muhim omil bo'lib, uning kasbiy shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy shakllanishi va rivojlanishi murakkab, geteroxronik va uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Uning muvaffaqiyati va samaradorligi

nafaqat ta'lim jarayonida yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, talaba shaxsining fazilatlariga va qobiliyatlariga, balki kasbiy faoliyatga ongli va ijobiy munosabatda bo'lishiga, o'z o'rnini va undagi rolini anglashga, o'zini va o'z harakatlarini baholashga va nazorat qilishga bog'liq.

Muhokama. Shunday qilib, ishimiz mavzusining xususiyati va tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan qoidalar oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijodiy salohiyatni va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining metodologik asoslarini chuqur va izchil yoritishga imkon beradi. Ushbu metodologik asoslar talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini kengaytirish, kasbiy faoliyatni samarali boshqarish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, zamonaviy ta'lim muhitida ijobiy natijalarga erishish uchun innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan nazariy qoidalar talabalarning o'z intellektual salohiyatlarini va boshqaruv kompetensiyalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga, o'z-o'zini ta'lim olish jarayonlarini yo'lga qo'yishga, hamda ta'lim tizimini boshqarishning yangi metodlari va shakllarini joriy qilishga ko'maklashadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-madaniy faoliyat pedagoglarini tayyorlash bo'yicha to'plangan katta tajribaga qaramay, ushbu yo'nalishda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud.

Shunday muammolardan biri – oliy ta'lim muassasalari talabalari, ya'ni ijtimoiy-madaniy faoliyat bo'yicha bo'lajak pedagoglarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayoniga fanlararo aloqalarning ta'siridir.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, ushbu jarayon ba'zi salbiy oqibatlariga ega bo'lib, talabaning oliy ta'lim muassasasida turli fanlarni o'zlashtirish davomida shaxsiy faolligi pasayishiga sabab bo'lishi kuzatilgan. Bizning fikrimizcha, ushbu jarayonning asosiy o'ziga xosligi uning ijtimoiy va jamoaviy tabiati bilan bog'liqdir. Oliy ta'lim muassasalaridagi fanlararo aloqalar yaxlitlikni shakllantirib, tizimlilik xususiyatiga ega bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar yagona tizim sifatida o'zining ichki rivojlanish dinamikasi, o'z-o'zidan harakatlanish qobiliyati hamda nisbiy mustaqilligi bilan ajralib turadi. Ushbu tizim, o'z navbatida, talabalarning har tomonlama rivojlangan yaxlit shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydi va ularning rivojlanish jarayoniga muayyan dinamik ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida fanlar tizimini faqat amaliy tajriba asosida takomillashtirib bo'lmaydi, balki ushbu jarayonni nazariy asoslash va oldindan prognozlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanlararo aloqalarning rivojlanishi talabaning bilim darajasini belgilaydi hamda o'zini anglash, masalalarni keng qamrovli tahlil qilish, o'zini namoyon qilish va ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy yondashuvni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijodiy elementlarning ustunlik qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ularga doimiy ravishda konkret sharoitlarni hisobga olish, o'rganilayotgan fanlarni ijtimoiy ijodiy faoliyat shakllari bilan bog'lash imkonini beradi. M.Gorkiy ushbu jarayonning ahamiyatini ta'kidlab, shunday degan edi: "Bilish kerak, lekin shunchaki bilish uchun emas, balki o'rganib, amaliyotda qo'llash uchun".

Talabalarning bilim darajasini hisobga olish ta'lim mazmunini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, zaruriy ko'nikmalarni majmuaviy rivojlantirishga imkon beradi. Bunga quyidagilar kiradi:

Oldindan o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati,

Rejaga muvofiq harakat qilish malakasi.

S.L.Rubinshteyn ta'kidlaganidek, ta'lim jarayonining mazmuniy va shaxsiy omillari, xususan, motivatsion jihatlari "shaxsning oldida turgan vazifalarga nisbatan munosabatini shakllantiradi". Shu bois, ijodiy salohiyat – bu ijtimoiy-madaniy faoliyatning ma'lum turiga mos keladigan psixologik xususiyatlar majmui bo'lib, talabaning eng dinamik jihatlari

namoyon etadi. Ushbu xususiyatlar talabaning konkret faoliyat turlarida amalga oshishiga yordam beradi.

Amaliy hayotda o'quv fanlari turli omillar zanjiri bilan bog'langan holda talabaning xotirasida o'zaro uzviy bog'liq tarzda shakllanadi. Talaba muayyan bir fan yoki hodisaga duch kelganida, assotsiativ aloqa orqali unga bog'liq bo'lgan boshqa fanni ham eslashi mumkin. Har bir inson hayotida shunday holatlar uchraydiki, u ilgari bevosita ishtirok etgan voqea tafsilotlarini butunlay unutadi. Biroq, unga shu hodisada ishtirok etgan shaxs yoki muhim bir tafsilotni eslatish kifoya – natijada, ushbu voqea batafsil xotirada jonlanadi. Shu sababli, pedagogika fakultetida o'quv jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan faktlar, hodisalar va voqealar tizimining shakllanishi hamda talabalarining avval o'zlashtirgan bilimlarini tez va aniq eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishga bog'liqdir. Ushbu qobiliyatning shakllanishida fanlararo aloqalar muhim rol o'ynaydi.

I.P.Pavlov talabalarida assotsiativ aloqalar shakllanish mexanizmini o'rganar ekan, barcha psixik faoliyatni, jumladan, oliy intellektual jarayonlarni ham assotsiativ mexanizmlar bilan bog'liq deb tushuntirgan. Uning fikriga ko'ra, tafakkur jarayoni ham assotsiativ aloqalarga asoslangan. “Bizning aqliy faoliyatimiz, - deb yozgan I.P. Pavlov, - avvalo, uzoq zanjirli stimullarga asoslanadi, ya'ni assotsiatsiyalar tizimi orqali shakllanadi”.

Ushbu yondashuv fanlararo bog'lanishlarning ahamiyatini yanada ochib beradi va talabalarining o'zaro bog'liq bilimlarni mustahkamlash, idrok qilish va amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi.

L.S.Vigotskiy tajriba asosida shuni isbotladiki, ilgari amalga oshirilgan tafakkur faoliyati yo'qolib ketmaydi va yo'qqa chiqmaydi, balki keyingi fikrlash jarayonining zaruriy sharti sifatida integratsiyalanadi. Demak, fanlararo bog'liqlikning zaruriyati tafakkurning o'z tabiatidan kelib chiqadi. Bu zaruriyat yuqori asabiy faoliyatning obyektiv qonunlari, shuningdek, psixologiya va fiziologiya qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Fanlararo bog'lanishlarning psixologik asoslarini ishlab chiqishda professor Y.A.Samarin katta hissa qo'shgan. U shuni isbotladiki, assotsiatsiyalar tafakkur jarayonining asosiy tamoyili sifatida talqin qilinishi lozim. Uning fikricha, mahalliy assotsiatsiyalar – ya'ni talabaning dastlabki bilim bosqichidagi bog'liqliklar turli hissiy tajribalar va ularning izlari asosida shakllanadi. Bilimlarni o'zlashtirishda quyidagi bosqichlar kuzatiladi: mahalliy assotsiatsiyalar; qisman tizimli assotsiatsiyalar; ichki predmetli assotsiatsiyalar; predmetlararo assotsiatsiyalar.

Xulosa. Shunday qilib, fanlararo bog'liqlikning shakllanishi talabalarining tafakkur qobiliyatini yanada rivojlantiradi, ularning oldindan bashorat qilish va yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyatini oshiradi, shuningdek, ijodiy tafakkur va tahliliy yondashuvni rag'batlantiradi.

Fanlararo bog'liqlik oliy ta'lim muassasalari talabalarini shaxsining ijodiy salohiyatini ochib berish imkonini yaratadi. Bu jarayon esa talabaning har tomonlama rivojlanishi, umumiy va maxsus qobiliyatlarini yaxlit tizimda shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy salohiyatni rivojlantirish quyidagi asosiy aspektlar bilan bog'liq: raqamli texnologiyalarni qo'llash; raqamli texnologiyalarini joriy etish; smaliyotga tatbiq qilish. Bu yondashuv ijodiy salohiyatni zamonaviy texnologiyalar va ijodkorlikni rivojlantirish orqali takomillashtirishga imkon beradi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonini to'g'ri tavsiflash uchun uni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tashqi va ichki omillar majmuasi bilan belgilangan yaxlit tizimli jarayon sifatida tasvirlash zarur. Tashqi omillar oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy salohiyatiga tashqaridan ta'sir qiluvchi shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi. Ichki omillar talabalar shaxsining mohiyatli xususiyatlarini ifodalaydi va uning ijodiy salohiyati hamda kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga bevosita ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Хуторской А.В. Современная дидактика: Учебник для вузов.- СПб.: Питер, 2001.- 544с.
2. Мясищев В.Н. Психология отношений: избр. психол. тр. / В.Н. Мясищев. - М.: Изд-во «Институт практической психологии», Воронеж: НПО «МОДЭК», 1995.-356 с.
3. Выготский Л. С. Педагогическая психология. М.: Педагогика, 1991. 580 с.- 264
4. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии: в 2-х т. / С.Л. Рубинштейн. - М.: Педагогика, 1989. - Т. 2. - 328 с.
5. Бердиева , Г. (2025). АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД-КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ КУЛЬТУРЫ ЦЕННОСТНОГО ОБЩЕНИЯ. Предпринимательства и педагогика, 4(2), 154–161. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/entrepreneurship-pedagogy/article/view/81201>
6. Berdiyeva Gulabad Shonazarovna. (2024). USE OF VIEWS IN THE HISTORY OF NATIONAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE THINKING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(3), 164–167. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6555>
7. Бердиева, Г. Ш. Гуманизация процесса профессионально-педагогической подготовки будущих учителей / Г. Ш. Бердиева, Н. И. Джумаева. - Текст : непосредственный // Образование и воспитание. - 2015. - № 3 (3). - С. 1-2. - URL: <https://moluch.ru/th/4/archive/9/143/> (дата обращения: 02.06.2025).
8. Berdieva Gulobod Shonazarovna. (2023). Formation of an Analytical Attitude to Information Among Students. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 17, 71–73. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/3408>

Axmedova Gavhar Faxriddinovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

KREATIV KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI (BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI MISOLIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada kreativlik tushunchasining mazmuni, mohiyati va uning nazariy-metodologik asoslari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Inson tafakkuri va tasavvurining o'ziga xos jihatlari, fikrlash shakllari hamda ularning ijodiy faoliyat bilan o'zaro bog'liqligi yoritib berilgan. Tadqiqotlar davomida kreativlikni rivojlantirishning psixologik va pedagogik omillari, shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirish usullari tahlil qilingan. Ayniqsa, bugungi zamonaviy pedagoglarning o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli alohida ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, kreativ yondashuvning ta'lim samaradorligiga ta'siri, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida kreativ sifatlarining ahamiyati va ijodiy tafakkurni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari haqida ilmiy mulohazalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodkorlik, ijodiy tafakkur, kreativ sifatlar, ta'lim, metod, pedagogik yondashuv.

Abstract. This article analyzes the content, essence and theoretical and methodological foundations of the concept of creativity from a scientific point of view. The specific aspects of human thinking and imagination, forms of thinking and their relationship with creative activity are highlighted. During the study, psychological and pedagogical factors of creativity development, as well as methods of forming creative thinking in the modern educational process, are analyzed. In particular, the role of modern educators in the formation of independent and creative thinking skills in students is highlighted. At the same time, scientific considerations are put forward about the impact of a creative approach on educational effectiveness, the importance of creative qualities in the personal development of students, and mechanisms for supporting creative thinking.

Key words: creativity, creativity, creative thinking, creative qualities, education, method, pedagogical approach.

Аннотация. В данной статье анализируются содержание, сущность и теоретико-методологические основы понятия креативности с научной точки зрения. Выделяются специфические аспекты человеческого мышления и воображения, формы мышления и их связь с творческой деятельностью. В ходе исследования анализируются психолого-педагогические факторы развития креативности, а также методы формирования творческого мышления в современном образовательном процессе. В частности, выделяется роль современных педагогов в формировании навыков самостоятельного и творческого мышления у учащихся. Одновременно выдвигаются научные соображения о влиянии творческого подхода на эффективность образования, значении творческих качеств в личностном развитии учащихся, механизмах поддержки творческого мышления.

Ключевые слова: креативность, креативность, творческое мышление, творческие качества, образование, метод, педагогический подход.

Kirish: Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, ularda mustahkam axloqiy qadriyatlarni, mustaqil fikrlashni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz." [1]. "Kreativlik" deganda, shaxslarning o'ziga xos g'oyalarni yaratish va innovatsion qarorlar qabul

qilish qobiliyatini chuqur anglash jarayoni tushuniladi. Bugungi kunda ta'limga qo'yiladigan asosiy talab ma'lum chegaralardan chiqib ketadigan, nostandart qarorlar qabul qila oladigan, yangilik bilan ajralib turadigan maxsulotlarni yaratadigan ijodiy shaxsni rivojlantirish ekanligi bilan bog'liq.

Nazariy tahlillar. "Kreativlik" tushunchasiga ta'rif berishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, biz kreativlikni tushunishni tarixiy-falsafiy tahlilida inson ijodiy faoliyatining alohida hodisasi sifatida ko'rib chiqishni zarur, deb hisoblaymiz. Ijod muammosi, uning ko'p qirraliligi va uni tushunish, talqin qilishda plyuralizm mavjudligiga imkon beradi. "Ijodkorlik" so'zining etimologiyasiga murojaat qiladigan bo'lsak, "kreativ" inglizcha "creative" – "ijodkor", "yaratuvchi" so'zlardan olingan. Ushbu tushunchalar fransuz va nemis tillarida ijodkor va kreativlikni belgilash uchun turli xil leksik birliklar ham mavjud, fransuz tilida "oeuvre" (ijodkorlik), "creative" va "schaffen" (ijodkorlik) va nemis tilida "kreativität", ya'ni "ijod" va "yaratish" tushunchalari qarama-qarshidir.

Lug'atlarda biz ijodkorlikning quyidagi ta'riflarini uchratamiz:

-sifat jihatidan yangi, ilgari hech qachon bo'lmagan narsani yaratuvchi faoliyat[2];

-loyihalash va amalga oshirish orqali yangi madaniy va moddiy qadriyatlarni yaratish:[3]

-ma'naviy va moddiy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan inson faoliyati -yangilik, takomillashtirish, boyitish, rivojlanish elementlari bilan singdirilgan faoliyat ko'rib turganimizdek, kreativlik va ijodkorlik ta'riflarida fikrlashning moslashuvchanligi, yangi narsalarni topishga intilish, naqshlarni yengish qobiliyati kabi ba'zi fikrlar bir-biriga to'g'ri keladi, bu, albatta, hodisalarning birlashgan tabiatidan dalolat beradi.

- "Ijodkorlik" va "kreativlik" mazmunining qarama-qarshiligi, umumiy ma'noda, quyidagicha ifodalanishi mumkin:

-ijodkorlik – sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchi inson faoliyati jarayoni;


-kreativlik – bu shaxsning xususiyatlari, uning tubdan yangi g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

- kreativlik – bu insonning g'ayrioddiy g'oyalarni yaratish, an'anaviy fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan original echimlarni topish qobiliyati;

- ijodkorlik – muammoning individualligini ta'kidlab, uning yangi echimlarini topish qobiliyati.

- Ijodkorlik ruh va ongning ichki faoliyatini nazarda tutadi, uning natijasi jamiyat taraqqiyotining barcha keyingi bosqichlarida fan va madaniyatda muhim hodisaga aylanishi mumkin bo'lgan narsaning yaratilishidir. Kreativlik sifatлари quyidagi rasmda o'z aksini topgan

Tadqiqotchi Z.Raximovning ta'kidlashicha, "odatda kreativlik o'quvchilarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi"[4]. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur, degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:



-ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;


- o'quvchilarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- o'quvchilarning tomonidan mustaqil faoliyatning tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

-o'quvchilarning qiziqishlariga e'tibor qaratish". "Kreativ" so'zing ma'nosi yangilik yaratish ijod qilish degan ma'noni anglatadi.

Shunday ekan ijodkorlik hisini yosh kelajak avlodda uyg'otish albatta ularni tarbiyalayotgan, ta'lim berayotgan insonga bog'liq. Ijodiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san'atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko'nikma va qobiliyatlar ham zarur bo'ladi. Masalan, san'at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog'lik buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqida e'tirof ham talab etiladi. Aksincha, kichik yoxud kundalik kreativlik (masalan, fotojurnalda rasmlarni mahorat bilan joylashtirish; oziq-ovqat qoldiqlaridan yangi taomni hosil qilish yoki ishxonadagi murakkab muammoga ijodiy yechim topish kabi) ijodiy fikrlashga qodir deyarli barcha insonlarga zarur.

Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortiga tushishi rost, lekin u ayni damda universal va fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Kreativ fikrlash testlarining birinchi avlodi domenning umumiyliigi, ya'ni har qanday sohada iijodkorlikning umumiy xususiyatlari mavjudligi haqidagi g'oyaga asoslangani kabi tadqiqotchilar ijodkorlikni baholaydigan sinovlarda shaxsning natijalari umumiyashtirilishi mumkinligini, bir sohada i kreativlik ikkinchi sohaga ham o'tkazilishi mumkinligini taxmin qilganlar. Ushbu tadqiqotlar yo ijodkorlik uchun zarur bo'lgan qobiliyat va ko'nikmalar domenga bog'liq bo'lib, domendan domenga ajralib turishini ta'kidlamogda, yoki ikki yondashuvning qisman jamlagan ijodkorlik modellarini taqdim etmogda. "Domen" deganda san'at, adabiyot, tarix yoki astronomiya kabi ilmning har qanday muayyan sohasi yoki muayyan ilm sohasi asosida yotadigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan reprezentatsiyalar turkumi tushuniladi.

Tadqiqotchilar kreativlikning turli ko'rinishlarini tasniflash jarayonida uning asosiy domenlarini aniqlab berishgan. Ular qatoriga kundalik kreativlik, ya'ni shaxsning oddiy hayotiy vaziyatlarda noodatiy va samarali yechim topa olish qobiliyati; ta'limiy kreativlik, ya'ni o'quv jarayonida mustaqil fikrlash va bilimlarni yangicha shaklda qo'llay olish ko'nikmalari; harakatga oid kreativlik, ya'ni jismoniy faoliyatda innovatsion yondashuvni amalga oshirish; ilm-fanga oid kreativlik, ya'ni yangi nazariyalar, metodologiyalar yoki texnologik kashfiyotlarni yaratishga yo'naltirilgan ijodiy qobiliyat; hamda san'atga oid kreativlik, ya'ni badiiy ifoda va estetik yaratuvchanlik kiradi.



Ijodiy faoliyat shuningdek ikki yirik turga – “san’atkorlik” va “ilmiy” yo‘nalishlarga ajratiladi. Ularning ichida ijodkorlik uch umumiy sohaga bo‘linadi: verbal ijodkorlik (nutq va yozuv orqali yangi g‘oyalarni ifodalash), san’atkorlik ijodkorligi (badiiy shaklda yangilik yaratish), hamda muammoni hal qilishga qaratilgan ijodkorlik (amaliy va nazariy masalalarda nostandart yechim topish).

Amaliy tadqiqotlarning batafsil tahlili shuni ko‘rsatadiki, matematika sohasi ijodiy faoliyatning boshqa yo‘nalishlaridan yaqqol ajralib turadi. Chunki matematik tafakkur nafaqat mantiqiy qat’iylilikni, balki yuqori darajadagi abstrakt fikrlashni, model yaratish qobiliyatini va yangicha teorematik konstruksiyalarni ilgari surishni talab qiladi. Shu bois, matematika ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ijodiy tafakkurning eng murakkab va o‘ziga xos sohasi sifatida baholanadi.

Shaxsning ijodiy faolligi samarali bo‘lishi uchun to‘rt zaruriy tarkibiy qism mavjud:

1. Sohaga bog‘liq qobiliyatlar – aniq bir faoliyat turini egallash uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.
2. Kreativlikka oid jarayonlar – noodatiy fikrlash, assotsiatsiyalar qurish, muammoni turli burchaklardan ko‘rib chiqish kabi kognitiv mexanizmlar.
3. Motivatsiya – ijodiy faoliyatni davom ettirish, maqsad sari intilish va ichki qiziqish.
4. Qulay sharoit – tashqi muhit, ijtimoiy va madaniy omillar, qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik va psixologik atmosfera.

Shu asosda aytish mumkinki, kreativlik faqat shaxsiy iste’dod bilan emas, balki ijtimoiy-madaniy muhit, psixologik motivatsiya va bilimlarni qo‘llash imkoniyati bilan chambarchas bog‘liq kompleks hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va tavsiyalar: Yuqorida keltirilgan ilmiy dalillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Kreativ tushunchasi shaxsning o'zini o'zi anglash nazariyasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini anglash genetik, individual va shaxsiy salohiyatini ochib berishga qaratilgan adekvat sa'y-harakatlarni qo'llash orqali shaxsning muvozanatli, uyg'un rivojlanishini anglatadi. O'z-o'zini anglash jarayoni va natijasining barqarorligi va adekvatligi o'z-o'zini anglash uchun qo'llaniladigan strategiyalar bilan bog'liq. Shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasida biz uzoqni ko'zlagan rejalar va prognozlariga asoslanib, shaxsning o'zini o'zi anglash jarayoni, uning hayotiy ma'nosi va qadriyat yo'nalishlarini anglash orqali insonni boshqarish jarayonini tushunamiz. O'z-o'zini amalga oshirish strategiyasini tanlashni o'rganish ikki jihatni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Birinchi jihat, mazmunli, qiymat-semantik va motivatsion shakllanishlarni, shuningdek, shaxsning o'zini o'zi boshqarish tabiatini o'z ichiga oladi. Ikkinchi jihat, shaxsning o'zini o'zi anglash o'chog'i, tegishli strategiyalarni tanlash uchun yo'naltirilgan asos sifatida, semantik va vaqtinchalik istiqbol, shaxsiyat yo'nalishi, o'ziga munosabat va sub'ektiv nazorat kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini anglash strategiyasini tanlash noaniqlik sharoitida amalga oshiriladi, uni bartaraf etish, birinchi navbatda, ijodiy xususiyatlarning o'ziga xos jihatlariga bog'liq.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim – tarbiya va ilm – fan sohalarini rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son farmoni.
2. Педагогика: термин, понимание, определение: слов.-довид. За заг изд. Граммы. В. Ложкина. Луцк: Волын. нац. Как дела Киев, 2011. 188 с.
3. A.A.Ismoilov, X. J.Daminov Z.A.Kosimova G.A.Primov "Kreativ fikrlashni baholash". Toshkent-2021.
4. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar" o'quv qo'llanma 2013 y
5. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma– T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005-yil.
6. Axmedova M.E. Meliboyeva R.N. Bekmirov T.R.Nurmatov A.N.Kasbiy pedagogika. Darslik. "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ. Toshkent - 2022. 250 bet.

MUNDARIJA:

13.00.00 - PEDAGOGIKA			
Familiya I.Sh.		Mavzu	Bet
Xudayberdieva Arofat Isroilovna		Kimyoviy texnologiyada fizika fanining ahamiyati va innovatsion yondashuvlar	5
Mo'minov Ilxomovich	Feruzjon	12-13 yoshli futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik davrini rejalashtirish modeli	14
Adizova Quvondiq qizi	Nilufar	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbga qiziqtirish elementlarini joriy etishning samarali metodlari	21
Shaniyazov Rashidovich	Ilxam	Ananalysis of the practical implementation of tactical attacking strategies	26
Sayfiyev Xayrullayevich	Hikmatullo	Boshlang'ich tayyorlov bosqichida sport gimnastikachilarning moslashuvchanligini shakllantirish omillari va ularning o'zaro bog'liqligining nazariy tahlili	28
Ismoilov Sobirjanovich	Umidjon	Fizika laboratoriya mosh g'ulotlarida metodik ta'minot va resurslardan samarali foydalanish hamda natijadorlikni baholash mezonlari	36
Samadov Sodikovich	Sardor	Talabalar kasbiy faoliyatida jismoniy tarbiya va sortning roli	40
Saidova Gadoymurodovna	Zilola	Pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim integratsiyasini takomillashtirishning shakl, usul va vositalari	47
Rajabov Erkinovich	Eldor	Ai-based support for developing and expressing ideas for students in efl classes	55
Latipov Muxiddinovich	Abdulatif	Yoshlar gandbolida trenirovka jarayonlarini rejalashtirishning yangicha yondashuvlari	59
Ergashev Olimjon o'g'li	Baxodir	Bo'lajak tarix o'qituvchilarining pedagogik kreativligini triz texnologiyalari orqali rivojlantirish	66
Bazarov Ne'matovich	Xayotbek	Talabalarda kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish texnologiyasi	70
Xoliqova Gulhayo qizi	Qosim	Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida talabalarni mustaqil ta'limga yo'naltirish metodlari	75
Umorova Odilbekovna	Dilnoza	Talabalarning kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	85
Safayeva Diyora qizi	Hamid	Pedagogik yondashuv asosida talabalarda ijtimoiy mas'uliyat xissini rivojlantirishning metodik jarayon modeli	90
Xudaynazarov Egambergan Madrahimovich		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda integratsion faoliyatdan foydalanish	96
Davletov Yusubovich	Erkaboy	O'quvchilar hayotiy kompetensiyalarini baholash indikatorlari va mezonlar	102
Azimov Azim o'g'li	Muxammadi	Globalashuv sharoitida tarixga dahldorlik tuyg'usi orqali g'oyaviy ekspansiyalarga qarshi kurashning metodik asoslari	107
Odilova Isoqovna	Sarvinoz	Media texnologiyalaridan foydalangan holda fizika darslarini o'qitishda o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish	112

Hamdamova Tursunovna	Mahzuna	Talabalarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish	117
Shukurov Salimovich	Rahim	Talabalarining jismoniy tayyorgarligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar	121
Sharipov Doston o'g'li	Hasan	Harbiy haydovchilar kasbiy tayyorgarligini tashkillashtirishdagi evolutsion tarixiy tajribalar	127
Beknazarova Sobir qizi	Feruza	O'quvchilarni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini loyihalash	135
Qarshiboyev Akrom o'g'li	Asliddin	Ko'zi ojiz o'quvchilarning ijtimoiy hayotga integratsiyasida kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati	140
Sodiqova Turayevna	Nigora	Oliy ta'limda iqtisodiy bilimlarni o'qitishda talabalar texnik tafakkurini rivojlantirishning samarali yondashuvlari	146
Qurbonov Jo'rayevich	Abdumalik	Dukkakli ekinlar donlarini ajratishda energoeffektiv uskunalarni ishlab chiqish va ularning ish rejimlarini tahlil qilish	153
Sanayev Shermuxamedovich	G'ayrat	Harbiy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik jihatlari	158
Begmatova Safarbayevna	Nasiba	O'quvchilarda milliy tuygularni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	162
Zaripov Rustamovich	Lochin	Texnologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning tarixiy asoslari va hozirgi holati	170
Zaripova Sevara qizi	Erkin	Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining dizayn kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion yondashuv	175
Tasimov Zoirjanovich	Nurmaxan	Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida tinglovchi (kursant)larni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari	179
Ismatova Sayyora qizi	Sobir	Sharq mutafakkirlarining ta'limoti asosida o'quvchi-yoshlar axloqiy tarbiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	183
Kamalova Tairovna	Dilobar	Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	188
Berdiyeva Shonazarovna	Gulobod	Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish shart-sharoitlari va aspektlari.	192
Axmedova Faxriddinovna	Gavhar	Kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari (boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida)	198



**“TA’LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR”
XALQARO ILMIY METODIK JURNALI UCHUN
MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“Ta’limda istiqbolli izlanishlar” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “Ta’limda istiqbolli izlanishlar” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo’lgan asosiy talablar:

✚ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;

✚ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro’yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 3-8 betgacha;

✚ maqola nomi, annotatsiya (50-60 ta so’z) va tayanch

so’zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida mavzu, muallifning F.I.O. (to’liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo’lsa, ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko’rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro’yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o’ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo’lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to’liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro’yxatda ko’rsatiladi. Matn ichidagi ko’chirmadan so’ng iqtibos olingan asarning ro’yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o’rinda kitob, to’plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to’liq nomi, nashr ko’rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko’rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko’rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo’lsa, barcha savol va e’tirozlar bo’yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo’lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko’chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o’zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko’rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o’zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko’rib chiqilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-fevral kuni № 622042-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko'chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90

Ta'limda istiqbolli izlanishlar //xalqaro ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2025. № 8-son, 2-Qism. B.206